

681
016

S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva,
Sh.Sh Yuldasheva, Y.B.Eshmatova

**O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI TA'LIMIDA
ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI**

**"Excellent Polygraphy"
Toshkent – 2020**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva,
Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
TA'LIMIDA ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligi oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
nashrga tavsiya etgan**

Bakalavriat yo'naliishi: 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili), 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti

**Toshkent
«Excellent Polygraphy»
2020**

UO'K: 811.512.133:004(075.8)

KBK: 42.143ya73

O'-16

O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari [Matn] / O'quv qo'llanma, S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, -T.: "Excellent Polygraphy", 2020. --264

"O'zbek tili va adabiyoti ta'lindida zamonaviy axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmasida o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrant, tadqiqotchi va o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir – prof. I. Yo'ldoshev

Taqrizchilar: S.Adilova, N.Abduraxmonova

UO'K: 811.512.133:004(075.8)

KBK: 42.143ya73

ISBN 978-9943-993-62-4

© "Excellent Polygraphy", 2020.

KIRISH

Mazkur qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2016-yil 25-avgustda tasdiqlangan 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish, 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr yo'nalishlari uchun narmunaviy o'quv dasturi (tuzuvchilar: Muhamedova S.X., Adileva S.) asosida 19 mavzu (modul) bo'yicha qo'llanma sifatida tayyorlandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimiga, ta'limning barcha turlarida o'quv tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini orttirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-sentabrdagi PF-3501-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 21-fevraldagi 12-son bayoniga asosan "Elektron ta'lim" Milliy tarmog'ini tarkib toptirish loyihasi doirasida Oliy va o'tta maxsus ta'lim vazirligi tizimida "Elektron ta'lim" tarmog'i shakllantirilgan. Bunday tarmoq Xalq ta'limi vazirligi tizimida ham mavjud. Ushbu tarmoqlar kontentini boyitishda elektron ta'lim resurslari qamrovini kengaytirish muhim ahamiyat kash etishini ta'kidlash o'rindidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmonida ham "Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'limi maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish" borasida ulkan vazifalar qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 14- yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizning 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika Hukumatining 2017- yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisda qilgan ma'rurasida: "Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va

jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda yechilgani yo'q. Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lif olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur” – deb ta'kidladilar¹. Bu muammoni hal qilishda kompyuter va axborot texnologiyalarini yanada mukammal o'rganish, ulardan dars jarayonida unumli foydalanishga ehtiyoj ortadi. Xususan, bo'lg'usi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlashda o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasiga muhim o'rinni ajratiladi. O'zbek tili va adabiyoti ta'limalda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishda talabalarga o'quv mashq'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar, o'zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslar va ularga qo'yiladigan talablar, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma'lumot berish talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishga asos bo'ladi.

Mazkur fan Siz – talabalarga pedagogik amaliy dasturlar haqida ma'lumot berish, til va adabiyot ta'limi uchun elektron adabiyotlar yaratish, mashq va topshiriqlar, testlar, boshqotirmalar tuzish jarayonini o'rgatishga yo'naltirilishi orqali ta'lif jarayonini axborotlashtirishni jadallashtirishda dolzarblik kasb etadi. “O'zbek tili va adabiyoti ta'limalda zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasini o'rgatishga yo'naltirilgan.

Fahni o'qitishdan maqsad bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlarga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasи. 2017- yil 16 -yanvar.

texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o'zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo'yiladigan talablar to'g'risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma'lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarini, ijodiy va texnologik madamyatni shakllantirishdan iborat.

"O'zbek tili va adabiyoti ta'limalda zamonaviy axborot texnologiyalari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- ta'limalda axborot texnologiyalari bo'yicha tayanch tushuncha va atamalar;
- axborot-ta'lim muhitining tarkibi va tuzilishi;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishida jahon tajribasi;
- axborot texnologiyalari dunyosida ilmiy va ta'limiy tadqiqot ishlarining islohotiari haqida **tasavvurga ega bo'lishi** lozim;
- ta'limalda axborot texnologiyalarini tatbiq etishning ahamiyati; axborot texnologiyalari sohasida innovatsion baholash; masofaviy ta'limni rivojlantirish sohasida asosiy loyihalar; axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyat; ta'lim jarayonida interaktiv doska haqida **bitishi** va ulardan foydalana olishi kerak;
- zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish; multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi kerak;
- o'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish; elektron ta'lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim

xizmati aridan ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish o'qituvchini ta'lif jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Multimedia ilovalarining vujudga kelishiда mashg'ulotlar ssenariylarini yaratishda fan o'qituvchilari faoliyat ko'rsatishayotgan bo'lsa, texnik jihatdan kompyuter dasturchilari, audio-video muhandislar ijodkorligi muhim ahamiyatga ega. Nazarimizda, elektron adabiyotlarni yaratishni jadallashtirish muainmosini hal qilish, avvalo, soha olimlari, metodistlar va fan o'qituvchilarining pedagogik dasturiy vositalar bilan yetarlicha tanish bo'lishi, pedagogik dasturiy vositalarni ona tili ta'limi jarayoniga tatbiq qilishga doir metodik ko'rsatmalar tayyorlanishiga bog'liq bo'imoqda. Muamino atrofida kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilishi, tajribali fan o'qituvchilari, talabalar, magistrantlarning jalb qilinishi hamda til o'qitishda ta'lif samaradorligiga yordam beradigan taqdimotlar, videodarslar, interaktiv mashqlar, test topshiriqlari, lug'atlardan namunalar tayyorlanishi taqozo qilinadi. Bu esa o'z navbatida **Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suit** va boshqa amaliy va mualliflik dasturlari imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Ta'linda axborot texnologiyasi – bu "**o'quvchi – kompyuter**" o'rtaсидаги muloqotdir, o'qituvchi esa – uni boshqaruvchi. Zamonaviy axborotlarga boy materiallar, vositalar bilan darsni boshqarish o'qituvchi mehnatini samarali qiladi.

Sizga taqdim qilinayotgan ma'ruza materiallari pedagog kadrning pedagogik va texnologik kompetentligiga qo'yilgan talablar va o'qituvchining amaliyotda foydalana olish imkoniyatlari nazarda tutilgan holda tayyorlangan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda respublikada va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fan, telekommunikatsiya texnika va texnologiyalarning qc'liga kiritilgan ilmiy yutuqlari hamda zamonaviy axborot texnologiyalari haqidagi ma'lumotlar, jumladan Peter Walletning "Information and communication technology in education in Asia", M.M. Aripov, J.U. Muxammadiyevlarning "Informatika. Axborot texnologiyalari", S.Adilovaning "O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish",

U.Sh.Begimqulovning “Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari”, Sh.Yusupova, O.G’oziyevalarning “Ona tili o’qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi”, A.Abduqodirov, A.Xayitovlarning “Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati”, A.Po‘latov, S.Muhamedovalarning “Kompyuter lingvistikasi” kabi asarlaridan foydalanildi.

1-MODUL: TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ORNI

1.1. Ta'limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar

Ma'lumki, **texnologiya** (techne) so'zi grek tilidan tarjima qilinganda *san'at*, *mahorat*, *bilish* ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar – bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir.

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsulot) holati haqida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun foydalanadigan ma'lumotlarni (birlamchi) yig'ish, ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullari majmuasidir.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi – bu zamonaviy kompyuterlar va telekomunikatsion vositalaridan foydalanadigan, foydalanuvchi ishlashi uchun «do'stona» interfeysga ega bo'lgan axborot texnologiyasi demakdir.

Mazkur fanni o'rganishga kirishishdan oldin ta'limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan tanishish muhim o'rinni tutadi. Dastlab "Me'yoriy-huquqiy hujjat" atamasini mohiyatini anglab olishga harakat qilamiz¹.

Me'yoriy-huquqiy hujjat (normativ-huquqiy hujjat) deb normativ hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdar shaxslar hisoblanadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari.

¹"Ta'lim va tarbiya jarayonlarining qonunchilik normalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchilar: . V.Topildiev, Sh.Fayziev, O.Narzullaev. – Toshkent, 2015.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari.
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlardir va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuyini tashkil qiladi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farinoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega" ekanligi qayd qilingan. 42-moddada esa: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi", – deb ko'rsatilgan bo'lsa, 67-moddada: "Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tattibda javobgardirlar", – deb belgilangan¹.

Kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqidir. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash" zarurati e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

¹ Узбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Узбекистон, 1992. – 34 б.

O'zR Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" 2002-yil 30-maydagi PF-3080-son Farmoni iqtisodiyotning turli tarmoqlari, boshqaruv, biznes, fan va ta'lif sohalariga axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining turli qatlamlariga zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng foydalanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kompyuterlashtirish va AKTni rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etildi.

Sohada tashkiliy o'zgartirishlar amalga oshirildi:

- O'zA, AKTni rivojlantirish Jamg'armasi, TATU tashkil etildi;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bojxona va soliq imtiyozlari belgilandi;
- Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish Markazi -UZINFOCOM tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" (2000-y.), "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" (2002-y.), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (2005-y.), "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lif axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida" (2005-y.), "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" (2006-y.) Farmonlari va Qarorlari iqtisodiyotning turli tarmoqlari, boshqaruv, biznes, ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda fan va ta'lif sohalariga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirdi. Shu tariqa mamlakatimizdagi ta'lif-tarbiya sohasidagi islohotlar ta'lif jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish masalasiga uzviy bog'landi.

2005-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining jamoat

ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvosiq "Ziyonet" jamoat axborot ta'lim tarmog'i tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasining "2002 – 2010-yillarga mo'ljallangan o'rta ta'lim tizimini axborotlashtirish dasturi" to'g'risidagi qarori asosida Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 9-iyundagi buyrug'iga asosan 2 – 4-sinflarda maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan haftasiga bir soatdan informatika darslarini tashkil etish belgilab berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar umumta'lim maktablari uchun darsliklarning multimedia ilovalarini foydalanishga 2-sinfданоq tayyorlanadi.

1.2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarinoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;
- uskunaviy dasturiy ta'minot;
- virtual matn konstrukturлари, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va h.k.;
- axborotlar majmuyi — ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;
- texnik ko'nkmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuyidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h.k.).

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirishga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarни kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarini internet tizimisiz amalga oshirish samaradorlikka erishishni ta'minlamaydi. Shuning uchun internet tarmog'idan foydalanish, fan uchun zarur materiallarni izlab topish, foydali **portallar, saytlar** haqidagi ma'lumotlar zarur bo'ldi.

Portal – bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog'i tuguni bo'lib, u:

- ko'p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishi;
- axborotlar ko'laming kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarini qo'llash;
- oson va samarali qidirish tizimining joriy etilishi;
- axborot resurslari integratsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- axborotlarni tabaqlashtirish;
- bilimlarni boshqarish-tahlil etish bilan tavsiflanadi.

O'zbekistondagi ta'lim sohasiga oid saytlar

<http://pedagog.uz> – Nizomiy nomidagi TDPUNing elektron kutubxona sayti

<http://book.uz> – Elektron adabiyot kutubxonasi.

<http://www.uzlib.uz> – UzLibrary elektron kitoblari. Kitoblarning elektron to‘plami. Bepul va hammabop.

<http://biblio-world.doira.uz> – Kutubxona, jahon kutubxonalarini, E-kutubxonalarini, kaleydoskop, axborot texnologiyalari va o‘quv zali sayti.

<http://citybook.uz> – elektron kutubxona, maktab, litsey va kollej hamda OTMlar uchun o‘quv adabiyotlari, davriy nashrlar joylashtirilgan.

<http://kutubxona.com> – O‘zbek adabiyoti elektron kutubxonasi.

<http://www.ilmiy-maqola.uz> – ilmiy maqolalar, metodik ishlannmalar va darsliklar sayti.

<http://tanlov.uz> – yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan grant, stipendiyalar tanlovi, aksiyalar va boshqa tadbirlar haqida ma’lumotlar sayti.

<http://www.e-tarix.uz> – O‘zbekiston tarixi, jahon tarixi, tarix faniga oid qiziqarli ma’lumotlar, interaktiv dasturlar va hokazolar.

<http://www.dissertant.uz> – dissertatsiyalar ustida ishlayotgan yosh olimlar, iqtidorli talabalar, magistrler, aspirantlar, doktorantlarga bag‘ishlangan portal.

<http://www.ebooks.uz> – elektron darsliklar dunyosi.

<http://fan.zn.uz> – Fan va texnika taraqqiyoti, konferensiya, seminarlar.

<http://www.englishclub.uz> – O‘zbekistondagi ingliz tilida gaplashuvchilar klubи. Forum, chat, maqolalar, yangiliklar.

<http://bobokhujaev.tfi.uz> – Bu saytda ko‘p qayta ishlangan informatsion o‘quv-metodik ma’lumotlar bazasi, moliya-iqtisod yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislik fanlarini o‘qitish, Fond va xalqaro tashkilotlar haqida ma’lumotlar mayjud.

<http://www.irex.org> – IREX dastur sahifasi. Bu dastur asosida ilmiy xodimlar, o‘qituvchilarga va mutaxassislarga ilmiy tekshirish ishlarini bajarish uchun tanlov asosida imkoniyatlar beriladi.

<http://www.undp.org> – Birlashgan Millatlar tashkiloti sahifasi.

<http://www.unesco.org> – YUNESKO tashkiloti sahifasi.

1.3. Elektron pedagogika tushunchasi¹

Elektron pedagogika axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan to'yingan (uyg'unlashgan) axborot ta'lif muhitida o'quv jarayonlarini o'rganish, bashoratlash va tavsiflash bilan shug'ullanadigan ilmiy yo'nalishdir.

Nima uchun bugungi kunda ta'lifda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyatga tatbiq etish zaruriyati paydo bo'ldi?

Birinchidan, o'qituvchining o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligi bo'lsa, **ikkinchidan**, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, tz'lim oluvchilarni ijtimoiy va kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta'lif tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta'lif sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lif muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashlariga ko'ra, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbasi bo'lib qoladi.

Elektron pedagogikaning asosiy maqsadi zamonaviy AKT muhitida o'qitish – ta'lif jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. **Elektron pedagogikaning predmeti** pedagogik tizim hisoblanadi.

1.4. Axborot-ta'lif muhitining tarkibi va tuzilishi

Axborot-ta'lif muhiti – yangi darajadagi pedagogik tizimdir. Axborot-ta'lif muhiti bu pedagogik tizim + uning ta'minoti, ya'ni moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy, boshqaruv va marketing tizimi.

Nazariy jihatdan butun axborot-ta'lif muhitining negizi aynan pedagogik tizimdan iboratdir. Pedagogik tizim quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'lifning

¹ Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш" модули бўйича ўкув-услубий мажмуа (гузувчилар: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Т.: 2015. – 11-67 б.

maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, o'qitish shakli, usuli va vositalar.

1.5. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati, muammolar va yechimlar

Respublikamizda boshqa ilg'or mamlakatlardan qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'limga faol foydalanishga kirishildi. Ammo, elektron ta'limga joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, u quyidagilardir:

- elektron ta'limga joriy etishga pedagogik jamoalarning yetarli tayyor emasligi;
- elektron ta'limga imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanimalarning kamligi;
- elektron ta'limga foydalaniladigan kompyuter texnologiyalarini vositalarining qimmatligi;
- elektron ta'limga bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi.

Elektron ta'limga joriy etish keng ma'noda ta'limga sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tatbig'iga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalarini samarali foydalanish va qayta ishlash amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaraladi.

Ba'zi xorijiy mamlakat tadqiqotchilari axborot texnologiyalarini ta'limga jarayoniga tatbiq qilishning salbiy jihatlarini ham ta'kidlaydilar. Xususan, yapon pedagogi S.Sudzuki: «Kompyuterli o'qitish, bir tomonidan, ta'limga oluvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomonidan esa bilimni mustahkam egallashni ta'minlay olmaydi», – degan fikrni bildiradi.

1. Zamonaviy axborot-ta'limga muhitida o'qitish nazariyasining mavjud emaslik muammosi. Hozirgi vaqtida o'qitishning mavjud bo'lgan nazariyasidan hech biri virtual ta'limga muhitida o'qitish uchun bevosita foydalanilishi mumkin emas. Elektron ta'limga nazariyasi va metodikasi o'ziga xos bo'lib, uni ilmiy tadqiq qilish va yaratish, tajriba-sinovlardan o'tkazish, ommalashtirish zaruriyati mavjud.

2. Optimallik muammolar. O'quv materialini psixologo-ergonomik taqdim etish, uning inson tomonidan qabul qilinishi, materialning matn shaklida, ovoz jo'rligida, video ko'rinishida yoki aralash taqdim etilishi bilan bog'liq muammolar.

3. O'qituvchi va o'quvchilarining zamonaviy axborot-ta'lismuhitiga kirishga tayyorlik muammosi. Ushbu muammo ta'limalarayoni ishtirokchilarini tayyorlashni o'z ichiga oladi, ya'ni ta'limalar beruvchilarining malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash masalalarini qamrab oladi.

4. O'quv jarayoni ishtirokchilarining kunduzgi ta'limga farqli ravishda muloqetning cheklanishi bilan yuzaga kelgan tarbiyaviy muammolar. Ushbu muaimmoning dolzarbliligi shubha uyg'otmaydi. Virtual ta'limga talabalar bilan tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilishga doir tadqiqotlar yetarli emas. Shubhasiz, zamonaviy axborot-ta'lismuhitida talabalarda bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish mumkin. Masofali ta'limga esa oddiy insoniy muloqotdan uzilgan holda mustaqil ish nazarda tutiladi.

5. Valeologik muammo. Valeologiya sog'liq, inson sog'lig'i to'g'risidagi fan hisoblanadi. "Valeo" so'zining o'zi (sog'lom bo'lish) birinchi marta 1980-yilda L.I.Bremannning asarlarida paydo bo'lgan. Har qanday jamiyatda inson sog'lig'i muhim o'rinda turadi. Texnik vositalarning ta'limga oluvchi salomatligiga salbiy ta'siri ta'limga jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning muammolaridan asosiyasi sanaladi, deyish mumkin.

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida ta'kidlash o'rinniki, o'zbekcha matn kompyuter ekranidan o'qilganda har doim ham imlo va punktuatsion xatolarni aniqlashning imkonini bo'lmaydi. Shu bois imlo va punktuatsion xatolarni aniqlash bilan bog'liq topshiriq va vazifalar belgilanganda buni hisobga olib qo'yish lozimdir. O'zbek tilida kompyuter orsfografiyasi va grammatikasi bo'yicha dasturlar yaratish borasida (rus, ingliz tillaridagi bunday dasturlarning afzalliklari bilan qiyoslab ko'ring.) yutuqlar sezilarsiz.

6. O'quv material sifati, o'qitish sifati va ta'lism standartlariga muvofiqligi muammolari. Muammolarning ushbu blokini sharhlarsiz qoldirish mumkin, chunki uning delzarbliligi va muhimligi yaqqol ko'rinish turibdi. Ushbu muammoni hal etish barcha qolgan muammolarni hal qilish mumkinligini bildiradi.

Sanab o'tilgan asosiy muammolarni hal etib bo'lmaydi deb qabul qilish mumkin emas. Shiddatli rivojlanayotgan axborot va telekommunikatsion texnologiyalar, internet tarmog'i orqali taqdim etilayotgan xizmatlar va imkoniyatlarning tez sur'atlarda rivojlanishi, amalda har kuni o'qitish jarayonida foydalilaniladigan yangi dasturiy

mahsulotlarning paydo bo‘lishi pedagoglar va psixologlar oldiga yangi masalalarni qo‘ymoqda. Shuning uchun ham bu ro‘yxat doimo o‘zgaradigan va kengayadigan muammolarning dinamik ro‘yxati deb qaralishi mumkin¹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Axborot texnologiyalari tushunchasiga izoh bering?
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nimani anglatadi?
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalardan ta’lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari va kelajagi haqida shaxsiy mulohazalaringizni bildiring.
- 4.Ta’limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar?
5. Axborot-ta’lim muhitining tarkibi va tuzilishi?
- 6.Ta’limda jarayonida qanday axborot texnologiyalari qo‘ilanadi?
- 7.Elektron ta’lim tushunchasi?

Mustaqil ish topshiriqlari. 1.“Zamonaviy axborot texnologiyalari kadrlar tayyorlash milliy modelini metodik va didaktik ta’minalash vositasidir” mavzusida internet materiallarini izlash, saralash va ma’ruza asosiy savollariga javoblarni to’ldiradigan ma’lumot tayyorlash. 2. Multimediyali dars uchun fan o‘qituvchisi taqdim qilgan mavzular bankidan muayyan mavzu tanlab loyiha yaratishga kirishish. Har bir ma’ruza va amaliy mashg‘ulotda tegishli topshiriqlarni bajarib borish.

Asosiy tushunchalar:

Axborot texnologiyalari (информационные технологии, information technology) – axborotni o‘zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig‘indisidan iborat.

Ta’limning informatsion texnologiyasi (информационные технологии обучения, Information technology of education) – pedagogik texnologiyaning maxsus turi bo‘lib, bunda maxsus dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio- va videovositalar, kompyuterlar, telekommunikatsion tarmoqlardan) foydalaniлади.

¹ “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv-uslubiy kompleks. – Toshkent, 2012 – 2013. – B.81.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari (средства современных информационных технологий, modern means of information technology) – kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intellekt tizimlari.

Adabiyotlar:

1. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
2. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. – T.: TDPU, 2006. - 96 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
4. Yusupova Sh., G‘ozieva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.
5. A. Okal A Global Simulation. The University of Arizona. – Tucson, CERCLL. 2012. – 87 p.
6. Jim Burke. The English Teacher’s Companion. – Heinemann; 4th edition. 2012. – 392 p.
7. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

- 1.www.Lex.uz
- 2.www.ziyonet.uz
- 3.www.yazikoznanie.ru

2- MODUL: PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

2.1. Ta'limi resurslarga qo'yiladigan didaktik talablar, psixologik talablar. Metodik talablar. Texnik talablar

Yetakchi professional konsorsium tavsiyalarini, Xalqaro standartlar va o'chiq spetsifikatsiyalar inobatga olinib, O'zbekistonidagi ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslariga (ETR) **umumiy texnik talablar** (UTT) ishlab chiqilgan. Mutaxassislar: metodistlar, fan o'qituvchilari "Elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalari elementlariga texnik, gigienik va ergonometrik talablar"ni o'rganib chiqishlari zarur¹.

Elektron ta'lim resurslari **pedagogik talablarga** (amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi), **psixofiziologik talablarga** (foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi), **metodik talablarga** (ta'lim beruvchiga darsni mustaqil dars ko'rinishida o'tkazishga sharoit yaratilishi, bu holatda ta'lim beruvchi maslahatchi roldida ishtirok etishini ta'minlash, darslarga tayyorgarlikni o'qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratish (dialog, videomateriallar kiritilishi), o'rganiladigan o'quv materiali sistemali, mantiqiy ketma-ketlikda, modullilik va ular orasida uzviy bog'liqlik ta'minlangan holda taqdim qilinishi, ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat tashkil qilish imkoniyati yaratilishi) javob berishi lozim.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobjiy omillar mavjud. Mazkur omillar **didaktik, psixologik, metodik va texnik** guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan **didaktik talablarga** quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarлilik, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birqalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning

¹ Электрон дарслик ва электрон укув қўлланмалари элементларига техник, гигиеник ва эргонометрик талаблар. – Тошкент, 2015. -- 25 б.

fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzlusizlik va yaxlitlik (iigari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqiligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqat (qat'iyiligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (faollik, yuqori darajadagi ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning kuchli motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi. o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamонавиј universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalar, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga «mijoz-server» arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlar joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalanlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiatsiyalash (tabaqlashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning

qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamонавиј усулларини јориј қилиш имконијатларини hisobga олишни ко‘зда тутади.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talabiarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o‘quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta’minlashi. Fanlararo mantiqiy o‘zaro bog‘liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta’lim oluvchiga o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

Multimediaviylikka qo‘yiladigan talablar:

Foydalanuvchi nuqtayi nazarida kontentning multimedialiylilik darajasi bu – kontentda predmet sohasini aks ettiruvchi obyekt va jarayonlarning turli usullari, tovushli va vizual, statik va dinamik komponentlarining mavjudligi hisoblanadi.

Ta’limiy bo‘lmagan sahnalar, ya’ni predmet sohani aks ettirmaydigan obyektlar (jarayonlar) multimedialiylilik darajasini aniqlashda inobatga olinmaydi. Bunga misol qilib tarkibida o‘quv kontenti mavjud bo‘lmagan boshlang‘ich (zastavka, vazifalar ni o‘rnatish), yakuniy (yakuniy natijani ko‘rsatish, navbatdagi modullarni ko‘rsatib, seans tugashini qayd qilish) va boshqa yordamchi ko‘rinishlarni keltirish mumkin.

ETRda foydalanilgan barcha matnli va audiovizual ma’lumotlar ochiq litsenziyalı bo‘lishi kerak. Ochiq litsenziyalı ma’lumot deganda, muallifning mualliflik huquqini buzmaydigan, erkin ko‘paytirilishi, tarqatilishi va modifikatsiyalanishi mumkin bo‘lgan ma’lumot tushuniladi.

Video ma’lumot yoki animatsiyadan tushunilishi qiyin bo‘lgan grafik yoki oddiy matnli ma’lumotlar bo‘limida foydalanish kerak. Video klip vaqt mashtabini o‘zgartirishi, tezlashtirilgan, sekinlashtirilgan holda taqdim etilishini inobatga олиш kerak

Video ma'lumotga statik video ketma-ketlik (grafika -- chizilgan tasvir va rasm) va dinamik ketma-ketlik (oddiy video – sekundiga 25 ga yaqin foto/kadr, kvazivideo – sekundiga 6 dan 12 gacha rasmli animatsiya).

Obyektning yorug'ligi va tiniqligi tasvirni aqniq idrok qilish imkonini berishi kerak. Tasvirning fonga nisbatan kontrastligini obyektning hajmini hisobga olgan holda tanlash kerak (hajm qancha kichkina bo'lsa kontrast shuncha yuqori bo'ladi).

Video chastotasini soniyasiga 25 kadr etib (frame rate) kodlashtirish (yozish) urnumiy talab hisoblanadi. Faqat aks ettiriluvchi voqealarning qisqa dinamikasida qayta tiklash chastotasining pasayishi mumkin. Bundan tashqari 2D/3D sintezlangan vizual ma'lumot uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- kadr o'chovi tasvirdagi "pirpirash" bartaraf etilgan holatda mantiqiy tarkibdan kelib chiqib tanlanishi kerak;
- pirpirash effektidan foydalanilganda element chastotasiga 1-3Gts atrofida kuch berish kerak;
- 3D tasvirlar uchun matn ko'rinishi sifati diqqat bilan tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

Tovushli ma'lumot turli analog va raqamli tashuvchilar, shuningdek original diktorylik matni, musiqa yozuvlaridan foydalaniladigan manbalardan hosil qilinishi mumkin.

ETRning ovozli fragmentlarida **quyidagi nuqsonlar** bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi:

- fondagi shovqin, chet tovushni keltirib chiqaradigan yot ovozlar;
- qayta ishlash va yozish jarayonidagi xatolar effektidagi signal bo'lishi;
- yakuniy yozuv past yoki baland chastotalarga ega bo'lishi;
- diktorylik nutqidagi bevosita nuqsonlar (duduqlanish, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilinishi va boshqalar);
- keng dinamik diapazon – nutq fragmentidagi past va baland tovush darajalari o'rtasidagi katta farq.

2.1-jadval.

Shrift turi va o'Ichovi

Ta'lim oluvchilar darajasi	O'Ichov	Shrift	Yozilish shakli	Satr orasidagi interval
Oliy ta'lim muassasalarini talabalar	12 dan kam bo'lmagan*	Courier Verdana	normal	ikkilangan

*Izoh: rangli fondan foydalanganda shrift o'Ichovini 2 keglga kattalashirish lozim.

Grafikaga qo'yiladigan umumiy talablar:

- Statik chizma va rasm, sxema, xaritalardan foydalanishda uning rangli palitrasni va masshtabini hisobga olish kerak.
- Tasvirlash uchun rang tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:
 - e'tiborni birinchi o'rinda qizil va ko'k ranglar, keyin sariq, yashil va oq ranglar tortishini;
 - maksimal aniqlik talab qiluvchi kichik grafik elementlarni bo'yashda ko'k rangdan emas, balki sarg'ish yashil, sariq va to'q sariq ranglardan ko'p foydalaniladi, ko'k rangdan esa grafik elementlarni yoritishda ajratib ko'rsatuvchi sifatida foydalaniladi;
 - qizil rang – xavf-xatar rangi, yashil – norma va h.k;
 - yomon ta'sir etuvchi to'q binafsha rang, to'q yashil, och sariq, sarg'ish yashil, och pushti va ayrim boshqa ranglar birikmasidan foydalanishga yo'l qo'ymasligi taklif etiladi.
- Tasvir uchun rang tanlashda imkon qadar yorug' ranglar kontrastidan voz kechib, me'yoriy ranglar kontrastiga almashtirish kerak.
- Tasvir uchun rang tanlashda quyidagilarni inobatga olish kerak:
 - muhim bo'limlar uchun qizil va ko'k ranglar;
 - tasvir tiniqligi uchun sarg'ish yashil, sariq va to'q sariq ranglardan, ko'k rangdan esa grafik elementlarni yoritishda foydalanish kerak.
- Alohiда darchada ochiluvchi grafika foydalanuvchi ixtiyoriga qarab ochilishi va yopilishi kerak.

Ekranni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar.

1. Ekranda matn joylashuvi kengligi quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

- ekranning taxminan yarmi bo‘sh qolishi;
- jadvalda har beshinchi satrdan keyin bo‘sh satr qoldirilishi;
- jadval ustunlari orasida 4 yoki 5 probel qoldirilishi.

2. Matn qismlari joylashtirilganda, ekranda foydalanuvchi nigonihining yo‘nalishi odatiy tarzda bo‘lishi kerak.

3. Jadval hoshiyalari ma’lumotning gorizontal yoki vertikal tomonida joylashishi kerak.

4. Menyu, katta bo‘luman ma’lumotlar jamlanmasi ekranning yuqori chap qismida joylashishi kerak.

5. Bir turdagи ma’lumot doim faqat bir joyda aks ettirilishi kerak.

6. Tasvirning yorug‘ligi o‘zgaruvchan bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Elektron shaklga o‘tkaziladigan ta’lim resurslarga texnik talablar:

1. Hujjatlarning elektron nusxasiga qo‘yiladigan minimal texnik talablar.

1. Bir hujjat doirasida sahifalar nusxasiga yagona o‘lcham qo‘llash zarur. Bir formatdagi sahifalarning barcha shakllarining balandligi va kengligi bir xil o‘lchamda bo‘lishi lozim. Skaner qilingan manba sahifalarining asosiy qismidan o‘lchami bo‘yicha farq qiluvchi katta yoki kichik formatdagi sahifalar shakllari o‘zining original o‘lchamini saqlab qolishi lozim.

2. Normal hujjatlar uchun – 300 dpi o‘lcham, juda yomon asl nusxa uchun undan yuqori o‘lcham tarlanishi mumkin.

3. TIF/TIFF formati uchun LZW (Lempel-Ziv-Welch) kompressordidan foydalilanadi – bu ma’lumotlarni yo‘qotishlarsiz siqishning universal algoritmiga asoslangan vosita hisoblanadi.

4. Kitoblardagi sahifalar soni bo‘sh teskari tornonlar bilan just hisoblanishi zarur.

5. Sahifa nusxasida sahifa raqami tasviri bo‘lishi kerak, ya’ni har qanday holatda ham sahifa chetini kesmasdan maydonni qirqish talab qilinadi.

6. Hujjatlarning elektron nusxalarini omborga (xranilish) joylashtirishga tayyorlash (verifikatsiya, ishlov berish va aniqlash).

- Elektron qo'llanma tuzilmasi va bilimni nazorat qilish tizimi.

Ta'lif tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mayjud gipermatn, gipermedia, grafika, animatsiya va ovoz dasturlaridan foydalanan katta samara bermoqda. Chet el va respublikamizda to'plangan tajribalar tahlil qilinganda axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari o'qitishda yangi sifat vositalari sifatida o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farqlanadi.

Uzluksiz ta'lif tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konseptsiyasiga muvofiq axborot texnologiyalari asosida ishiab chiqilgan elektron qo'llanmalarning tuzilmasi quyidagi elementlarni o'z ichida ifoda etgan bo'lishi lozim:

- muqova;
- mundarija;
- EQning qisqacha annotatsiyasi;
- EQning «to'liq bayoni»;
- EQning qisqacha bayoni (masalan, sxema ko'rinishda);
- asosiy adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;
- bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- matn fragmenti bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualliflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- atama'lar ro'yxati;
- EQ bilan ishslash uchun ma'lumotlar tizimi.

EQ ning muqovasi ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun uni grafika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish zarur. EQning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqt, EQni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflari haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniyati bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarning ma'lum bir qismi (mualliflar haqida ma'lumot, EQni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi kabilar) gipermurojaatlar yordamida amalga oshiriladi.

Mundarija EQning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Mundarija bir tomonдан yetarli darajada mavzular ketma-ketligini saqlash bilan birga ehtiyoji tug'ilganda kerakli mavzularga tezkor ravishda murojaat qilishni ta'minlay olishi, ya'ni gipermurojaatlar

bilan boyitilgan bo‘lishi va ekranning bir qismida joylashgan bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari mundarijada bilimni nazorat qilish mexanizmi; EQning ma’lum matni bo‘yicha izlash amalini bajarish; asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati; darslikning ixtiyoriy qismiga o‘tish; darslik bilan ishlashni tugatish; darslikning muqovasiga qaytish kabi amallarni bajarish uchun imkoniyatlarning yaratilishi undan foydalanishni osonlashtiradi.

Bilimni nazorat qilish mexanizmiga EQda alohida o‘rin ajratish lozim. Bilimni nazorat qilish mexanizmida EQning hamma mavzulari bo‘yicha nazorat qilishni ta’minalash nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Buning uchun EQ ma’lumotlar bazasiga kiritilgan mavjud mavzularga oid savollarning barchasini ta’lim oluvchilarga qulay ko‘rinishda taqdim etish yaxshi samara beradi.

EQda berilgan matn bo‘yicha uni izlab topish funksiyasining bo‘lishi EQning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu funksiyaga qo‘yiladigan qo‘srimcha talablardan biri uning satriga yetarli miqdorda matnni kiritish imkoniyatining bo‘lishini ta’minalashdan iborat. EQda atamalar lug‘atining bo‘lishi undan samarali foydalanish darajasini oshiradi. Atamalar va ular bilan bog‘liq ta’riflar gipermurojaatlar yordamida bo‘lishi mumkin. Bu holda EQning matni juda ko‘p ma’lumotlar bilan to‘ldirilib, uni talqin etish biroz murakkablashib ketishi mumkin. Shuning uchun atamalar va ular bilan bog‘liq ta’riflarni alohida ro‘yxat bilan berib ularni gipermurojaatlar bilan bog‘lash qulaydir. Bu yerda atamalar lug‘atidan asosiy matnga qaytish tugmalari bo‘lish kerak. EQ bilan ishlashni boshqarish tizimida matn bilan ishlashni ta’minalaydigan va ekranga qo‘yiladigan bir qator tugmalar mavjudki, ularga:

- mundarijadon mavzuning boshiga o‘tish;
- sahifadan sahifaga o‘tish hamda oldingga va orqaga siljитish tugmalari;
- mundarijaga qaytish tugmasi;
- yordam olish tugmasi;
- ekranga rasmlarni, animatsiyalarni va har xil ko‘rinishdagi jadval, grafiklarni yuklaydigan gipermurojaat tugmalari kiradi.

2.2. Axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati

Davr pedagogdan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiya'dan foydalanishni mukammlal o'zlashtirishni, axborotlarni izlash, tartiblash, tahlil qilish va umumlashtirishni bilishni talab qilmoqda. Globallashuv va integrtsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan axborot jahon bozoridan munosib joy olmoqda.

Ta'limda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish masalasi davlat ta'lif tizimining muhim vazifalari sanalayotgan bo'lsa ham, o'qituvchilarning aksariyati hozirgi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish deganda kompyuterning matn muhariridan, Power Point dasturidan foydalanishni tushunadilar. Bunga qo'shimcha video va audio metieriallarni taqdimotda gipermurojaat tarzida taqdim qilish bilan kifoyalanishadi. Aslida ona tilini o'qitishda ta'lif samaradorligiga yordam beradigan bir qancha amaliy dasturlar yaratilganki, o'qituvchilar bu dasturlarning afzalliklaridan deyarli bexabar. Til ta'limda **Microsoft Word**, **Microsoft Power Point**, **iSpring**, **MtestX**, **Microsoft Office Publisher**, **HotPotatoes**, **Excel**, **Adobe Photoshop**, **CorelDraw**, **AutoPlay Media** va boshqa amaliy dasturlaridan foydalanish o'qituvchining axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyatini egallaganligini namoyon qiluvchi alohida ko'rsatkich sifatida baholanishi mumkin. O'qituvchining o'qitish konsepsiylari, pedagogik texnologiyalari va ta'lif vositalaridan ratsional foydalanish ko'rsatkichlari erishilishi kutilayotgan samaradorlikni kafolatlashga imkon beradi.

2.3. Filologik ta'limda AKTni qo'llashda me'yor masalasi

Odatda umumita'lif maktablarida darslar "Dars niuqaddas" dasturi doirasida loyihalanmoqda. Biroq multimediali darslar tuzilishi va qurilishi yuzasidan tayyor andoza mavjud emas.

Multimedia darslarining aniq bir andozasi bo'lishi zarur deb hisoblashimizga bir nechta sabablarni ko'rsatish mumkin: multimediali dars atamasining ommalashhib, "urf"ga aylanib ulgurganiga ancha bo'lsa ham, bunday darslarni yaratish va tashkil etishda AKTni qo'llash me'yorlarining buzilishi, multimedia darslarini tayyorlashga muayyan tajriba yetishmasligi, yetarli

metodika, to‘g‘rirog‘i metodologiyaga ehtiyoj katta bo‘layotganligidir. Shuningdek, axborot komunikatsiya vositalarining uzluksiz yangilanayotganligi ham muhim sabablardan biridir. Ta‘lim bozoriga kirib kelayotgan vositalar: interaktiv doska, interaktiv ko‘rsatkich tayoqchasi va h.k.

O‘qituvchilarda multimedia darslarini tashkil etish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar, amaliy maslahatlarga ehtiyoj katta.

Multimedia darslarining samarali o‘tishi eng avvalo, dars maqsadini to‘g‘ri belgilab olishga bog‘liq bo‘ladi.

- Darsda yangi mavzuni o‘rganish zarurmi?
- O‘rganilgan mavzuni mustahkamlashga qaratilganmi?
- Bilim, malaka va ko‘nikmalarni takrorlashga mo‘ljallanganmi?
- Mustahkamlash darsi uchunmi?

Ana shu maqsadga mos tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar ham nazarda tutiladi. Shu maqsadlardan kelib chiqib o‘qituvchi dars shakli va metodlarini, o‘qitish texnologiyalarini, pedagogik texnika usullarini tanlaydi.

Multimediali dars yuqori darajadagi samaraga erishish vositasiga aylanishi uchun har xil slaydlarning yig‘indisi emas, balki bir butun mahsulotga aylanishi kerak.

Pedagog va o‘quvchilar, o‘quv materiallari, jihozlar va texnologiya kabi resurslar yig‘indisiga ega bo‘lgan ta‘lim muhitini haqida gap borar ekan, axborot texnologiyalari bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning imkon qadar ko‘proq ma’lumotlarni yoritishga intilishi o‘quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. Ekranni ortiqcha ko‘rgazmalilikka to‘ldirish dars samaradorligiga putur yetkazadi. Ma’lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma’lumotlarni o‘zlashtirish sifatining pasayishiga, xatolar sonining ortib borishiga, o‘quvchining o‘zini his qilishi va sog‘ligiga salbiy ta’sir qiladi¹. Shuning uchun ham o‘qituvchidan:

¹ Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013. – 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

- ko‘rish organlariga tushadigan yuklamani hisobga olish;
- yangiliklarni qabul qilishda yuzaga keluvchi ruhiy ko‘tarinkilik darajasini e’tiborga olish;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning to‘planib borishini inobatga olish;
- katta miqdordagi, hajmdagi ta’limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilishini nazarda tutish taqozo qilinadi¹.

Texnik vositalardan aql bilan foydalanish, muammoli vaziyatiarni o‘quv topshirig‘iga aylantirishni uddalay olish AKTdan foydalanish me’yorini buzmaslikning oldini oladi.

O‘qituvchilarning ko‘p yillik tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, darsda yuzaga keladigan tartibbuzarlik o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lmoqda. Agar o‘quvchi darsda nima bilan band bo‘lishni bilmasa, u darsdan uzoqlashadi, qandaydir ko‘ngilsizliklar yuzaga keladi.

AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil qilishda didaktik materialni o‘zlashtirgan o‘quvchi nimani bajara olishi kerakligi oldindan rejalashtirilishi zarur. Bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar uchun aniq shart, ko‘rsatma talab qilinadi. Ana shu shart asosida ta’lim oluvchilar rioya qilishi kerak bo‘lgan aniq talablardan biri – vaqt me’ori va baholash mezoni taqozo qilinadi².

O‘quv topshiriqlarini tuzishda fe’llardan to‘g’ri va o‘rinli foydalanish zarur: *yozing, sanab bering, ajrating, tanlang, ko‘rsating, moslashtiring, belgilang* va sh.k.

Topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan yoki elektron o‘qituvchi tomonidan og‘zaki berilishi va ayni vaqtda ekranda yozib qo‘yilishi uning bajarilishini yengillashtirishi mumkin.

Taqdimotlar tayyorlash mashaqqatli ish: slayddagi faol o‘rinni belgilash va axborotni joylashtirish, boshqaruvchi tugmalarni joylashtirish va b.

¹ Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш модули бўйича ўкув-услубий мажмua (тузувчилар: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Тошкент, 2015. – 11-67 б.

² <http://www.prodlenka.org>. “Использование современных информационных технологий на уроках русского языка”

Odatda ekranning chap tomoni yuqori qismiga e'tibor ko'proq berilishi mumkin. Shuning uchun mutaxassislar asosiy axborotni yoki topshiriqni ana shu qismga joylashtirishni tavsiya qilishadi.

2.4. Til va adabiyot o'qituvchilariga qo'yiladigan yangi talablar

Til va adabiyot fani o'qituvchisi, avvalo, u yoki bu mavzuni, bo'limni o'qitish metodikasini ishlab chiqishi, so'ngra ta'lif-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni hamda ahamiyatini belgilab olishi taqozo qilinadi.

Zamonaviy ta'lif jarayonida, shu jumladan o'rta maktabda, o'qitish natijalarning samarasi foydalanilgan vositalarga bog'liqdir, an'anaviy vositalar (doska, bo'r, darslik, ko'rgazma, texnik audiovizual va b.) qatoriga yangi vosita (anketa, test, tayanch sxema va bloklar, multimedia vositalari, videoproektorlar, interaktiv doskalar)lar kelib qo'shildi. Zamonaviy til va adabiyot o'qituvchisi esa o'z mutaxassisligini yetarli darajada egallagan bo'lishi bilan birga zamon va ta'lif jarayoni talablariga javob bera olishi zarur. Ya'ni zamonaviy ta'lif vositalaridan foydalana olishi, axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, yaratilgan elektron ta'lif resurslarini foydalana olishi, shuningdek, o'zi mustaqil ravishda elektron resurslar: fan xususiyatlarini aks ettira oladigan sifatlari taqdimotlar, o'rgatuvchi multimediali vositalar, elektron testlar yarata olishi zarur.

Odatda o'rgatuvchi multimediali dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug'ullanadilar. Ammo bu dasturchilar o'zları yaratayotgan mahsulot sifati bo'yicha yetarli bilinga ega bo'lsalar-da, ko'p hollarda o'qitish metodikasini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lishlari mumkin. Bu esa o'rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to'liq javob berishini ta'minlay olmaydi. Shu sababdan fan o'qituvchilarining dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini shakllantirish alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bo'lg'usi mutaxassis nafaqat ko'plab dasturlash tillarini, balki o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar yaratishning metodik tamoyillari bo'yicha bilimlarni egallashi lozim. Bu esa ko'p bosqichli tayyorgarlikni taqozo qiladi:

- informatikaning umumiy asoslari;
- grafika bilan ishlash;

- ovoz bilan ishslash;
- integratsiyalashgan muhitda ishslash;
- o'rgatuvchi dasturlarni yaratish metodikasini egallash.

Bu bosqichlar o'zida multimediali o'rgatuvchi dasturlar yaratish ko'nikmasini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Biror bosqichni o'ziashtirrnastik o'rgatish jarayonini to'liq bo'lishini ta'minlay olmaydi. Agarda biror bosqich bo'yicha bo'lg'usi o'qituvchida bilimlar avvaldan mavjud bo'lsa, unda malakasini oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyat paydo bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikning dastlabki bosqichi informatika fanini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, informatikaning umumiy asoslarini o'rganish ommabop dasturlar bilan tanishishni ta'minlaydi.

Boshlang'ich bosqichda albatta **MS Windows** qobig'i va **MS Office** dasturiy paketi o'rganilishi lozim. Bu dasturlarni o'zlashtirish zamонавиу axborot texnologiyalaridan foydalanishning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda grafik qobiqlar bilan ishslash ko'nikmasining shakllanishi oddiy va tushunarli dasturlar kompyuter texnologiyalarining amaliy metodlarini o'rganishni dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. MS Office komponentlari ma'lum ma'noda universal sanalgani uchun bo'lg'usi o'qituvchining axborot texnologiyalarini o'zlashtirishida mustahkam asos bo'ladi.

Tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi – grafika dasturlari bilan ishslashga o'rganishdan iborat. Bu bosqich grafikaning turlariga mos ravishda bir qancha kichik bosqichlarga bo'linadi:

- rastrli;
- vektorli;
- uch o'lchamli;
- animatsiyali.

O'rganish ketma-ketligi juda muhim emas, ammo animatsiya asoslari bilan tanishishni statik grafikaning barcha turlarini o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqichdagagi kabi grafikani o'rganishni eng ommaviy dasturlardan boshlash kerak. **Adobe PhotoShop** rastrli grafika dasturlari orasida keng ommalashgan bo'lib, bu dasturda rastrli rasmlar bilan ishslashning samarali metodlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, mazkur dasturning oxirgi versiyalari vektorli jarayonlarning ma'lum bir imkoniyatlariga ega. Agarda boshlang'ich

ko'nikmalar zaruriyati bo'lsa, u holda Windows va Officening standart dasturlari **MS Paint** va **MS Photo Editor**dan foydalanish mumkin. Bu ikki dastur ma'lum bir doirada **PhotoShop**ning imkoniyatlari va metodlarini takrorlaydi. Rastrli grafika vositalarini o'rganishda urg'uni yangi tasvirlarni yaratishga emas, balki tayyor tasvirlarni tahrirlashga qaratmoq darkor. Chunki til o'qituvchisi o'rgatuvchi dasturlarni yaratishda rassom sifatida emas, balki tahrirchi, korrektor sifatida kasbiy faoliyat olib boradi. Rastrli dasturlar birinchi navbatda skaner yordamida olingan yoki Internetdan olingan tasvirlarni tahrirlashda yordam beradi. Ommaviyligi jihatdan **Corel Draw** dasturi ham keng tarqalgan. Adobe firmasining yanada sodda dasturlaridan biri – **Illustrator** sanaladi. Bu ikki dastur vektor grafikasining keng imkoniyatlari vositasini tashkil qiladi. Vektorli dasturlar turli grafiklarni va chizmalarini yaratish, tahrirlash uchun samarali vositalardir.

Uch o'lchamli grafika umumiyligi dasturning majburiy qismiga kirishi shart emas, chunki u faqat real obyektlarni modellashtirishda ishlataladi. Ammo **3Dni** o'rganishni aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash ta'lim mazmuniga kiritishni tavsiya etish mumkin. Eng ko'p tarqalgan uch o'lchamli redaktorlar sifatida **3D Studio Max** va **Maya**larni qarash mumkin.

Ular uncha murakkab bo'limgan interfeysga ega. Rastrli va vektorli grafika bilan ishslash bilimlariga ega bo'lib, uch o'lchamli grafikada ishslash ko'nikmasini tezda o'zlashtirish mumkin.

Animatsiyali grafikani yaratishni bir-biriga yaqin interfeysga ega yuqorida keltirilgan dasturlarda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ular asosan grafika turlari bilan farqlanadi: rastrli grafika uchun **Adobe ImageReady**, vektorli grafika uchun – **Corel R.A.V.E.**, uch o'lchamli grafika uchun esa – **3D Studio Max** o'tinlidir.

Navbatdagi bosqichda ovoz bilan ishslash metodlari o'rganiadi. Bu yerda ovozlarni yozish, tahrirlash va qayta yaratish masalalari muhim hisoblanadi. Bu masalalarni **Sound Forge** dasturi yordamida hal etish mumkin. Bu dastur ovozni yozish, fayllarni asosiy ovoz formatlariga o'tkazishni amalga oshiradi. Undan tashqari, mazkur dastur yordamida ovozlarni tahrirlash, ovozga maxsus effektlarni qo'shish imkoniyatlari ham mavjud. Ovozlarni eshitish uchun ommabop bo'lgan **Winamp** dasturidan foydalanish mumkin. Ammo multimedia mahsulotlarida ovoz namoyish etiladigan dastur bilan

integrallashgan bo‘lib, eshitish uchun maxsus vositalarni talab etmaydi.

Grafika yaratish va ovoz bilan ishlash bilimiga hamda metodlariga ega mutaxassis keyingi navbatda multimedia mahsulotlarini namoyish etish va yaratish vositalarini o‘rganadi. Bunga birinchi navbatda **HTML** dasturlash, ya’ni **WYSIWYG** dasturlari guruhiга mansub **MS Word**, **MS FrontPage**, **Macromedia Dreamweaver** bilan ishlash, **MS PowerPointda** namoyishlar tayyorlash kiradi.

Shuningdek, murakkabroq bo‘lgan multimediali interaktiv namoyish yaratish dasturi bo‘lgan **Macromedia Flash**, grafika va ovozni qayta ishlash, shuningdek, animatsiya yaratish dasturi bo‘lgan **Adobe AfterEffect** va boshqa dasturlarni tavsiya etish mumkin. Bu bosqichda talaba o‘zi o‘rgatuvchi multimedia ilovalarini yaratishni bilishi zarur.

Metodik bosqich bo‘lg‘usi mutaxassisiga «Qanday va qaysi vositalar bilan e‘quv materiallarini o‘quvchiga yetkazish kerak?» degan savolga javob berishi zarur. Bu bosqichda ular o‘zlarining grafika bo‘yicha bilimlari asosida va kompyuterning audio imkoniyatlarini bilgan holda, qaysi vaziyatlarda axborotlarni qanday uzatish maqsadga muvofiqligini aniq bilishlari shart.

Nazorat savollari:

1. Mualliflik dasturlari deganda nimani tushunasiz?
2. PDV yaratish uchun keng foydalaniladigan dasturlarni sanab bering.
3. PDV yaratishga qo‘yiladigan talablar haqida gapirib bering.
4. Pedagogik dastruriy trenajyorlar deganda nimani tushunasiz?
5. PDV yaratish jarayonida dasturchilarning, metodist o‘qituvchilarning vazifalari nimaiardan iborat bo‘lishi kerak?

Mustaqil ish topshiriqlari. 2-, 3-, 4-sinflar uchun yaratilgan “Ona tili” darsliklarining multimedia ilovalari va 5-sinf uchun “Ona tili” fanidan elektron o‘quv-metodik majmua (Yuldasheva Sh., Zaripov O., Bekjanova M., Smaylova D., Gulnaraeva Q., Yangiboeva G., Urazboeva D. 5-sinf uchun “Ona tili” fanidan elektron o‘quv-metodik majmua. – Nukus, 2016. Guvohnoma: DGU 04136) bilan tanishing. Ularni ergonometrik talablar asosida

baholashga harakat qiling. Nazariy va amaliy materiallarning taqdim qilinishini tahlil qiling. Multinediali dars loyihasi uchun foydalaning.

Asosiy tushunchalar:

Pedagogik dasturiy vositalar (педагогические программные средства, *pedagogical programming means*) – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan metodik talablar (требования, предъявляемые к педагогическо программным средствам, *methodical requirements that insisted on pedagogical programming means*) – pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatlil komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqish dasturlari – Microsoft Front-Page (HTMLyper Text Markup Language), AlliareHomeSite (HTML), Microsoft PowerPoint, MicrosoftWord

Ta’limning informatsion texnologiyasi (информационная технология обучения, *Information technology of education*) – pedagogik texnologiyaning maxsus turi bo‘lib, bunda maxsus dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio- va videovositalar, kompyuterlar, telekommunikatsion tarmoqlardan) foydalaniladi.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari:

1. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
2. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. – T.: TDPU, 2006. – 96 b.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

3. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
4. Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш модули бўйича ўкув-услубий

мажмуа (түзүвчилар: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Тошкент, 2015. -- 11-67 б.

5. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. <http://www.allbest.ru>
2. <http://www.prodlenka.org>.
3. <http://www.ispringsolutions.com>

3-MODUL. O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA'LIMIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

3.1. Pedagogik dasturiy vositalarning turlari (o'rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq dasturlari, virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar).

Informatika va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlarda elektron adabiyotlar yaratish jarayonida foydalilanigan dasturiy vositalar¹ **pedagogik dasturiy vositalar** deb yuritiladi:

Pedagogik dasturiy vositalar – *kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.* Ular ta'lif jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. **Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga:** o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan *dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar* kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- **o'rgatuvchi dasturlar** – o'quvchilarining bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- **test dasturlari** – egallangan bilimi, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- **mashq qildirgichlar** – avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- **o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar** (Virtual borliq tizimlari).

Sanab o'tilgan amaliy dasturiy vositalarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

O'rgatuvchi dasturlar – o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy

¹ Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборог майдонини лойихалаш” модули бўйича ўкув-услубий мажмua (тузувчилик: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзисева) – Т.: 2015. – 11-67 б

dasturlardir. Muayayn bir fan materiallarini o'zlashtirish jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida foydalanish uchun yaratiladi. O'quv materialari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadi, javoblarning to'g'ri-noto'g'riliqi tasdiqlanadi, yo'l qo'yilgan xatolar disleyda aks etadi, o'quvchilarning o'zlashtirishi nazorat qilinadi va baholanadi. Masalan, Internetda rus tilidan "**Фраза**" deb nomlangan o'rgatuvchi dastur-trenajyor mavjud. "**Фраза**" o'ziga xos elektron repititor hisoblanadi. U 2006-yilda tajribali rus tili o'qituvchilari, metodistlar va psixologlar tomonidan yaratilgan. Interfeys faqat rus tilida¹. "**Фраза**"da Rossiya umumiy o'rta ta'lim maktablarining rus tili ta'limi uchun 4000 ga yaqin topshiriqlar o'rin olgan. Shuningdek, 1000 ga yaqin topshiriq maktab bitiruv imtihonlari va oliy ta'limga qabul imtihonlari uchun tayyorlangan. Saytdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, bu dastur yordamida qisqa muddatda o'quvchilarda yozma savodxonlik oshadi, "ikki"lar "uch"ga aylanadi O'quvchilar imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rganish va takrorlash, bo'shlisolarni to'ldirish, bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu repititor o'quvchining har bir qadamini tekshirib boradi, xatolarni bir lahzada ko'rsatib beradi va agar o'quvchi qiyin vaziyatlarga duch kelsa, ekranda qoida va unga mos misollar, istisno holatlar paydo bo'ladi, bu bilan o'quvchiga o'z xatosini to'g'rinish imkonini beradi, ko'rish orqali imloni eslab qolishga yordam beradi, ish oxirida esa natijani ko'rsatadi, baholaydi, o'zlashtirish statistikasini taqdim qiladi.

Bu dasturning Windowsga mo'ljallangan yangi versiyasi o'z ichiga 500 ta qo'shimcha mashq va topshiriqlarni jamlagan. Shuningdek, dasturdan foydalanish yuzasidan ko'rsatma, rus tili qoidalarining katologi va qisqacha imlo lug'atini o'z ichiga oladi. Windows 95/98/2000; Pentium 120 MGs va undan yuqori, 16 Mb operativ xotira, ekran 800x600 bo'lishini taqozo qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilari va abituriyentlar uchun rus tilidan "Repititor-diktant" kompyuter trenajyori² ham qator afzalliklarga ega. U matnlarni xuddi haqiqiy o'qituvchi kabi diktovka qiladi va tekshiradi. Shuningdek, har bir diktantdan keyin xatolar ustida

¹http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki_russkogo_jazyka/fraza

²http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki_russkogo_jazyka

ishlash mumkin. Bu jarayonda dastur qaysi so‘zda xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, shu so‘z ishtirokida jumlalar taqdim qiladi yoki yozilishi qiyin bo‘lgan so‘z va qisqa jumlalar qatnashgan grammatik diktantlarni diktovka qiladi.

<http://www.twirpx.com> saytida maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo‘yicha qoidalar jamlangan o‘rgatuvchi dastur joylashtirilgan. Bu dastur maktab o‘quvchilar, abituriyentlar va og‘zaki hamda yozma savodxonligini oshirmoqchi bo‘lgan barcha yoshdagi qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Bu dastur televizion repitor hisoblanadi, uning yordamida qiyin mavzularni chuqurroq o‘rganish, imtihonlarga tayyorlanish mumkin. Dastur ikki qismidan iborat.

<http://festival.1september.ru> va www.dealeducation.ru saytlarida ham o‘rgatuvchi dasturlar bilan tanishish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, bu dasturlarning aksariyati to‘lovnii amalga oshirish orqali yuklab olinadi.

Test dasturlari. Egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida **Multi Tester**, **Wondershare quiz creator**, **easyQuizzy**, **iSpring QuizMaker** kabi universal test dasturlaridan keng foydalaniolib kelinmoqda.

Ma’lumki, bunday dasturlar o‘quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash uchun yaratiladi va test dasturlari deganda foydalauvchiga bir necha javoblari bo‘lgan savoi taqdim qilinishi tushuniladi. Bunday dasturlar bir-biridan ayrim xususiyatlari bilan farqlanib turishi mumkin. Xususan, savollarning turlari va miqdori yoki qanday bloklardan iboratligiga ko‘ra test dasturlari muayyan farqlarga ega bo‘ladi. Biroq ularning qo‘llanilishi bir xil, ya’ni test dasturlarining asosiy vazifasi foydalauvchining bilimini tekshirish va baholashdan iborat.

Mashq dasturlari. Ta’lim jarayoni samaradorligi interfaol didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlardan foydalishni taqozo etadi. Ular o‘quvchilarning jamoa bo‘lib yoki individual faoliyatida malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga yordam beradi. Aynan didaktik o‘yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o‘quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklardir.

Kompyuterda mashq bajartirish – o‘quv jarayonida va mustaqil ravishda ishslashda katta o‘rin egallaydigan, bolalarning o‘quv-biluv

faoliyatlarini tashkil qilish va boshqarish usuli o'rnini bosuvchi, tegishli predmetning mazmuniga loyiq, bilim, ko'nikma va malakalarni maqsadga yo'naltirgan holda shakllantrish vositasi bo'lgan ta'lim metodlarining bir formasi hisoblangan, nazariya bilan amaliyotning aloqa vositasi bo'lgan ko'p qirrali ta'lim hodisasisidir.

Kompyuterdan foydalanish jarayonida til ta'limida mavjud bo'lgan an'anaviy mashq turlarining deyarli barchasini qo'llay olamiz, jumladan:

- harf yoki so'zlarni qo'yish;
- tinish belgilarini qo'yish;
- tilning turli sathlari uchun qabul qilingan shartli belgilarni qo'llash;
- matnni tahrir qilish va h.k.


Kompyuter dasturlaridagi krossvord, rasmlar, qiziqarli topshiriqlar, testlar o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi. Bunda kompyuter o'qituvchi vazifasini to'liq bajara olmaydi, balki o'qituvchi vazifalarini to'ldiradi. O'qituvchi o'z darsiga mos dasturlarni, didaktik materiallarni, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni tanlaydi, ta'lim jarayonida ularning ana shu topshiriqlarni bajarishlariga ko'maklashadi, o'quvchilarning bilimini va rivojlanishini baholaydi.

Mashqlar yaratishda **Hot Potatoes** amaliy dasturidan foydalanish mumkin.

Kompyuter ish stolidagi **Hot Potatoes** dasturi ishga tushiriladi:

3.1.-rasm.

Hot Potatoes dasturi



Yangi oynadan «JCloze» tugmachasini tanlaymiz va dasturning “Mashqlar” blogi oynasi ochiladi:

3.2.-rasm.



«Title» maydoniga mashq sarlavhasini kiritamiz.

Maydonga matn kiritiladi. Bu matn shu vaqtning o‘zida klaviaturada teriladi yoki matn muharririda (Ms.Word dasturi) oldindan tayyorlangan bo‘lishi, har qanday hujjatdan nusxa olinishi ham mumkin.

3.3.-rasm.

The screenshot shows a Microsoft Word document with a numbered list of cloze questions:

1. Dam olish kuni biz tayyorligiga berariz
2. Isron uchun eng ketta boylik - sog‘ik.
3. Ayatsiya mukabeli lug’ati. Erkinjon uchuveni belmoqchi.
4. Ketebni ketta sajisish bilan s’edim.
5. Sonat ~~muzeyni~~ sinfigim o‘quvchikani ~~tezlikda~~ tomoniga qidu.
6. Aksan kacha samolyotda Toshkenden keldi.

To the right, a 'Gapped word alternatives' dialog box is open, showing the following settings:

Gap #	Word	Clue
2	button	
3		

Below the table, there is a section labeled "Alternative correct answers" with three empty input fields.

Mashqdagi tushririb qoldiriladigan so‘z yoki harf belgilab olinadi va tushrilish («Gap» (Пробел)) tugmachasi bosiladi. «Gapped words alternatives» – tushririb qoldirilgan so‘zning variantdoshlari kiritiladigan maydon. Tushririb qoldirilgan so‘z «Word» (Слово) maydonida ko‘rsatiladi, «Gap#» (tushririb qoldirilgan so‘zning tartib raqami) maydonida esa matnda tushririb qoldirilgaga so‘z tartib raqami ko‘rsatiladi:

Agar o‘quvchilarga tushririb qoldirilgan so‘z haqida izoh (“Clue” maydonida tushririb qoldirilgan so‘zga izoh yozish mumkin) yoki

variantdosh so‘zlarni kiritishni lozim topmasangiz “OK” tugmasini bosib, matndagi boshqa so‘zlarni tushirib qoldirishingiz mumkin.

Matnda tushirib qoldirishga belgilangan so‘z (harf) avtomatik tarzda qizil rangga bo‘yaladi hamda ostiga chiziq chiziladi:

Matnda tushirib qoldirishga tanlangan so‘zlar matnning boshidanoq avtomatik tarzda raqamlanganligi uchun ularning ketma-ketligi uncha ahamiyatga ega emas.

3.4.-rasm.

1. Dam olish kuni biz sayohatga beremiz.
2. Inson uchun eng katta boylik - sodlik.
3. Aviatsiya maktabini tugalib, Erkinjon yophirvchi bo‘lmogchi.
4. Kitobni katta qiziqish bilan o‘gildim.
5. San’at muzeyini sinfirmiz o‘quvchilarini birligida tomashev olibik.
6. Akam kecha samloiyotda Toshkentdan janlefli.


Mashqni tahrir qilish:

Mashqda tushirib qoldirilgan so‘zni o‘zgartirish uchun, ya’ni boshqa so‘zni tushirib qoldirmoqchi bo‘lsangiz “Delete Gap” (Удалить пропуск) – “Tushirib qoldirilgan so‘zni o‘chirish” va «Clear Gaps» (Очистить – Удалить все пропуски) – “Tushirib qoldirilgan hamma so‘zlarni o‘chirish” tugmalaridan foydalanishingiz mumkin.

“Show words” tugmasi bilan yashiringan so‘zlarni ko‘rishingiz, «Gapped words alternatives» (Варианты пропущенных слов) – “Tushirib qoldirilgan so‘zlarning variantdoshi” bo‘limidagi so‘zlarni tahrir qilishingiz, tushirib qoldirilgan so‘zning tartib raqamini ham tahrir qilishingiz mumkin.


O‘quvchi mashqni bajarib bo‘lgach yashiringan so‘zlarni ko‘rishi uchun ‘Настройка конфигурации (Configure Output)’ – “Konfiguratsiyalarni tahrir qilish” bo‘limiga kirib, «Other» (Другое) tugmasiga bosing, so‘ngra «Include word list with text» (Вывести список пропущенных слов на экран) – deb ko‘rsatilgan qismini belgilang. Agarda «Include word list with text» deb ko‘rsatilgan qism belgilanmasa, tushirib qoldirilgan so‘z ekranga chiqarib berilmaydi:

3.5.-rasm.




Mashqni saqlash uchun amallar oynasidagi “Fayl” tugmasidan “Сохранить как” tanlanadi va belgilangan o’ringa saqlanadi:

3.6.-rasm.




Agar tayyorlagan mashqni ko’rmoqchi bo’lsangiz, “View the exercise in my browser” tugmasini cherting:

3.7.-rasm.




Ma’lumotlarni kiritib, mashqni tahrir qilib bo’lgandan so‘ng, kiritilgan ma’lumotlarni mashqqa aylantirish zarur. Buning uchun yuqoridagi “File” tugmasini belgilab, undagi “Create Web page” tugmasini cherting:

3.8.-rasm.



Undan keyin ushbu mashq saqlanadigan o'rinni belgilaysiz hamda «Save» (Сохранить) tugmasi orqali bajargan ishingizni tugatasiz:

3.9.-rasm.



Dasturda quyidagi amallarni bajarishingiz mumkin:

- Ushbu blogning "File"(Файл) bo'limiga kirib, «New» (Создать) – tugmasini chertsangiz, yangidan mashq yaratish;
- Bu blogdagi ishingizni tugatib, Hot Potatoes daturining bosh menyusiga kirib, boshqa blogda amallar bajarish;
- Hot Potatoes dasturini yakunlash mumkin.

Virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. Ta'lim sohasidagi atamalar ro'yxatida "Elektron darslik", "Masofaviy o'qitish kursi", "Videokonferensiya", "Elektron forum" kabi yangi atamalar qatorida "Virtual tajriba stendi", "Virtual ustaxona", "Virtual sinf" kabi atamalar paydo bo'ldi.

Virtual borliq (Virtualnaya realnost) tushunchasini Jaron Lanier (Lanye) taklif etgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik

tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual berliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtida virtual borliqdagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko'pmoddallikka, ya'ni ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniлади. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimлари, shuningdek odamning bosh qismiga o'rnatiladigan shlem va ko'zeynak displeylar, "hid sezadigan" sichqonchalar, boshqaruvchi qo'lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlataladi.

Virtual mavjudlik texnologiyasi inson faoliyatining turli sohalarida, xususan, loyihalashtirish va dizaynda, foydali qazilmalarni izlab topishda, harbiy texnologiyalarda, qurilishda, marketing va reklamada, ko'ngilochar o'yinlar sanoatida keng qo'llanilmoqda. Ta'lif tizimida virtual texnologiyalar tatbiqini informatika, fizika, ximiya, biologiya fanlaridan kompyuter yordamidagi elektron virtual laboratoriya shakllaridan foydalanilishida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, virtual kimyoviy laboratoriya dasturi (animatsiya) tenglama va boshqalar shaklida foydalinish mumkin bo'lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jiozchlari hamda kimyoviy moddalar to'plamiga ega. Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni vizual o'tkazish imkonini beradi.

Bizningcha, virtual atamasini tillarni o'rganish jarayoniga tatbiq qilinayotgan elektron ta'lif vositalariga nisbatan ham qo'llash mumkin. Ona tili ta'lifida mavjud bosma ta'lif vositalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, jadvallar, daftarlarning) virtual imitatsion modellarini yaratish (elektron darslik, elektron qo'llamma, elektron jadvallar, elektron daftarlari), video va audio materiallarni tinglash, ko'rish orqali fikrleshishga, tahlil qilishga yo'naltirish, real bo'lmagan, modellashtirilgan elektron daftarlarda interaktiv mashqlarni bajarish jarayoni virtual mavjudlik deb qaralishi mumkin.

Virtual o'qitish jarayoni va unda qo'llaniladigan texnologiyalar ko'plab innovatsion metodlar va usullarni uyg'unlashtira olishi bilan xarakterlidir. Shuning uchun ham ularni toplash, tasniflash, o'qituvchilar faoliyatiga singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi.

3.2. Matn muharrirlari

Matn muharriri – matn kiritish, tahrirlash, saqlash va ochish, chop etish, matnni formatlash kabi vazifalarni bajaradigan dasturlar bo'lib, *MS Word*, *Lexicon*, *Wordpad*, *Notepad* va boshqalar ommalashgan.

- Notepad – Microsoft Windows tarkibiga kiradi.
- GNU nano – matnni erkin tahrirlashga mo'ljallangan.
- EditPlus – web dasturlar va ishlasmalar yaratishga mo'ljallangan Windows uchun matn muharriridir.
- Pspad – HTML-kodlar bilan ishslashda sintaksisni tekshirishga mo'ljallangan matn muharriridir.
- Texter – Windows uchun matn muharriridir.

Barcha matn muharrirlarining umumiy xususiyatlari shundaki, ular:

- matnni kiritadi;
- tahrir qiladi (tuzatishlar kiritadi, to'ldiradi, kengaytiradi);
- shaklga keltiradi (formatirovaniye) (shrift, simvollarni o'zgartirish, matnning sahifaga joylashtirilishi, qatorlar oralig'ini o'zgartirish, ya'ni matnning tashqi ko'rinishini o'zgartirish)¹.

Matn muharririning birinchi varianti Richard Brodie tomonidan yaratilgan (1983). Matn muharrirlari orasida eng mashhuri Word hisoblanadi².

Microsoft Word dasturi matn muharrirlaridan biri bo'lib, uning yordamida mukammal hujjatlar va ilovalar yaratishimiz mumkin. Word hujjat yaratish va uni yetarlicha samarali qilish imkonini

¹ Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

² Microsoft Word // Википедия. [Электронный ресурс]. — Режим доступа: http://ru.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Word

beradi¹. Maktab o‘quvchilari ham bu dastur imkoniyatlarini yaxshi bilisnadi. Oliy ta’lim muassasasi talabasi esa bu dasturda ilmiy ishlar: maqola, referat, ma’ruzalar, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishini yozishi, shuningdek, elektron resurslar yaratish uchun ssenariylarni matn muharririda bajara olishlari lozim. Biz fanimizning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda elektron resurs, ya’ni muayyan bir dars uchun ssenariy yozish va uni matn muharriri orqali rasmiylashtirish tartibini namuna sifatida keltiramiz:

Ssenariy MS Word 95 – 2003, 2007, 2010, 2013, 2016 formatida, Times New Roman shriftida, 14 hajm kattalikda, 1,5 intervalda yoziladi. Abzas – xatboshi 1,25.

Qog‘oz hajmi A4 (210 x 297 mm), tepadan, pastdan 2 sm., chapdan 3 sm., o‘ngdan 1,5 sm. doirasida yoziladi.

Birinchi qatorda mavzuning nomi, sahifaning o‘rtasida bosh va qalin harflarda, 2-qatorda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, 3-qatorda muallifning ish (o‘qish) joyi va lavozimi, 4-qatorдан matn yoziladi.

Ssenariy tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

Nazariy qism. Bu qismda taqdimot tayyorlash uchun zarur ma’lumotlar aks etadi. Bunda mavzu materialini minimallashtirishga intiling. Reproduktiv tarzda, tayyor faktlarni berishdan qoching. “Aqlni charxlovchi” topishmoq xarakteridagi yoki induktiv usulda misollardan qoidaga tomon yo‘naltiruvchi tushuntirish usulini tanlash samaraliroq. Ekran otriqcha ko‘rgazmalilik, animatsiya, effektlar bilan to‘lib ketmasligi zarur. Ssenariy yaratishda buni albatta hisobga oling.

Amaliy qism. Mashq va topshiriqlar beriladi. Mashq turi qayd qilinishi, to‘g‘ri javoblar keltirilishi shart. Unutmang, mashq shartida bajarilishi lozim bo‘lgan ish qisqa bayon qilinishi kerak va bunda buyruq fe’llaridan foydalaning: (*bo‘sish oringa*) *yozing*, *belgilang*, *moslashtiring*, (*ro‘yxatdəm*) (*javoblar qutisidan*) *tanlang*, (*ketma-ketlikni*) *aniqlang*, *raqam kiritting* va h.k. fe’llar mos keladi. Mashq matnida tanlangan misollar ringizning manbasini berishni unutmang.

Test qismi. Mavzu doirasida 5 – 10 ta test savoli beriladi. Javoblar belgilab qo‘yilishi shart. Testning turini qayd qilish

¹ Qaraq: Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа (тузувчилик: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Т.: 2015. – 11-67 б.

maqsadga muvofiq. Shuningdek, test savollarini universal test dasturlariga kiritishni osonlashtirish uchun to‘g‘ri javoblarni yulduzcha (*) bilan belgilab oling.

Eslatma: Ssenariy muallifi taqdimot yoki mashq va topshiriqlar uchun zarur bo‘ladigan tasvir, animatsiya, videomaterial, audiomatn bilan bog‘liq g‘oyasini ham aks ettirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xuddi dramatik asarlarda bo‘lgani kabi **remarka** vazifasini bajaradi.

MASHQLAR

1-mashq. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan olingan parchani o‘qing. Yig‘iq gaplarni belgilang. [Faol maydon (aktivniy oblast)]

– Papkangni och, – *deyapman!*

Boshqa ilojim bo‘lmaganidan papkani ochib, sekin kundalikni chiqarib berdim.

– *Bu nima?* – deb so‘radi oyim.

– *Ikki.*

– *Bunisi-chi?*

– *Uch.*

– *Nega yolg‘on gapirding?*

– Kim yolg‘on gapiribdi, – dedim bo‘sh kelmay, – ikkovini qo‘shsa, besh bo‘ladi, oyijon!

– *Shunaqami?*

– *Shunaqa ...*

2-mashq. Gaplarning yig‘iq yoki yoyiq ekanligini aniqlab, ro‘yxatdan tanlang. [Tanlash (vlojenniy otvet)]

1. Ilm olish – nina bilan quduq qazish. (Maqol) (yoyiq gap)

2. Baxt belgisi – bilim. (Maqol) (yig‘iq gap)

3. Oldi-berdimiz uzilmasin. (yig‘iq gap)

4. Pul, mol-dunyoga ruju qo‘ymang. (yoyiq gap)

5. Maydon tep-tekis edi. (yig‘iq gap)

6. Uning yuzi qip-qizil edi. (yoyiq gap)

7. Gunohsiz odam podshodan qo‘rqmas. (Maqol) (yoyiq gap)

8. Aybni yashirgan boy bo‘lmas. (Maqol) (yig‘iq gap)

9. Tog‘ eshitganini aytadi. (Maqol) (yoyiq gap)

10. To‘g‘ri devor uzoqqa chidar. (Maqol) (yoyiq gap)

11. Tushi o‘ngning ishi o‘ng. (Maqol) (yoyiq gap)

Esse

Yig‘iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantiring.

1. Ta’til boshlandi. 2. Kuyladik. 3. Anvar oldi. 4. Kattalar e’zozlanadi.
5. Tong otdi. 6. Musobaqa tashkil qilindi. 7. Nishonladik. 8. Tadbir o’tkazildi.

Testlar

1. Yoyiq gap ...

Faqat kesimdan iborat gap

Ega va kesimdan iborat gap

Hol va kesimdan iborat gap

*Kesimning boshqa bo‘iaklar bilan kengayishidan hosil bo‘lgan gap

2. Yoyiq gapni aniqlang.

Himoya qilamiz.

Kuz. Qara, tabiat go‘zal.

*Men uni ko‘rdim.

Bo‘pti, olib chiqaman.

3. Yig‘iq gapni aniqlang.

*— Mayli, o‘qiyman! — Yashang!

Men sizga hamma bilgan ertaklarimni ayтиb beraman.

Har kuni bittadan.

Siz menga qishlog‘ingizni tomosha qildirasiz, dalalarga olib chiqasiz.

4. Yoyiq gapni aniqlang.

*Saxovatli odam deganingizda kimni tushunamiz?

— Bilasanmi? — Bilmayman.

Keldim.

Bordik.

5. Yig‘iq gapni aniqlang.

Bobong uzumning yarmini beva-bechoralarga tarqatadi.

Ana shuni saxovat deyishadi, endi tushundingmi?

Hammasini yeb tugata olmaysizlar, to‘g‘rimi?

*Tushundim.

3.3. Elektron jadvallar

Elektron jadvallar – jadvalga matn, raqam va formula kabi ma'lumotlar kiritib, ular ustida hisob-kitoblar bajarish, diagrammalar yaratish imkonini beradigan dastur. Misollar: *Lotus*, *MS Excel* va boshqalar. Til ta'limidagi elektron jadvallar esa interaktiv doska yoki videoprektor orqali maktab grammatikasining barcha sathlari uchun tayyorlangan elektron-o'quv jadvallardir.

<http://nsportal.ru> saytida “**Boshlang‘ich sinflar uchun rus tilidan elektron jadvallar**” (“Электронный таблицы по русскому языку для начальной школы”) mavjud. <http://www.softkey.ru> saytida “**Rus tilidan elektron-o'quv jadvallari. 5-9-sinflar**” (“Электронные учебные таблицы по русскому языку. 5-9 классы”) o'rin olgan. Bunday jadvallarda nazariy ma'lumotlar qisqa shaklda jadvallarga joylashtirilgan va mos misollar keltirilgan. Sxema, jadvallar elektron tarzda tayyorlansa, yangi mavzuni bayon qilish uchun vaqtini tejaydi (sinf doskasida bo'r bilan chizishga qancha vaqt sarflanishini yaxshi bilamiz), o'quv materialini estetik jihatdan qulay taqdim qilishga yordam beradi. Agar sxema va jadvallarni mashq va topshirqlar uchun xizmat qildirsak, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashda foydalansak, darslarning samaradorligi yana ham ortadi.

O'zbek tilida til sathlarining har biri uchun xos bo'lgan jadvallar yaratilgan va ular asosan bosma ko'rinishda mavjud. Mutaxassislar, metodistlar va talabalar bu jadvallarni elektron shaklda yaratish ishiga hissa qo'shishlari lozim. Ayniqsa, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda grafik organayzerlar muhiin vosita bo'lib xizmat qilmoqda. “T” sxemalari, “Toifalash”, “Konseptual xarita” va “Insert” jadvallari yaxlit muammoni aniqlash, tahlil qilish va rejalashtirishga olib keladi. Dars jarayonida o'qituvchi grafik organayzerlarning tahliliy ma'lumotlarini ko'rgazmali taqdim etish usul va vositalaridan foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib quyib, so'ngra ulardan samarali va unumli foydalanishni rejalashtirsa, har bir dars mazmunli, sifatli, xotiraga muhrlanib qoladigan darajada mavzularni oson o'zlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Bularni elektron jadval tarzida taqdim etish MS Excel dasturida yaratish qulaydir.

MS Excel dasturi orqali testlarni tayyorlash, lug'at yaratishni tashkil qilish ham mumkin.

3.1.-jadval.

T. T. r.	Savol	A	B	C	D	To‘g‘ri javob
1	Yoyiq gap ...	Faqat kesimdan iborat gap	Ega va kesim- dan iborat gap	Hol va kesim- dan iborat gap	Kesim ning boshqa bo‘lak- lar bilan kengay ishidan hosil bo‘l- gan gap	D

Elektron lug‘at yaratish jarayonida MS Exceldan foydalanilsa qulaylikka ega ho ‘ladi:

3.2.-jadval.

t.r.	So‘z	Izoh
1	A	yukl. [turli darajadagi talaffuz bilan] Taajjubli, e’tirozli va sh.k. mazmundagi so‘roqni bildiradi Nima? Nima deding? Nima dedingiz? O’n to‘rt so‘m berasiz. – A, o’n to‘rt so‘m?
2	Abad	[a. – doimiylik] esk. kt. 1. So‘ngi yo‘q kelgusi zamon; zid. azal. 2. rvsh. Abadiy suratda, doimo. Abad yo‘ldosh.
3	Abadiy	Vaqt e’tibori bilan oxiri yo‘q; mangu, doimiy. Abadiy hayot.
4	Abadiylash moq	Abadiy mavjudlikka ega bo‘lmoq; mangulik kasb etmoq. Xotirasi abadiylashdi.
5	Abadiylasht irmoq	Abadiy unutilmaydigan, yo‘qolmaydigan qilmoq; avlodlarga mangu qoldirmoq. Olimning nomini abadiylashtirmoq.

3.4. Namoyish etuvchi dasturlar va boshqalar

Taqdimot yaratish – har xil mavzuda namoyish va taqdimot yaratish, ularga jadval, rasm, audio, video va multimedia ma'lumotlarni tatbiq etish imkoniyatlariga ega bo'lgan dastur: *MS PowerPoint, Macromedia Director* va h.k.

PowerPoint dasturini yaratish g'oyasini Bob Gaskins Berkli universitetida talabalik davrida ilgari surgan. U grafik interaktiv materiallar asri kelayotganini tasavvur qila olgan. 1984-yilda Bob Gaskins Forethought bilan hamkorlik qiladi va Dennis Austin ismli dasturchi bilan birga Presenter dasturini yaratishdi. Bob Gaskins Presenter dasturi nomini PowerPoint deb o'zartirishga qaror qiladi. 1987- yili PowerPoint 1.0 mahsuloti oq-qora rangda foydalanila boshlagan. Ko'p o'tmay rangli Macintosh va PowerPointning yangi varianti paydo bo'ladi. 1987-yilda Forethought va uning mahsuloti Microsoft tomonidan 14 mln. dollarga sotib olinadi. 1990-yildan e'tiboran PowerPoint Microsoft Officening standart dasturi qatoridan o'rinn oladi¹.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi ko'rgazmalilikni oshiradi va o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi. Biroq buni amalga oshirish ham alohida bir san'atdir.

Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'z fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o'qituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'zgarishi bilan ma'lum

¹Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

bir mavzuga mo‘ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muloqoti ikki turdagи ta’sirdan iborat. Birinchisi – o‘qitishning ma’lum bosqichida o‘quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo‘naltiruvchi savollari. Ikkinchisi - masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko‘rsatish.

Savollar va ko‘rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog‘liq ravishda beriladi.

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatalib kelinayotgan dasturiy ta’motlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi¹.

Odatda, taqdimotni o‘tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft Power Point dasturiy ta’motidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo‘lishi mumkin (PPT, PPTX). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o‘z navbatida, masofali ta’lim turining paydo bo‘lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o‘zida onlayn ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo‘lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot ISpring deb nomlanadi va ISpring QuizMarker, iSpring PRO va Spring Kinetics kabi variantlarga ega.

1. Pedagogik dasturiy vositalarning turlarini sanab bering.
2. O‘rgatuvchi dasturlarning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Test dasturlarining qaysi jihatlari Sizda ma’qul keladi yoki aksincha?
4. Mashq dasturlari qanday bo‘lishini xohlaysiz?
5. Virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar ona tili ta’limi uchun zarur deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
6. Matn muharrirlaridan foydalanish bo‘yicha BMKlaringizni baholang.

¹<http://www.ispringsolutions.com>

7. Elektron jadvallarning til ta’limi uchun zaruriyatini misollar bilan asoslab berishga harakat qiling.

8. Namoyish etuvchi dasturlardan foydalana olish bo‘yicha BMKlaringizni baholang.

Mustaqil ish topshiriqlari. 1. “Language Learning & Technology” jurnali maqolalari bilan tanishing. 2. Matn muharririda multimediali dars uchun ssenariy yaratishga, taqdimot tayyorlashga harakat qiling. Bu ishlaringizni loyiha ishi sifatida rasmiylashtirishni boshlang.

Asosiy tushunchalar:

O‘quv adabiyotining elektron shakli – o‘quv adabiyotlari materiallarini ma’lum bir kompyuter muharririda yoki uning arxivi shaklida axborotning elektron eltuvchilari (disketa, SD-disk, Flash Disk va boshq.) da taqdim etilishidir.

Ma’ruzalar matnining elektron versiyasi – tegishli taqriz va tasdiqdan o‘tgan, o‘quv adabiyoti maqomiga ega bo‘lgan, portal yoki serverda joylashtirilgan ma’ruzalarning matnidir.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositali bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama sarnarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin.

Elektron test – tashqaridan qaraganda u oddiy elektron o‘quv qo‘llanmaga o‘xshaydi. Asosiy qiyinchilikni savollarni yig‘ish va shakllantirish, savollarga javoblarni moslashtirish tashkil etadi.

Elektron entsiklopediya -- elektron o‘quv qo‘llanmaning ombor ko‘rinishidir.

Elektron nashr – bu grafik, matn, raqamli, musiqali, video, foto va boshqa axborotlarni va yana foydalanuvchilar uchun bosma hujjatlar yig‘indisi.

Elektron o‘quv nashr – ilmiy malakaviy bilimlar maydonida tizimlashtirilgan materiallarda tashkil topgan bo‘lib, bu maydonda o‘quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o‘stirib borish ta’minlanadi. **Gipermatn** – bu matn elektron shaklda va belgilangan tizimlar aloqasining ko‘rinishi.

Adabiyotlar:

1. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.

2. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
3. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. --Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari:

1. http://ru.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Word
- 2.<http://nsportal.ru>
- 3.<http://www.softkey.ru>
- 4.<http://www.ispringsolutions.com>

4- MODUL: JAHON MIQYOSIDA TIL TA'LIMIDA QO'LLANADIGAN TA'LIMIY RESURSLAR

4.1. “CALL” (Computer Assisted Language Learning) va “Byki” tizimlari haqida

Rossiyalaik rus tili va adabiyoti o'qituvchilari kompyuterlar bilan jihozlangan rus tili kabinetlarida darslarni tashkil qilish o'quvchilarning ichki motivatsiyasini yuzaga keltirishini, ularda bilim olishga ehtiyoj paydo qilishini, ichki motivatsiyadan fanni o'rganishga qiziqish o'sib chiqishini alohida ta'kidlaydilar. Biroq axborot texnologiyalaridan foydalanishni tizimli olib borish zarur, vaqtiga vaqtiga bilan, rejalashtirilmasdan yo'lga qo'yish samara bermaydi, shu bilan birga an'anaviy metod va usullarni to'liq axborot texnologiyalari almashtirish ham mumkin emas, – deb hisoblaydilar.

<https://intolimp.org> va <https://videouroki.net> saytlarida videodarslarga alohida e'tibor qaratilgan. Videodarslar o'qitishning zamонавиј ко'ргазмали instrumenti ekanligiga urg'u berilib, boshlang'ich va yuqori sinflar uchun rus tilidan videodarslar va mashqildirgichlar komplekti yaratilib fan o'qituvchilari va otonalarning yuklab olishlari (to'lovli) uchun havolalar ko'rsatilgan.

Bu komplektlarda:

- o'quv materiali o'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olib taqdim qilingan;
- o'quvchilarni zavqlantiradigan rasm va komkslar bilan bezatilgan;
- qiziqarli hazil she'rlar va hikoyalari o'rinni organ.

Ma'lumki, yangi mavzu bayonida sinf doskasida yozib tushuntirish imkonini bo'lmaydigan jihatlar bor. Sanab o'tilgan komplektlar bilan dars o'tish ana shu imkoniyatni yaratadi: mavzuni tushuntirish jarayonida fan o'qituvchilari ko'p kuch sarflamaydi va asablarini charchatmaydi.

Mabodo fan o'qituvchisi biron uzrli sabab bilan o'z darsiga kela olmaganda boshqa o'qituvchi ham yuqorida sanalgan komplektlardan foydalanib o'quvchilarni boshqarib tura oladi, ya'ni hamkasbini almashtirib tura oladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni o'rganish, rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash masalasi turli olimlarning o'quv qo'llanmalarida, dissertatsiya

ishlarida dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Jumladan, T.A.Maxarov, A.S.Kucharov, A.V.Troshina, E.Alinicheva, N.Monastirev, G.R.Kozayeva, D.G.Parasteyeva, A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, A.G.Hayitov, R.R.Shodihev, M.Aripev, B.Begalov, M.Mamarajabov, S.Qosimov, S.S.Gulomov, X.Alimov, X.S.Lutfullayev, A.Shermuhammedov, Sh.Qurbanboyevlar ta'lrim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullarini aniqlaganlar va tavsiya qilganlar. Bu tadqiqotlar natijalari muayyan darajada til ta'limga ham tatbiq qilinmoqda.

Shunisi muhimki, jahon tajribalari hali chuqur tekshirishlarsiz, faqat tanishish uchun o'rghanib chiqilganidayoq ularning qator afzalliklari namoyon bo'ladi. Jumladan, til ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning jahon miqyosidagi tajribalarini CALL (computer Assisted Language Learning) va "Byki" tizimlari misoldi ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlar o'zbek tili o'qituvchilariga ham, talabalar va tadqiqotchilarga ham birdek foydali bo'lishi mumkin. Mazkur resurslardan eng yirigi - **CALL** hisoblanadi.

Internet resurslarida **CALL (Computer-assisted language learning)**ga shunday ta'rif beriladi: "CALL – kompyuterdan tillarga o'rgatish jarayonida foydalanishning optimal yo'llari va metodlarini izlash demakdir"¹. U keng spektrdagи informatzion va kommunikatsion texnologiyalar, ilovalar, tillarga o'qitishdagi yangicha yondashuvlar, internet orqali virtual muhitdagi ta'lim va masovafiy ta'limi o'z ichiga oladi. Bu sistemaga, shuningdek, concordancers-korpuslar, interaktiv doskalar, kompyuter-vositachi kommunikatsiyalar, virtual dunyoda tillarni o'rganish, tilni o'rganishga mobil ta'sir ko'rsatish kabilalar ham kiradi.

CALL terminiga muqobil atama sifatida "tillarga o'rgatishning yuksak texnologiyalari" atamasi ham o'tgan asrning 1990-yillarda, masalan, Xall universitetidagi Konsortsium TELL loyihasida ishlataligan.

Bugungi kunda mazkur tizimda asosiy e'tibor shaxsga yo'naltirilgan materiallarga qaratilmoqda, chunki ular o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish imkonini beradi. Bunday materiallar

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Computer-assisted_language_learning

strukturlangan va strukturlanmagan bo‘lishi mumkin, ammo ular ikki muhim vazifani o‘zida mujassamlashtiradi: interaktiv ta’lim va ta’limni individuallashtirish.

CALL mohiyatan shunday instrumentki, u til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi, til o‘rganishda elektron olam imkoniyatlarini oshiradi. Uning yordamida sinfda o‘rganilgan materiallarni takrorlash hamda yangi va qo‘srimcha ma’lumotlarni olish mumkin.

CALL materiallari asosida til pedagogikasi prinsiplari va metodologiya yotadi, ular ta’limning turli nazariyalaridan olingan bo‘lishi mumkin (masalan, bixevierist, kognitiv, konstruktiv), ikkinchi til o‘rgatish nazariyalari, malasan, Stiven Krashenning fikrlariga ham asoslanishi mumkin.

Uning yuzaga kelishi o‘tgan asrning 1960-yillariga borib taqaladi. Illinois universitetida 1960-yillarda ishlab chiqilgan PLATO loyihasi CALL rivojidagi eng dastlabki bosqich hisoblanadi. 1970-1990-yillarda axborot texnologiyalarining ravnaq topishi, mikrokompyuterlar va Internetning kashf qilinishi CALL rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘nlab til o‘rgatuvchi dasturlar Internetga joylashtirildi, ta’lim muassalaridagi til o‘rgatish markazlarida ham ko‘plab dasturlar ishlab chiqildi.

CALL tarixi, bir nechta olimlarning fikricha, bir necha bosqichlarga bo‘linadi: *Sanders* Shimoliy Amerikada varatilgan dasturlar tarixiga suyangan holda CALL tarixining boshlanishini 1960 – 1990-yillar deb ko‘rsatadi, *Delcloque* fikricha, uning tarixi 1960 – 2000-yillarni o‘z ichiga oladi. *Xabbard* 1988-2007- yillarda e’lon qilingan 74 ta tayanch maqolalarni hisobga olgan holda uning tarixi shu yiliarni o‘z ichiga oladi deb hisoblaydi. Ko‘rinadiki, umumiylar tarzda CALL tarixi 1960-2010- yillarni o‘z ichiga oladi deb hisoblash mumkin.

CALL tipologiyasi va fazalari. 1980 – 1990-yillarda turli dasturlar tipologiyasini birlashtirish bo‘yicha harakatlar bo‘lgan. Shu tariqa Davies & H, “Переводчик Google для бизнеса”, “Переводчик сайтов Службы “Анализа рынков”, «Переводчик Google Сообщества», Jones & Fortescue kabi dasturlar dunyoga keldi. Shuningdek, shu davrda Cloze dasturlari, «Общая Cloze » tipidagi keng qamrovli dasturlar yuzaga keldi. Bu dasturlar 1990-

yillarda bloglar, niklar, ijtimoiy tarmoqlarda ham tarqaldi, virutal dunyoda til o'rganish o'zgacha tus oldi.

CALLning quyidagi turlari ajratildi: bixevoiristik CALL (1950 – 1970-yillar); kommunikativ CALL (1970 – 1980-yillar); integrativ CALL (Multimedia va Internetni o'z ichiga olgan dasturlar, 1990-yillar).

CALLning asosiy rivojlanish loyihalari insonlar tomonidan boshqariladi:

1) soha bo'yicha mutaxassis (kontent-provayder) – u qoidaga ko'ra til o'qituvchisi bo'ladi – u kontent va pedagogik materiallar uchun javob beradi. Juda katta loyihalar uchun birdan ortiq mutaxassis talab qilinadi; 2) dasturchi, u loyihaning dasturiy tomonini – instrumentlarini ishlab chiqadi; 3) grafik dizayner; professional fotograf yoki yaxshi fotograf-havaskor; 4) ovoz rejissori, video texnika va b.

Demak, **CALL** ko'p holatlarda o'qituvchilar uchun til o'rgatish jarayonida yordam beruvchi vosita hisoblanadi U egallab olingan bilimlarni yanada mustahkamlash uchun ham foydalaniлади.

Til o'rgatuvchi yana bir ta'limiy elektron sistema – **Bykadir**. Byki til o'rgatuvchi dasturiy ta'minot bo'lib, u o'ta kuchli, individual shaxsga qaratilgan til o'rganish sistemasidir, u lug'at boyligini oshirish orqali yangi tilni o'rganishdagi malakanı takomillashtirish uchun mo'ljallangan. Bu tizimda 2 ta dastur bilan tanishish mumkin:

1. Byki ekspress
2. Byki deluxe

Byki Ekspress to'lovsiz dastur. Xorijiy tilni o'rganish jarayonini tezlashtiradigan eng yaxshi dastur sanaladi. Audio, mp3, til ta'limiga taalluqli o'yinlar orqali o'rganilayotgan til talaffuzini puxta o'zlashtirishga qaratilgan. Bu dastur o'rganuvchini, Byki Deluxe dasturiga o'tishga tayyorlaydi.

Byki express xorijiy tilni o'rganishning eng yaxshi metodlaridan biri bo'lib, u to'lovli til o'rganish dasturiy ta'minotidir. U dastavval asosiy tamoyillarni shakllantiradi va o'rganmoqchi bo'layotgan yangi til bilan tezroq tanishtiradi. Byki deluxe ta'minotiga o'tish bilan barcha qo'shimcha va kuchaytirilgan dasturlar, ya'ni MP3 audiolar, kuchaytirilgan talaffuz amaliyoti va til o'rgatuvchi o'yinlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Byki mobile til o'rgatuvchi dasturiy ta'minoti ham kuchli til o'rganish sistemasi bo'lib, u lug'at boyligini oshirish orqali yangi tilni o'rganishdagi malakani takomillashtirish uchun yaratilgan. O'zining qiziqarli, jalb qiluvchi va yorug'lik tezligidagi 3 qadamdan iborat jarayonida Byki mobile yangi tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Taqdim etilgan flesh karta o'rganilgan so'zlarni yuqori aniqlikda qayta takrorlash imkoniyatini berish bilan yangi o'rganilgan ma'lumotni inson xotirasida uzoq muddatga saqlanib qolishiga yordam beradi.

Byki til o'rgatuvchi dasturiy ta'minoti quyidagi tillar uchun faoliyat ko'rsatadi: afrika tillari, alban tili, arab tili, arman tili, boshqird tili, belorus tili, bosniya tili, bolgar tili, buryat tili, chechen tili, xitoy tili, xorvat tili, daniya tili, dari tili, nemis tili, eston tili, fors tili, fin tili, fransuz, gruzin tili, german tillari, grek tili, hind tili, venger tili, irland tili, indoneziya tili, irish tili, italyan tili, yapon tili, qozoq tili, koreys tili, latish tili, litva tili, makedon tili, malay tili, mongol tili, norveg tili, polyak tili, portugal tili, rus tili, serb tili, slovak tili, ispan tili, shved tili, tojik tili, turk tili, turkman tili, tuva tili, ukrain tili, urdu, o'zbek tili, vietnam tili, zulu tili.

4.2. Yevropa davlatlari va AQShda til ta'limida keys-stadini loyihalashtirishda ATning o'rni ("Global Simulation" dasturi)

Global simulation iborasi fransuzcha "simulation globale" so'zidan olingan bo'lib, global, uzoq muddatli xayolot mashg'ulotlarini nazarda tutadi. Bu xayolot mashg'ulotlari olyi ta'limda tahsil oluvchi, o'rganilayotgan xorijiy tilni o'rta darajada biluvchi ta'lim oluvchilar uchun xorijiy tilni o'zgacha uslubda o'rgatish maqsadida tashkil etilgan. Bu til o'rganish kursida qatnashuvchilardan uzoq muddatga yagona ssenariy asosida harakat qilishlari, unda jonli ravishda ishtirot etishlari talab etiladi.

Ko'plab yillar mobaynida olimlar til o'rganish jarayoni hamda uning uslublarini o'rgandilar va yangi tilni samarali o'rganish jarayonida shu til madaniyati muhim ahamiyatga ega ekanligini, tilni shu madaniyatning a'zosi sifatida tasavvur qilgan holda uzoq muddatli yagona ssenariy asosida o'rganish maqsadida global simulation dasturini ishlab chiqdilar. Bu dasturda yagona instruktor (xorijiy til o'qituvchisi) nazorati va ko'magi ostida barcha qatnashuvchilar xayolan qandaydir vaziyatni o'ylab topadilar va shu

vaziyatda o‘zlariga tegishli bo‘lgan rollarga bo‘linadilar, bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham unumli foydalaniladi. Kursning 1-darsidan oxirgi darsiga qadar bu o‘ylab topilgan holat va rollar amal qiladi va shular asosida ishtirokchilar o‘zlarini aynan o‘zları o‘rganayotgan tillarida mahalliy gapiruvchilar singari tasavvur etadilar. Bundan maqsad tilni jonli o‘rganishdir. Shuning uchun ham ularni nazorat qiluvchi o‘qituvchi so‘z va iboralarining to‘g‘ri va o‘rinli ishlatalayotgani, ularning talaffuzi va ma‘nolari o‘rinli qo‘llanilayotganini muntazam ravishda nazorat qilib boradi. Bunday darslar dunyoning ko‘plab universitetlarida tajriba sifatida olib borildi va muvaffaqiyatlari natijalar ko‘rsatdi. Til o‘rganuvchilar tilni odatiy darslardagidan bir necha marta samaraliroq hamda tezroq o‘rgandilar.

Global simulation kurslarida 4 muhim omilni qamrab olgan holda ish olib boriladi: vaziyatning realligi, vaziyatni to‘liq gavdalantira oluvchi muhit, darsning tuzilishi, yagona vaziyat va uni boshqaruvchi yagona g‘oya.

Vaziyatning realligi o‘ylab topilgan ssenariy haqiqat bo‘lmasa ham ishtirokchilar o‘zlarini xuddi shu vaziyat haqiqatdek va ularning ham o‘zları emas, aksincha ijro etayotgan rollaridagi inson deb tasavvur qila olishlarini nazarda tutadi. Ammo bu teatrda tol o‘ynash kabi bo‘lmasligi yoki biron bir kundalik o‘yinni o‘ynash hissini eslatmasligi kerak. Bunday holatda u simulyatsiya emasdир.

Bundan tashqari, vaziyatning realligi talabalarni nazorat qiluvchi instruktor muammoni yechish, qaror qabul qilish kabi talabalarning ijodkorligini oshiruvchi jarayonlarda talabalarning fikrlariga aralashishining cheklanishini ham nazarda tutadi.

Simulyasiya qilingan muhit eng asosiy omillardan biridir. Bunda qatnashchilar tashqi dunyo va undagi o‘zlarining real hayotlaridagi barcha o‘ylarni unutib o‘zlarini xonadagi tasavvur olamiga bag‘ishlari lozim. Tashqi dunyodan ularni chalg‘ituvchi hech qanday vositalar ta’siri bo‘lmasligi zarur.

Bunda tilni o‘rgatuvchi kurs o‘z tuzilishiga ega bo‘lishi zarur. Kursda tasavvur etilgan holat, undagi belgilangan rollar, kursning muddati, maqsadi, vazifalari, egallanishi zarur bo‘lgan bilimlar, kursning so‘ngida kutilayotgan natijalar kurs avvalidan belgilab olinadi. Unda yuklangan vazifalarga ko‘ra talabalarning bilimi, o‘zlashtirishi, fikrashi muntazam ravishda kuzatib boriladi va

ma'lum baholash mezonlariga ko'ra bahonaladi. Bundan tashqari kurs bir qancha diskussiyalarini o'z ichiga olishi lozim. Chunki xorijiy tilni o'rta darajada biluvchi talaba uchun guruh muhokamalari samarali foyda beradi. Diskussiyalar so'zlovchilarning nutqining shakllanishiga va ular o'z fikrini xorijiy tilda to'liq ifodalab bera olishlariga yordam beradi.

Yagona ustuvor holat va uni nazorat qiluvchi g'oya global simulation dasturing asosidir. Bunda tasavvur qilingan vaziyat yagona sohaga tegishli bo'ladi va yagona g'oya ssenariyini boshqaradi. Masalan, bu soha ma'lum bir biznes, tashkilot yoki guruh, gazetalar, savdo kompaniyalari, muzey, mehmonxona va hokazolar bo'lishi mumkin.

Global simulation usulidan ko'proq o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Loyihalash texnologiyasi jahon pedagogikasida yangilik hisoblanrnaydi¹, chunki, u 1920-yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrick tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan. Dj. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradilar. O'quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o'qituvchi ularga tegishli ko'rsatmalar berishi, foydalaniqidigan manbalarni tavsiya etishi, o'qitishdan ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o'quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim².

¹ Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot", 2012.

² D. L. Fried-Booth "Project Work" (OUP, 1986)

Loyihalash texnologiyasining asosiy tezisi: «**O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman» sanaladi. Bu tezis o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo'ljalni to'g'ri olishlariga yordam beradi. Til o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur. Har bir loyiha o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, shu sababli ular ma'lum belgilariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: Til o'qitishda foydalaniladigan loyihalarda ko'zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko'ra:**

- tadqiqot xarakteridagi loyihalar;
- ijodiy xarakteridagi loyihalar;
- rolli loyihalar;
- amaliy xarakteridagi loyihalar;
- izlanish va mo'ljal olishga mo'ljallangan loyihalar.

Til o'qitishda foydalaniladigan o'quv loyihasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Tayyorarlik bosqichi.** Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarda mavzu muammolarini o'rganishga nisbatan kuchli motivastiyanı vujudga keltirish yo'llarini belgilashi, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, mavzu yuzasidan vujudga keltirish mumkin bo'lgan o'quv xarakteridagi muammoli vaziyatlarni aniqlash, loyihaning maqsadini belgilash ishlарini amalga oshiradi.

2. **O'quv loyihasini bajarishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bosqichi.** O'quvchilarning kichik guruuhlarini shakllantirish, har bir kichik guruuh tomonidan loyihalashga doir umumiyoq rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingen nuqtayi nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni bajarishga yo'llashni o'z ichiga oladi.

3. **O'quvchilar tomonidan muammoning mohiyatini anglash bosqichi.** Tadqiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishslash, o'quv farazlarini ilgari surish, olingen natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik yoki Klaster ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish kabilarni mujassamlashtiradi.

4. **Tahlil bosqichi** rejalahtirilgan ishlarni amalga oshirish sifatini aniqlash, olingen natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosa yasashdan iborat.

5. **Loyiha natijalarini nazorat qilish va baholash bosqichida** o'qituvchi har bir guruh ishini tahlil qiladi, ularda uchragan tipik xatoliklarga barham berish, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, muayyan hollarda loyihaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar beradi.

6. **Yakuniy bosqichda** o'quvchilarining kichik guruhlari tomonidan amalga oshirilgan ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi bo'yicha taqdimot namoyish qillinadi.

Bu toifadagi loyihalardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bular jumlasiga "Ism-familiyalarning to'g'ri yozilishi kimga yoki nimaga bog'liq?", "Ariza qanday yoziladi?", "Tarjimayı hoi yozishni bilamizmi?", "Nima uchun inshodan baholarim past?", "Nima uchun ingliz tilini yaxshi o'rganyapman-u, "Ona tili"ni o'rganish mashaqqat?" kabi mavzulardagi loyihalarni bajarish mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchi bajaradigan o'n xil uzviy ketma-ketlikdagi kuzatish, izlanish, o'ylash, alohidilikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, aloqadorlikni aniqlash, qo'llash faoliyati induktiv ta'lim usulidagi mashg'ulotlarning 3-bosqichida yaqqol ko'rindi. Bu bosqich uchun «Keys – stadi» (Case – stadi) usuli muvofiq keladi. Ta'limiy (o'rgatuvchi) vaziyat – keys-stadi (angl. sase – to'plam, aniq vaziyat, study-ta'lim, o'rgatish) – hayotdan olingen mavjud vaziyatlarga asoslangan holda tashkillashtirilgan yoki oddiy muammolarni keltirib chiqaruvchi sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatlarning ta'lim oluvchilarni maqsadga muvofiq ravishda yechimini izlashni o'rgatish usuli¹. Keys – bu tashkillashtirish hayotida ma'lum bir o'quvchilar bayonining yozma ravishdagi ko'rsatmasi, ta'lim oluvchilarni muaminolarni shakkantirishga va ularni yechishda maqsadga muvofiq variantlarini izlab topishga yo'naltiruvchi insonlar guruhi

¹ Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент, 2008.

yoki bitta (individ) inson; qo'shimcha axborotlarni, ya'ni audio, video, elektron va o'quv-uslubiy materiallar bo'lishi mumkin.

Keys texnologiyasining an'anaviy o'qitish uslublaridan farqlarini ko'rib chiqamiz. An'anaviy uslublar **nimanidir** o'rganishga yo'naltirilgan. Keys texnologiyasi esa **nimagadir** o'rgatishga yo'naltirilgan, ya'ni u nafaqat ma'lum bir bilimlar to'plamini uzatish, berish uchun mo'ljallangan, balki maktab o'quvchilarida mustaqil qarorlar qabul qilish va muammoli savollarga to'g'ri va original javoblar topish malakasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. An'anaviy uslublardan foydalanganda sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilishga urg'u beriladi, keys texnologiyasida esa o'quvchi tomonidan yaratuvchanlik, ijodiy yondashuv nazarda tutiladi.

Keysning tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda o'qituvchi keys tuzadi, ya'ni uning mavzusini o'ylab ko'radi va zarur axborotlarni yig'adi. Axborot manbalari sifatida gazeta va jurnallardagi maqolalar, statistik ma'lumotlar, audio va video yozuvlar, tarixiy ma'lumotlar va h.k., umuman, o'quvchilarga vaziyatni tasavvur qilish va muammoni yoki qator muammolarni topishga imkon beradigan hamma narsa bo'lishi mumkin. Keyslar har qanday turda – bosma, video, audio, multimedia ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Keysni tuzishga talablar:

- keysda yaqqol yoki bir qiymatli yechimga ega bo'lмаган dolzarb muammo qo'yilgan bo'lishi kerak;
- keys qaysi sinf doirasida havola citlayotgan bo'lsa, shu sinf mavzulariga va qo'yilayotgan ta'limiy vazifalarga mos kelishi kerak;
- keys o'zida tavsiflangan tадqiqot muammosini tahlil qilish va yechimini topish uchun yetarli miqdorda axborotni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Biroq uni ahamiyatsiz bo'lgan detal bilan ortiqcha to'ldirib yubormaslik muhim;
- keysda muammoning muallif tomonidan berilgan bahosi qatnashmasligi kerak;
- keysda bir-biriga zid axborotlar ham bo'lishi mumkin. Bu o'quvchilar o'rtasida munozarani keltirib chiqaradi. O'z nuqtayi nazarini isbotlash, o'z pozitsiyasini himoya qilish zarurati paydo bo'лади.

Asosiy bosqich.

O‘qituvchi tadbirni o‘tkazish shaklini e‘lon qiladi: yakka tartibda yoki guruuhda, so‘ngra keysni o‘quvchilarga beradi.

Mavzu e‘lon qilinmaydi, lekin o‘quvchilar qilishi kerak bo‘lgan ishlar, ularni baholash mezoni tushuntiriladi.

O‘quvchilar axborotlarni tahlil qilib, muammoni yoki qator muammolarni aniqlashadi va iloji boricha ko‘proq muqobil yechimlar topishga harakat qiliadilar. Ular o‘z yechimlarini nazariy jihatdan asoslab, o‘zlarining ilgari surgan taklif va farazlarini tasdiqlovchi va isbotlovchi xulosalarini taqdim qilishlari mumkin.

Tadqiqotlar natijalari o‘quvchilarning xohishlari va imkoniyatlarga bog‘liq holda eksperiment namoyishi, taqdimot, loyiha va h.k. lar ko‘rininishida bo‘lishi mumkin.

Yakuniy bosqich.

O‘quvchilar o‘z ishlarini taqdim qilishadi. Bu bosqichda konferensiya, leksiya, munozara va boshqa shakllardan foydalanish mumkin.

Bu shakllar o‘quvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantiradi. O‘qituvchi darsni yakunlaydi, xulosalarini aytadi, ishlarni baholaydi.

Ishlarni baholash mezonlari:

- aniqlangan savollarga to‘g‘ri javoblar soni;
- muammolar yechimining noan’anaviy, ayni vaqtda ilmiy asoslangan va istiqbolli ko‘rinishlari taklif qilinishi;
- yechimlarning mustaqilligi;
- savodli nutq;
- ilgari suriligan farazlar amaliy izohi yoki tasdig‘ining yuqori saviyasi.

4.3. Osiyo mamlakatlarida filologik ta'limda AKTdan foydalanish tajribasi¹

<http://www.langmaster.com> saytidagi koreys tili o'qitish vositalari bilan tanishishdan ma'lum bo'ldiki, bu materiallar koreys tilini xorijiy til sifatida o'rganish uchun mo'ljallangan. Saytda koreys tilini o'rganish uchun audiokurs va videokurslar taklif qilingan. Reklama sifatida taqdim qilingan ma'lumotga ko'ra, o'rganuvchi har bir jumla uchun diktor ovozini tinglaydi. Mikrofonda takrorlaydi va tez gapirishni o'rgana boshlaydi. Yangi so'zлами o'rganish uchun rasmlardan foydalaniadi, ta'limiy o'yinlarda, viktorinalarda ishtirot etadi. Izlash irakoniyatiga ega bo'lgan koreyscha lug'at o'rganishni osonlashtiradi. Audodasturlar juda katta qulaylikka ega. Chunki materiallarni bosmaga chiqarishning hojati bo'lmaydi. Kompyuter talab qilinmaydi. Tinlovchi juda oddiy tarzda mp3 pleerga, telefonlarga yuklab olib, o'ziga qulay joyda tinglashi, til o'rganishi mumkin. Bu materiallarning aksariyati to'lovlidir. Biz til o'rganish jarayoniga autentik materiallarni tatbiq qilish maqsadida sayt materiallarni o'rganib chiqdik.

<http://lingust.ru> sayti orqali to'lovatarsiz bir nechta tilni on-layn o'rganish mumkin. Bu sayt muallifi ham informatika, ham filologiya imutaxassisi. Shuning uchun ham sayt metodik va texnik jihatdan juda qulaydir.

4.4. "Edmodo" onlayn o'qitish tizimi va boshqalar

Edmodo bu veb-platforma sanaladi. U butun dunyoda o'qituvchi, maktab o'quvchilari va ota-onalarning oddiy va xavfsiz muloqot, hamkorlik vositasi sifatida tanilmoqda. Bu veb-platformani VKontakte yoki Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan biri deb qabul qilish mumkin.

Edmodo – bu maktablar va o'qituvchilar uchun aloqa, ilovalar va murabbiylilik uchun materiallar taklif qiluvchi ta'limiy texnologik kompaniyadir. Edmodo tarmog'i o'qituvchilarga o'quvchilar bilan ilovalar, savol va topshiriqlar almasnish, o'quvchilar, kolledjlar hamda ota-onalar bilan aloqani boshqarish imkoniyatini beradi.

¹ Mazkur masala BMT loyihalari doirasida maxsus tadqiq qilingan. Qarang: Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p

Edmodo platformasi matematika (arifmetika), geometriya, fizika, geografiya, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at, ingliz tili va adabiyoti, umuman, ta'larning deyarli barcha predmetlari va sohalari bo'yicha materiallar joylashtirilgan ulkan industriyadir. Edmodoning foydalanuvchilar soni 2016-yilning avgust oyida 66900000 dan ko'proq ekanligi ta'kidlab ko'rsatildi.

Edmodoga 2008-yilda Nicborg va Jeff O'Hara tomonidan asos solindi. Unga Index Ventures, Benchmark, Greylock Partners, Learn Capital, New Enterprise Associates, Union Square Ventures, Glynn Capital Management, Tenaya Capital, SingTel Innov8, va KDDIlar sarmoya kiritishgan. Oxirgi yillar davomida u dunyo iniqyosida juda ommalashdi.

2013-yilda Edmodo "The Top Apps for Teachers" (by PC Magazine) jurnali tomonidan "o'qituvchilar uchun eng yaxshi internet dasturlari" qatoriga kiritildi. Shu yili Edmodo ta'lim uchun ilovalar banki yaratishdagi yutuqlari uchun Root-1 mukofotini qo'lga kiritdi. 2014-yilda Vibhu Mittal Edmodoning bosh ijrochi direktoriga aylandi.

2014-yilda Edmodo Snapshot – talabalarning ta'lim standartlari bo'yicha bilimi o'sishini o'Ichovchi baholash sistemasini ishlab chiqди. The Cool Tool Award for Best Assessment Solution tashkiloti Edmodo Snapshotni eng yaxshi baholash tizimi uchun mukofot bilan rag'batlantirdi. Shu tariqa the Cool Tool Award for Best Assessment Solution kompaniyasi Britaniyadagi 2ta katta bosniachilik korxonalari – Oxford University Press va Cambridge University Press Edmodo platformasining ta'lim mundarijalariga kirishni ta'minlash va Edmodo Snapshotni Buyuk Britaniyaga olib kelish maqsadida u bilan hamkorlik ishlarini boshladi.

2015-yilning mart oyida Noodle Edmodoni 32 ta eng zo'r innovatsion onlayn ta'lim dasturlaridan biri deb atadi.

Dunyoning har bir mamlakati fuqarosi Edmodoga hech qanday to'siqlarsiz kirishi, ro'yxatdan o'tishi va unda joylashtirilgan ma'lumotlardan bemalol foydalanishi mumkin.

Edmodo haqidagi qisqacha ma'lumotdan ma'lum bo'ladiki, u faqat bir maqsadni, ya'ni ta'limni ko'zda tutadi va uning vazifasi teskari aloqani ta'minlashdan iborat¹.

¹ <https://www.google.com>; <https://edmodo-guide.jimdo.com/>

Ikki ustunda o‘qituvchining va o‘quvchining imkoniyatlari sanab berilgan:

O‘qituvchining imkoniyatlari:

- ✓ sinflarni va guruhlarni yaratish;
- ✓ turli xarakterdagи, jumladan, onlayn topshiriqlarni joylashtirish;
- ✓ turli formatdagi fayllardan kutubxona yaratish;
- ✓ yakka shaxs uchun (hamma uchun umumiy), shu jumladan, ota-onalar uchun xabarlarni e’lon qilish;
- ✓ savolnomalar o’tkazish;
- ✓ topshiriqlarga video, tasvir, audio va xabarlarni joylashtirish;
- ✓ EDMODOdan o‘quvchilar ro‘yxati va topshiriqlarning bajarilish jadvallarini chop etish;

O‘quvchining imkoniyatlari:

- ✓ uyga vazifani bajarish uchun o‘qituvchidan konsultatsiya yoki ko‘rsatma olish;
- ✓ bob, bo‘limlar yoki butun mavzu bo‘yicha topshiriqlarni onlayn bajarish va baho olish;
- ✓ o‘z rivojlanishini nazorat qilish, natijalarini yaxshilash bo‘yicha imkoniyatlar olish;
- ✓ hamkorlikda loyiha bajarish jarayonida kichik guruh bilan muloqot qilish;
- ✓ topshiriqlarni bajarish uchun ta’limiy ilovalarni foydalanish;
- ✓ o‘z ishlarini e’lon qilish;
- ✓ o‘z akkauntlariga ota-onalarni ulash.

Rossiya maktab o‘quvchilari uchun yaratilgan “Я-класс” tizimi ham Edmodoga o‘xshaydi. Bu tizimda ham o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-onalar onlayn muloqot o‘rnatadi¹.

Edmodo va Я-класс global ta’limiy dasturlar bo‘lib, barcha o‘rganuvchilarga o‘zлari uchun zarur bo‘lgan manbalar va odamlar bilan bog‘lanish uchun yordam beradi. Bu tiziimlar vaqtini tejashta ham imkon beradi: o‘quvchi tizimga kiradi va uyga vazifani osongina bajaradi. Ota-onalar ham bu tiziimlarga kirib farzandlarining mashg‘ulotlarni qay darajada o‘zlashtirayotganini nazorat qilib turishlari mumkin. Veb sayt bo‘ylab eng yaxshi

¹ www.yaklass.ru

mundarijalar joylashtirilgan. Ta'lim oluvchilar butun internet bo'ylab o'zları uchun kerakli bo'lgan mavzuni topadilar va o'zları uchun kerakli dastur, o'yinlardan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari o'quvchilar ta'lim resurslarini internetga joylashlari, boshqalarga tarqatishlari mumkin.

O'zbek tilini ona tili sifatida, davlat tili sifatida o'qitishda fan o'qituvchilari, metodistlar, talaba va magistrantlar jahon tajribalariga tayanib quyidagi ta'lim vositalarini yaratishni jadallashtirishlari taqozo qilinadi:

1. O'quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadigan **o'rgatuvchi dasturlar**.
2. Imlo va punktuatsiya qoidalarini mustahkamlashga yordam beruvchi **elektron repititorlar**.
3. Maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo'yicha qoidalar jamlangan o'rgatuvchi dasturlar.
4. O'zbek tili imlo qoidalarining katologi va qisqacha elektron imlo lug'ati.
5. Har bir sinf uchun mo'ljallangan o'zbek tilidan "Repititor-diktant".
6. Test dasturlari.
7. Boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilidan elektron jadvallar.
8. 5 – 9-sinflar uchun o'zbek tilidan elektron-o'quv jadvallar.
9. O'zbek tilining elektron izohli lug'ati
10. O'rgatuvchi audiodasturlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xorijiy tilni o'qitishda qo'llanilayotgan texnologiyalarni ona tilini o'qitishga tatbiq qilish bo'yicha shaxsiy fikringizni bayon qiling.
2. Siz til o'qitish jarayoniga tatbiq qilish mumkin bo'lgan yana qanday yangiliklarni bilasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari. "CALL" laboratoriysi yangiliklari, keys-stadi va axborot texnologiyasi bo'yicha xorijiy adabiyotlarni, internet materiallarini o'rganib chiqib, pedagogik esse yozing. Bajarayotgan loyihangiz uchun xorijiy tajribalardan foydalaning.

Adabiyotlar:

1. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.
2. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. - Tucson, CERCLL. 2012. – 87 p.
3. Jim Burke. The English Teacher's Companion. – Heinemann: 4th edition. 2012. – 392 p.

Internet saytlari:

1. www.bimm.uz
2. www.twipx.com
3. www.yazikoznanie.ru
4. www.byki.com
5. www.yaklass.ru

5- MODUL:TAQDIMOT TEXNOLOGIYASI VA UNI O'ZBEK TILI DARSLARIDA QO'LLASH METODIKASI

5.1. MS PowerPoint dasturi

Power Point prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi¹. Bunday dasturlar o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animatsiya effektlari, ovozli videokliplar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan prezentatsiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentatsiya, slayd, animatsiya tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

PowerPointni yaratish g'oyasi dastlab Berkli universiteti talabasi bo'lgan Bob Gaskins (Bob Gaskins)da paydo bo'lgan. U grafik interaktiv materiallar asri boshlanayapti, deb hisoblagan holda PowerPointni yaratishga kirishgan.

1984-yilda B.Gaskins Forethoughtga qo'shildi va dasturchi Dennis Ostin (Dennis Austin)ni yolladi. Ular birgalashib ishlab Presenter dasturini ishlab chiqishdi. Keyinchalik B.Gaskins dastur nomini PowerPointga o'zgartirdi, bu nom dasturning oxirgi nomi sifatida dunyoda shuhurat qozondi.

1987-yilda PowerPoint 1.0 ning Apple Macintosh uchun maxsus versiyasi chiqdi. U oq-qora rangda ishlar edi. Tez orada rangli Macintoshlar paydo bo'ldi va PowerPoint ning yangi versiyasi ommalashdi.

1987-yilda Forethought va uning mahsulotlari Microsoft tomonidan 14 mln. dollarga sotib olindi. 1990-yilda Windows uchun yangi versiya chiqarildi. 1990 - yildan boshlab PowerPoint Microsoft Office standart dasturlar paketida ishlatala boshlandi.

2002-yilda PowerPointning yangi versiyasi e'lon qilindi, u nafaqat Microsoft Office XR paketi, balki alohida mahsulot sifatida tarqatildi. Bu versiyaga juda ko'p imkoniyatlar qo'shib berildi.

¹ Mavzuni yoritishda rus metodistlarining tadqiqotlariga tayandik. Qarang: Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013 – 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

2007-yildagi Versiyasida dastur interfeysiga o'zgartirishlar kiritildi va uning grafik imkoniyatlari kengaytirildi. Yaqinda 2016-yil versiyasi chiqarildi, uning ham imkoniyatlari juda ko'p.

POWER POINT asosiy menyusi darchaning yuqori qismida joylashgan bo'lib u 10 ta bo'limdan iborat: **Файл, Главная, Вставка, Дизайн, Переход, Анимация, Показ слайдов, Рецензирование, Вид и Настройка.** Bu bo'limlar yordamida biz taqdimot, slayd va ularda joylashgan har xil matn, rasm hamda boshqa istalgan obyektlar ustidan turli xil amallarni bajarishimiz mumkin.

Power Point dasturining asosiy tezkor tugmalari ro'yxati:

- **CTRL+N** – Yangi taqdimot faylini yaratish;
- **CTRL+M** – Taqdimotga yangi bo'sh slayd qo'shish;
- **CTRL+D** – Taqdimotga aktiv slayd nusxasini qo'shish;
- **CTRL+ENTER** – Slaydning keyingi elementini tahrirlash;
- **CTRL+O** – Ilgari yaratilgan taqdimot faylini qayta ochish;
- **CTRL+W** – Ekranda ochiq bo'lgan taqdimot faylini berkitish;
- **CTRL+P** – Taqdimotni qog'ozga bosmaga chiqarish;
- **CTRL+S** – Taqdimot faylini saqlash;
- **F5** – Taqdimot namoyishini ishga tushirish;
- **ALT+F4** – Microsoft PowerPoint dasturidan chiqib ketish;
- **CTRL+F** – Matn qismini qidirish;
- **CTRL+H** – Topilgan matnni boshqa matn bilan almashtirish;
- **CTRL+K** – Giperyo'llanma qo'shish;
- **F7** – Imlo xatolarni tekshirish;
- **ESC** – Oxirgi o'zgarish yoki tugallanmagan harakatni bekor qilish;
- **CTRL+Z** – Oxirgi harakatni bekor qilish;
- **CTRL+Y** – Bekor qilingan harakatni qaytarish;
- **CTRL+SHIFT+F** – Slaydning tanlangan obyekt harflar shaklini o'zgartirish;
- **CTRL+SHIFT+P** – Slaydning tanlangan obyekt harflar kattaligini o'zgartirish;
- **CTRL+SHIFT+>** – Slaydning tanlangan obyekt harflar kattaligini bitta qadamga kattalishirish;

- **CTRL+SHIFT+<** – Slaydning tanlagan obyekt harflar kattaligini bitta qadamga kamaytirish;
- **CTRL+T** – Slaydning tanlagan obyekt harflar tashqi ko‘rinishini (Format menyusidagi Shrift buyrug‘i) o‘zgartirish;
- **SHIFT+F3** – Harflar registrini o‘zgartirish;
- **CTRL+B** – Qalin harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+U** – Tagi chiziqli harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+I** - Yotiq harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+PROBEL** – Harflar o‘zgartirilgan tashqi ko‘rinishini bekor qilish;
- **CTRL+SHIFT+C** – Harflar tashqi ko‘rinishini xotiraga olish;
- **CTRL+SHIFT+V** – Harflar tashqi ko‘rinishini xotiradan chiqarish;
- **CTRL+E** – Xat boshini o‘rtadan tekislash;
- **CTRL+J** – Xat boshini ikkala tomon bo‘yicha tekislash;
- **CTRL+L** – Xat boshini chap tomon bo‘yicha tekislash;
- **CTRL+R** – Xat boshini o‘ng tomon bo‘yicha tekislash.¹

5.2. Taqdimot yaratish qoidalari

Slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, shriftlarning minimal balandligiga, ranglarning didaktik funktsiyasiga va ranglarni ishlatalishga, rang ta’siriga, slaydlarni ishlatalish usullariga va slaydlarning mantiqiy harakatlarga mosligiga taalluqli eslatmalar o‘ziga juda katta diqqat-e’tibor qaratishni talab etadi. Chunki slaydlar ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy o‘quv jarayonini bu usulsiz tasavvur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlarni kompyuterda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan

¹ Qarang: Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш” модули бўйича ўкув-услубий мажмуда (тузувчилар: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Тошкент, 2015. 40 – 44-betlar.

istalgan vaqtida foydalanish va ish o‘rni o‘zgarganda, oson ko‘chirish imkoniyati mavjud¹.

Power Point dasturida taqdimot yaratish va o‘tkazishning asosiy tamoyillari mavjud²:

Birinchi sahifada taqdimot nomi, ijrochining familiyasi, guruh haqida ma’lumot joylashtiriladi.

Oxirgi sahifada “E’tiboringiz uchun rahmat!” yozuvi bo‘lishi kerak.

Sahifada minimum matn joylashtirilishi kerak. Sahifa 5-6 qatordan ko‘p bo‘lmasligi kerak (har bir qatorda 5-7 so‘zdan ko‘p bo‘lmasin). Agar taqdimot vaqtida katta axborot joylashtirish taqozo qilinsa, ularni bitta sarlavha ostida bir necha sahifaga joylashtirish kerak bo‘ladi.

Sahifada axborot va unga aloqador elementlarni shunday joylashtirish kerakki, ekran maydonining yuqori qismi foydalanilsin. Chunki uzoq masofada o‘tirganlar uchun taqdimotning pastki qismi ko‘rinmasdan qoladi.

Shrift kattaligi — 24 pt bo‘lsa, tinglovchilarning eng orqada o‘tirganlari uchun ham ko‘rinarli va qulay bo‘ladi.

Ranglarni tanlashda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan holat shundaki, siz taqdimotni o‘z kompyuteringizda emas, balki elektron doska yoki boshqa ekranda namoyish qilasiz, siz tanlagan ranglar boshqa ekranda o‘zgarib ketishi mumkin.

Taqdimot rasmiylashtirilishida bir xillikni ta’minlashga, ya’ni masalan barcha sahifalar sarlavhalarida bir xil shriftdan foydalanishga harakat qiling.

Taqdimot sahifalariga quyidagilar kiritilishi zarur:

- ma’ruzangizdagи muhim qismlar;
- misollar, sitatalar (tinglovchilar sizdan takrorlashingizni iltimos qilmasdan yozib olishlariga qulay bo‘lishi kerak);

¹ Najmuddinova M. Ta’limning sisfat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati // Talim texnologiyalari.-Toshkent: 2006. -№ 1. – B. 18-21.

² Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

– ma’ruzangizning tinglovchilar xotirasida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beruvchi rasm va boshqa elementlar;

Imloni alohida tekshiring!

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatalib kelinayotgan dasturiy ta’milotlardan biri **iSpring** dasturi hisoblanadi¹. U PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beradi. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko’ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va optsiyalar soniga ko’ra eng mukammali hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta’lim jarayonida qo’llanilishi mumkin bo’lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so’rovlар, elektron testlarni ham kiritgan holda o’zaro interaktiv bog’lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o’quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o’quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point – taqdimotlar bazasida o’quv kurslarini yaratish;
- b) audio va video fayllarni birlashtirish;
- c) interaktiv testlar yaratish;
- d) interaktiv bloklar yaratish;
- e) masofaviy ta’lim tizimi uchun ma’lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o’zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturining uskunalarini PowerPiont dasturining menyular satriga sozlaradi.

iSpringning o’rnatalishi muvafaqqiyatli bajarilgandan so’ng, Power Point ga iSpring instrumental qatori qo’shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o’ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flashda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo’ladi. Esiatma, aytish kerakki iSpring Proga qo’shiladigan har bir ma’lumot Windows uchun o’ziga xos aharniyatga ega.

<Quick Publish> tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi Flash movie o’rnataladi. iSpring Quick Publishing o’ziga

¹ WWW.iSpring.ru.

xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymaydi.

iSpring Pro 180 dan ortiq effektlarga ega Bu ko‘rsatkich Power Point 2007dagi barcha effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko‘plab harakatlarni o‘z ichiga olganligi hamda shu ko‘rsatkich bo‘yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tavsiflanadi.

iSpringning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo‘sish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test (nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTubega joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

iSpring Pro barcha slaydlar Power Point 2003, Power Point 2007, Power Point 2010 da slaydlar o‘zgarishi harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

5.3. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosibligi

Taqdimot sahifalari sizning ma’ruzangizga muvofiq kelishi kerak. Ma’ruzaning har bir abzasi uchun sahifa ajratish ma’qul emas. Sahifani almashtirish effektini mumkin bo‘lganicha qo‘llamang, bu tinglovchilar diqqatini tortib, ma’ruzadan uzoqlashtiradi.

Sichqonchani chertish bilan paydo bo‘ladigan matn yoki boshqa elementlar ham sizga noqulaylik tug‘diradi. Agar taqdimotda

ovozdan foydalannoqchi bo'lsangiz, apparaturalarni tekshirib ko'ring. Juda uzun ovoz jo'rligi ham tinglovchilarni ma'ruzadan uzoqlashtiradi.

Taqdimotning mazmuni asosan taqdimotchiga bog'liqligini, intonatsiya alohida ahamiyat kasb etishini, tinglovchilarni qiziqtiruvchi muhim omil ekanligini unutmang. Albatta ma'ruzangizni repititsiya qilib ko'ring.

Namoyish davomida ko'p uchraydigan tipik xatolar¹:

Ma'ruzachi tinglovchilarga orqa o'girib, faqat ekranga qaraydi.

Ma'ruzachi taqdimotdan ko'zini umzagan holda matnni o'qiydi.

Ma'ruzachi asabiy holda qo'llarini silkitadi, bu tinglovchilarni ma'ruzadan diqqatini qaytarishga sabab bo'ladi.

Multimedia vositalari orqali taqdimotlardan foydalanim dars tashkil qilish yuzasidan mutaxassislar quyidagi tavsiyalarni keltirishadi:

- Ortiqcha tovushlardan voz keching. Masalan, cho'ntakdag'i kalitlarni shaqillatmaslik yoki ruchkani o'yamaslik va b.
- "Ko'rsatkich"larga berilib ketmang – ruchka, ko'rsatkich, ko'zoynak .
- Tasodifiy harakatlardan voz keching. Masalan, o'zingizning sochingiz, yuzingiz, tana azolaringizga teginishingiz.
- Vizual diqqat bo'linishidan voz keching. Masalan, kuchli imo-ishoralar, nomuvosiq holat, yuz ifodasi.
- Parazit so'zlarni qo'llashda ehtiyyotkor bo'ling, "OK!", "Siz bilasiz...", "Va hokazo", "Shunday qilib..." kabi iboralarni qo'llashdan voz keching.
- Noloyiq iboralarni qo'llamang, "qiyin" terminlardan voz keching.
- "yopiq" yoki tarang holatlardan voz keching.
- Tovush balandligini, tempi. talaffuzning aniqligini to'g'rilang.
- O'zingizni dadil tuting.
- Do'stona munosabatda bo'ling, bajarayotgan ishingizzga nisbatan samimiy qiziqishingizni ko'rsating: hattoki ushbu masalada

¹Создание базовой презентации в PowerPoint 2007 [Электронный ресурс].

— Режим доступа: <http://office.microsoft.com/ru-ru/powerpoint-help/HA010194282.aspx>

eng zo'r ekspert bo'lsangiz ham kibrli, takabburona ohangga o'tmang.

- Auditoriyada sizni eshitayotganliklari va tushunayotganliklariga ishonch hosil qiling.
- Auditoriya savollariga nazar tashlang.
- Auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rnating: devor yoki derazaga qaramang; har soniyada bitta ishtirokchidan boshqa ishtirokchiga ko'zingiz bilan "yugurmang", auditoriyadagi har bir ishtirokchiga 2-3 sekunddan birma-bir ko'z yogurtiring; barcha ishtirokchilarga qarashni yodingizdan chiqarmang.
- Auditoriya tomonidan yuborilayotgan noverbal belgilarni kuzating — tana, qo'l, oyoq va h.k.larning holati.
- O'zingizning yozuvlaringizga hadeb qarayvermang. Sitatalardan tashqari qolgan narsalarni o'qib bermang.
- Tez-tez pauzalar qiling — auditoriyadan ko'ra siz uchun sukunat uzunroq bo'lishi mumkin. Hazilni oshirib yubormang.
- Eshitish kuchni talab etadi. So'zlayotgan insonga diqqatingizni qarating. Sabrli bo'ling: inson 1 minutda o'rtacha 125 ta so'z aytadi, ammo ushbu vaqtida ko'proq narsani eshitishi mumkin. Qandaydir muddatga shaxsiy fikr va qarashlaringizdan voz keching.
- So'zlayotgan insonga yuzlaning.
- Aloqani ko'z orqali qo'llab quvvatlang, ma'qullab bosh qimirlating.
- Vaqtি-vaqtি bilan "Ha", "Tushunaman" iboralarini ishlating.

Savollar bering: Faqatgina aytligan so'zlarga aniqlik kiritish, tafsilotlarni aniqlash lozim bo'lsa, savol bering.

Boshqacha ifodalash:

- O'z so'zingiz bilan aytgan so'zlariningizni qaytaring.
- Asosiy iboralarni, gaplarni aynan aytganingizdek qaytaring.
- "Siz..." muomalasidan foydalaning.
- Dalillar va hissiyotlarni ham ishga soling.
- Xulosa qilayotganda simpatiya bildiring, hukm chiqarmang, baholamang va qarorlar taklif qilmang.
- Tinglayotganingizda, so'zlovchining gapini bo'lmang, unga fikrini bildirishiga imkon bering.

- Aytيلayotgan so‘zlarga diqqatingizni qarating, muhim so‘zlar, g‘oyalар, hissiyotlarni nazardan qoldirmaslikka harakat qiling. Asosiy g‘oya mag‘zini anglab eting.
 - Gapirilayotgan fikrlarga umuman qo‘shilmamasangiz ham o‘z hissiyotlariningizni nazorat qiling. Xayolan so‘zlayotgan inson bilan bahslashmang.
 - Aytilmay qolgan fikrlarni ilg‘ab olishga harakat qiling, ayrim hollarda aytigan so‘zlarga qaraganda ular juda muhimroqdir.
 - Eshitishga quyidagi munosabatni ishlab chiqing: sabr bilan aytildigani so‘zлами kuting.
 - Eshitishga ko‘maklashing: suhbatdoshga yuzlaning, ko‘z aloqasini o‘rnating, chehrangiz ifodasi manfaatdor bo‘lishi kerak.
 - Diqqatni alahsitudigan omillarni bartaraf eting (qo‘ldagi qalam, qog‘ozlarni ko‘zdan kechirish).
 - yodingizda bo‘lsinki, diqqat bilan tinglamaslik suhbatdoshga beparvolikni anglatadi.
 - Barcha guruhlarga savol bering.
 - Guruhlarga o‘ylash uchun vaqt bering.
 - Javobga munosabatingizni bildiring va haqiqatni aniqlagunga qadar muzokarani olib boring.
 - Agar hech kim javob bermasa, auditoriya tomonidan noverbal signallarga murojaat qiling: ko‘zlar orqali aloqa, turish holati – kindir balki javob berishni xohlar.
 - Javobni baholashda ehtiyyotkor bo‘ling¹.
- Darsning ko‘rgazmaliligi quyidagilarga:
- O‘qituvchining nutqi, hatti-harakati;
 - Darslik, o‘quv qurollar;
 - Darsni o‘qitishdagi uslub, usullar;
 - O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati;
 - Dars jarayonida qo‘llaniladigan jihozlar: texnik vositalar, ko‘rgazmali va tarqatma materiallarga bog‘liqligini unutmagan holda elektron ko‘rgazmalilikning har qachon o‘qituvchi shaxsi bilan aloqadorligini hisobga olish zarur. Bizning tavsiyalarimiz esa darslar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

¹ Najmiddinova M. Ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati // Talim texnologiyalari. – Toshkent: 2006. – № 1. – B. 18 – 21.

5.4. Epizodik slaydlar

Og‘zaki, ko‘rgazmali, matnli-axborotli majmua oddiy slaydnı o‘quv epizodiga, ya’ni darsning mustahkamlovchi qismiga aylantira oladi.

Multimediali darsda son-sanoqsiz slaydlar talab qilinmaydi. Slaydlarning miqdori o‘quv epizodlarining rejalashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Darsni loyihalovchi o‘qituvchi har bir o‘quv epizodini mustaqil didaktik birbutunlikka aylantirishga harakat qilishi zarur.

Epizodik slaydlarda taqdim qilinayotgan o‘quv materialining ixchamlashtirilishi alohida ahamiyatga ega.

Eng yaxshi qurilgan o‘quv epizodida ma’lumotlarning, axborotlarning quruq bayoni o‘z ifodasini topmasligi kerak. O‘quvchida, o‘rganuvchida fikrlash paydo qilish qachonki, axborot to‘laqonli bo‘lmasa yuzaga keladi. O‘qituvchi “aql gimnastikasi”ni o‘tkaza olishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. MS Power Point dasturi nima?
2. Taqdimot yaratish qoidalari qaysilar?
3. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosibligi?
4. Epizodik slaydlar nima?
5. Til ta’limida foydalanimayotgan taqdimotlarni ma’ruzada keltirilgan talab va tavsiyalar asosida baholashga harakat qiling.
6. MS PowerPoint dasturining imkoniyatlari haqida qo’shimcha adabiyotlardan foydalaniib taqdimot yarating.

Mustaqil ish topshiriqlari. MS PowerPoint dasturida umumta’lim mifikalari “Ona tili” ta’limi uchun taqdimot yaratishni mashq qiling.

Asosiy tushunchalar:

Taqdimot (презентация, presentation) – diagramma, jadval, matn va boshqa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni maxsus dasturlardan foydalangan holda display, videoproektor kabilarda namoyish qilish uchun tayyorlash.

Videoilovalar (видеоприложения, video exhibits) – harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqarish texnologiyasi va namoyishi.

Ta'limning informatsiyon texnologiyasi (информационная технология обучения, Information technology of education) – pedagogik texnologiyaning maxsus turi bo'lib, bunda maxsus dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio- va videovositalar, kompyuterlar, telekommunikatsion tarmoqlardan) foydalaniladi.

Multimedia proektori (мультимедийный проектор, protector of multimedia) – kompyuterdan, videokameradan, DVD disklarni tasvirlovchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranda yoritib berishga xizmat qiladi.

Multimedia galereyalari (мультимедийная галерея, gallery of multimedia) – tovush jo'rligidagi harakatlanuvchi suratlar to'plami.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent, TDPU, 2002. – 27 b.
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, Fan, 2009. – 145 b.
3. Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>
4. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.iSpring.ru
2. <http://office.microsoft.com/ru-ru/powerpoint-help/HA010194282.aspx>
4. www.yazikoznanie.ru

6- MODUL: O'ZBEK TILI MULTIMEDIA DARSLIKLARI

6.1. O'quv adabiyotining elektron shakli

O'quv adabiyotlarini yaratish konsepsiyasida¹ ko'rsatilganidek, o'quv adabiyotlari – muayyan ta'lif turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) mamba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

– An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar - ta'lif oluvchilarining yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sisati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

– Elektron o'quv adabiyotlar – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlari ega bo'lgan manba.

Darslik o'quvchi uchun bilim manbasi bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quv qo'llanmasidir. Chunki ko'p hollarda dars darslik qolipi asosida quriladi. Shuni unutmaslik kerakki, darslik o'quvchi bilishi va ustida ishlashi uchun lozim bo'lgan o'quv materialining faqat ma'lum bir qisminigina beradi. Darsni darslik qolipi asosida qurish faqat darslikda berilgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish emas, albatta. Ona tili ta'lifi tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv dasturlar, audiovideo almanaxlar, multimedia o'quv dasturlari, elektron nazorat testlari, masofaviy ta'lif kabilarni kiritish mumkin. Aksariyat hollarda o'qituvchilar kompyuterdan faqat test yechish, nazorat yoki tanlov jarayonlarida reyting ballarni aniqlashda foydalanmoqdalar. Lekin kompyuterning ta'lif tizimida keng imkoniyatlarga ega ekanligini, xusasan, o'quvchi so'z boyligini oshirish, fikri og'zaki va yozma to'g'ri, ravon ifodalash mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda o'qituvchining beqiyos

¹ Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2013-yil 2-avgustdagji 278-soni buyrug'iga 1-ilova. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. 4 – 5 b.

yordamchisiga aylanadi. O'qituvchilar oldida ta'lif jarayonida turli axborot vositalaridan o'rini va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Yana bir muhim jihat barcha maktablarning biz yuqorida sanab o'tgan ta'lif vositalari bilan ta'minlanishi talab darajasida deb ayta olmaymiz.

6.2. Elektron o'quv adabiyotlarining turlari, tarkibiy qismlari

Elektron darslik¹ – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lif olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron nashr (EN) – bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqали, videofoto va boshqa axborot obyektlaridan iborat bo'lgan jamlanmasi hisoblanadi. EN magnitli (magnit tasmalarda, magnit disklarda), optik (CD-ROM, CD-I, CDQ, CD-R, CD-RW, DVD) elektron axborot tashuvchi vositalarida hamda kompyuter tarmog'ida taqdim etilishi mumkin:

Elektron o'quv nashri – ta'lif oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faoli egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy-amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

Elektron lug'at – an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbasi. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar

¹ Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2013-yil 2-avgustdaggi 278- sonli buyrug'iiga 1-ilova. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiysi.7-8 b.

guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chiqarilishi mumkin.

Elektron uslubiy qo'llanma – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lif faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan o'quvchilar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi.

Elektron o'quv qo'llanma – fanning o'quv hajmini qisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan.

Elektron ma'ruza – interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo'llab, o'quv fani ma'ruza materialini namoyish qiluvchi multimedik tizim.

6.3. O'zbek tili darslarida multimedia darsliklaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari

Elektron darsliklar ko'pgina iqtisodiy sarf-xarajatlarni tejash imkonini beradi.

Elektron darsliklar yaratish uchun tajribali o'qituvchi, dasturchi, kompyuter grafikasidan rassom, muharrirdan iborat jamoa faoliyati amalga oshiriladi.

Elektron darslik mavzuni eng qulay ko'rinishda taqdim qila oladi. Mualliflar jamoasi qaysi mavzuni kompyuterning qanday imkoniyatidan, pedagogik texnologiyaning qaysi turidan foydalangan holda taqdim qilishini oldindan rejalashtiradi, ssenariy yaratadi.

Elektron darsliklardan foydalanishning afzallik jihatlari shundaki, birinchidan, internetdagи ma'lumotdan bir vaqtning o'zida ko'plab o'quvchi foydalanishi mumkin; ikkinchidan, o'quvchilar animatsiyali dasturlardan kitobga qaraganda ko'proq va qiziqarliroq ma'lumot oladilar¹.

¹ Usmonova Z. Adabiyot o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. // Til va adabiyot ta'limi. -2005. 3-son. – B.20-22.

Elektron darslik yaratish texnologiyasini loyihalashtirish 7 bosqichni o‘z ichiga oladi¹:

1) konsepsiyasini ishlab chiqish (fan standarti va mashg‘ulot o‘tkazish metodikasiga tayanuvchi elektron darslik yaratishning asosiy g‘oyasini ishlab chiqish, darslikning mazmunli qismini tuzish);

2) loyihalashtirish (ko‘rinishida ishchi namunasini, axborot bloklari va ekran shakllari andozalarini to‘plamini, murojaatlar interfaolligini ta‘minlovchi giperilovalar tuzilmasining tartibli sxemasini ishlab chiqish);

3) ekran shakli va axborot bloklari dizayni (aniq o‘quv jarayoni, psixologik-pedagogik xususiyatlari, ergonomika talablari, o‘quv materiallari tuzilishi va mazmuniga mos ravishda dizayn tuzilishini qurish);

4) o‘quv materiallarini elektron shaklda tayyorlash va ularni bo‘limlar bo‘yicha bir ish seansi, ya’ni bir dars uchun mo‘ljallangan elementlar qismlarga – modullarga ajratish;

5) ilova tuzilmasi elementlarini to‘ldirish (tayyorlangan materiallarni ishlab chiqilgan andozalar va ekran shakllariga joylashtirish, ilovalar tizimini to‘ldirish hamda foydalanuvchi bilan qayta aloqa tashkil qilish);

6) test sinovlari va sozlash (har bir ilova, aloqa ishlari to‘g‘riligini va foydalanuvchi harakatiga dasturning javobini to‘g‘riligini tekshirish);

7) o‘quv jarayoniga tatbiq etish (albatta, ta’lim beruvchilar va o‘quvchilar refleksiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash bilan umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida elektron darslikni qo‘llash).

Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadi:

- ta’limni va o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta‘minlashi;
- mustaqil ta’lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;
- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi;

¹ Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2013-yil 2-avgustdagи 278- sonli buyrug‘iga 1-ilova. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyetlarning yangi avlodini yaratish konsepsiysi.

- axborot-ta'lim resurslarini rivojlantirish va tezkor yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- matn, shuningdek, boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) orqali taqdim etilishi.

Elektron darsliklarning quyidagi belgilariga ko‘ra o‘zaro farqlash mumkin:

I. Foydalanish maqsadlariga ko‘ra: jamoa bo‘lib va individual foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo‘lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim resurslarini talab qilmaydigan bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ular server kompyuterga joylashtiriladi va ulardan kompyuter tarmoqlari (Internet yoki Intranet) orqali foydalanish mumkin.

Individual foydalaniladigan elektron darsliklar o‘quv materiallarini o‘qituvchining ishtirokisiz o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg‘ulotlarida ham foydalanish mumkin.

II. O‘quv materiallarini taqdim etishi bo‘yicha: tartibli va ixtiyoriy. Tartibli elektron darsliklar ma’lum bir bo‘lim o‘quv materiallarini o‘zlashtirmasdan keyingi bo‘limga o‘tishga imkoniyat bermaydi.

III. O‘quv materiallari va axborotlarni yangilash bo‘yicha: uzlusiz va davriy yangilanuvchi.

Uzlusiz ravishda yangilanadigan elektron darsliklar odatda elektron o‘quv bazalar (portallar, veb-saytlar va boshqalar)ga va elektron kutubxonalarga joylashtiriladi. Davriy yangilanadigan elektron darsliklar asosan elektron axborot eltvchilar (disketa, CD-disk va boshqa) kabilar bilan taqdim etiladi.

5 – 9-sinflarda ona tilini o‘qitish jarayoni uchun electron resurslar yaratish ishlari jadallahshmoqda. Jumladan, p.f.n.Sh.Sh.Yuldasheva, O.Zaripov, M.Bekjanova, D.Smaylova, Q.Gulmanova, G.Yangiboeva, D.Urazboevlar hammuallifligidagi umumta’lim maktablarining 5-sinflari uchun “Ona tili” elektron o‘quv-metodik majmua (1-qism)da bir qancha amaliy dasturlardan Microsoft Word, Microsoft Power Point, iSpring, Microsoft Office Publisher, Hot Potatoes, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media va b. amaliy va mualliflik dasturlaridan foydalanishgan. 5-sinf

ona tili ta'limi uchun o'quv-me'yoriy hujjatlarga (DTS, o'quv dasturi, taqvim-rejaga) tayangan holda 1 va 2-choraklar darslari uchun taqdimotlar, videodarslar, interaktiv mashqlar test topshiriqlari, lug'atlardan namunalar tayyorlangan va elektron o'quv metodik majmuaga jamlangan.

Majmua quyidagi tuzilishga ega:

- titul;
- mundarija;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlar (DTS, fan dasturi, taqvim-reja va b.);
- ta'lim mazmunini belgilovchi komponent (nazariy qism uchun videodarslar, taqdimotlar, amaliy qism uchun mashq va topshiriqlar);
- testlar;
- elektron lug'atlar;
- metodik komponent (o'qituvchi va o'quvchilarga mo'ljallangan metodik komponent);
- foydalanilgan adabiyotlar.

Elektron o'quv-metodik majmuada o'quv materialining multimedia, ya'ni ma'lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi; turli o'quv adabiyotlari – darslik, lug'at, mashq va topshiriqlarning bir joyda jamlanganligi; o'r ganuvchi va o'r ganuvchi o'itasida o'zaro bevosita aloqa o'matilishi (interaktivlik); o'qituvchining o'quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha vazifalarning ma'lum qismini kompyuterli o'quv vositalari zimmasiga yuklatilganligi; o'quvchi tomonidan qabul qilinadigan – maslahat, tushuntirish, ma'lumotni izlash bo'yicha savol-javob va bilimni o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o'tish imkoniyatining mavjudligi; kompyuter vizualizatsiyasi orqali o'r ganilayotgan obyektning kompyuterdag'i imitatsiya modellaridan foydalanilganligi; o'quv materialiga nisbatan yengil o'zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilganligi; an'anaviy o'quv adabiyotlari (masalan, bosma) bilan birgalikda kompleks holda foydalanish imkoniyatining mavjudligini alohida e'tirof etish zarur.

Elektron o‘quv-metodik majmuada “Elektron darslik va elektron o‘quv qo‘llanmalari elementlariga texnik, gigienik va ergonometrik talablar”ga muayyan darajada e’tiborga olingan.

Elektron o‘quv majmua pedagogik talablarga (amaldagi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga to‘la muvofiq), psixofiziologik talablarga (foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan), metodik talablarga (ta’lim beruvchiga darsni mustaqil dars ko‘rinishida o‘tkazishga sharoit mayjud, bu holatda ta’lim beruvchi maslahatchi rolida ishtirot etishini ta’minlash, darslarga tayyorgarlikni o‘qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratilgan (dialog, videomateriallar mavjud), o‘rganiladigan o‘quv materiali sistemali, mantiqiy ketma-ketlikda, modullilik va ular orasida uzviy bog‘liklik ta’minlangan holda taqdim qilingan, ta’lim oluvchilar o‘zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat tashkil qilish imkoniyati yaratilgan) javob bera oladi.

Elektron o‘quv-metodik majmua quyidagi qismlardan iborat:

1. O‘rgatuvchi qism – taqdimotlar, videodarslar iborat.
2. Mashq qildiruvchi qism – xatolarni ko‘rsatib beruvchi to‘g‘ri xulosaga olib keluvchi qism mavjud.
3. Nazorat qildiruvchi – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllangan.

Elektron o‘quv-metodik majmua elektron resurslarga qo‘yiladigan umumiy gigienik talablarni hisobga olgan holda yaratilgan. Qulay interfeysga ega. Bezak berish talablariga javob beradi. Shrift turi va o‘lchovi talab darajasida, ya’ni Verdana, kegl 12 dan kam emas. Fon rangi, grafikaga qo‘yiladigan talablar inobatga olingan.

Ekranning faol qismida interaktiv elementlar ko‘zga tashlanib turadigan tarzda joylashtirilgan. ETRning navigatsiya tizimi asosiy bo‘limlar tuzilmasiga to‘g‘ri keladi va foydalanuvchinining minimal harakati orqali istalgan axborot resursga o‘tish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilar dasturning menyusi yordamida ixtiyoriy dars mavzusini tanlash va unga tezkor o‘tish, oldingi va navbatdagi mavzularga o‘tish, mavzuga doir mashqlar va testlarni yechish orqali o‘z-o‘zini baholash shu jarayonda lug‘atlar, shuningdek qo‘srimcha

adabiyotlarga tezkor o'tish, dasturdan chiqish kabi bir qator harakatlarni oson bajarishlari mumkin. Interfeys ETRni sozlash elementlariga ega, ya'ni musiqiy tonni tanlash, videotasvirni, tovush jo'rligini yoqish/o'chirish, tasvirlarning hajmini o'zgartirish va h.k.lar nazarda tutilgan. Matndagi belgilar va fon rangining uyg'unligi ta'minlangan. Elektron o'quv-majmuaga bezak berishda fan xususiyatlari e'tiborga olingan. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosobiligiga erishilgan.

Mualliflar pedagogik dasturiy vositalar va mualliflik dasturlari imkoniyatlarini o'rganishgan va uni elektron o'quv-metodik majmuani yaratish jarayoniga tatbiq qila olishgan, fan mazmuniga muvofiq mashq va topshiriqlar, test topshiriqlari, esse topshiriqlari yaratishgan, taqdimotlar yaratish va ularni videoedarslarga aylantirish vazifasini talab darajasida uddalashgan.

Aksariyat elektron adabiyotlarda imlo, punktuatsion va uslubiy xatolarning ko'p uchrayotganligi har qanday ziyoli kishini tashvishlantiradi.

Mulohaza o'rnida aytish o'rinniki, biz umumjahon elektron tizimiga, butun dunyo virtual universitetlariga kirib borish va birqalikda faoliyat ko'rsatishni ko'zlayotgan ekanmiz, O'zbekistonda yaratilgan elektron adabiyotlar butun dunyo ahliga tanishtirilishi, yoyilishini hisobga olishimiz, o'zimizning savodxonligimizni ham namoyon qilishimizni e'tiborda tutishimiz lozim. Ulkan mehnatlar evaziga yaratilgan adabiyot matni tilida nuqsonlar bo'lsa, bu adabiyotning bahosini pasaytirishi shubhasiz. Elektron adabiyotga bezak berilishidan oldin va bezak berilishi jarayonida tilshunos mutaxassislar tomonidan tahrir qilinishiga alohida e'tibor berish zarur.

5.4. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda AKTning ahamiyati

Dastlab ta'lrim jarayonida elektron darslik, elektron o'qituvchi tushunchalari paydo bo'lganida aksariyat o'qituvchilarda xavotir paydo bo'ldi. Bu qo'rquvning sababi dars jarayonida o'qituvchining mavqeyi pasayib ketishi mumkun deb qaralganida edi. Lekin bugungi kunga kelib darslarning elektron darsliklar yordamida tashkillashtirilishi bu fikrning mutlaqo noto'g'ri ekanligini isbotlamoqda. Ayniqsa, ta'lrim boshqa tillarda olib boriladigan

maktablarda o'zbek tilini o'rgatishda elektron resurslar ko'rgazmalilikni ta'minlash, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish omili bo'lmoqda.

O'zbek tili ta'limida multimediya ilovalari asosan boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyati mavjud, yuqori sinflar uchun multimedya ilovalari hali yaratilish bosqichida (8-, 9-sinflar uchun amalaiyotda qo'llanmoqda), 5-, 6-, 7-sinflarda ana shunday elektron resurslarga ehtiyoj juda katta¹.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fani haftasiga 2 soatdan jami 68 soat o'qitiladi. 8-sinfda 22 ta, 9-sinfda 23 ta nutqiy mavzu o'tilishi rejalashtirilgan.

O'zbek tili fanidan 8-sinf uchun "Info Media Technologies" tomonidan, 9-sinf uchun "EXTREMUM PRESS" nashriyoti tomonidan elektron darsliklar yaratilgan.

9-sinf elektron darsligining mazmuni: Mundarija, 23 ta nutqiy mavzu bo'yicha materiallar, test topshiriqlari va lug'atlardan iborat.

Darslikdagi 23 ta nutqiy mavzularidan O'zbekiston – yagona Vatan", Yaxshilik unutilmaydi", "Qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik", "Orol – mintaqा muammosi", "Huquqiy bilimlar zarurati", "Odamlardan kutganlarim", Iqtisodiyot va ekologiya", "Buyuk allomalar hayotidan", O'zbekiston tabiatи", "Musika olamida" mavzularidagi matnlarga ovoz berilgan bo'lib, matnlar ifodali o'qib eshittirilgan.

Ayrim mavzular bo'yicha "Qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik", "Orol – mintaqа muammosi", "Huquqiy bilimlar zarurati", "Sog'lom bo'lay desang" mavzulari bo'yicha videolavhalar kiritilganki, ular mavzu mazmunini ochishga yordam beradi.

Darslik materiallari mazmunidan kelib chiqib tuzilgan test topshiriqlari maxsus dastur asosida joylashtirilgan bo'lib, ular o'quvchining o'r ganilgan mavzu bo'yicha egallagan bilimlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur darsliklar ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning axborot resurs markazlarida va kutubxonalarda,

¹Bekjanova M. O'zbek tilini o'qitishda elektron axborot-ta'lim vositalarining o'mi. //O'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari (respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. 33 – 37 b

informatika xonasida saqlanadi. Aimaliyotchi o'qituvchilar elektron darsliklar mazmuni bilan to'liq tanishib chiqqanlaridan so'ng, dastlab biron-bir mavzuni tanlab, darsni shu xonada tashkil etishi, o'quvchilarni elektron darslik mazmuni, uni qo'llash tartibi bilan tanishtirishi va tanlangan mavzu bo'yicha avval o'quvchilar bilan birgalikda mashg'ulotni o'tkazishi, keyingi darslarda o'quvchilar uya vazifa tarzida berilgan topshiriqlarni elektron darsliklar yordamida o'zлari mustaqil bajarishlari kerakligini tushuntirishlari loziim.

1. Elektron ta'lrim vositalarni sanab o'ting.
2. Elektron o'qitish shakllariga misol keltiring.
3. Elektron darslik nima?
4. Elektron darslikning komponentlarini sanab o'ting.

Mustaqil ish topshiriqlari. Interaktiv doskalardan foydalanish bo'yicha internet materiallarni o'rghaning. Ta'limgning yangi vositalari haqida esse yozing.

Asosiy tushunchalar:

Animatsiya (Анимация, Animation) – ekranda ob'ektlarning ko'rinishini formasi va o'chamlari hamda joylashishini multiplikatsion ko'rinishda o'zgarishi

Animatsiya (Анимация, Animation) – Bir necha tasvir yoki kadrlarni ko'rsatish orqali yaratiladigan harakat taqlidi. Televidenedagi multfilmlar animatsiyaning bir turidir.

Elektron darslik (электронный учебник, e-manual) – dasturiy kompleks bo'lib, unda aniq bir fan bo'yicha o'quv materiallari va testlar jamlangan bo'ladi.

Elektron darslik (электронный учебник, e-manual) – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlaridan foydalanishga mo'ljalangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin.

Elektron darslikning o'rgatuvchi qismi (обучающая часть электронного учебника, educational part of e-manual) – gipertekstga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.

Elektron darslikning mashq qildiruvchi qismi (упряжняющая часть электронного учебника, chapter of e-

manual that makes exercises) – xatolarni ko'rsatib beruvchi va to'g'ri xulosaga olib keluvchi qismi.

Elektron darslikarning nazorat qiluvchi qismi (контролирующая часть электронного учебника, controlling part of e-manual) – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Multimedia (мультимедиа, multimedia) – ovoz va video yozish imkoniyatini beruvchi kompyuter sistema'lari. Informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio-video matn grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishi.

Multimedia vositalari (средства мультимедии, means of multimedia) – tasvirlar, videofilmlar, animatsiyali grafik obrazlar, matn, nutqli va ovozli tasvirli matnlarni aks etiruvchi vositalar sistemasi.

Multimedia proektori (мультимедийный проектор, protector of multimedia) – kompyuterdan, videokameradan, DVD disklarni tasvirlovchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranada yoritib berishga xizmat qiladi.

Multimedia galereyalari (мультимедийная галерея, gallery of multimedia) – tovush jo'rligidagi harakatlanuvchi suratlar to'plami.

Adabiyotlar:

1. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Прикладная философия открытого образования: педагогический аспект. — М.: РИЦ «Алфа» МГОПУ им. М.А.Шолохова, 2002.
2. Бордовская Н.В., Рean А.А. Педагогика. Учебник для вузов .- СПб: Издательство «Питер», 2000.
3. Закирова Ф. Методические аспекты создания и использования web-сайта преподавателя // “Педагогик таълим”. - Тошкент, 2010.- №2. - С. 79-86.
4. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. -М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана, 2002. -336 с.

Internet saytleri:

1. <http://www.delight2000.com>
2. <http://multimedia.uz>

7- MODUL: O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA'LIMIDA INTERNETDAN FOYDALANISH

7.1. Internet tarixi haqida

Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Internet – bu butun jahon kompyuter tarmoqlari majmuyidir, ya'ni yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Unga ulangan kompyuterlar 2 guruhga bo'linadi: serverlar va mijozlar. Internet - minglab lokal va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi hisoblanadi. WWW – World Wide Web – butun dunyo o'rgamchak to'ri hisoblanib, internet resurslarini tashkil etish va undan foydalanishni ta'minlab beradi.

1957-yil 4-oktyabrda sobiq SSSR birinchilardan bo'lib yerning sun'iy yo'ldoshini uchirdi. 1958-yilda AQSH prezidenti D.Eyzenxauer mudofaa vazirligi tasarrufida perspektiv ilmiy loyihalar va izlanishlar olib borish bo'yicha Agentlik tashkil qilish to'g'risidagi hujjatni imzoladi. 1969-yil 29- oktabrda AQSHning ARPANet (ingl. Advanced Research Projects Agency Network) tarmog'idagi 640 km (Kaliforniya va Stenford universitetlari) masofada joylashgan ikki kompyuteridan "LOG" so'zi uzatilgan. 1971-yilda birinchi elektron pochta dasturi ishlab chiqilgan va u tez ommalashgan. 1973-yilda tarmoqqa buyuk Britaniya va Norvegiyadagi turli tashkilotlar telefon kabeli orqali ulanishdi. Shundan so'ng tarmoq xalqaro miqiyosda kengaydi. 1974-yilda bu tarmoqni "Internet" deb nomlash taklif etilgan. 1981-yilda mudofa vazirligi ARPANet tarmog'i asosida o'zining tarmog'ini ishlab chiqishi natijasida tarmoq ARPANet va MILNet tarmoqlariga bo'linadi. 1982-yildan Internet zamonaviy ko'rinishni ola boshladi

va ommalashib bordi. 1984-yilda domen nomlari tizimi ishlab chiqilgan (ingl. *Domain Name System, DNS*), bu davrda tarmoqqa ulangan xostlar soni 100 000 dan oshgan edi.

Internet domen nomlari internet manzillarida ishlatilib, ular mamlakat nomlarini, tashkilot va korxonalar faoliyatini anglatadi:

UZ – Uzbekistan; **RU** – Russia; **US** United States; **COM** – Commercial; **EDU** - US Educational; **GOV** – Government kabilar.

1990-yilda Tim Berners-li «World Wide Web» atamasini taklif etdi. 1993- yilda birinchi veb-brauzer Mosaic (mozayka) ishlab chiqildi va u Internet Explorerning asosi bo'ldi.

Internet provайдерлар quyidagi xizmatlarini taqdim etadi:

WWW - internet resurslarini tashkil etish

E-mail - elektron pochta xizmati

Web hosting - shaxsiy veb saytlarni internetga joylashtirish

Internet conference - internet orqali video muloqot

Searching - internet qidiruv tizimlaridan foydalanish

FTP - fayllarni almashish protokoli

IPTV - internet tarmog'i orqali raqamli televideniya

IP telefoniya - internet tarmog'i orqali telefon so'zlashuvlar.

Til va adabiyot ta'limida internetdan foydalanish kundan kunga ommalashib bormoqda. Xususan, adabiyot ta'limida uning minglab imkoniyatlari mavjud.

Har bir adabiyotshunos Word dasturidan foydalanadi. Shuningdek, har bir tarjimon ham o'z faoliyatida tarjimon dasturlarini qo'llaydi. Ko'rindiki, har bir filolog u yoki bu tarzda o'z ishlarida informatsion texnologiyalardan foydalanadi. Har birimiz Internetdan foydalanamiz, elektron ensiklopediyalarni bilamiz, masalan, *wikipedia*. Elektron kutubxonalaridan foydalanamiz: masalan, *Xurshid Davronning* elektron kutubxonasidan.

7.2. Internetaing filologik resurslari

Internetning filologik resurslari filolog uchun eng muhim axborot manbayidir. Filologik resurslarga quyidagilar kiradi: elektron entsiklopediyalar, universal kutubxonalar saytlari, universitetlar, institutlar, kafedralar saytlari. Bular maxsus filologik informatsiyaning tashuvchilari hisoblanishadi. Avtorlik saytlari. Olinilarning personal sahifalari.

Filologik ta'limga bir qator kompyuter programmalari qo'llanadi, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Tasnif asosi:

1. Ta'limgarayonidagi funksional belgisiga ko'ra, ya'ni bunda uning o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'rni hisobga olinadi.
2. Tuzilishga ko'ra.
3. Matnning tuzilishiga ko'ra.
4. Taqdim qilinayotgan informatsiyaning xarakteriga ko'ra.
5. Bayon qilish shakliga ko'ra.
6. Maqsadiga ko'ra.
7. Bosma ekvivalentning mavjudligiga ko'ra.
8. Asosiy informatsiyaning tabiatiga ko'ra.
9. Tarqalish texnologiyasiga ko'ra.
10. Foydalanuvchi va elektron nashrning o'zaro aloqa qilish xarakteriga ko'ra.

1) Ta'limgarayonidagi funksional belgisiga ko'ra, uning o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'rniga ko'ra ular quyidagilarga bo'linadi:

- Dasturiy -metodik (o'quv rejalar va o'quv dasturlar);
- O'quv-metodik (metodik ko'rsatmalar, ularda o'quv fanini o'qitish bo'yicha materiallar, kurs ishlari va diplom ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar bo'ladi);
- Ta'limgaruvchi (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, ma'ruza konspektlari);
- Yordamchi vositalar (praktikumlar, masala va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, o'qish kitoblari).
- Nazorat qiluvchi (test dasturlari, ma'lumotlar bazasi)

2. Tuzilishiga ko'ra ular:

- Bir tomli elektron nashr;
- Ko'p tomli elektron nashr;
- Elektron seriyaga bo'linadi.

3. Taqdim qilinayotgan ma'lumotning xarakteriga ko'ra:

- o'quv dasturi,
- o'quv rejasi,
- metodik ko'rsatmalar,
- metodik tavsiyalar,
- amaliyotlar dasturi,
- amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar,
- darslik,

- o‘quv qo‘llanma,
- ma’ruzalar konspekti,
- ma’ruzalar kursi
- praktikum,
- xrestomatiya,
- o‘qish kitobi.

4. Bayon qilish shakliga ko‘ra:

- programmalashtirilgan o‘quv nashrlari;
- muammoli o‘quv nashrlari;
- aralash yoki universal o‘quv nashrlari.

5. Maqsadiga ko‘ra:

- maktab o‘qivchilari uchun;
- bakalavrlar uchun;
- magistrler uchun;
- yoshi kattalar uchun.

7. Bosma ekvivalentning mavjudligiga ko‘ra:

- bosma o‘quv nashrining elektron analogi;
- o‘quv yo‘nalishidagi mustaqil elektron vosita.

8. Asosiy informatsiyaning tabiatiga ko‘ra:

- matnli (ramzli) elektron nashr;
- tasvirli elektron nashr;
- ovozli elektron nashr;
- dasturiy mahsulot;
- multimedia elektron nashr.

9. Tarqalish texnologiyasiga ko‘ra:

- o‘quv yo‘nalishidagi lokal elektron vosita;
- tarmoqli elektron nashr;
- aralash elektron nashr.

10. Foydalanuvchi va elektron nashrning o‘zaro aloqa qilish xarakteriga ko‘ra:

- *farqlanadigan elektron nashr;
- *farqlanmaydigan elektron nashr.

7.3. Seteratura

Filologiyadagi eng katta yutuq – seteraturadir, ya’ni internet tarmog‘ida vujudga kelgan va unda o‘qish uchun yo‘naltirilgan adabiyot vujudga keldi. Seteratura adabiyot va internetning o‘zaro aloqasi va faoliyati natijasida yuzaga kelgan tushuncha hisoblanadi.

Keng ma'noda uning predmeti – adabiy matnlardir, ularni mualliflar tarmoqlar jurnallari va nashrlarida joylashtirib boradilar. Setevaya literatura (seteratura) — bu tushuncha hozirda Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan badiiy asarlarga ham ishlatilmogda. Internet bosma nashrlarda mavjud bo'lмаган bir nechta imkoniyatlarni muallifga taqdim qiladi, bular:

- Matnning bir chiziqli emasligi: gipersilkalar sababli o'quvchi matn bo'yicha o'z harakat traektoriyasini chizishi mumkin bo'лади;
- Matnning interaktivligi: muallif o'quvchilarga mavjud matnga o'zgarishlar kiritish imkonini berishi mumkin;
- Matnning multimediali: internetdagি matnga ovozli fayllarni, animatsiyali tasvirlarni osonlik bilan qo'yish mumkin.

Internetda bugungi kunda eng keng va ko'p tarqalgan janrlar bo'lib prozaik miniatyura, esse va adabiy kundaliklar hisoblanadi. Seteratura haqida "Vikipediya"da Dirdina A.A., Kuranova A.O. ««Сетевая литература: потенциал и тенденции развития»» maqolasi, shuningdek, A.L.Tarankov, V.Solenskiy, I.S.Skoropanova larning maqolalari yozilgan.

Adabiyot va informasion texnologiyalarning o'zaro aloqasi tufayli quyidagi mahsulotlar"ga ega bo'lish mumkin:

- 1) elektron kitoblar (Word, Pdf formatida saqlangan);
- 2) elektron ensiklopediyalar (masalan, Кругосвет, Википедия);
- 3) elektron kutubxonalar (Максим Мошков);
- 4) yosh mualliflar uchun elektron portal (masalan, proza.ru, poeziya.ru va b.);
- 5) seteratura.

Seteratura bugungi kunda keng tarqalgan bo'lib, uning tarixi 1994- yilga borib taqaladi. Birinchi rus adabiy veb-jurnali 1994-yilda Leonid Delitsin tomonidan tashkil qilingan edi. Ammo rus tilli seteraturaning boshlanishi sifatida 1995-yilning 10-oktabri hisoblanadi, bunda Roman Leybov o'zining "Roman" gipertekstli loyihasiga start bergan edi. Seterator Aleksey Andreev Internetda «Сетера. Манифест Сетевой литературы, или личный опыт поэтической независимости» maqolasini e'lon qildi, bunda u seteraturaning asosiy janr va uslubiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Ulardan ayrimlari:

ZiyoNet axborot ta'lif tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek, aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'lifni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan ununli foydalanish – bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lif tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lif tizimida o'quv muassasalarini uchun yaratilgan saytlardan foydalanib o'qitish qo'llanilmoqda.

Respublika pedagogika ta'lif muassasalarining yagona axborot muhiti yaratiladi;

- yagona kutubxona muhitini shakllantiradi (elektron kutubxonani yaratilishi, elektron darsliklar va noan'anaviy axborot tashuvchilar fondining shakllanishi, yagona ma'lumotlar bazasining yaratilishi va h.k.);
- pedagogik ta'lif sohasida yagona telekommunikatsiya tarmog'i muhiti shakllantiriladi;
- yangi axborot-ta'lif muhitini shakllantiradi, ta'lifda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratadi;
- yangi axborot madaniyatiga ega pedagogik kadrlarini shakllantirish orqali pedagogik ta'lif sifatini oshiradi;
- yangi ta'lif texnologiyalarining ilmiy va metodik ta'minoti tizimini yaratadi;
- ta'lif axborotlariga, axborot resurslariga ommaviy tashrifni ta'minlashi, hujjatlarni uzatish, hisobga olish mexanizmini tizimlashtirishi, respublikada pedagogik ta'lifning holati bo'yicha axborotlarni jamoatchilik uchun ochiqligini amalga oshiriladi

Pedagogika ta'lif muassasalarining yagona axborot makonini joriy etilishi pedagogik ta'lifning sifatini va axborot ta'minotini rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratadi. Hozirda portalda pedagogika ta'lif yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lif standartlari, o'quv rejalar, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matnlari, nomzodlik, doktorlik dissertasiyalari, avtoreferatlar, "Pedagogik ta'lif" jurnalining elektron versiyalari joylashtirilgan elektron kutubxona va masofaviy kurslar va testlar, elektron konferensiylar, har bir pedagogik OTM haqida ma'lumotlar va pedagogika OTMlari

bitiruvchilari, pedagogika sohasidagi yangiliklar haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Internet nima? Uning tarixi haqida gapirib bering.
2. Dunyo miqyosida filologiyaga oid qanday internet resurslari mavjud?
3. Seteratura nima?
4. Ziyonet tarmog'i haqida ma'lumot bering.

Mustaqil ish topshiriqlari. Mustaqil ravishda sayt yaratishga harakat qiling.

Asosiy tushunchalar:

Elektron kutubxona (электронная библиотека, E-library) – elektron kitoblar yig'ilgan server.

Elektron kitob (электронная книга, e-book) – gipertekstli yoki gipermedia sistema, serverda yoki kompakt-diskda joylashgan bo'ladi.

Elektron matn (электронный текст, Electronic text) – Axborot tizimining xotirasiga yozilgan matn (hujjatlar, kitoblar, oynomalar, ma'lumotnomalar va h.k.).

Elektron pochta (электронная почта, electronic mail) – kompyuter va tarmoq yordamida ma'lumotlarni uzatish vositasi.

Elektron pochta (электронная почта, electronic mail) – tarmoqning eng ommaviy xizmat turi bo'lib, foydalanuvchilar o'rtaasida elektron xabarlar almashish imkoniyatini beradi.

Elektron pochta manzili (адрес электронной почты, electronic mail address) – elektron pochtaning har bir abonentiga ega bo'lgan shaxsiy manzil. Tizimdagisi foydalanuvchi nomi, @ belgisi va pochta serveri ishga tushirilgan kompyuter nomidan tarkib topgan ketma-ketlik bilan belgilanadi.

Elektron pochta qutisi (ящик электронной почты, electronic mail box) – Internet tarmog'i bo'ylab xabarlar jo'natish va qabul qilish uchun noyob tartib raqamidan (elektron pochta manzili) dan foydalanadigan dasturiy-tehnika vositalari majmuasi.

Global tarmoq (глобальная сеть, global set) – turli qit'alardagi, mamlakatlardagi kompyuterlar birlashib, bog'langan tarmoq.

Internet tarmog‘ining asosiy xizmatlari (основные услуги интернета, main services of the Internet) – WWW, HTTP, FTP, Chat, Elektron pochta.

Internet tarmog‘ining ta’lim xizmatlari (образовательные услуги интернета, educational services of the Internet) – elektron pochta, izlash tizimlari, elektron konferensiyalar, elektron entsiklopediyalar, masofaviy o‘qitish tizimi.

Login (логин, login) – 1. Foydalanuvchining loqopchining yoki tarmoqdan erkin foydalanish jarayoni. 2. Kompyuterdan erkin foydalanishga ega bo‘lish uchun foydalaniluvchi qayd yozuviga nomi. Maxfiy emas.

Adabiyotlar:

1. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
2. Yusupova Sh., G’ozieva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.
- 3.www.ziyonet.uz
- 4.www.pedagog.tdpu.uz

8- MODUL: TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA VIRTUAL IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH

8.1. Til ta'limida virtual imkoniyatlardan foydalanish

Ta'lismizidagi o'quv va o'quv-amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarining virtual imkoniyatlaridan foydalanish ommalashib bormoqda. Virtual so'zining tarixiy, falsafiy lug'atlarda berilgan izohlari quyidagicha: lotincha virtus so'zi kuch, imkoniyat, kuchli ma'nolarini anglatadi. Fransuzcha "virtuel", ingлизча "virtual" so'zları ana shu so'z bilan bog'liq bo'lib, "salohiyatlı", "ko'zda tutilgan", "faraz qilingan", "maket shaklida sun'iy yaratilgan" ma'nolarini anglatadi. D.N.Ushakovning "Rus tilining izohli lug'ati"da "yashirin kirib keladigan va shiddatli namoyon bo'ladigan; faraz qilinadigan" tarzida izohlangan bo'lsa, S.I. Ojegov, N.Y. Shvedovalarning "Rus tilining izohli lug'ati"da "mavjud bo'lmagan, lekin ehtimoli bor, mumkin narsa" deb izoh beriladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'z keltirilmagan. Hozirgi kunda texnika atamasi sifatida texnik vositalar yordamida olam obrazini sun'iy modellashtirish bo'lib, shu obrazning imitatsiya orqali inson tomonidan his qilinishi tushuniladi. Bunda foydalanuvchi mavjud holatga ta'sir qila olish imkoniga ega bo'lishi lozim.

Virtual mavjudlik texnologiyasi inson faoliyatining turli sohalarida, xususan, loyihalashtirish va dizaynda, foydali qazilimalarni izlab topishda, harbiy texnologiyalarda, qurilishda, marketing va reklamada, ko'ngilochar o'yinlar sanoatida keng qo'llanilmoqda. Ta'lismizida virtual texnologiyalar tatbiqini informatika, fizika, ximiya, biologiya fanlaridan kompyuter yordamidagi elektron virtual laboratoriya shakllaridan foydalanilishida yaqqol ko'rish mumkin. Bizningcha, virtual atamasini tillarni o'rganish jarayoniga tatbiq qilinayotgan elektron ta'lismositalariga nisbatan ham qo'llash mungkin. Ona tili ta'limida mavjud bosma ta'lismositalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, jadvallar, daftarlari)ning virtual imitatsion modellarini yaratish (elektron darslik, elektron qo'llanma, elektron jadvallar, elektron daftarlari), video va audio materiallarni tinglash, ko'rish orqali fikrlashga, tahlil qilishga yo'naltirish, real bo'lmagan,

modellashtirilgan elektron daftarlarda interaktiv mashqlarni bajarish jarayoni virtual mavjudlik deb qaralishi mumkin.

Rossiyada virtual va virtuallik, uning falsafiy mohiyati, virtuallik va ta’lim masalasi ilmiy-nazariy jihatdan N.A.Nosov, S.S.Xorujiy, R.A.Nuruljin, L.P.TSelenko, Y.V.Paraxnevich, K.A.Suvorov, N.N.Koroleva, D.V.Makarov, Y.V.Matrossov, A.Z.SHakirova, Y.E.Turutina I.D.Lobankov, I.D.Kiryushin, A.N.Samuxin, A.Xoseevich, Y.Y.Gavronskaya, V.V.Alekseev, A.Yu.Avdeev, I.M.Krasilnikov, V.V.Selivanov, L.N.Selivanova, T.V.Popovalar tomonidan ishlab chiqilgan. O’zbekistonda A.Abduqodirov, N.Taylaqov, U.Begimqulov, F.Zokirova, M.Fayzieva, V.Xamidovlarning tadqiqotlarida virtuallik va ta’lim masalasi, aniq va tabiiy fanlar doirasida virtual elektron o’quv kontentlari yaratish tajribalari yoritilgan.

Xorij ta’lim tizimida bo’lgani kabi O’zbekistonda ham o’qitish metodikasida yangi yo’nalish – innovatsion kompyuter didaktikasi (elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi) yuzaga keldiki, bu bejiz emas. Bu o’quvchilarni faqat bilimlarni egallashga o’tgatishni emas, balki ta’lim oluvchilarga darsda va darsdan tashqari jarayonda mustaqil ta’lim olishga, axborotlarni tahlil qilishga yo’naltirish, zarur axborotlar muhitiga olib kirish uchun yangi axborot texnologiyalarini tatbiq qilish zaruriyatining oshganligi bilan bog’lanadi.

Ona tilimizning Internet jahon axborot tarmog’ida munosib o’rin egallashimi ta’minalash, uning kompyuter ushubini, o’zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlari va elektron lug’atlar, virtual o’quv majmualar yaratish bilan bog’liq ilmiy-metodik qo’llanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish kabi vazifalar ijrosini ta’minalash soha mutaxassislaridan katta shijoat talab qilmoqda.

Xalqaro internet tarmog’ida bevosita til ta’limi bo‘yicha yaratilgan elektron darsliklar, xususan, Rossiya federatsiyasida tayyorlangan elektron adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, elektron adabiyotlar yordamida o’quvchilar o’qituvchi rahbarligida hamda mustaqil faoliyat yuritadi. Rossiya Federatsiyasi umumiy o’ta ta’lim maktablari uchun 2015-yilda yaratilgan elektron qo’llanmalar aynan amaldagi darsliklarning bosma nashrlariga muvofiq keladi. 2015–2016-yillar davomida o’tkazilayotgan

sinovlarda o'quvchi rolini fan o'qituvchilari, pedagogika institutlari talabalari bajarmoqda va elektron qo'llanmalarning imkoniyatlari namoyish qilinmoqda. Ana shu jarayonda ularni takomillashtirish va elektron adapbiyotlar bilan ishlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Bu borada ingliz tili ta'limalidagi "Homebook", "Workbook" ("Uyda ish kitoblari"), rus tilini o'qitishda amalda bo'lgan "Рабочая тетрадь" ("Ish daftari"), "Электронная тетрадь"lar qator afzalliklarga ega. Qayta ko'chirib yozish talab qilinmaydigan reproduktiv va qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashqlar kafolatli natijalarga erishish jarayonini jadallashtirishi mumkin. Ingliz tili ta'limalida "True-false" ("To'g'ri-noto'g'ri"), Mini-TEST, "Moslikni aniqlash", "Qiyoslash" mashqlari, algoritmgaga asoslangan mashqlar, shuningdek, grammatik tahlil turlari takomillashtirilgan mashqlarni amaliy dasturlarda elektron mashqlarga aylantirish imkoniyatlari mavjud. Bu ona tili ta'limi uchun ham muvofiq keladi.

Bunday tajribalar 90-yillar oxirida Rossiyada keng miqyosda boshlangan edi¹. Jumladan, I.A.Yegorovning „Интерактивный диктант“ maqolasida audiodasturlar yaratish bo'yicha barcha jarayonlarning bat afsil bayoni bilan tanishish mumkin.²

Maqolada XX asr oxirlarida internetdagagi ta'limi saytlardan gramota.ru. saytida joylashtirilgan on-line interaktiv diktantga alohida e'tibor qaratilib, sayt mualliflari g'oyasi qo'llab-quvvatlanadi³. Mazkur «Интерактивный диктант» o'rgatuvchi dasturini yaratish Borland Delphi 7.0 kompyuter dasturida amalga oshirilgan, dizayni Adobe Photoshop CS5 grafik muharririda bajarilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, har yili rus tilidan barcha talabalar va o'quvchilar nazorat diktanlarini yozadilar, biroq ularni tekshirish jarayoni o'qituvchilar uchun nihoyatda mashaqqatlidir. Shuning

¹ O'quv qo'llanmarining mazkur qismida Q.Gulmanovaning "Ona tili ta'limi uchun audiodasturlar yaratish va foydalanish texnologiyalari" tezisidan foydalanildi. Qarang: Gulanova Q. Ona tili ta'limi uchun audiodasturlar yaratish va foydalanish texnologiyalari//O'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. – B. 78-80.

² <https://www.scienceforum.ru/>

³ <http://www.gramota.ru/class/coach/idiction/>

uchun ham interaktiv diktantlar o'qituvchilarning mashaqqatli mehnatini yengillashtirishda alohida ahamiyatga egadir.

Rossiyada yaratilgan audiodasturlar va ular haqidagi tadqiqotlardan shuni aniqladikki, bunday dasturlarni yaratish uning loyihasini ishlab chiqishdan boshlanadi.

Murakkablik darajasiga ko'ra diktant matnlari tayyorlanadi, alohida fayllarda saqlanadi. Javoblar esa matn muharririda alohida fayllarda taqdim qilinadi. Barcha fayllar qobiq dasturda qulay interfeysda yig'iladi. Biroq dasturlash tillaridan bexabar bo'lgan kishi uchun bunday dasturni yaratish jarayoni nihoyatda murakkabdir. Fan o'qituvchilari muallifligida varatiladigan audiodasturlar uchun nisbatan sodda instrumentlarni tavsiya qilish zarur. Bizningcha, interaktiv diktant audiodasturini yaratish uchun qulay va ancha oson hisoblanuvchi iSpring Suit instrumentidan foydalanish maqbuldir¹.

Mazkur instrument vositasida audiodasturlarni ishlab chiqishda ketma-ket amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayonlar bor:

1. Diktant matni tanlanadi. U matn muharririda tayyorlanadi.
2. iSpring Suitning Quezmaker blogidan foydalanishda dastlab ixtiyoriy til interfeysini yaratish imkoniyati mavjudligi uchun yozuvlar o'zbek tiliga tarjima qilinadi.
3. O'quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "Kirish" va "Natija" slaydlarining dizayni ishlab chiqiladi, ya'ni bezak beriladi.

Audiodastur uchun bir necha turdag'i diktantlarni yaratish imkoniyati bor: "Вопрос теста" qismidan „Вложенные ответы”, "Пропуски" (javob kiritish) va "Анкетный вопрос" qismidan esa "Ecce" bandlaridan foydalaniib 3 xildagi diktant tayyorlash mumkin. Jumladan, biz 6-sinf uchun amaldagi "Ona tili" darsligida nazarda tutilgan nazorat ishlari uchun interaktiv diktantning "Tanlash" turi bo'yicha bir nechta matnlarga ovoz yozdirib audiodasturga joylashtirdik².

iSpring Suitning Quezmaker blogining "Вопрос" qismidan „Вложенные ответы” savol turi tanlanadi. "Вопрос с вложенными

¹ www.ispring.ru.

² Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. -- Toshkent: Ma'naviyat, 2013.

ответами” qismiga diktant talabi yoziladi. “Текст с пропусками” qismiga main muharriridan nusxa ko‘chirish orqali diktant matni kiritiladi. Asosan, o‘quvchilar yozma ishlarida ko‘p xatolikka yo‘l qo‘yiladigan holatlar: a va o, i va u, o‘ va u unliari; jarangli undoshlarning jarangsizlashishi, x va h, x va q, m va n kabi undoshlar; tutuq belgisi hamda tinish belgilarning ishlatalish o‘rinlarga e’tibor bergan holda ro‘yxatlar tuziladi. Oynaning “Слайды” qismiga bir marta chertilib, uskunalar panelidagi “Дизайн”dan shrift turi va kegli belgilanadi.

4. Diktant matniga ovoz beriladi. Bu ikki usulda amalga oshiriladi. Dasturning o‘zida „Данные“ qismi chertiladi, oynaning o‘ng tomonida “Звук” qismiga audio yozdiriladi yoki avvaldan yozdirilgan tayyor audio joylashtiriladi.

5. Keyin ushbu ketma-ketlik bajariladi: “Главная”, “Свойства”, “Настройке по умолчанию” dan kerakli bandlar belgilanadi. Barcha amallar bajarilgach, “Главная” bo‘limidagi “Просмотр” orqali natija ko‘riadi va “Публикация” bo‘limi chertilib, jarayon yakunlanadi, html faylga o‘zgartiriladi.

”Ona tili” fani doirasida audiodasturlarni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha metodik adabiyotlar respublikamizda yetarli darajada mavjud emas. Xorijiy tajribalarni o‘rganishdan ma’lum bo‘ladiki, AKTni ta’lim tizimida foydalanish bo‘yicha katta tajriba to‘piangan. Tan olish kerak, audiomateriallarni tayyorlash va amaliyotda qo‘llash borasida ta’lim tizimimiz 20 – 30 yil orqada. Ammo bu tafovuni qisqartirish mumkin. Shunisi muhimki, ona tili uchun yaratish va foydalanishda qulay, bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan audiodasturlar zamonaviy vositalar qatoridan joy olishi mumkin.

Rus tili bo‘yicha “Interaktiv diktantlar” on-line foydalanish uchun mo‘ljallangan. Biz tavsiya qilayotgan audiodasturlarda esa of-line shug‘ullanish imkoniyati bor. Shuningdek, bunday diktantlarni fan o‘qituvchisining o‘zi mustaqil ravishda, kompyuter muhandisi ishtirokisiz yarata oladi. Faqat mualliflik dasturlarining ayrimlari bilan yaqindan tanishish taqozo qilinadi.

8.2. Adabiyot darslarida virtual imkoniyatlardan foydalanish

Adabiyot darslarida ham virtuallik imkoniyatlaridan foydalanish mumkin¹.

Jamiyat hayotiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan kirib kelishi ta'lif, tibbiyot, iqtisod, noshirlik yoki sayyoqlik kabi turli sohalardagi tub islohotlarga sabab bo'ldi. AKTning o'quv jarayoniga uyg'unlashuvi esa yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirishi barobarida pedagog xodimlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklab, dolzarb vazifalarni ko'ndalang qo'ymoqda.

Adabiyotning inson hissiyotlari, tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilsa, o'quvchi asarni *o'qish* jarayonida hayotiy va badiiy haqiqatni *tushunish*, uqqanlarini boshqalarga *tushuntirish* va sujet, obraz, xarakter kabilarni *tahlil* qilish kabi xususiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadi amalga oshiriladi. Binobarin, o'quvchi uchun bilimlar va mazmunning yuqoridagi darajalari mutanosib bo'lishi murakkab jarayon hisoblanadi.

Adabiy ta'lifning turli bosqichlarida o'quvchilarga yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mavzuga oid grafik tasvirlar namoyish etilishi, voqeа-hodisalar, qahramonlar portretiga xos xususiyatlar, nazariy tushunchalarni virtual shaklda uzatish asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy maqsadini anglash, egallangan bilimlarni hayotga tatbiq etishga yordam beradi. Bunday jarayonga xos tajribalarni modellashtirish o'quvchilarga real maktab laboratoriyasida amalga oshirish muammo bo'ladigan murakkab tajribalarni boshqarish va o'tkazishga sharoit yaratadi.

Ma'lumki, AKT axborotlarni uzatish, qabul qilish, muayyan ma'lumot yoki obyekt tasvirini ifodalashda samarli va ta'sirchan vositadir. Kompyuter animatsiyasiva modellashtirish sujet elementlari yoki portret, peyzaj, detal kabi kompozitsion qurilishni idrok qilish uchun universal vositadir.

¹ O'quv qo'llanmaning mazkur qismida muallif – S.Qambarova roziligi bilan uning “Adabiyot fanini o'qitishda virtual laboratoriya tashkil etish masalalari” nomli maqolasidan foydalanildi. Qarang: Qambarova S. Adabiyot fanini o'qitishda virtual laboratoriya tashkil etish masalalari // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Respublika ilmiy -nazariy anjuman materiallari). –Toshkent, ToshDO'TAU, 2016. –B.147-152.

Animatsiyalarda muayyan ketma-ketlikda asar mavzusi va g'oyasiga oid turli diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar hamda qahramonlar va personajlar orasida kechadigan dialoglar, kolliziyalar, muloqotlar jarayoni namoyish etilishi e'tiborga olinadi.

Muammo xorijda F.Amari, S.Wong, S.Demetiadis, A.Barbas, A.Molohides, G.Palaigeorgiou, D.Psilios, I.Tsoukalas kabi olimlar tomonidan o'r ganilganini qayd etish mumkin.

Mamlakatimiz ta'lif tizimida esa R.Jo'rayev, Y.Taylakov, A.Ibraymov, U.Nasridinova, N.Kamolova, M.Nosirov, Z.Sherdonov, Z.Sangirova kabi qator olim va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida turli fanlar doirasida kuzatilmoqda.

Laboratoriyalarda virtual tajribalarni amalga oshirishga vaqt dan, tegishli resurslardan unumli foydalaniлади, natijalar kafolatlanadi, obyekt bilan islashda xatoliklarning oldi olinishiga muvaffaq bo'linadi.

Virtual tajribalar uchun dasturiy ta'minotga o'qituvchi obrazli tafakkur va badiiy to'qimani ochib berishga qaratilgan g'oyalarini taqdim etishi mumkin bo'ladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarning badiiylik, obrazlilik va obrazni tushunish kabi xususiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifalari hal qilinishi ko'zda tutiladi.

Dastur animatsiya shaklidagi voqeа-sujet, xarakterni ochib beruvchi vosita, konflikt, sujet elementlari, detal hamda badiiy mahorat kabilarni ifodalash xususiyatiga ega.

Virtual laboratoriya mashg'ulotlarida, masalan, biologiyadan tirk organizmlarning ichki va tashqi tuzilishi, ularda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar, kimyoda reaksiyalar, fizikada jismlarning hajmi yoki zichligini ma'lum sharoitda tahlil qilish imkonи mavjud.

Virtual laboratoriya bo'yicha dasturiy ta'minot – bu ta'lif oluvchilar o'tkazishi mumkin bo'lgan, adabiy hodisalar mazmun-mohiyatini aks ettirishga qaratilgan jarayon, zarur narsa-buyum va jihozlar tanloviga nisbatan qaror qabul qilishga imkon beradigan dasturdir.

Virtual laboratoriyaning afzalligi shundaki, uning yordamida o'qituvchi va o'quvchi belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishi, AKTni ishlatalish, shart-sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali tajribalarni tanlashga qulaylik yaratilishidadir. Bu kabi

rejalashtirish mustaqil tadqiq qilish asosida kreativ va kognitiv xususiyatlarni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda adabiyot oqitish metodikasi sohasida dolzARB va real muammo ta'lIM oluvchilarning so'z san'ati qudratini ongli tarzda tushunishi, badiiy so'zning ta'sir kuchini teran his qilishi, asar mazmun-mohiyatini anglashi, qahramon muammolari misolida hayotiy masalalarga javob topishga harakat qilishi, yozuvchi ifodalamoqchi fikr va ramziy darajalarini tushunishini osonlashtirish hisoblanadi.

Animatsiyalarni adabiy jarayonga tatbiq etish esa idrok, anglash va bilish jarayonini yengillashtiradi, adabiy hodisalarini aniq va ko'rgazmali tarzda jonlantiradi.

Agar tabiiy fanlar, xususan, fizikadan o'tkazilishi rejalaShirilgan virtual laboratoriya mashg'ulotlari tahlil qilinsa, jarayon dastlab kompyuter sichqonchasi cursorini harakatga keltirish orqali boshlanib, so'ngra monitorda tanlangan mavzuga oid modellar, ularni o'lhash tasvirlari belgilangan tartib va yo'nalishda uzluksiz jonlana boshlaydi.

O'lhash jarayoni nihoyasida natijalar muayyan geometrik shaklga ega jism hajmini hisoblash formulasi bilan avtomatik tarzda bajariladi. Navbatdagi ish tanlangan jismlarning massalarini topish va yuqoridagi kabi muayyan formulaga aseslanib, tegishli jadvalga qayd qilish asosida nihoyasiga yetkaziladi.

Tadqiqotchi A.Ibraymov ta'kidlaganidek, virtual laboratoriya uskunalarining funksionalligi, universalligi, foydalanuvchi interfeysining ko'rgazmaliligi va qulayligi, dasturiy ta'minotning moslashuvchanligi, eng muhimi, mashg'ulotlarni masofadan turib olib borish, uzoqda joylashgan ta'lIM muassasalaridan turib bevosita laboratoriya asbob-uskunalarini harakatga keltirish, natijalarini o'lhash va baholash imkoniyatlari mavjudligi bilan an'anaviyimashg'ulotlardan farq qiladi.

Adabiy ta'lIMda nazariy tushunchalarga oid ma'lumotlarni virtual tarzda berish imkonni mavjud bo'lsa ham, qahramonlar tabiat, personajlarning ichki kechinmalari, o'y-xayollari bilan bog'liq epizodlarni visual tarzda yetkazish qiyin hodisa hisoblanadi.

Obrazlarning xarakter xususiyatlari yoki ruhiyat manzaralarini o'lhash imkoniyati mavjud emasligi nazarda tutilsa, bu turdag'i mashg'ulot dasturi qanday tuziladi, jarayon qanday rejalaShiriladi va

amalga oshiriladi, nimalardan qay tartibda foydalaniladi, degan qator savollar tug‘ilishi tabiiy.

Ma’lumki, multimediali elektron-pedagogik dasturiy vositalardan foydalananish orqali avtomatlashtirilgan grafik va murakkab loyihalash ishiari olib boriladi. Pedagogik dasturiy vositalar o‘qituvchilaring o‘qitish g‘oyalarini dasturda shakllantirish, uni tahlil qilish, qo’llash va baholash orqali takomillashtirishga xizmat qiladi

PDMlar kompyuterning multimedia imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy ta’lim jarayoni mohiyatini o‘zida kompleks mujassam etadigan dasturiy vosita bo‘lishi zarur.

Manbalarda dasturiy pedagogik vositalar tarkiban o‘qitishning kompyuter dasturlari, avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlari, elektron darsliklar, texnologik jihozlarning kompyuter imitatorlari, demonstratsion va modellashtiruvchi dasturlar, kompyuter o‘quv muhitlari, kasbiy-dasturiy vositalar paketlarining ma’lumot bo‘limlari, instrumental dasturiy vositalar, dasturlashtirish tillari, ma’lumot va bilimlar bazasi, masofaviy ta’limdagи kompyuter va telekommunikatsion vositalardan iborat bo‘lishiga alohida urg‘u beriladi.

Multimedia tizimlarini yaratishda kompyuterlar, audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlari uyg‘unligiga erishish muhim hisoblanadi. Bunday tizim dasturiy vositalar va asboblar majmuasini shakllantirib, axborotning matn, grafika, ovoz, tasvir kabi turli ko‘rinishlarini o‘zida mujassam etadi. Natijada foydalanuvchi bilan interaktiv muloqot vujudga keladi.

Animatsiya va rasmlarni FLASH, Free Hand, Dream weaver kabi dasturiy ta’minotlar, shuningdek, Java, C++ dasturlash texnologiyalari vositasida yaratish mumkin.

Virtual laboratoriya tajribalarini o‘tkazishda:

a) asosiy grafik dasturning buyruqlaridan foydalanishni o‘rganish;

b) mavzu yuzasidan bajariladigan topshiriqlarning bajarilish ketma-ketligini ifodalovchi o‘rgatuvchi harakatli tasvirlar hamda maxsus ssenariylar tuzish zarur bo‘ladi.

Adabiyotdan virtual laboratoriyanı quyidagicha rejalashtirish maqsadga muvofiq:

1. Maxsus virtual xona yaratish. Xonani adabiy jarayon va hodisalar, asarda tasvirlangan zamon va makon ruhini aks ettirishda manba hisoblanuvchi kompyuter, proyektor, monitor kabi multimedia vositalari bilan ta'minlash. Binobarin, zarur texnik jihozlarning dasturlashtirilishi, kompyuter yordamida loyihalashtirilishi jarayonga maqbul sharoitni vujudga keltiradi.

2. Qulay kreativ muhit shakllantirish. Professor R.X.Jo'rayevning ko'rsatishicha, kreativ muhit ta'lif oluvchining inellektual rivojlanishini ta'minlash omili bo'lib, tarkiban mualliflik o'qitish tizimlari, imitatsion va modellashtiruvchi dasturlar, mikroolamlar, ma'lumotlar va internet bilimlar bazasiga kirish va dasturlashning instrumental vositalardan iborat bo'ladi.

Statistik va qayta tahlil etish, faoliyat, kommunikativ aloqa hamda global va lokal tarmoqlarda masofaviy ta'limda qo'llaniladigan dasturiy vositalar ham mazkur ro'yxat tarkibini boyitadi.

3. Xarakterli mavzularni aniqlash. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzusi adabiy ta'limga oid DTS, taqvim-mavzu reja va o'quv dasturiga talablariga muvofiq sinflar kesimida uzviylik va izchilik tamoyili asosida belgilanishi mumkin.

4. Virtual xarita tuzish. Bunda PDV dasturlari asosida ijodkor hayoti va ijodi, adabiy tushunchalar, asar sujeti va kompozitsiyasi, muhim epizod, qahramon hayotining burilish nuqtalari, portret, peyzaj namunalar yoki ramzlar animatsiyasi audio-video vositalar, modellar, maketlar, rasmlar, jadvalar vositasida muayyan ketma-ketlikda aks ettiriladi.

5. Titrlar bilan bog'liq tajribalar simulyatsiya qilish. Z.Sherdonovning qayd etishicha, *simulyatsiya* "kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratib, dasturiy ta'minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma'lum ko'rsatkichlarini o'zgartirish imkonini beradi".

Titrlar asar sujetining ma'lum ketma-ketlikda ifodalanishiga qo'shimcha izoh bo'lib, jarayonni sayqallaydi va yanada boyitadi. Yuqorida fikrlarga tayanilsa, turli janrdagi asarlar, jumladan, xalq ertaklarining "Bor ekanda, yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda...", "Kunlarning birida...", "Shu payt qarasa...", "...murod-maqsadiga yetibdi" kabi ovozli yozuvlarga matning turli ko'rinish va tezlikdagi harakatli tasvirlari taqdrim etilishi o'rganilayotgan obyekt haqidagi

tasavvurlarni oydinlashtirish va bilimlarning ongda mustahkam muhrlanishiga zamin yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari 7-sinfda Alisher Navoiyning "Sabai' sayyor" dostonidagi "Beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning dostonorolig'i" nomli parchani o'rganishga bag'ishlangan virtual laboratoriya maqsadini amalga oshirishdrafan o'qituvchisi va texnik ma'lumotli mutaxassis hamkorligida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

– *atndan harakatlari tasvirlarishlash mumkin bo'lgan epizodlar tanlab olinadi.* Xususan, Adan mamlakatidagi qaroqchi Jobirning dengizdag'i yo'lto'sarligi, uning qo'liga asir tushgan o'g'lini qutqarishga kelayotgan shoh Navdarning gulrang bir ohu ketidan quvib, pistirmaga tushishi va hokazo.

– *lavhalarga oid animatsiyalar yaratishda matematik modellashtirish, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlarni optimallashtirish va hisob ishlari bajariladi.* Bunda xuddi multiplikatsion filmlardagi kabi tanlangan obyekt xatti-harakatlari, badiiy detal yoki manzaralar ifodasi belgilanadi. Masalan, Jobirning yangi oyga o'xhash tez yurar kemachalari, qaroqchilarining baland daraxt ustiga chiqib, dengizni kuzatib turishi tasvirlari PDV orqali loyihalanib, to'g'ri yoki egri chiziqlar yordamida turli shakllar yasash, aylana va yoyslar hosil qilinib, tutashmalar bajarilishi orqali gavdalantiriladi.

Turli burchak ostida chiziqlar chizilib, tahrir qilinishi, detallarga qirqim va kesimlar berilib, ularning tasvirini ko'rsatishda rang, material va teksturalardan ijodiy foydalanish hamda modellarga o'lchamlarberish jarayoni sujetni tasavvur qilishni yengillashtiradi.

– *adabiy material mohiyatini tushunish, turli muammoli vaziyatlar yechimini hal qilishga doir maxsus virtual ssenariylar tuzish.* Mazkur usul orqali animatsiya jarayonidagi uzviylik va izchillik ta'minlanadi, voqealarning maqsadli va muayan ketma-ketlikdagi namoyishi ta'minlanadi. Bunda matnning qisqartma variantiga ehtiyoj sezilsa ham voqelarning rivojlanish dinamikasi o'zgarmaydi.

Masalan, agar shoh Navdar maqsadidan chalg'imay, o'z yo'lida qat'iy davom etganida asarda tasvirlangan vaziyatlarni boshidan kechirmagan va qiyin ahvolga tushmagan bo'lar edi. Shuning uchun qahramon intilayotgan manzil yo'nalishining to'g'ri va maqsadga zid

shaklini grafik tarzda taqdim etish va har ikki holatni o'zaro qiyoslashni taklif etish orqali o'quvchida tanqidiy tafakkur, fikrlar xilma-xilligi, masala mohiyatiga obyektiv yondashish, eng asosiysi, muallif maqsadini anglesh imkoniyati yuzaga keladi.

Jarayon sxemasini quyidagi tartibda loyihalashtirish mumkin:

1-variant:



2-variant:



Demak, virtual laboratoriylar o'quvchilar faoliyatini maqsadli boshqarish, bilimlarni yangilash, nazariyani amaliyotga bog'lash, o'quv ishlari uchun faoliyotga mustaqillikni oshirish, axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish, materiallarga istalgan vaqtida murojaat qilish kabi qulayliklar yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Virtual imkoniyatlardan til ta'limida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Adabiyotdan virtual laboratoriya yaratilishi bo'yicha qanday takliflaringiz bor?
3. Qanday o'ylaysiz, til ta'limi uchun virtual laboratoriya yaratishga zarurat bormi?

Mustaqil ish topshiriqlari. Ona tilidan virtual laboratoriyanı tashkil qilish bo'yicha takliflaringizni bildiring.

Asosiy tushunchalar:

Pedagogik dasturiy vositalar (педагогические программные средства, pedagogical programming means) – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan metodik talablar (требования, предъявляемые к педагогическим программным средствам, methodical requirements that insisted on pedagogical programming means) – pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqish dasturlari – Microsoft Front-Page (HTMLyper Text Markup Language), AlliareHomeSite (HTML), Microsoft PowerPoint, MicrosoftWord

Adabiyotlar:

1. Gulmanova Q. Ona tili ta’limi uchun audiodasturlar yaratish va foydalanish texnologiyalari//O‘zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o‘qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. – B. 78-80.
2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
3. Qambarova S. Adabiyot fanini o‘qitishda virtual laboratoriya tashkil etish masalalari // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Respublika ilmiy -nazariy anjuman materiallari). –Toshkent: ToshDO‘TAU, 2016. –B.147-152.

Internet saytlari:

1. <http://www.moluch.ru>
2. <http://diclist.ru/slovar/istoricheskiy/v/virtualnyj.html>
3. <http://diclist.ru/slovar/filosofskiy/v/virtualnyj.html>
4. <http://cyberleninka.ru/article/n/aktualnaya-metodika-interaktivnogo-obucheniya-russkomu-yazyku>

9- MODUL: O'ZBEK TILINI MASOFADAN O'QITISH MASALALARI

9.1. Masofaviy ta'lif va uning o'ziga xosliklari

Avvalo, masofadan o'qitish usuli va uning tarixi haqida ma'lumotlarni bermoqchimiz. Bugungi kunda AQSHning Stenford universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti (MTI) kabi bir necha nufuzli oliy o'quv yurtlari bepul "onlayn" kurslarini taqdim etmoqda. Tajriba tariqasida ilk bor tashkil etilayotgan mazkur darslar dunyoning barcha davlatlaridagi talabalar uchun ochiq. Qizig'i shundaki, ushbu kurslarda o'qish mutlaqo bepul va ularni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga diplom (sertifikat) ham beriladi (ayrim kurslar tekin sertifikat berishadi lekin ko'p kurslarda ma'lum bir to'lovdan keyin sertifikat olish mumkin). Bu qanday boshlangan edi? Internet orqali o'quv materiallarini bepul va erkin tarqatishga mo'ljallangan "Ochiq darsxona" (Open courseware) deya nomlanuvchi elektron tizim bundan o'n yilcha muqaddam MTI tomonidan tashkil etilgan edi. Shundan so'ng yuzlab boshqa kollej va universitetlar ham o'quv materiallarini internetga barcha uchun bepul va ochiq qo'yish amaliyotini yo'lga qo'ydi. Bugunga kelib MTI va Stenford universiteti ushbu arnaliyotni yangi bosqichga ko'tarishga qaror qildi. Ular endi nafaqat kursda o'tiladigan materiallarni, balki darsning o'zini ham bepul taqdim etishmoqda.

Stenfordda kompyuter bo'yicha ikki mutaxassis dastlab "Sun'iy intellekt faniga kirish" (Introduction to Artificial Intelligence) nomli bepul "onlayn" kurs tashkil etdi. Dunyoning 190 dan ortiq mamlakatidan jami 160 mingdan ziyod talaba kursga yozildi. Ko'ngillilar yordamida kurs materiallari qisqa muddat ichida dunyoning 44 tiliga tarjima ham qilindi. Ishtirokchilarning 23 ming nafari kurs materiallarini to'liq tamomlab, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdi hamda ushbu kursni bitirganlik to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'ldi.

2012-yilda Stenford universiteti yana beshta bepul "onlayn" kursni tashkil etdi. Ularda o'qiyotgan talabalar soni yarim millionga yaqinlashgan. Bu borada Massachusetts Texnologiya instituti ham faoliyat ko'rsatinoqda. O'quv yurti tashabbusi bilan internet orqali bepul darslar beradigan "MITx" nomli yangi notijorat tashkiloti tuzildi. "MITx" qoshida ochilgan birinchi kurs – "Sxemalar va

elektronika” darsida qatnashish uchun yuz mingdan ziyod talaba ro‘yxatdan o‘tdi. “MITx” internet sahifasida yozilishicha, ro‘yxatga yozilganlarning kamida 20 ming nafari dars mashq‘ulotlarida to‘liq va faol ishtirok etmoqda.

Prinston universiteti, Berklidagi Kaliforniya universiteti, Michigan An-Arbor hamda Pensilvaniya universitetlari ham hamkorlikda bepul “onlayn” kurslarini tashkil etmoqda. Ushbu kurslar “Coursera” deb nomlangan internet saytida jamlangan. “Coursera”dan kurslarni nomlari va yo‘nalishi bo‘yicha yoki ularni taqdim etayotgan universitetlar bo‘yicha qidirib topishingiz mumkin. Bepul darslarni taqdim etuvchi yana bir sayt “Udacity” bo‘lib, u ham “Coursera” bilan birgalikda Stenford universiteti mutaxassislari tomonidan buniyod etilgan¹.

Ommaviy onlayn ochiq kurslarning soni ko‘p bo‘lganligi sababli, aynan sizga kerak bo‘lgan kursni topish uchun maxsus internet servislar mavjud bo‘lib, bu servislar orqali siz o‘zingiz uchun qiziqarli bo‘lgan kurslarni topishingiz mumkin.

Bular quyidagilar:

- coursebuffet.com
- degreed.com
- academicearth.org
- mooc.studentadvisor.com
- knollop.com
- eclass.cc
- mooc-list.com
- mooctivity.com

Dunyoning nufuzli universitetlari taqdim etayotgan ushbu bepul “onlayn” kurslari:

- Coursera.org – <https://www.coursera.org/>
- EdX – <https://www.edx.org/>
- Udemy – <https://www.udemy.com/>
- LinguaLeo – <http://lingualeo.ru/>
- busuu – <http://www.busuu.com/enc/>
- TED – <http://www.ted.com>
- Soursera. Rasmiy sayti: www.coursera.org.

¹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Ushbu ingliz tilidagi loyiha har xil bilimlar bosqichi bo'yicha kurs tizimlarini o'tkazadigan universitetlar bilan hamkorlik qiladi. Tinglovchilar faqatgina kurslarni o'qibgina qolmasdan, kursdoshlari bilan gaplasha oladilar, Soursera OOOK testlar va imtihonlar topshiradilar.

Khan akademiyasi. **Rasmiy sayti:**
<https://www.khanacademy.org>

Bir kuni MIT va Garvardni bitirgan qobiliyatli talaba Salmanxan boshqa shaharda yashaydigan kichkina amakivachchasining matematika fanidan qiynalishini bilib qoladi. U «YouTube» saytiga videodarslarni joylashtirib, unga yordam bermoqchi bo'ladi va mashhur bo'lib ketadi. Endi Khan akademiyasi saytida har xil mavzudagi 42000 dan ortiq bepul mikroma'ruzalar bor. Ulardan ko'pchiligi rus tilida hain mavjud.

Garvard Universiteti hamda Massachusetts Texnologiya Instituti birqalikda "barcha yoshdagilar va turli millat vakillari uchun tekin, internet orqali interfaol ta'lim olishlari uchun" notijoriy tashkilot tashkil qilishdi. EdX – bir so'z bilan aytganda, ta'lim platformasi, endi siz ingliz tilida Garvard Universiteti, MIT va yana Berkeley Kaliforniya Universitetlarida (hamda 2013-yildan Texas Universiteti ham qo'shilgan) o'rgatiladigan kurslardan bilim olishingiz mumkin.

Hozircha maskur EdX platformasida kimyo, tibbiyot, informatika, fizikaga oid kurslar qo'yilgan.

Intuit. Rasmiy sayti: www.intuit.ru

Shuningdek, professional qayta tayyorlash va malakani oshirish imkoniyatlarini taqdim qila oladigan yirik Rossiya internet-universiteti mavjud. To'liq o'qish pullik, ammo intuit saytida turli sohadagi: informatika, fizika, matematika, iqtisodiyot va falsafa bo'yicha 500 dan ortiq kurslarni bepul o'qish (tinglash) mumkin. Hozirgi kunda ko'pgina kurslar videodarslar shaklida ham berilmoqda. Ta'lim kurslarini tugatganda bepul elektron sertifikat olish mumkin.

Yandex maktabi. Rasmiy sayti: <https://yandexdataschool.ru/edu-process/courses>

Bu yerda Yandex ma'lumotlar tashxisi maktabi ma'ruzalarini joylashtirilgan. Uning asosiy maqsadi aynan Yandex uchun, shuningdek, AKT industuriyasida ma'lumotlarni tashxis qilish va

qayta ishlash hamda internetdan ma'lumotlarni olish bo'yicha malakali insonlarni tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012-yil 16-apreldagi PQ-1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi. Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bog'liq. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi.

Internet texnologiyalarining kirim kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdag'i xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi. Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniغا masofaviy ta'lim elementlari kirim keldi.

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hujati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdag'i dasturiy majmuaiar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

O‘quv muassasasida masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirishga qo‘yiladigan texnik va dasturiy talablar

Masofaviy ta’lim (MT) jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik talablari ko‘p adabiyotlarda bayon qilingan MT jarayonini amalga oshirishda quyida ko‘rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

- 1-bosqich: Tahlil
- 2-bosqich: Loyihalashtirish
- 3-bosqich: Joriy qilish
- 4-bosqich: O‘quv kontentlarini yaratish
- 5-bosqich: Ishga tushirish
- 6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o‘quv muassasining masofaviy ta’lim jarayoniga bo‘lgan ehtiyojlari, ta’lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarining soni, o‘qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishda kerak bo‘ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihaning iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami va texnik topshiriq loyihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmua tegishli serverda o‘rnataladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo‘llab-quvvatlovchi ishchi-xodimlarni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotiar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo‘lmish o‘quv kontentlar o‘quv bo‘limi va soha mutaxassislar bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o‘quv kontentlar eskpertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quv jarayoni doymi nazoratda bo‘lib turadi. Tizimdagи xavfsizlik choraları monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘irlanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi.

Ta'lilda erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar tahlili

Elektron ta'lildi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).¹

LMS tizimlarining asosiy funksiyalari

LMS/LCMS tizimlari elektron ta'linni (masofaviy ta'lim jarayonini) tashkil etishning asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi. Bunday funksiyalarga o'quvchilarning (o'qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqa roldagilarni) ro'yxatga olishi, foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish muhitini yaratish, o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro individual yoki/ guruh bo'lib hamkorlikda ishlashini (Web2 elementlarini ishlatalish orqali) tashkil etish, guruhlar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga yopiq turdag'i test, ochiq turdag'i nazorat, moslikni topishga oid, ketma-ketlikni to'g'ri joylashtirish, bo'sh qoldirilgan joyni to'ldirish va boshqa turlari kiradi), har xil turdag'i ijtimoiy so'rovlari tashkillashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar (diplomlar) berish imkoniyati, elektron axborot resurslarini (elektron kutubxonalar) tashkillashtirish, elektron o'quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari, tizim foydalanuvchilarining (o'quvchilar, o'qituvchilar (tyutorlar), kurs yaratuvchi pedagoglarning) tizimga qachon, qancha vaqt davomida o'quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi IP adres orqali kirganligini (bu esa qaysi davlatdan tizimga

¹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

kirganligini aniqlashga yordam beradi), brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud fodalanuvchilarning aktivligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati, o'qituvchi (tyutor) (yoki elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan elektron o'quv resurslarni yaratishi, Authoring toolslarda SCORM, TinCan yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan elektron o'quv resurslarini yuklashi, o'quvchilarning boshqa o'quvchilar/ o'qituvchilar bilan (Chat, Forum, videokonferensiya, umumiy elektron doskalar yoki tizimning ichki/tashqi xabarlar almashish moduli orqali) muloqotini tashkillashtirish, o'quv jarayonida bo'ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi, iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin.

LMS tizimlarining tahlili

Quyida masafaviy ta'lif jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlarni bayon qilamiz.

Atutor-Ochiq kodli ta'lif jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va boshqa modullari mavjud. Tizim bir nechta standartlarni qo'llab quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar tizim orqali o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan, ko'zi ojiz talabalar maxsus veb ilovalar orqali tizimga bog'langan holda o'quv kontentdagagi so'zlarni audio formatda o'tkazgan holda tinglashi mumkin.

Moodle – Web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko'p bo'lgan boshqa modullari mavjud. Boshqa LMSlar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab-quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko'p qo'shimcha plugin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua aynan Moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida dunyoning ko‘p davlatlarining o‘quv muassasalarida masofaviy ta’lim jarayonini aynan Moodle dasturiy inajmuasidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.moodle.org>

Yestudy.uz Masofali ta’lim tizimi. Masofali o‘quv kurslarini yaratishda ekspert tomonidan o‘quv kurs traektoriyasini belgilishi, parametrlarni kiritishi va o‘quvchilar bilimini baholashda adaptivlashgan testlar bazasini yaratishi shuningdek shakllantirishi mumkin. eStudy.uz tizimi o‘quvchining boshlang‘ich bilim darajasidan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish imkoniyatini beradi. Tizim orqali masofadan o‘qitish jarayonini tashkillashtirish mumkin.

9.2. Masofali o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy vositalardan foydalanish

Respublikamizda ma’naviy yetuk, chuqur bilimli, jismonan sog‘lom bo‘lgan barkamoi avlodni voyaga yetkazish yo‘lida bir qancha amaliy ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini amaliyatga joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Masofali o‘qitish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shaklidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predmetini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqot qilish sharoitlarini ta’minlaydigan an‘anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o‘qitish jarayonida o‘quvchining qayerdaligi va vaqtga bog‘liq bo‘limgan holda amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishda o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o‘qitish vositalari va h.) INTERNET texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi.

Masofali o‘qitishni tashkil qilish, takomillashtirish va unda ta’lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o‘rnini juda katta. Ta’lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish INTERNET va INTRANET tarmoqlarida ta’lim portallari tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim portallariga masofali o'qitish amalga oshiriladigan ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilimalari, moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish, o'quv reja va dasturlar, o'quv materiallari, testlar va boshqalar haqida veb saytlar majmuasi joylashtiriladi.

O'quv jarayoni uchun yaratilgan ta'lim portalni o'quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Ta'lim portalni o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z- o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Ta'lim portalni o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini bahoish imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

Ta'lim portalidagi mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yaratilgan elektron o'quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar ta'lim oluvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini imkoniyatlari orqali yetkaziladi.

O'quv jarayonida kafolatlangan natijaga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vositalariga elektron darsliklar va elektron o'quv-uslubiy majmualarni keltirish mumkin. Ma'lumki, elektron darslik – kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid

o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi.

O‘quv materiallarini elektron ko‘rinishda taqdim etganda uning o‘quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e’tibor berish kerak. Elektron shaklda taqdim etilayotgan materiallar ta’lim oluvchilar uchun qulay va yaxshi o‘zlashtira oladigan bo‘lishi, shuningdek, tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarida kerakli ta’riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa, ta’lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta’lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o‘quvchilarning o‘quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

O‘quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o‘qitishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan o‘quv-uslubiy ta’minotni yaratish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchan savollar:

1. Masofaviy ta’limning afzalliklari yoki kamchiliklari haqida munosabat bildiring.
2. O‘zbek tili va adabiyoti fani bo‘yicha masofaviy ta’limni rivojlantrish bo‘yicha takliflaringizni bildiring.

Mustaqil ish topshiriqlari. Moodle tizimi uchun elektron topshiriqlar yaratishga harakat qiling va loyihangizda foydalaning.

Asosiy tushunchalar:

Masofadan o‘qitish (**дистанционные обучение, Distance learning**) – o‘quv jarayoni zamonaviy axborot va telekomunikatsion texnologiyalarlar yordamida tashkil etilib,

o'qituvchi va o'quvchi orasidagi masofa va munosabat e'tiborga olinmaydigan o'qitish.

Masofadan o'qitish kurslari (дистанционные курсы обучение, Distance education course) – tartiblangan o'quv dasturi, ko'zlangan maqsad, egallanilishi kerak bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar aniq belgilab qo'yilgan o'quv kursi.

Masofadan o'qitishning pedagogik texnologiyalari (педагогические технологии дистанционного обучения, Pedagogical technologies of distance learning) – o'qitishning usul va uslublari majmuasi bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish masofadan tashkil etiladi.

Masofadan o'qitishning tashkiliy ta'minoti (организационное обеспечение дистанционного обучения, Organizational maintenance of distance learning) – o'qitish davrida o'quvchi va o'qituvchi orasida tashkil qilinadigan bevosita munosabat.

Ma'lumolar bazasi (база данных, database) – aniq qoidalar bo'yicha tashkil qilingan ma'lutotlarning yagona sistemasi, ular ma'lumotlarni tavsiflash, saqlash va qayta ishlash prinsiplarini nazarda tutadi.

Ma'lumotlar (данные, data) – ma'lumotlarni formallahsgan shaklda berish usuli, bunda ularni qayta ishlash, saqlash, qayta uzatish uchun imkoniyat yaratilgan bo'ladi.

Ma'lumotlar (данные, data) – Rasmiylashtirilgan, ya'ni uzatish, izohlash va qayta ishlash uchun mos shaklda taqdim etilgan axborot. **Ma'lumotlar autentifikatsiyasi** (автентификация данных, data authentication) – ma'lumotlar butunligini tekshirish uchun foydalilaniladigan jarayon.

Ma'lumotlar banki (банк данных, databank) – Ma'lumotlar majmui. Bu ma'lumotlar berilgan mavzuga tegishli bo'lib foydalanuvchilar bilan o'zaro ta'sir qila olishini ta'minlaydigan tarzda tashkil qilingan.

Ma'lumotlar banki (банк данных, Databank) – ma'lum mavzular doirasida jamlangan va markazlashtirilgan holda saqlash, jamoa bo'lib foydalanishga imkon beruvchi avtomatlashtirilgan tizimlar.

Ma'lumotlar bazasi (база данных, Database) – elektron hisoblash mashinalari yordamida qidirib topilishi va qayta ishlaniши

mumkin bo‘lgan tarzda tartibga solingan va aniq qoidalar asosida tashkil qilingan ma’lumotlar to‘plami.

Ma’lumotlar bazasi serveri (сервер базы данных, Database server) – ma’lumotlar bazasini boshqaruvchi server. Bu serverning vazifalariga mijoz Kompyuterlarning so‘rovlariiga javob berish, yangilangan ma’lumotlarni qabul qilish, bazadan foydalanishga ruhsat berish kabilar kiradi.

Ma’lumotlarning elektron almashinuvi (электронный обмен данных, Electronic Data Interchange) – Axborot tuzilmalashning kelishilgan standartidan foydalanib, bir kompyuterdan boshqasiga elektron tarzda axborot uzatish.

Ma’lumotlarni yig‘ish (сбор данных, Data capture) – ma’lumotlarni yig‘ib ularni Kompyuterga kiritish jarayoni. Ma’lumotlarni yig‘ish avtomatik tarzda yoki qo‘l mehnati bilan amalga oshiriladi.

Ma’lumotlarni izlash (поиск данных, searching for data) – ma’lumotlarni aniq bir belgilar bo‘yicha izlash.

Adabiyotlar

1. Yuldashev O’. Masofali o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy vositalardan foydalanish.

2. Vendors of Learning Management and E-learning Products, By Don McIntosh, Ph.D.(2013). For Trimeritus eLearning Solutions, Inc. <http://www.trimeritus.com>, Updated Nov. 20, 2013.

Internet saytlari:

- 1. www.yazikoznanie.ru
- 2. www.coursera.org
- 3. www.khanacademy.org
- 4. www.Yestudy.uz

10- MODUL: KOMPYUTER VOSITASIDA NAZORAT ISHLARINI TASHKIL QILISH METODIKASI

10.1. Bilimlarni baholashning elektron shakllari

Test nazoratini kompyuter dasturlari yordamida o'tkazish an'anaviy usullarga qaraganda sanjaraliroqdir. Bunday dasturlar o'quvchining fanni bilishi yoki bilmasligini tez va obyektiv aniqlab beradi. Bu usui o'quv jarayonini tashkil qilish uchun qulay va oddiyidir¹. Kompyuter texnologiyalari asosida interaktiv testlar yaratish va ularni dastur sifatida foydalanish jarayonida o'quvchilarda testlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlanadi. Aytish mumkinki, o'quvchining bilim olish va o'z bilimini oshirish, natijalarini ko'tarishga mas'uliyatini orttiradi. Ularga qo'yiladigan talablar quyidagicha²:

- tizimning oddiy bo'lishi;
- qo'llanilish jarayonida test savollarini to'ldirib borish imkoniyatiga egalik;
- amaliy jihatdan qo'llanishning qulayligi;
- baholash uchun kam kuch va vaqt sarflash imkonini berishi.

Test dasturlari o'zida o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan nazorat vazifalarining katta qismini mujassamlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimidagi kuchsiz tomonlarni kompyuter orqali aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday dasturlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi vaqtning tejalishi, o'quvchilarning individual ishlashi ta'minlanishi, nazariy bilimlarning amaliy vazifalarni bajarish orqali mustahkamlanishi, kompyuterda ishlash malakasining oshishi kabi afzallikkarga ega.

10.2. Turli xil nazoratlarni o'tkazishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari

Test dasturlarining qulayligi shundaki, test o'tkazuvchi (o'qituvchi) test savollarini sozlash jarayonida bazadan savollarni tasodifiy tanlab taqdim qilishni amalga oshira oladi. Bu esa test savollarining takrorlanmasligiga imkon yaratadi. Shuningdek, testni

¹ "Использование современных информационных технологий на уроках русского языка" <http://www.prodlenka.org>

² Ларин А.А.О концепции построения тестирующих программ.

bajarish jarayonida qiyin savollarni o'tkazib yuborish va ularga yana qaytish imkoniyati paydo bo'ldiki, buning natijasida test dasturlari faqatgina o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholash bilan cheklanmay ta'limiyl (o'rgatuvchi) vazifani, ya'ni o'rgatuvchi dasturlar funksiyasini bajarmoqda.

Test dasturlarining yana bir afzalligi foydalanuvchiga to'g'ri javobni topish uchun yo'l-yo'riq bera olishidir.

Test dasturlarining takomillshtirilishi natijasida savollarni bir necha ko'rinishda yaratish imkonи paydo bo'lmoqda.

Turli xil nazoratlarni o'tkazishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi sifatida quyidagilarni alohida sanash mumkin:


- Kompyuter dasturlari dars mobaynida o'qituvchiga muhim yordamchi bo'lishi mumkin, shuningdek, ularni uy sharoitida ham qo'llash imkoniyati mavjud.
- Kompyuter dasturlaridan o'rin olgan topshiriqlarni mashq qildirgich sifatida ham, nazorat qiluvchi sifatida ham foydalanish imkonи mavjud.
- Til bo'limlarni takrorlash va o'quvchilarning o'zlashtirishidagi bo'shlqlarni to'ldirish imkoniyatiga egalik.
- O'quvchilar xohlagan vaqtida nazariy ma'lumotlarni esga olishi yoki notanish atamalarni o'rganishlari uchun "Справочник" (ma'lumotnooma) tizimidan foydalanishlari mumkin.
- Kompyuter dasturlari orqali mavzuga mos, til hodisalari ko'rgazmali taqdim qilingan namunalar, misollar bilan tanishish mumkin.
- Kompyuter dasturlari o'quvchilarga lisoniy tahillilar turlari (fonetik, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik)ni o'rganishga yordam beradi.
- Kompyuter dasturlari tilshunos olimlarning tarjimayi hollari bilan tanishtiradi.
- Korgazmali albomlar esa yangi mavzuni tushuntirishda inuhim vosita bo'la oladi. Ularni bosmaga chiqarish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.
- Kompyuter dasturlari ona tilidan har xil turdagи imtihonlarga tayyorlanishda konsultatsiya vazifasini bajara oladi.

Axborot texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning til ta'limi uchun taqozo qilinadigan kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda alohida qimmatga egadir. Ana shu muammoning hal qilinishida til ta'limi uchun yaratilgan kompyuter dasturlarining ahamiyati juda kattadir. Xorijda bu borada katta tajriba to'plangan. Bizning vazifamiz ana shu tajribalarni o'rGANISH va o'zbek tilini ona til va davlat tili sifatida o'qitish jarayoni uchun sifatli kompyuter dasturlarini yaratishdan iborat.

10.3. Universal test dasturlari

Elektron testlar yaratish va nazoratlar o'tkazishda Multi Tester, Wondershare quiz creator, easyQuizz, iSpring QuizMaker kabi universal test dasturlaridan foydalanilib kelinmoqda.

10.1.-rasm. MultiTester dasturining umumiyo ko'rinishi




Multi Tester – testlarni tayyorlash va o'quvchilardan mahalliy tarmoq orqali sinovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, sinaluvchilarni real vaqt davomida kuzatish va kelishilgan holda sozlangan mezonlar asosida avtomatik baholashlarni amalga oshiruvchi tizimdir.

Tizim tarkibiga: Multi Tester Professor (o'qituvchi dasturi), Multi Tester Editor (savollar muharriri), Multi Tester Student (o'quvchilar dasturi) kiradi. Butun tizim "Klient/Server" texnologiyasi asosida ishlaydi. Barcha ma'lumotlar o'qituvchi kompyuteridagi ma'lumotlar omborida saqlanadi va zaruriy hollarda


tarmoq orqali mijoz kompyuteriga jo‘natiladi. Mijoz va server o‘rtasidagi aloqa garchi uni sozlashni usullari ko‘p bo‘lsada avtomatik sozlanadi.

Test konstruktor Test konstruktor dasturi – bilimlarni tekshirishdagi universal tizimdir. Ushbu o‘quv muassasasidagi kabi uyda ham foydalanish mumkin va u savol – javoblarning cheklanmagan miqdoridan foydalanish imkonini beradi. Savollarning 5 xil tipini qo‘llab-quvvatlaydigan bu dasturda musiqa, tovush, rasm va video roliklardan ham foydalanish mumkin. Istalgan ma’lumotlarni printerdan chop etish yoki turlicha kengaytmali fayllarga (Word, Excel, Access, HTML, XML, txt, Paradox, Dbase va b.q.) eksport qilishi mumkin.

10.2-rasm. Dastur interfeysi



O‘z ismi fainiliyasi bilan ro‘yxatdan o‘tish orqali bir necha kishi bitta kompyuterda sinovdan o‘tishi mumkin. Dastur juda qulay va tushunarli interfeysga ega. Wondershare quiz creator dasturining o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari Wondershare QuizCreator dasturini Xitoylik dasturchilar tomonidan yaratilgan bo‘lib, dastur orqali elektron nazorat (o‘z ichiga 9 hil) turlarini va so‘rovlar tashkillashtirish va yaratish imkoniyatini beradi.



- Dastur imkoniyatilari
- Test topshiruvchilarni ro'yhatdan o'tkazish;
- Test topshirish uchun belgilangan mavzuni namoyish etish;
- Savollarni tasodifiy tanlash;
- Har bir savol uchun javob variantlarini c'rin almashtirish;
- Bir necha mavzuni o'z ichiga olgan guruxli mavzuli test olish;
- Savollarni ballashni mavzu miqyosida hisoblash;
- Savollarni ballashni savol miqyosida hisoblash;
- Vaqtni mavzu miqyosida hisoblash;
- Vaqtni savol miqyosida hisoblash;
- Test topshirishlarni hisobga olish;
- Savollarga orqaga qaytmasdan bir marta javob berish;
- Savollarga orqaga qaytish orqali bir necha marta javob berish;
- Audio va video materialli savollarni namoyish etish; (wav, mid, mp3; 3gp, dat, avi, mpeg ...)
- Test topshiruvchilar harakatlarini bayonlashtirish;
- Natijalarini test jarayonida ekranda ko'rsatish;
- Savollarga javob berish jarayonida kerakli izohlar va tushuntirishlar berish;
- Test topshiruvchilar natijalarini umumiy bazada to'plash;
- Savollarga javob berishda tasdiq so'rash;
- Sana va vaqt ma'lumotlarini serverdan olish;
- Javob berish jarayonida rasmlar, audio va video materiallarni o'qish;

- Ekranda test natijasini bildiruvchi indikatorni namoyish qilish;
- Ixtiyoriy tilli interfeys;
- Natijalarni bayonlashtirish va umumiy bazada jamlanishi ta'minlash;
- Bayonnama va qaydnomani matnga chiqarish;
- Savollarni taxrir kilishda eksport va import qilish, xususan:
- Flash formatida;
- LMS tizimlari uchun SCORM standartiga mos keluvchi formatida;
- HTML sahifa orqali ochiladigan formatda;

Shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan exe formatiga ugorishi mumkin.

Shuningdek, elektron ko'rinishda yaratilgan testlarni MS Word va Excel formatlariga eksport qilish imkoniyati ham mavjud.

Talabalar test topshiriqlarini topshirish vaqtida uiar savollarni yodlab qolishiari va ulardan keyin topshiradigan talabalarga tushgan savollarni aytishlari mumkin. Umumiy test savollariga bitta vaqt ni bilgilash, masalan: 20 ta testning hammasi javob berish uchun 30 minut ajratish mumkin.

Har bir test savoliga alohida- alohida vaqt ni belgilash mumkin, masalan

1- savolga 30 sekund, 2- savolga (agar qiyin savol bo'lsa) 60 sekund ajratish mumkin.

Wondershare QuizCreator dasturi orqali o'qituvchi test jarayonni modelllashtirish inkeniyatiga ega. Ya'ni fan o'qituvchisi test bo'lish vaqtidagi ssenariyясini yaratishi mumkin, boshqacha aytganda adaptivlashgan test oluvchi dasturni yaratishi mumkin.

Saytdan Wondershare QuizCreator dasturini yuklab olib, 30 kun davomida bepul ishlatish imkoniyati mavjud. Bu vaqt ichida bemalol o'zingizning fanningizdan elektron nazorat turlarini tashkillashtirishingiz mu'mkin bo'ladi.

10.4. O'zbek tilidan interaktiv testlarni tuzish va qo'llash yo'llari

iSpring Suite dasturlar paketida iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan

Adobe Flash (operasion tizim razryadiga ko‘ra 32 va 64 bitli) dasturi o‘rnatilishi talab etiladi. Dastur o‘rnatib bo‘lingach **Пуск** menyusidan **Все программы** bo‘limida iSpring Suite tanlanadi. Bundan iSpring QuizMaker dasturi tanlanishi bilan 10-rasmdagi oyna ochiladi.

Bu oynadan **Создат новый тест** bo‘limini tanlasak pedagogik testlarni tuzish uchun oyna ochiladi. Bu oyna dasturning ishchi oynasi hisoblanadi. Ishchi oynaning **Добавит тест** bo‘limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo‘limda pedagogik testlar turlarining 11 ta turi keltirilgan ularning keraklisini tanlab test tuzishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. **Верно/неверно** (to‘g‘ri/noto‘g‘ri) test turida savol berilib, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobi tanlanadi;
2. **Одиночный выбор** (bitta javobni tanlash) – bir necha variantdan kerakli javobni tanlash;
3. **Множественный выбор** (bir necha javobni tanlash);
4. **Ввод строки** (satr kiritish) – javobni satrga kiritish yo‘li bilan javob berish;
5. **Соответствие** (mos keltirish) – savollarni javoblariga mos keltirib qo‘yish orqali javob berish;
6. **Порядок** (tartib) – javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;
7. **Ввод числа** (sonni kiritish) – satrga savol javobiga mos sonni kiritish;
8. **Пропуски** (tushirib qoldirilgan) – tushirib qoldirilgan so‘zlarni kerakli joyga yozish;
9. **Вложенные ответы** (jamlagan javoblar) – egizak javoblar ichidan to‘g‘ri javobni tanlash;
10. **Банк слов** (so‘zlar ombori) – so‘zlar omboridan kerakli so‘zlarni to‘g‘ri ketma - ketlikda qo‘yish orqali javob berish. Bunda so‘zlar omboriga so‘zlarni ham kiritish kerak bo‘ladi;
11. **Активная область** (faol soha) – rasmda aktiv sohani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror sohasini tanlash kerak bo‘lgan savol kiritiladi. Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish zarur.

Birinchi qadamda dasturni (hamma so‘zlar ruschada berilganiga ahamiyat qiling) o‘zbekchaga o‘tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturning ishchi oynasidan **Тест** bo‘limidan **Настройки** bandini

tanlaymiz. Oynaning chap bo‘limidan **Надписи** bandini tanlaymiz. **Сообщение / кнопка** ustuniga tegmagan holda **Надпись** ustuniga birinchi ustunga berilgan so‘zlarni mosiga o‘zbekcha so‘zlarni kiritib tahrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o‘zbekcha ko‘rinishga keladi.

Ikkinci qadamda kerakli test turini **Добавит вопрос** bo‘limidan tanlaymiz. Misol uchun **Верно/неверно** turi. Shunda dastur oynasi quydagicha ko‘rinishga keladi. Ushbu oynaning **вопрос** oynachasiga savol kiritib, unga ko‘ra **ответ** oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mes to‘g‘ri javob tanlab qo‘yiladi. Dastur oynasining o‘ng qismida **Изображение**, **Звук**, **Видео** yozuvni turibdi, shular yordainida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. Shu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin.

Uchinchi qadam. Test tuzib bo‘lingandan so‘ng uni sozlash kerak bo‘ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testning davomiyligi va h.k. Buning uchun yana **Настройки** bo‘limiga kiramiz. Bu oynaning chap oynasidagi bo‘limlarga kirib testlarimizni sozlab olamiz.

To‘rtinchi qadam dastur oynasining **Тест** bo‘limidan **Публиковать** bandini tanlaymiz va natijada oyna ochiladi. Testimizni to‘rt xil ko‘rinishda yaratishimiz mumkin. Web sahifa, iSpring On-lain, LMS, Word sahifasi. Undan keyin test formatini HTML, exe, Zip arxivni tanlashimiz, tester nomi, qo‘llanish ko‘لامи, saqlanadigan o‘rni, fayl nomi va fleshrolik xususiyatlarini tanlab **Публиковать** tugmasini bosamiz.

Bunday testlar ta’lim oluvchilar uchun qiziqarliroq, chunki interaktiv testlar rasm, ovoz va formulalar yordamida tuzilgani uchun talaba katta intuziazm bilan ishlaydi. Til ta’limida tinglash va gapirishga o‘rgatishda ovozlar qo‘yish yordamida test tuzish imkoniyati o‘qituvchi ishini ancha yengillashtiradi.

Bundan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o‘tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yo‘llash imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta’lim talablariga ham javob bera oladi.

Mayzuni mustahkamlash uchun savellar:

1. Bilimlarni baholashning elektron shakllari va an'anaviy baholash o'rtasidagi tafovitlar haqida fikrlaringizni bayon qiling.
2. Ma'ruzada sanalgan universal test dasturlaridan tashqari yana qanday dasturlar bilan tanishgansiz?
4. O'zbek tilida interaktiv testlarni tuzish va qo'llash bo'yicha takliflaringizni bildiring?

Mustaqil ish topshiriqlari. Universal test dasturlaridan foydalananib elektron testlar yaratishga harakat qiling va loyiha ishingizga foydalaning.

Asosiy tushunchalar:

Metodik materiallarni tayyorlashda qo'llaniladigan dasturlar – amaliy va veb dasturlar. Metodik materiallarni tayyorlash dasturi – Blaknot, WordPad, Word, Latex.

Modem (модем, modem) – modulyatsiya, demodulyatsiya so'zlaridan olingan bo'lib, uzluksiz signallarni raqamli ma'lumotlarni uzluksiz signallarga almashtirib beradigan qurilma.

Moderator (модератор, Moderator) – elektron konferensiyalarni hamda tarqatmalar ro'yxatini boshqaruvchi inson.

Moderator (Модератор, Moderator) – 1. Forum, teleanjuman va chatlarda qoidalarga rioya qilishni nazorat qiluvchi yetakchi.

Operatsion sistema (операционная система, operation system) – bosh boshqaruv dasturi.

Ofis dastur paketiga kiruvchi dasturlar (офисные программы, office programs) – Word, Excel, Access, PowerPoint, Outlook

Ommaviy onlayn ochiq kurslar taqdim etayotgan internet ta'lim tizimlari – Coursera, EdX, Khan academy

Offlayn (Off-line) – tarmoqqa ulanmagan (avtonom) holatda ishlash tartibi.

Offlayn texnologiyalari (оффлайновые технологии, offline technologies) – ma'lumotlar va xabarlar almashuvida, sezilarli asinxronlikka yo'l qo'yadigan, axborot makonidagi xabarlar kommunikatsiyasi vositalari: tarqatish ro'yxatlari, yangiliklar guruhi, web-forumlar va h.k.

Adabiyotlar:

1. Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
2. Begirnqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
3. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari:

- 1 www.Lex.uz
- 2 www.ziyonet.uz
- 3 www.yazikoznanie.ru.

11- MODUL: TIL TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVNI TA'MINLASHDA AKTNING O'RNI

11.1. 'Til ta'limida integrativ yondashuv

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta'limning hozirgi zamон fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ahamiyatlι g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etish bo'yicha tajribalarni toplash, ularni amalda qo'llash borasida o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda integratsiyali darslarni tashkil qilish va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridandir. Integratsiyali darslar tashkil qilish tushunchasi fanlararo aloqa tushunchasi bilan yaqin ma'noga ega. Fanlararo aloqa masalalari pedagogika tarixida barcha davrlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. XX asr oxirida bu masala doirasi kengaydi va muqobil ravishda integratsiya atamasi faollashdi¹.

Integratsiya – ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir². Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi³. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim

¹ О'кув qо'llанманинг мазкур қисмida мuanif – Sh Adilova va Sh. Yuldasheva hammuallifligidagi “Til ta'limida integrativ yondashuv” nomli tezisdan foydalanildi. Qarang: Adilova Sh., Yuldasheva Sh. Til ta'limida integrativ yondashuv. // O'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. – B. 88-90.

² Узбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – М.: Русский язык, 1981. – В. 380.

³ Qarang: Ro'zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi // Ma'rifat. - 2002. - №26. -B.6.

sathlarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik. Bu borada R.Jo‘rayev, A.Zunnunovlarning ta’lim jarayonida o‘quv fanlari integratsiyalanishiga bag‘ishlangan qo‘llanmasi barcha fanlar uchun dasturulamal bo‘la oladi¹. P.f.d. Sh.Yusupova: “Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alovida sistemalarning yaqinlashishi, bog‘lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir”, –deb ta’riflaydi. Olima integratsiyani differentsiatsiyaning aksi ekanligini ta’kidlaydi hamda uni quyidagi yo‘nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- a) o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish;
- b) turli o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- v) ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash.

Olima nazarda tutgan birinchi yo‘nalish – o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o‘rganish masalasi metodikada an‘anaviy “Fanlararo aloqa”ni ta’minalash deb qaralishi mumkin.

“Ona tili o‘qitish metodikasi”da fanlararo aloqa masalasiga alovida e’tibor qaratilgan. Biroq bu atamani nisbatan tor doira uchun qo‘llash mumkin, ya’ni ona tili fanining faqatgina boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, fanlarning bir-birini to‘ldirishi.... kabilar. Integratsiya tushunchasi esa nisbatan keng bo‘lib, u fanlarning o‘zaro aloqasini ham, shuningdek fanlarning bo‘limlari, sathlari bo‘yicha bir butunlik tushunchasini ham anglatmoqda.

A.G‘ulomov hamda H.Ne’matovlar ta’kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalananib, o‘quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoq lozim. O‘quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog‘ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o‘rganishlari zarur².

¹ Jo‘rayev R., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash. – Toshkent: Sharq, 2005.

² G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 38.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san'at, tarix, musiqa, adabiyotning qonuniyatlarini chuqr anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishiga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyanı hosil qilish o'qitishning zamонавији usullariga kiradi.

Kommunikativ kompetentlikka erishishda autentik (elektron) materiallar

Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsnı kamol toptirish maqsadi qo'yilgan bo'lib, bu maqsadga erishish masalasi umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari takomillashtirilishiga uzviy bog'langan. Xorij ta'lim tizimida bo'lgani kabi mamlakatimizda o'quvchilarning kompetentliliginı shakllantirish yuzasidan tayanch kompetentsiyalar va fanga oid kompetentsiyalar ishlab chiqildi. Unga ko'ra ta'lim tizimining bitiruvchisi ta'limning ma'lum bosqichini bitirganidan so'ng ma'lum kompetentsiyaarga ega bo'lishi belgilab berildi.

Tayanch kompetentsiyalar:

1. Kommunikativ kompetentsiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi;
3. Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi;
5. Umummadaniy kompetentsiya;
6. Matematik savodxonlik, fan texnika yangilikleridan xabardor bo'lish kompetentsiyasi.

Tayanch kompetentsiyalar qatorida kommunikativ kompetentsiyaga erishishda ona tili fanining muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur, chunki kommunikativ kompetentlikda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatsizlik fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatlari vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda autentik materiallarga alohida e’tibor qaratish lozim. Biroq til o‘qitish metodikasida autentik materiallardan foydalanish va eng so‘nggi axborot kommunikatsion vositalarining til ta’limida qo‘llanilishi ilmiy-nazariy yoritib berilgan adabiyotlar yetarli darajada deb aytolmaymiz. Chet tillarini o‘qitish tajribasiga ko‘ra o‘quvchilarni gapirishga o‘rgatishning asosiy talablaridan biri autentik materiallarni foydalanishdir. Shuning uchun ham bu sohada ilmiy-uslubiy adabiyotlar nihoyat darajada ko‘p bo‘lib, ona tilini o‘qitish bo‘yicha audiovizual materiallarni yaratishda ana shu adabiyotlarga tayanish mumkin.

Aynan audiomaterialllar va tinglab tushunish mashqlari og‘zaki talaffuzni va yozma nutqni yaxshilash imkonini beradi. Videolavhalalar esa nafaqat nutqiy, balki til o‘rganuvchilarining sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Videomaterialllar vositasida turli nutqiy inavzular va vaziyatlarga oid voqealardalar bilan kengroq tanishtirish nafaqat o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, balki ko‘rilgan lavhalar asosida o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga ham sharoit yaratadi. O‘zbek tilini ekran orqali o‘rgatish, avvalo, ta’lim oluvchining fanga qiziqishini uyg‘otish, har taraflama bilim olish, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Biroq videolavhalarni ko‘rsatishdan maqsad faqat film tomosha qilishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Xadicha Muxitdinova, “Til ta’limiga videomaterialllar qanday uyg‘unlashadi?”¹ maqolasida

¹ X. Muxitdinova. Til ta’limiga videomaterialllar qanday uyg‘unlashadi? // Til va adabiyot ta’limi. – 2015. 8-soni. – 15-16-b.

videodarslarning ta’limiy samaradorligini oshirish o‘quv dasturiga mos maxsus videomateriallar tizimini hamda har bir videomaterialni taqdim etish yuzasidan maxsus metodik ko‘rsatmalar, ya’ni darsning ta’limiy maqsadiga mos keladigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni talab etadi. Maqola muallifi rus metodistlarining tadqiqotlariga tayangan holda videomateriallar bilan ishlashning kengaytirilgan 6 bosqichli tizimini tavsiya etadi¹:

1. Tayyorgarlik bosqichi.Bu mavzu yuzasidan qisqa kirish suhbatи o‘tkazish yoki berilgan matnni o‘qitishdan iborat bo‘ladi. O‘quvchilarga avvaldan ushbu mavzuga tayyorgarlik ko‘rib kelish uy vazifasi sifatida topshirilishi ham mumkin.

2. Videolavhani namoyish qilish.Bu bosqichda videomaterial diqqat bilan kuzatiladi, berilgan savollar asnosida qisqa savol-javob o‘tkaziladi.

3. Lavhani yana bir bor ko‘rish.Bu jarayonda ko‘rilgan matn mazmunini eslab qolish, ayrim tayanch so‘z va birikmalarni yozib olish amali bajartiriladi.

4. Tayanch so‘z va birikmałar asosida matnni tiklash yoki ijodiy matn tuzish.

5. Tuzilgan matnlarni o‘qish, berilgan savollarga javob berish.

6. Tasvirlardagi milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish. Ushbu bosqich o‘quvchilarida sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyani shakllantirishga, o‘quvchilarning o‘rganilayotgan til madaniyati bilan kengroq tanishishiga yordam beradi. So‘nggi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni ko‘zda tutilgan maqsad tomon yo‘naltirib turishi, ayrim noto‘g‘ri izohlarni to‘g‘rilab borishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarni yangi tayanch so‘zlar bilan tanishtirish, xususan, milliy-madaniy leksikaga oid so‘zlarni alohida sharhlab borishi kerak bo‘ladi. Olimaning fikricha, ta’lim jarayonidan kelib chiqib, yuqorida bosqichlarni qisqartirish mumkin. Biroq bunda 1-, 2- va so‘nggi 6-bosqichlar, albatta, saqlab qolinishi kerak.

Muallif 2009-2010 o‘quv yillarda Moskva davlat lingvistik universitetida o‘zbek tilini xorijliklarga o‘qitish jarayonida “Toshkentim – onam”, “Namanganning olmasi” qo‘shiqlari bosqichli

¹ О.П.Быкова. Учебные модули для работы с видеоматериалом // Русский язык за рубежом. 2009, №2, С. 34.

ketma-ketlik asosida o'rgatilib samarali natijaga erishilganligi ta'kidlangan.

Maqolada keltirilishicha, o'zbek tili darslari samaradorligini oshirish maqsadida 2011-yilda ilk tajriba sifatida uzviyylashtirilgan o'quv dasturidagi 5-sinf mavzularining 40 foizi uchun audiomatnlar va videolavhalar ishlab chiqilgan, 2013-yilda 6-sinf va 7-sinf "O'zbek tili" darsliklaridagi mavzularning 70 foizi uchun videolavhalar majmuasi tayyorlangan. O'zbek tili fanidan birinchi marta 6-7-sinflar uchun "O'zbek tili" darsliklarida bevosita darslikdagi mavzular va topshiriqqa mos ravishda 17 ta videolavhadan iborat videodisk majmuasi yaratilgan.

X.Muhiddinovaning mehnatlari natijasida mavjud metodik adabiyotlardan farqli ravishda 6-7-sinflar uchun o'zbek tilidan metodik qo'llanmalardagi dars ishlanmalarida audio va videomateriallardan darsning qaysi bosqichida va qay tarzda foydalanish yo'l-yo'riqlari ham bayon etilgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida audiovizual materiallardan foydalanishda Power Point dasturidan foydalanmoqda, ammo animatsiyalar, gif, formatdagি rasmlardan foydalanishda o'qituvchilar didaktik, ergonomik, psixologik talablarga rioya qilmayaptilar, shriftlarga qo'yiladigan talablarni e'tiborga olmaslik, shuningdek, grammatik va orsfografik xatolar, imlo qoidalarining buzilishi, stilistik kamchiliklar, ranglarning uyg'unligiga rioya qilinmasligi, ya'ni ranglar balansining buzilishi, dinamik vizual ma'lumotlarning ortiqcha joylashtirilishi, fonning noto'g'ri tanlanishi kabi holatlar kuzatiladi. Ko'p hollarda o'quvchilarning e'tibori chalg'ituvchi animatsiyalarga qaratilib, asosiy nazariy ma'lumotlar ikkalamchi bo'lib qolmoqda. Shu bois autentik materiallarni tayyorlash va foydalanishda fan o'qituvchilari metodistlarning ko'rsatmalarini bilan tanishishlari va ularga amal qilishlari zarur.

11.2. Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish va til sathlari integratsiyasini ta'minlashda AKT imkoniyatlari

Ma'lumki, bir qator fanlarning dasturlarida «chorrahalar» bor, ya'ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir obyekt o'rganiladi. Bularning barchasi integratsiyaga talabnomaga. Jumladan, til hodisalarini yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalar hosil qildirish maqsadida o'quvchilarga ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tegishli

tayyorgarlik darajalari hisobga olingen holda ikki xil yo'ldan foydalaniadi:

1. Badiiy asarlardan (Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, T.Adashboev, A.Obidjon ...) parchalar tanlanadi.

2. Shu sinfga tegishli bo'lgan bosinqa o'quv predmetlariga oid darsliklar (matematika, botanika, geografiya, kimyo ...)dan foydalaniadi.

Buning real natijasi:

- o'quvchilar turli nutq uslublari bilan amalda tanishadilar;
- so'zlarning qo'llanish imkoniyatini amaliy jihatdan kuzatishadi;
- fanlararo aloqa ta'minlanadi, ya'ni integrativ darslar tashkil qilinadi.

Fikrimiz dalili sifatida pedagogika fanlari doktori Sh.Yusupovaning bir vaqtning o'zida ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, biologiya fanlarini bog'lab o'qitishga doir tahlillarini keltiramiz. Olima rahbarligida o'tkazilgan sinov darslaridan birida o'qituvchi o'quvchilardan behi guli haqida ma'lumotlar berishni so'raydi, javob olingandan keyin behi gulining tasvirini chizish ularga topshiriq sifatida beriladi. T.Yusupovaning "Behi guli" she'ri o'quvchilarga ifodali o'qitilib, she'rda berilgan ot va fe'l so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtirib yozish topshiriladi.

Shuningdek, olima botanika va ona tili fanlarini bog'lashda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu usul o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, qissadan hissa chiqarishga, o'z maqsadlarini bayon etishga undashi, maqollarda keltirilgan o'simlik yoki daraxtlarni ta'riflab berish esa ularning nutqiy malakalarini yanada rivojlantirishi ta'kidlanadi¹.

Mutaxassislar integratsiyalangan darslar o'quvchilarning charchog'ini oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi, deb hisoblaydilar. Agar integratsiyali darslar jarayoniga zamonaviy vositalarni foydalanish yo'lda qo'yilsa, samaradorlik yanada ortadi. Bu borada

¹ Yusupova Sh. Ona tili va botanika fanlarini uyg'un holda tashkil qilish mumkinmi?//Til va adabiyot ta'limi. 2015. 7-soni. 13-14 b.

muayyan tajribalar ham to‘plangan. Jumladan, “Ona tili. 5-sinf uchun elektron o‘quv-metodik majmua”siga¹ jamlangan mashq va topshiriqlarning aksariyati 5-sinfda o‘rganiladigan fanlar bilan uzviy bog‘langan. Foydalanuvchilar “Botanika”, “Tarixdan hikoyalar”, “Geografiya”, “Musiqa”, “Jismoniy tarbiya”, “Rus tili”, “Ingliz tili”, “Tasviriy san’at”, “Adabiyot” fanlari bilan integratsiyalashgan 10 dan ortiq turdagи mashq va topshiriqlar; esse, krossvord, test savollari orqali bilimlarini oshiradilar, asosiy materiallarni mustahkamlaydilar. Elektron majmua yordamida esse topshiriqlari uchun botanika fani materiallari video va rasmlar yordamida taqdim qilingan.

Hasharat, hayvon va parrandalarning toyushiga taqlid so‘zlarning qaysi tillarga oid ekanligini aniqlang va qutidagi so‘zlarni o‘z o‘rniga joylashtiring.

		
Ani:	Sigir:	Ko‘rozi:
O‘zb.: Ingl.: Rus.:	O‘zb.: Ingl.: Rus.:	O‘zb.: Ingl.: Rus.:
g‘ing-g‘ing z-ž-z cock-adondle-don	moo-moo ky-ky-pe ky QU QU-QSI	mo-o-o QU QU-QSI N-y-a-y

Tasviriy san’at asarlarini ularning turlariga, janrlariga ko‘ra, shuningdek aks etgan sujetga ko‘ra ona tilining qaysi sathi uchun muvofiq kelishini aniqlab, foydalanish kutilgan natijani beradi. Harakatlar tasvirlangan rasmlarga qarab gaplar tuzganda sifatlar kamroq. fe’llar, bog‘lovchilar ko‘proq ishlataladi. Demak, bunday tasviriy san’at asarlari fc’l, fe’l shakllari, ravish, bog‘lovchi bilan bog‘liq mavzularni o‘tish jarayonida ko‘proq tanlanishi kerak.

¹ Yuldasheva Sh., Zaripov O., Bekjanova M., Smaylova D., Gulmanova Q., Yangiboeva G., Urazboeva D. 5-sinf uchun “Ona tilli” fanidan elektron o‘quv-metodik majmua. – Nukus, 2016. (guvohnoma: DGU 04136)

Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish bilan qator til sathlari integratsiyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Ta'lif samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim. Pedagog U.Musayev integratsiyaning mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiyaga ahamiyat qaratishi bejiz emas. Bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materiali keyingisini to'ldiradi¹.

Til sathlarini tashkil qilgan unsurlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi bilan birga, ular o'zaro uzviy bog'langan. Maktabda fonetikani o'zlashtirmasdan orfografiyanı bilish mumkin emas. Fonetika va orfografiya, leksikologiya (so'zshunoslik) va morfologiya (so'z turkumlari) o'zaro chambarchas bog'langan. Shuning uchun o'rta maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish kutilgan natijalarni beradi.

Demak, ona tili ta'limidagi integratsiya haqida so'z ketganda faqat, fanlararo aloqa emas, balki til sathlarining uzviyligiga erishish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur.

11.3. Noan'anaviy darslarni AKT yordamida tashkil etish

Ona tili o'qituvchilari tajribasida aksariyat darslarda integratsiyaga amal qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada AKTdan foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishda katta yordam berishi mumkin. Masalan, darsning mustahkamlash qismida "O'yla, izla, top" grammatik o'yini tashkil qilinib, uning "Bilimlar bulog'i" shartiga ko'ra o'rganilayotgan grammatik hodisa haqida tushuncha hosil qilish fanlararo integratsiya orqali osonlashadi².

Power Point prezentsatsion (taqdimot) grafikli dasturida slaydlar tayyorlash va o'quvchilarga topshiriqlar taqdim qilish mumkin:

1-slaydda fanlarning nomi qayd qilinadi va gipermurojaatlar orqali 3 xil topshiriq ochiladi:

¹ Do'stmurodova O. Matn tuzish topshiriqlari ona tili ta'limining texnologik etalonini sifatida. //Xalq ta'limi, 2005. 3сон, 73.

² Sh.Karimboyeva. Yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish usullari. Bitiruv malakaviy ishi, Nukus, 2016.

MATEMATIKA

ADABIYOT

ONA TILI

Matematika fani:

— Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi.

Savol: Ushbu matnda nechta yordamchi so‘z qo‘llangan?

O‘quvchilar quydagicha javob berishlari kerak. Ushbu matnda 4 ta yordamchi so‘z qo‘llangan: ham – yuklama, kabi – ko‘makchi, va – bog‘lovchi, bilan – ko‘makchi.

Adabiyot fani:

Erib ketmagandim sevgingidan,
Bo‘lmaslik-chun baxtingdan judo.

Birga qolish uchun sen bilan,
Kuyaman-u bo‘lmayman ado. (Zulfiya)

Savol: Ushbu she’rda ifodalangan yordamchi so‘zlarni toping?

Javob: -chun, uchun, bilan ko‘makchilari, -u yuklamasi.

Ona tili:

Buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiyl, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan. (O‘.Hoshimov)

Savol: Gapdan yordamchi so‘zlarni topib, izohlang?

Ushbu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Faqat – ayiruv-chegeeralash yuklamasi;

Va – bog‘lovchi;

Ham – yuklama;

Bilan – ko‘makchi.

D.O‘rayevanining “O‘zbek tilshunosligida undoshlar tansifini matematik usulda o‘rganish” nomli maqolasida innovatsion darslar

tashkil qilishning bir usuli taklif qilinadi. Mazkur maqoladan 5-sinfda “Fonetika”dan undoshlarni o’rganishda, takrorlash darslarini tashkil qilishda, shuningdek, yuqori sinflarda undoshlarni takrorlashda foydalanish mumkin. Albatta, qaysi darsda maqola materialini to’liq, qaysi darsda qisman foydalanishni o’qituvchi o’zi belgilab olishi zarur. Maqola muallifi tilshunos olimlar ko’p qo’ilaydigan “Grammatika – ikkinchi matematika” degan tashbehta tayanib, muayyan lisoniy hodisalarini o’rganishda turli matematik usullardan foydalanishga ahamiyat qaratadi. tilshuNoslikning tovushlar tizmini o’rganuvchi fonetika bo’limini o’rganayotganda, unga aloqador undosh tovushlar tasnifi masalasini matematik usulda o’rgatish juda samarali kechishini, faol va muammoli o’qitish usuli sifatida o’quv mashg’ulotining qiziqarli o’tishini ta’minalashi mumkinligini alohida ta’kidlaydi¹. Ana shu maqola materialini AKTni tatbiq qilib, yordamchi vosita sifatida foydalanish esa yanada samaraliroq bo’ladi. Agar yangi mavzu bayoni uchun foydalanilsa, taqdimot texnologiyasiga murojaat qilish mumkin. Agar mavzuni mustahkamlash uchun tatbiq qilinsa, iSpring Suit orqali mashqlar yaratish, o’quvchilar BMKlarini baholash uchun elektron testlar tuzish va shu asosda baholashni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Integratsiya va fanlararo aloqa haqida shaxsiy mulohazalarining bayon qiling.
2. Autentik (elektron) materiallar nimani anglatadi?
3. Til sathlari integratsiyasini ta’minalashda AKTdan foydalanish haqida qanday
4. Noan’anaviy darslarni AKT yordamida tashkil etish.

Mustaqil ish topshiriqlari. Multimediali dars uchun yaratayotgan loyihangizda integrativ yondashuv mavjudligi bo'yicha tahlil qiling.

Asosiy tushunchalar:

Media (медиа, Media) - elektron texnologiyalar vositasida axborotni tashuvchi yoki saqlovchilar.

¹ O’rayeva D. O’zbek tilshunosligida undoshlar tansifini matematik usulda o’rganish. // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2013. - № 1. - B.14-15.

Metama'lumotlar (метаданные, Metadata) – biror ma'lumotning (faylning) sarlavhasi, mavzusi, avtori, hajmi, kalit so'zları kabilardan iborat axborot.

Metaqidiruv tizimi (система метапоиска, Metacrawler) – foydalanuvchining so'rovini bir necha qidiruv serverlariga jo'natib, natijani gipermurojaatdan iborat ro'yxat shaklida ifoda etuvchi tizim yoki server.

Metodik materiallarni tayyorlashda qo'laniladigan dasturlar – amaliy va veb dasturlar. Metodik materiallarni tayyorlash dasturi – Blaknot, WordPad, Word, Latex.

Qidiruv sistemasi (система поиска в интернете, searching system on the Internet) – saytlar haqidagi ma'lumotni avtomatik tarzda izlovchi va tasnif qiluvchi. Masalan: *AltaVista, Google, Excite, Northern Light* va b. Rossiyada – *Rambler, Yandex, Apart*.

Regional hisoblash markazi (региональный вычислительный центр, regional accounting system) – bir hududda ishlaydigan kompyuterlarni bog'lovchi tarmoq.

Sayt (сайт, Site) – serverning Internetdag'i joylashgan manzili. Web-serverda joylashgan sahifalarni ham shunday atashadi.

Sahifa manzili (адрес страницы, page address) – Web sayt yoki Internetdag'i sahifani ko'rsatuvchi manzil.

Server (сервер, Server) – tarmoq tuguni, bu yerda boshqa kompyuterlarga xizmat ko'rsatiladi; u tarmoqqa ulangan va ma'lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladigan kompyuterdir

Ssilka (ссылка, Link) – giperssilka.

Ta'limning informatsion texnologiyasi (информационная технология обучения, Information technology of education) – pedagogik texnologiyaning maxsus turi bo'lib, bunda maxsus dasturiy va texnik vositalardan (kino, audio- va videovositalar, kompyuterlar, telekommunikatsion tarmoqlardan) foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. Aripov M.M., Muxanimadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.

2. Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.

12-MODUL: KIRISH. ADABIYOT NAZARIYASIGA OID MAVZULARNI O'QITISHDA SLAYDLARDAN FOYDALANISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitobida adabiyot haqida shunday yozadi: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta... Adabiyot-ma'naviyatni yuksaltirish vositasi sanaladi. Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa-millat yashaydi"¹.

Darhaqiqat, adabiyot zamon bilan hamnafas taraqqiy etmog'i kerak. Buning uchun Adabiyotni umumiyl o'rta ta'lim, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlariда yangicha ruhda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qtish eng muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy o'qtish texnologiyalari – majmuaviy interfaol tizimlar bo'lib, o'z ichiga ta'lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy malaka va ko'nikmalarning shaxs xislatlaring o'rganuvchilarini tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarining tartiblashtirilgan to'plamini qamrab oladi. Bu o'tinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqishga, ta'lim jarayonlarini tashkil qilishga, ta'lim usul va vositalarining belgilanishiga, shuningdek, ta'lim beruvchilarning malaka darajasiga, erishilgan natijalarni baholash usuliga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonnarning majmuaviy qo'llanishi o'quv jarayoni mohiyatini va uning texnologiyasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: O'zbekiston. 2008.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” har bir ta’lim beruvchining oldiga dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddabron, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ydi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda o‘qitish amaliyotiga zamonaviy va jahonning ilg‘or ta’lim texnologiyalarini qo‘llashni davr taqozo etmoqda¹.

“O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish dasturi”da respublikamizda axborot texnologiyalarini rivojantirishning 6ta ustivor yo‘nalishi ko‘rsatib berildi.

1. Davlat statistika tizimi, moliya-kredit va bank tizimlari;
2. Elektron ma’lumotlar bazasi;
3. Fan-texnika axborot tarmog‘i;
4. Ta’lim, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy muhofaza va sog‘liqni saqlash sohalari axborot tizimlari;
5. Ma’lumotlarni uzatish va aloqa tizimlari;
6. Favqulodda holatlarning oldini olish va xabar berish aloqa tizimlari.

Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta’limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo‘lib, u ta’lim oluvchi shaxsini shallantirishga yo‘naltirilmog‘i kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya markazida ta’lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonining sub’ekti va ob’ekti bo‘lgan ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi turadi. Bugungi kunda adabiyot o‘qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim oluvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda. Shuning uchun ham adabiyot o‘qitish texnologiyalari bazasida kompleks o‘qitish vositalari kontseptsiyasini ishlab chiqish hamda kontsepsiya doirasida yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni hal etish eng muhim vazifalardan biridir.

O‘qitish texnologiyasini loyihalashni pedagogik vazifaning qo‘yilishi va uni hal etish asosida qaraymiz. 1) pedagogik vazifaning qo‘yilishi. 2) didaktik jarayonni ishlab chiqish.

¹ Qarang: Mavliyanov A., Abdałova S., Allamberanova M. O‘qitish usullari va texnologiyalari: yuksak sifat va samaradorlik omili. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2014. 22-bet.

Pedagogik vazifaning belgilanishi quyidagilarni qamrab oladi: ta'lim maqsadlarini tahlil qilish va shu asosda fanning mazmunini aniqlash; fan mazmuni tuzilmasini ishiab chiqish va uni o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalash; o'quv elementlarini o'zlashtirish darajalarini belgilash; ta'lim oluvchilarining dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko'rsatkich fanning mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi; o'quv-moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash¹.

Pedagogik vazifaning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan ta'lim beruvchi faoliyati ta'limning usul, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim beruvchi faoliyati 3 turga tasniflanadi.

1. Boshqarish turi;
2. Axborot almashinuv jarayoni turi;
3. Axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

Hozirda ta'lim muassasalarini zamонавиу kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter- o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

O'quv kursini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;

¹Mavliyanov A., Abdalova S., Allambergenova M. Oqitish usullari va texnologiyalari: yuksak sifat va samaradorlik omili. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: 2014. -100 bet.

- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro muloqot.

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan birga quyidagilarni amaliyatda qo‘llay olishi lozim:

- yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo‘srimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Namoyish slaydiarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

- ❖ grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- ❖ muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- ❖ o‘zining o‘quv-biluv faoliyatini rejalashtirish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin.

Adabiyot darslarida elektron qo‘llanmalar, videolavhalar, animatsiyalar, matnlar, ovozli obrazlardan (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Adabiyot o‘qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishslash uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

- ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish;
- ma’ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq topshiriqlarni tayyorlash;
- metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish;
- o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish;

Microsoft Power Point 97 – universal imkoniyatlari keng bo‘lgan ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlar sirasiga kiradi va matn,

rasm, chizma, grafiklar, animatsiyalar, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi¹.

Slayd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. **Slaydlar** ketma-ketlikdan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekaranida videomanitorda, katta ekranda namoyish qilish mumkin. **Prezentatsiya (Taqdimot)** – yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Bu dasturni ishga tushirish uchun ishni WINDOVS ish stolidan boshiash kerak. Ish stoli quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi.

“Pusk” – “Programma” – “Microsoft Power Point”.

Eslatma: yuqoridagi buyruqlarni bajarish sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.²

Power Point ishga tushirilganda ekranda ko'rsatilgan taqdimot yaratish muloqot darchasini ko'rish mumkin.

Bu muloqot barchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish kerak.

“Pustoy prezantatsiyu” (bo'sh taqdimot) – mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.

“Otkret prezantatsiyu” (Taqdimotlarni ochish) – kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo'lgan ko'rgazmali fayllarni ochadi.

Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bo'limlardan birini o'zmaqsadiga ko'ra tanlab oladi. Dastur ishini bo'sh taqdimotdan ham boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi “Pustoy prezantatsiyu” – (Bo'sh taqdimot) bo'limiga olib kelinadi va “OK” tugmachasi bosiladi. Bu yerda ko'rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo'nalish tugmasi yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Taqdimotlarni tahrirlash. Taqdimotlarni saqlangandan so'ng uning tarkibidagi barcha slaydlarni alohida-alohida o'zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha

¹ Bu haqda batafsil ma'lumotlar qarang: “Электрон педагогика асослари ва педагогникинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш” модулининг ўкув-услубий мажмуаси. – Тошкент: 2016, 53-б.

² Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 45 p.

ko'rsatkichi olib kelinadi va tugmasi bosiladi. Tasdiqlangandan so'ng kerakli o'zgartirshlarni kiritish mumkin.

Yangi slayd yaratish uchun darchaning standart uskunalari panelidagi (slayd yaratish) tugmasi bosiladi.

Slayd belgisi, turi, ko'rinishini o'zgartirish uchun darchaning standart uskunalari panelidagi (slaydni belgilash) tugmasi bosiladi.

Slaydnı bezash ishlarini q'zgartirish uchun shu panelidagi (jixozlash qullanilsin) tugmasi bosiladi.

Slaydga matn kiritish va uni taxrir qilish 2 usulda amalga oshiriladi:

1) Matn uchun ajratilgan maydonga sichqoncha ko'rsatkichi olib kelib bosiladi va cursor paydo bo'lgandan so'ng matn klaviatura orqali kiritiladi.;

2) Sichqoncha ko'rsatkichi "A" tugma (rektogaramma)siga olib kelinib bosiladi. Kerakli sohada matn kiritiladi.

Slaydlarni kuchaytirish uchun matn bloki tanlanadi. Yoki ob'yeqt va tanlash marketi segaralari tanlandi.

O'zgartirish kiritish uchun sichqonchaning ung tugmasi bosiladi. Ekranda yordamchi menu (kontekst) menu hosil bo'ladi. Menyudan kerakli rejim tanlab olinadi.

Slaydlarni belgilash. Slaydlarni belgilashdan foydalaniб, rasm, diogramma, jadval yoki ixtiyoriy ob'ektni qo'yishni mo'ljallab slayd tanlash mumkin. Buning uchun "Fayl" menyusidan "Sozdat" yaratish buyrug'i tanlanadi. Tavsiya qilinayotgan slaydlardan kerakli ko'rinishdagi slayd tanlanadi va "OK" tugmasi bosiladi.

"Struktura rejimiga o'tish" rektogrammasi ishga tushirilganda, tartiblangan har bir slaydning rasm va matn ko'rinishlari yoziladi. Shundan so'ng struktura rejimida muloqot darchasi hosil bo'ladi. Bu rejimda matnli ma'lumotlarni kiritish, taqdimot turkumini boshqarish mumkin. Shundan so'ng bu muloqot darchasida gorizontal menyudagi "Pokaz slaydov" "slaydlarni ko'rsatish" bo'limidan "Pokaz" (ko'rsatish) buyrug'i tanlanadi, va ekranda yuqoridagi ko'rinish paydo bo'ladi.

Taqdimot tayyorlash texnologiyasida qo'yidagi talablarga rioya qilish lozim.

Didaktik talablar bu - ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda pedagogika, psixologiya, informatika,

ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyatini mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: o'quv mavzusining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlar asosida taqdim etish, o'zaro bog'liqlik interaktiv texnologiya.

Psixologik talablarga idrok etish, xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funktional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Adabiyot nazariyasi – adabiyotshunoslikning bir qismi bo'lib, adabiyotning umumiy ilmiy-nazariy va estetik asoslarini, badiiy asarlarning tarkibiy qismlarini, badiiyatning qonun-qoidalarini, badiiy- tasviriy vositalar, she'r tuzilishi masalalarini o'rganadi. Adabiyot o'qitisgda uning nazariy qoidalarini o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi. Nazariy qoidalar aniq va tushunarli tarzda SLAYDlarga joylashtirilishi lozim. Shunga ko'ra, yuqorida ko'rsatmalar asosida “**She'r tuzilishi asoslari**” nazariy **mavzusida SLAYD –TAQDIMOT** yaratishni amaliy jarayonda ko'rib chiqing.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiyot nazariyasi haqida tushuncha.
2. Slayd-taqdimot haqida nazariy ma'lumot.
3. Slayd yaratish tartibi.
4. Adabiyotning nazariy qoidalarini o'qitishda taqdimotlardan foydalnish.
5. Nazariy qoidalarni berish tartibi.
6. Umumiy o'rtta ta'lim darsliklarida adabiyotning nazariy qoidalalarini o'rganish.
7. She'r qurilishini qanday tasavvur qilasiz?

8. She'r tuzilishida bog'in, turoq, vazn, qofiya, band, ohang, to'xtam kabi vositalarning o'mini yoriting.
9. H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ri turoq tartibini aniqlang. She'r vaznini belgilang.
10. O'zbek she'r sistemalarida bo'g'inning ahamiyati nimada?
11. She'riy va nasriy asar tilining o'ziga xosliklari nimalarda aks etadi?

Asosly tushunchalar:

Axborot texnologiyaiari (информационные технологии, information technology) – axborotni o'zgartirish, qayta ishslash usul va vositalari yig'indisidan iborat.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – majmuaviy interfaol tizimlar bo'lib, o'z ichiga ta'lif maqsadlari bilan belgilangan kasbiy malaka va ko'nikmalarning shaxs xislatlarining o'rganuvchilari tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plami.

Microsoft Power Point – universal imkoniyatlari keng bo'lgan ko'rgazmali grafika amaliy dasturlar sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiyalar, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Taqdimot (Prezentatsiya, Presentation) – diagramma, jadval, matn va boshqa ko'rinishdagi ma'lumotlarni maxsus dasturlardan foydalangan holda display, videoproektor kabilarda namoyish qilish uchun tayyorlash.

Slayd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Adabiyot nazariyasi – adabiyotshunoslikning bir qismi bo'lib, adabiyotning umumiyy ilmiy-nazariy va estetik asoslarini, badiiy asarlarning tarkibiy qismlarini, badiiyatning qonun-qoidalarini, badiiy tasviriy vositalar, she'r tuzilishi masalalarini o'rganadi.

Nazariy qoida – lirik, epik va dramatik asarlarga xos ilmiy-nazariy qarash.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor, ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T. O'zbekiston. 2009.
2. Axmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Sharq. I-II qism. 2015. -176 b.
3. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlod. 2006.
4. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. – T.: Fan. 2006.

13- MODUL: SHOIR VA YOZUVCHILAR HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA MAXSUS SAYTLARNING IMKONIYATLARI

Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishda O'zbekiston Milliy internet saytlarining ahamiyati katta. Aynan adapbiyotga oid maxsus saytlarda o'zbek adapbiyotining barcha namoyandalarini hayoti va ijedi haqidagi batafsil va yangi ma'lumotlar o'rinni oлган. Bu ma'lumotlarni internetning qaysi saytidan olib foydalanish uchun aynan ta'lim sohasiga yo'naltirilgan saytlar haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur.

Internetdan ma'lumotlarni qidirish – Internet tarmog'ida ma'lumotlarni miqdori shu qadar ko'pki, hatto tasavvur ham qilish qiyin. Bu ma'lumotlarni orasidan o'zingizga keragini topib olish esa ancha murakkab ish bo'lib hisoblanadi. Ana shu ishni osonlashtirish maqsadida, maxsus ma'lumotlarni qidirish sistemalari yaratilgan. Bular orqali bir zumda o'zingizni qiziqtirgan ma'lumotni topib olishingiz mumkin.

Foydaluanuvchilar:

ID.UZ tizimidan ro'yhatdan o'tgan foydaluanuvchilarga ZiyoNet portalini o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. ZiyoNet portalining kutubxonasiga axborot - ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. ZiyoNet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish;
4. ZiyoNet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlardida qatnashish.

Ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan saytlar. Bunday saytlar asosan ta'lim muassasasi haqida ma'lumotlar keng ommaga tanishtirish, ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvechilar hamda o'quvchilarni ta'lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta'minlab turish maqsadida yaratiladi. Shuningdek, ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan bir necha saytlar mazmunan va mantiqan birlashtirilib **ta'limiy portalni** tashkil qiladi.

O‘quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati

Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko‘pchilik qismini albatta, talabalar, o‘quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo‘lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan, o‘quv muassasalariga bag‘ishlangan veb – saytlardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini¹, uning samaradorligini aniqlashda Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish niyoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma’lumotlar Internet tarmog‘ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW (ma’lumotlar majmuasi) va G‘TR (dasturlar majmuasi)lar kiritiladi.

Kommunikatsion xizmatni esa ikkiga: **bevosita** (PC, chat) va **bilvosita** muloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin.

Internetdagи barcha “o‘quv muassasa uchun yaratilgan sayt”larning o‘z navbatida bir necha turlari mavjud:

- o‘rgatuvchi internet manbalari;
- maslahat beruvchi internet manbalari;
- axborotli internet manbalari;
- baholovchi internet manbalari;
- taqdimotli internet manbalari;

Quyida ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

¹ Рустамова Н. “Электрон педагогика асослари ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойихалаш” модулининг ўкув-услубий мажмуаси. – Тошкент: 2016. 72-бет.

O‘rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta’lim, virtual muktablar, laboratoriylar va web sinflarni misol sifatida keltirish mumkin.

Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferensiylar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Axborotli internet manbalariga elektron o‘quv qo‘llanmalar, ma’lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug‘atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarini misol keltirish mumkin.

Taqdimotli internet manbalariga ta’lim muassasalarining ta’lim yo‘nalishlari haqida atroficha ma’lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin.

O‘qituvchilar uchun Internet sayt va resurslar

Hozirgi vaqtida Internetning har xil saytlarida jahon va o‘zbek adabiyoti bo‘yicha ko‘p ma’lumotlar topish mumkin. Quyida ayrim foydali ta’limiy saytlarning nomlari sanab o‘tilgan. Ushbu saytlardan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanish mumkin.

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;

<http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti;

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portali;

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi;

<http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti;

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi;

<http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta’lim sayti;

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi;

<http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti;

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivisi;

<http://txt.uz> – Elektron kutubxona;

<http://kursy.uz> -O‘quv markazlari va kurslari katalogi;

• <http://www.uzedu.uz> – Xalq ta’limi vazirligining rasmiy sayti;

• <http://www.edunet.uz> /methodis;

• http://www.vikiru.vikusia.com/ru/Uzbekskiy_yazik.html;

- <http://pedagog.zn.uz> ;
- www.zivonet.uz ;

Global tarmoq (INTERNET) – bir-biridan ancha uzoqda joylashgan kompyuterlarni o‘zaro bog‘lab, axborot almashuvini ta‘minlab beruvchi tarmoq. Bu tarmoq INTERNET (xalqaro tarmoq) tarmog‘i deb atalib, u orqali bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlaridagi kompyuterlar o‘zaro axborot almashish imkoniyatiga ega.

Elektron pochta – oddiy biz biladigan pochta xizmatining elektron ko‘rinishi. Ya’ni biz bu pochta orqali dunyoning istalgan burchagiga ma’lumot (xat) uzatishimiz yoki uni qabul qilishimiz mumkin. Farqi shundaki, bu yerda vaqt tushunchasi deyarli o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Chunki dunyoning turli chekkalarida joylashgan kompyuterlar (ularni boshqarayotgan insonlar) orasidagi axborot almashinushi bir-necha lahzalarda bo‘lib o‘tadi.

Sayt – Internet tarmog‘ida ma’lumotni o‘zida saqlab turuvchi sahifa yoki sahifalar. Bu sahifalardagi ma’lumotlardan dunyo bo‘yicha istagan kishi xohlagan vaqtida foydalanishi, shuningdek, xohlagan kishi o‘z ma’lumotlarini kiritishi, ya’ni o‘z saytini yaratishi mumkin.

O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o‘qitish, o‘quv jarayonini a’nnaviy tashkil etishning asosiy shakllarini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir.

O‘quv jarayonida o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o‘qituvchilarga:

– internet tarmog‘i yordamida u yoki bu o‘quv fanlardan to‘plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;

– bir vaqtning o‘zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o‘qitish uslublarini amalga oshirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish;

– o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan

bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazish;

O'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalar:

- o'z hohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash;
 - tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;
 - oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtida murojaat qilish;
 - turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish;
 - o'rganilayotgan ob'ektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish;
- O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta'lif sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'fish mungkin:**
- fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
 - tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);
 - o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
 - mustaqil ta'lif va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
 - amaliy malaka samaradorligini oshirish.

Respublikamiz Oliy va O'rta maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni kataloglashtirish, respublika ta'lif muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lif muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi.

Ziyonet axborot-ta'lif portali

ZiyoNet jamoat axborot ta'lif tarmog'i 2005- yil 28- sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lif axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005-yil 28-sentyabrdagi 191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

ZiyoNet axborot ta'lif tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek, aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan

ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qitishda qo'llanilmoxda. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Darslik;
- Audio va video darsliklar;
- Onlayn darslar (Internet sahifa);
- Elektron kutubxonalar;
- Testlar;
- Multimedia - elektron darsliklar.

ZiyoNet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Foydalanuvchilar ID.UZ tizimidan ro'yhatdan o'tgan foydalanuvchilarga ZiyoNet portalı o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jurnladan:

1. ZiyoNet portalining kutubxonasiiga axborot-ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. ZiyoNet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish;
4. ZiyoNet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

O'zbekiston milliy Internet resurslari


- www.uz – milliy axborot qidiruv tizimi;
- www.mail.uz – milliy elektron pochta xizmati;
- www.zivonet.uz – axborot ta'lim tarmog'i,

- www.uforum.uz – muhokama veb portal;
- www.edu.uz – O‘zbekiston ta’lim portalı;
- www.aci.uz - O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi portalı;
- www.mtrk.uz – milliy teleradiokompaniya veb sayti;
- www.adabivot.uz -adiblar hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi maxsus sayt.

Interfaol xizmatlar. Ta’lim sifatini ta’minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda Yagona portal deb ataladi) Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan, «bir darcha» rejimida faoliyat ko‘rsatadi. Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish ushbu O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risida Nizomga muvofiq ro‘yxatga olish va avtorizatsiya qilish jarayonlaridan o‘tgan arizachilar uchun amalga oshiriladi.

<https://my.gov.uz> Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining umumiyo ko‘rinishi



Yagona portal maqsad va vazifalari:

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan, pulli asosda ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish bo'yicha video yo'riqnomani qo'yida ko'rsatilgan xavola orqali tanishib, o'r ganib chiqish tavsiya etiladi¹.

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalı²

Internet tarmog'ida keyinchalik ochiq ma'lumotlar uchun "yagona nuqta" vazifasini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalı ishga tushirilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi qayta ishlash va tahlil qilish uchun mos formatlarda davlat organlari faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Portal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 7-avgustda qabul qilingan 232-sон qarori asosida faoliyat yuritadi.



O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalining umumiy ko'rinishi



¹ <https://my.gov.uz/uz/page/videoinstruction.html>

² <http://data.gov.uz/>

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalining ayrim bo'limlarining ko'rinishi.

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalining **ta'lîm bo'limi**. Ushbu bo'limda O'zbekiston Respublikasida ta'lîm sohasidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Bu yerda siz bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktablar, o'rta maktab, maktab-internatlar, ta'lîm, oliy maktabda, kollej, oliy o'quv yurtlari markazlari, bu ijtimoiy-pedagogik orientatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalari kabi ma'lumotlar ro'yxatini topishingiz mumkin.

Internetdan ta'lîm jarayonida foydalanishdagi ba'zi muammolar:

Internetdan ta'lîm jarayonida foydalanish ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Internetdagи axborotlar hajmining juda kattaligi, umumiy tuzilmaning yo'qligi axborot qidirishni qiyinlashtiradi. Zarur axborotni qidirish jarayonida nazoratsiz tinglovchi noma'lum saytlarga (chat, anekdot, o'yinlar) kirib asosiy maqsaddan chetga chiqishi mumkin. Ta'lîm sifatining oshishi tinglovchilarga yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini berish orqaligina emas, balki bunday texnologiyalar o'qish jarayonida qanday metodlardan foydalanishiga bog'liq.

Adiblarning hayoti va ijodi bo'yicha ma'lumot beruvchi www.adabiyot.uz - maxsus saytning imkoniyatlardan har bir o'qituvchi kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi mumkin. Lumladan, M.Yusuf hayoti va ijodiga oid quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin.



ADABIYOT - XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI

Muhammad Yusuf (1954 – 2001)



Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta inaktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o'qib, uni 1978-yilda bitirdi. Shoir 1978–1980-yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980 – 1986-yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986 – 1992 yillarda G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1992 –

1995-yillarda «O'zbekiston ovozi» gazetasida, O'zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995 – 1996-yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997-yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinosari lavoshmida ishladi. M. Yusuf O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi. Uning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976-yilda chop etilgan edi. Bevaqt o'lim shoirni oramizdan olib ketdi. **Kitobiari va she'rlari:** «Tanish teraklar» (1985, birinchi to'plami), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudag'i qiz» (1989), «Halima enam allaari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman», «Kumush», «Kokilingni kim kesdi», «Aldov», «Turkman qiz», «Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan», «Yolg'onchi yor», «Qora quyosh» (doston) va boshq. Muhammad Yusuf «Men o'z bilganimdan qolmadim» she'rida she'r va shoirlikni shunday anglaydi.

*Quvroq bo'l deyishdi. Yolg'on ham kerak.
Jindak xushomad ham, quloq solmadim.
Oqni oppoq ko'rdim, qorani – qora
Men o'z bilganimdan qolmadim.*

Yoki Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining www.milliy.kutub.uz elektron saytidan Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga haqidagi batafsil ma'lumotlarni olish imkonini bor.

Bundan tashqari Xurshid Davron kutubxonasi sayti, Orif Tolib saytlarida ham yozuvchi-shoirlar hayoti va ijodiga oid materiallar mavjud. Jumladan:



Xurshid Davron kutubxonasidan Ibrohim G'afurov ijodi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan maxsus saytlardan o'zbek adabiyotining yorqin vakillari hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar – audio, video materiallarni topish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'qituvchilar uchun qo'shimcha Internet sayt va resurslar.
2. ZiyaNet portalining ahamiyati.
3. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallar.
4. Internet tarmog'i va uning asosiy xizmatlari.
5. O'zbekiston milliy Internet resurslari haqida gapiring.
6. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalining imkoniyatlari.

Asosiy tushunchalar:

Elektron pochta (Электронная почта, Electronic Mail) – tarmoqning eng ommaviy xizmat turi bo'lib, foydalanuvchilar o'rtaida elektron xabarlar almashish imkoniyatini beradi.

Elektron pochta manzili (Электронный почтовый адрес, Electronic mail address) – elektron pochtaning har bir abonentiga ega bo'lgan shaxsiy manzil.

Foydalanuvchi (Пользователь, User) – Kompyuterdan foydalanuvchi shaxs. Agar Kompyuter tarmoqqa ulangan bo'lsa, unga nisbatan tarmoq foydalanuvchisi termini ishlataladi.

Global tarmoq (глобальная сеть, global set), (INTERNET) – bir-biridan ancha uzoqda joylashgan kompyuterlarni o'zaro bog'lab, axborot almashuvini ta'minlab beruvchi tarmoq.

Sayt (сайт, Site) – Internet tarmog'ida ma'lumotni o'zida saqlab turuvchi sahifa yoki sahifalar.

www.ziyonet.uz – axborot- ta'lrim portal. Bu portalda barcha ta'lrim muassasalari uchun ta'lrim resurslari joylashtirilgan.

www.adabiyot.uz – adiblar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi maxsus sayt.

www.milliy.kutub.uz Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kunubxonasining elektron sayti.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor, ma'nnaviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston. 2009.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari adabiyot darsliklari.
3. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
4. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
5. <http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti.
6. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal.

14- MODUL: ADABIYOT TA'LIMIDA VIRTUAL MUZEY, KUTUBXONA VA ENSIKLOPEDIYA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Adabiyot o'qitishda virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish mavzuni keng qamrovda o'rgatish imkonini beradi. Bugungi kun, o'quvchisi mavzu bo'yicha o'zini qiziqtirgan barcha ma'lumotlarni o'z qiziqishlari asosida qabul qilishni xo'laydi. Shundan kelib chiqib, o'qituvchi darsni noan'anaviy tarzda o'quvchining qiziqishlarini hisobga olib yangicha yodashuvni tashkil etishi zarur. Buning uchun virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish samarali natija beradi. Bunda O'zbekistonda yaratilgan Milliy internet saytlari o'qituvchi uchun qo'l keladi. Ular quyidagilar:

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;

<http://ensiklopediya.uz> - O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti;

<http://zivouz.uz> – O'zbek va jahon adabiyoti portal;

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi;

<http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti;

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi;

<http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lif sayti;

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi;

<http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti;

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxiv;

<http://txt.uz> – Elektron kutubxona;

<http://kursy.uz> –O'quv markazlari va kurslari katalogi.

Berinchi navbatda virtual so'zining ma'nosini bilib olsak. **Virtual (вертуальный, virtual)** – voqey bo'lib ko'ringan, biroq vazifalari boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funksional moslama ta'rifi.

Virtual borliq (виртуальная реальность) tushunchasini Jaron Lanier (Ланье) taklif etgani. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq.

Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtida virtual borliqdagi ob'yeqtlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ldi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni deb qabul qilamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko'pmoddallikga, ya'ni ko'z bilan ko'radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda Uzbekiston muzeylari faoliyatida ham yangi davr boshlandi. Mamlakatimiz hududida qadimdan shakllanib kelayotgan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma'nnaviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rmini oshirish, muzey fondlarida sakllanib kelayotgan xalqimiz boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi nodir eksponatlarini asrabavaylash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g'urur, iftihor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuygularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarni zamon talabiga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy texnik bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi talablarini qo'llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi 5-mart 1998-yildagi 98-sonli qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarni ta'mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda mablag' bilan ta'minlash vazifalari yuklatildi.

Hozirgi kunda "**Muzey**" so'zining bir qator tushunchalari mavjud. "Muzey" – "Museyon" so'zi inson madaniyatiga ikki yarim ming yil ilgari, ya'ni antik davrda kirib keldi. Museyonlarning falsafada ham ahamiyati katta bo'lgan. Eramizdan avvalgi IV-asrda Pifagor maktabi ham museyon deb atalgan. Bu yerda ma'budalar haykallari joylashgan bo'lib, ularni ilm-fanga homiylik qilishlariga ishonib, katta ehtirom bildirishgan. Museyonlarda ko'pincha shoirlar, faylasuflar, san'at ustalari yig'ilishar, go'zal ma'budalar haykallari esa ularga ilhom bag'ishlar edi.

Virtual muzeyning bir qator afzalliklari mavjud. Biror-bir muzeyni tomosha qilish uchun uydan chiqish shart emas, Parij, London, Sankt-Peterburg yoki Moskvaga borish ham shart emas.

Kompyuter qarshisiga qulayroq joylashib olib Internetga kirish kifoya. Qarshingizda qiziqarli ekskursiyalarni, rang-barang eksponatlar mujassamlashgan kolleksiyalarni, foydali va qiziq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ulkan muzeylar olami namoyon bo'ladi. Qizig'i shundaki, virtual muzey zallari bo'y lab qilgan sayohatingiz sizga usha go'zallik muhitining ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi.

Muzey (lot. museum- muzalar ibodathonasi)- san'at asarlari, tarixiy, ilmiy, kundalik, sanoat, qishloq xo'jalik ash'yolari, buyuk shaxslarning hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi materiallar to'plovchi, saqlovchi va omma e'tiboriga havola etuvchi maskandir. Uning maqsadi aniq bir sistema orqali eksponatlarni saqlash, o'rghanish va keng ommaga ushbu bilimlarni targ'ib etishdan iborat. Muzeylar haqidagi ma'lumotlarning ilk debochasi XV-XVI asrlarga taalluqlidir.

Virtual muzey dastlab XX asrning 90-yillarida Parijlik talaba Nikol Pusho tomonidan yaratilgan. Keyinchalik, AQSH, Yaponiya, Fransiya va Rossiyaning bir necha muzeylarining veb-saytlari va virtual variantlari yaratila boshlandi. Dastlabki virtual muzeylar sayyohlikni rivojlatirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, katta tarixiy-madaniy boyliklarni kelajak avlodga o'z holicha yetkazishni ham targ'ib qilmoqda. Virtual muzey yaratish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda Kanada davlati turadi. Bugungi kunga kelib Kanadada 2500 ta muzeylarning virtual variantlari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda Prezident farmoniga ko'ra respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat yuritayotgan 12 ta muzeyning virtual variantlari yaratilishi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, bu muzeylarga Toshkentdag'i "Temuriylar tarixi" muzeyi, Buxorodagi "Samoniylar", Xivadagi "Ichon qal'a" muzeylari shu qatordan o'rinn olgan. 2017 yilning 15-may kuni "Xalqaro muzeylar kuni" munosabati bilan "Temuriylar tarixi" muzeyining virtual loyihasi namoyishi va taqdimoti bo'lib o'tdi.

Elektron kutubxona deganda nimani tushunamiz? Uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat? Xalqaro tarmoqdagi minglab kitoblarni o'z ichiga oladigan saytlar elektron kutubxonami yoki kutubxona saytlari hammi? Raqamli kolleksiyalarni yaratish uchun

qanday bilim va malakalar kerak bo‘ladi? Ushbu ma’ruzada shu kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Elektron kutubxona – Internetning ajoyib imkoniyatlardan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda, odatda, ko`plab kitoblar terib qo`yilgan, uzun, katta javonlar joylashgan xonalar ko`z oldimizga keladi. Elektron kutubxonada javonlar vazifasini jiddlar, kitoblar vazifasini esa Internet saxifalari bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko`rinishda bo`ladi va ular kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. U orqali Siz dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalana olishingiz mumkin. Yana bir qulay tomoni zarur ma'lumot nusxasini ko`chirib olishingiz mumkin. Elektron kutubxonadan foydalanishingiz uchun kompyuter, modem va Internet tarmog`i bo`lishi yetarli. Faraz qilaylik, biror bir ma'lumot bilan tanishish uchun elektron kutubxonadan foydalanoqchisiz. Kompyuter va Internet yordamida ma'lumotni bir necha daqiqada topish mumkin. Ma'lumot dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan bir zumda sizning kompyuteringiz ekranida tasvirlanadi. Buning uchun Siz kompyuteringiz tugmachaсини bosishingiz va elektron kutubxonaga kirishingiz yetarlidir. Bir necha daqiqada ma'lumot ko`z oldingizda namoyon bo`ladi. Bu mujizani eslatadi. Bu mujiza virtuallik deb ataladi. Unga faqat kompyuter va maxsus tarmoq orqali erishish mumkin. Bir necha yil avval bir maqolani topish uchun oylab vaqt sarflash zarur edi. Bugun esa bu maqsadni amalga oshirish uchun boshqa shaharga borish va vaqt sarflash zarurati yo`qoldi. Elektron kutubxonalar yordamga keldi. Elektron kutubxonalarini turlicha nomlashadi: **Elektron kutubxona, Virtual kutubxona, e-kutubxona, e-library, digital library**. Keyingi vaqtarda virtual dunyo, virtual olam, virtual do'st kabi so'zlar paydo bo`ldi. Virtual so'zining ma'nosi bu tasavvur qilishdir. Virtual kutubxona bu odatdagи kutubxonaning abstrakt ko`rinishidir. Bu kutubxonaning kitoblari, jurnallari va ro'znomalari kitob javonlarida emas, balki kompyuter xotirasida joylashgan bo`ladi. Bu kompyuterda yoki kompyuter maxsus qurilmalarida raqamli formatda saqlanadigan ma'lumotlar to`plarnidir. Bu: bosma audio, video va multimedia ma'lumotlaridir. Ma'lumotlar xajmiga qarab, serverlar bitta yoki tarmoq bilan bog'langan bir necha kompyuterlardan iborat bo`ladi.

G'arb mamlakatlarida masalan, AQShda, kutubxonalarni avtomatiashirish 60-yillardan boshlangan, kitoblarni kompyuterga kiritish orqali elektron kolleksiyalarni yaratish 1971-yildanoq bajarib kelinmoqda. Bizning mamlakatimizda Internet tarmog'ining 1990-yillarning oxiri – 2000-yillarning boshidan ommalashishi bugungi kunga kelib bizga elektron kutubxonalarni yaratib, mamlakatimiz aholisi va dunyo ahli bilan alishish imkonini bermoqda. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Kutubxonasining kabi markaziy tashkilotlarning loyihalari, Internet tarmog'ida tashabbuskor vatandoshiarimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan kolleksiyalar bunga misol. Bu loyihalarning bajarilish darajasi turlicha bo'lib, bu albatta malakali mutaxassislarning bu jarayonlarda zamonaqiy bilimlarni qo'llagan holda ishtirok etg'anlari yoki etmaganlariga bog'liq. Xalqaro standartlar va muvaffaqiyatli amaliyetlar (*best practice*) dan xabardorlik va ko'p hollardagi vaziyatni tubdan yaxshilashi muqarrar. Shu maqsad yo'lida elektron kutubxonalar konsepsiysi, uning tamoyillari va xorijda to'plangan tajribalar xususida so'z yuritamiz. AQSh universitetlaridan biridagi "Elektron kutubxonalar" kursi talabalari ilmiy adabiyotdan ushu atamaning 65ta ta'rifini to'plab, umumiy xususiyatlarni ajratib olishdi. Unga ko'ra elektron kutubxona: ma'lum jamoalar yoki jamoalar majmuiga xizmat qiladi.

Kutubxona bilan qanday ishlash mu'mkin? Dernak, yuqorida aytib o'tganimizdek elektron kutubxona resurslari kompyuter xotirasiga joylangan bo'ladi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'lib, kompyuterda raqamli formatda, maxsus kompyuterlar — Serverlarda joylashadi. Elektron kutubxonadan foydalanish uchun kompyuter, modem va internet tarmog'i bo'lishi yetarli. Biz esa shu kutubxona joylashgan internet manzilini bilsak kifoya. Elektron kutubxonada mas'ul mutaxassislar ma'lumotlarni muntazam ravishda kompyuterga kiritadi va yig'adi. Ya'ni ma'lumotlar doimo yangilanib turiladi va kutubxona hajmi kengayib boradi. Elektron kutubxonada kutubxonachi bo'lmaydi, shuning uchun zarur kitob yoki ma'lumotni kompyuter javonlaridan o'zingiz qidirasiz.

Buning uchun kompyuteringiz brauzerida kutubxona manzilini yozishingiz kerak. Odatdag'i kutubxona singari elektron kutubxona ma'lumotlari mavzu yoki alifbo bo'yicha tartiblanadi. **ZiyoNET**

portal ham foydalanuvchilar uchun elektron kutubxona imkoniyatini taqdim etadi – buning uchun portalning “**Kutubxona**” bo‘limiga kirsangiz kifoya. Su‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, portal kutubxonasidan 7000 ga yaqin turli hajmdagi va turli ko‘rinishdagi ilmiy axborot resurslari joy olgan. Ular asosan yurtimiz oliy o‘quv yurtlari, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari, viloyat xalq ta’limi boshqarmalari, ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa turli ta’lim muassasalarida hamkorlik qilib kelayotgan 400 ga yaqin mas’ullar ko‘magida jamlanganini alohida e’tirof etish lozim. Eng muhimi, adabiyotlarning aksariyati o‘zbek tilidadir. Kutubxonada jamlangan adabiyotlar 9 ta yirik guruh toifasida tasniflanadi. O‘z-o‘zidan har bir guruh kichik bo‘linmalarga bo‘linadi.

Hozirgi vaqtida dunyoning ko‘p davlatlarining o‘quv muassasalarida masofaviy ta’lim jarayonini aynan Moodle dasturiy majmuasidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistondagi ko‘plab ta’lim muassasalarida aynan **virtual ta’lim muhiti** sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda.

Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining **virtual ta’lim muhiti** - etuit.uz, O‘zbekiston Milliy universitetining “Ochiq o‘quv-axborot markazi”da, Xalq ta’lim vazirligi qoshidagi “Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi” - <http://moodle.uzedu.uz/>, Toshkent Turin Politexnika universitetida - moodle.polito.uz va boshqa muassasalarda keng foydalanib kelinmoqda.

Elektron kutubxona tuzilishi jihatidan oddiy kutubxonadan deyarli farq qilmaydi. Lekin undagi ma’lumotlar miqdori juda cheksiz bo‘lishi mumkin. Internet tarmog‘ida minglab elektron kutubxonalar mavjud. Ayni vaqtida bu kutubxonalarning ko‘pchiligi tarmoq orqali o‘zaro bog‘langan. Oddiy kutubxonalardagi singari bu yerda ham ba’zi ma’lumotlar to‘liq bepul, ba’zilari uchun esa pul to‘lashga to‘g‘ri keladi.

Portal – ma’lum bir sohagagina tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zida saqlovchi saytlarni o‘zaro bog‘lovchi sayt. Internet tarmog‘idan juda ko‘p portallar o‘rin olgan. Masalan, “Referatlar”, “Matematika”, “Tibbiyot” portallari va h.k. Portallarning Internetdan farqi shundaki, ular Internet tarkibiga kirishi bilan birga, ba’zi

holatlarda Internet tarmog'iga ulanmasdan turib ham undagi ma'lumotlardan foydalanishimizga imkon yaratadi. Portalga ulangan kompyuterlar tarmog'ini lokal va global tarmoq o'rtasidagi qandaydir uchinchi tur tarmoqqa o'xshatsa bo'ladi.

Ensiklopediya yunoncha --- barcha bilimlar doirasida ta'lim olish yoki qomus ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashrdir.

Ensiklopediya qomus — muayyan tizimga solingan keng qamrovli bilimlar to'plami, ilmiy yoki ilmiy ommabop nashr. "Ensiklopediya" terminining ma'nosi tarixan o'zgarib turgan. Antik davrda u "erkin san'at" deb atalgan 7 ilm (grammatika, ritorika, dialektika yoki logika, geometriya, arifmetika, musiqa va astronomiya)ni anglatgan. XVI asrda G'arbiy Yevropada ensiklopediya yangi ma'noda --- turli bilimlar majmui ma'nosida ishlatilgan. Ayni vaqtida bilimlar tasnifi ma'nosini ham bildirgan; bu ma'noda "Ensiklopediya" termini XVIII asrda ham qo'llangan.

Hajmiga ko'ra, ensiklopediyalar ko'p jiddli va 1-2 jiddli bo'lishi mumkin. Ensiklopediya maqolalarida so'zlarning etimologiyasi, transkripsiyasi, definitsiyasi muayyan tartib bilan beriladi. Yoritilayotgan tushuncha haqida ko'proq ma'lumot olish uchun muhim adabiyotlar ro'yxati (bibliografiya) ko'rsatiladi. Ensiklopediya hajmining muayyan qismini bezak materiallar (oqqora, rangli suratlar, xarita, chizmasxemalar va boshqalar) tashkil etadi. Ensiklopediya maqolalarida ortiqcha tafsilotlarga, qaytariqlarga yo'l qo'yilmaydi (buning uchun tegishli maqolaga havola qilishdan foydalaniлади). Ensiklopediya tayyorlashda fakt va ma'lumotlar aniqligiga, atarna va terminlar o'z o'mida, to'g'ri ishlatilishiga ahamiyat beriladi. Uning bayonida ilmiylik, ommaboplilik, qisqalik, lo'ndalikka e'tibor beriladi.

Ensiklopedik tarzdagi asarlar qadimiy Shumer davlatida, Xitoy, Yunoniston, qadimiy Rimda, keyinchalik arab yozuvidagi mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda paydo bo'lgan. Yunonistonda Demokrit va Aristotel asarlari ensiklopedik asarlar hisoblangan. O'rta Osiyo mutafakkirlari — Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari ham o'z davridagi bilimiarni atroflicha qamrab olgan. Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy"si, Forobiyning "Fanlar tasnifi", Beruniyning "Qadimgi

xalqlardan qolgan yodgorliklar", Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Donishnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u biling", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari qomuschilik tarixiga qimmatbaho hissa bo'lib qo'shilgan.

Vizantiya tilshunosi Svidaning "Leksikon'i (X asr) dan boshlab muayyan tizimga solingen bilimlar lug'atlart ifodalana boshladi. 17-asr oxiri va XVIII asrda Angliyada P. Beylning "Tarixiy va tanqidiy lug'at'i katta ahamiyatga ega bo'lgan. 1704-yil J. Xarris "Texnik leksikon yoki Umumiy ingliz san'at va fan lug'ati"ning birinchi nashrini chiqargan. "Ensiklopediya yoki fan, san'at va kasb-hunarlarning izohli lug'ati" (1751 – 80 yillar, 35 j.)ning yuzaga kelishi Fransiya tarixida yirik ijtimoiy-siyosiy voqeа bo'ldi. Bu ensiklopediyani tayyorlashda mashhur faylasuf D. Didro asosiy rol o'ynadi; uni nashr etishda Sh.L. Monteskyo, Volter, J.J. Russo, J.D. Alamber ham qatnashgan. 1768 – 71 yillarda shotland matbaachisi U. Smelli 3 jildli "Britaniya ensiklopediyasi"ni chiqardi. Bir necha marta qayta nashr etilgan ushbu ensiklopediya Angliyaning eng yirik milliy ensiklopediyasi bo'lib qoldi.

XIX asr va XX asrning birinchi yarmida Fransiya, Rossiya, AQSH, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Turkiya va boshqalar mamlakatlarda ham universal va soha ensiklopediyalari chiqarildi. Bular ichida "Lamerika ensiklopediyasi", "Katta Brokgauz" (Germaniya), "Katta Laruss" (Fransiya), "Islom ensiklopediyasi", Brokgauz va Yefron ensiklopedik lug'ati, Granatlar ensiklopedik lug'ati alohida o'rinn egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida universal milliy ensiklopediya tayyorlashga kirishildi. 1997-yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to'g'risida" qaror qabul qilib, nashriyot zimmasiga 12 jildli "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"ni tayyorlash va nasr etishni topshirdi. So'nggi yillarda O'zbekistonda, shuningdek, "Toshkent" ensiklopediyasi, 1 jildli Bolalar ensiklopediyasi, Xotin-qizlar ensiklopediyasi, "Islom" ensiklopediyasi va ba'zi fan tarmoqlaridan soha ensiklopediyalari nashr etildi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (O'zME) — O'zbekiston Respublikasida chiqarilgan 14 jildli universal milliy ensiklopediya. Ensiklopediya kirill yozuvida yozilgan. O'zME — O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr etilgan. O'zMEDagi aksar maqolalar Sovet davrida chiqariglan 14 jildli O'zbek sovet ensiklopediyasidan olingan.

Ensiklopediyaning barcha 12 jildi 2000-2006-yillarda nashr qilingan. O'zMEDa O'zbekiston Respublikasi haqidagi materiallar bilan birgalikda umumbashariy ma'lumotlar ham berilgan. O'zMEning 1 – 11-jiddlarida umumiy hajmi 1600 nashriyot hisob tabog'ini tashkil etgan qaryib 50 ming maqola berilgan. O'zME har bir jildida 800-1200 atrofida rangli va oq-qora suratlar, xaritalar o'rinn olgan. Ensiklopediyani tayyorlashda besh mingga yaqin muallif va taqrizchilar qatnashgan. O'zMEning 12-jildi maqolalari faqat O'zbekistonga tegishiidir.

Adabiyot darslarida muzeylarga ekskursiya uyuştirish

Adabiyot darsining noan'anaviy shakllaridan yana biri adabiy ekskursiya darsidir. O'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ushbu usul qo'llanadi. Maktabda XIV–XIX asrlar hayoti ifodalangan asarlarni o'qiganlarida, u davrdagi moddiy, ma'naviy hayat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ularda shunday tasavvur hosil qilishda darsni ekskursiya usulida olib borish yordam beradi. Masalan: tarix muzeyiga, adabiyot muzeylariga sayohat uyuştiriladi. U yerda o'quvchilar o'tmish madaniy yodgorliklar, me'morchilik, haykaltaroshlik asarlarini, tasviriy san'at obidalarini o'z ko'zlari bilan ko'rganlaridagina xotiralarida yaxshi saqlashlari mumkin. Shu o'rinda adabiyot darsining tarix bilan chambarchas bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Tarix darslarida asosan o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti o'rganilsa, adabiyot darslarida aynan shu davrdagi adabiy muhit shoir va adiblar ijodi o'rganiлади.

Biz yuqorida aytib o'tdik XIV–XIX asr tarixini, adabiyotini o'rganayotgan davrda ayniqsa, adabiy ekskursiyalar muhim ahamiyatga ega. Biz bilamizki, adabiyot o'qituvchisining vazifasi o'quvchiga odob-axloqni, vatanga muhabbat, yurtga sadoqatli bo'lish kabi tuyg'ularni shakllantirishdir. O'quvchilarning fan asarlarini puxta egallashlarida, fanlararo aloqani mustahkamlashda; o'lkamiz

o‘tmishini chuqur o‘rganish va shu asosda bugungi kun voqe-hodisalarini teran mushohada qilishimiz lozim.

Demak adib hayoti va ijodini o‘rganishda muzeylarga sayohat uyushtirish, u yerdagi portret va asarlar, ko‘rgazmalarни bevosita adib hayoti bilan bog‘lagan holatda o‘quvchiga yetkaza olish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Milliy axborot markazi “O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasi asosida “Oybek – uy muzeyi” haqida batafsil ma’lumot beruvchi videofilm yaratilgan. Alisher Navoiy, Bobur, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Muhammad Yusuf hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan audio-video materiallar ta‘limning maxsus saytlarida joylashtirilgan. Bu elektron manbalardan dars jarayonida samarali foydalanish mumkin.

G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz ijodini o‘rganayotgan paytda ham adabiy ekskursiya usulidan foydalanish mumkin. Masalan, G‘afur G‘ulom ijodini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga shoir haqida ma’lumot beriladi va shoir uy-muzeyiga ekskursiya uyushtiriladi. O‘quvchilarning u yerda shoir haqida yanada to‘lar o‘quvchilarga ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ladilar. Chunki shoirning esdaliklari, suratlari, shoir foydalangan buyumlari, hattoki, uning chalgan tanburi-yu, o‘qigan “Qur‘on” kitoblari o‘quvchida umrbod esda qoladigan tuyg‘uni paydo qiladi. Bu adibga bo‘lgan mehr va hamnafaslik tuyg‘usidir.

Umuman olganda, adabiy ekskursiya darslari o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi. Darsni nazariy jihatdan o‘rganib turib, uni amaliyatga tatbiq qilsagina samarali natijaga erishish mumkin.

Mayzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. ZiyoNet jamoat axborot ta‘lim portalini qachon ish boshlagan?
2. ID.UZ qanday sayt?
3. Pedagog.tdpu.uz – qanday sayt?
4. <http://my.estudy.uz> – qanday sayt?
5. Elektron kutubxona haqida nimalarini bilasiz?
6. Ensiklopediya nima, uning qanday turlari bor?
7. Virtual muzey deganda nimani tushunasiz?
8. Elektron kutubxona, virtual ensiklopediya va virtual muzeylarni yaratish bo‘yicha respublikamizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Asosiy tushunchalar:

Tarmoq (Set, Network) – o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatiga ega bo'lgan Kompyuterlar yoki qurilmalar guruhı.

Virtual (вертуальный, virtual) – voqeý bo'lib ko'ringan, biroq vazifalari boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funksional moslama ta'rifi.

Muzey – (lot. museum- muzalar ibodathonasi) – san'at asarlari, tarixiy, ilmiy, kundalik, sanoat, qishloq xo'jalik ash'yolari, buyuk shaxslarning hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi materiallar to'plovchi, saqlovchi va omma e'tiboriga havola etuvchi maskandir.

Elektron ta'lim resurslari – elektron ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan texnik va dasturiy talablar, elektron ta'lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

Elektron ta'lim – axberot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

Elektron kutubxona (электронная библиотека, E-library) – tuzilishi jihatidan oddiy kutubxonadan deyarli farq qilmaydi.

Ensiklopediya yunoncha – barcha bilimlar doirasida ta'lim olish yoki qomus ilmiy yoki ilmiy-omnabop nashrdir.

Portal – ma'lum bir sohagagina tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'zida saqlovchi saytlarni o'zaro bog'lovchi sayt.

Ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan saytlar – ta'lim muassasasi haqidagi ma'lumotlarni keng ommaga tanishtirish, ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvchilar hamda o'quvchilarni ta'lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta'minlab turish maqsadida yaratiladi.

O'rgatuvchi internet manbalari – masofaviy ta'lim, virtual maktablar, laboratoriyalar va web sinflari.

Maslahat beruvchi internet manbalari – turli telekonferensiylar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar.

Axborotli interaet manbalari – elektron o'quv qo'llannmlar, ma'lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylar.

Baholovchi internet manbalar – teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalar.

Taqdimotli internet manbalari – ta’lim muassasalarining ta’lim yo‘nalishlari haqida atroficha ma’lumotlar yoritilgan alohida sahifalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://www8.hp.com/ru/ru/support-topics/windows8-support/start-screen.html>.
2. <http://ziyonet.uz>- O‘zbekiston Respublikasi axborot-ta’lim portali.
3. <http://pedagog.tdpu.uz>- Respublika pedagogika ta’lim muassasalari portali.
4. Xamroliyev K.U. Adabiyot o‘qitish jarayonida adabiy o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish. Nomzodlik dis... avtoreferati. – T., 1993. – 22 b.

15- MODUL: FOLKLORGA OID DARS MASHG'ULOTLARIDA AUDIO-VIZUAL MULTIMEDIA

15.1. Multimedia tushunchasi tasnifi

Multimediya tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia (multimedia – ko'p muhitlilik) – bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko'rinishiga ega bo'lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli hil tashuvchilarda mavjud bo'lgan (magnit va optik disklar, audio va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog'liq sohasidir¹.

Multimedianing xususiyatlari:

- multimedia foydalanuvchiga fantastik(virtual haqiqiy) dunyonи yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u yerda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok etadi; shu bilan birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda - birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo'lib o'tadi;
- multimedia – kompyuterda axborotning turli hil ko'rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek, to'laqonli videokliplar, hatto videofilmlar bilan ishslashdir;
- multimedia – bu zamонавий kompyuterli axborot texnologiyalari bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animatsiyani (multiplekatsiyani) yahlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Birinchidan – foydalanuvchiga albatta, interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va kompyuter o'rtaSIDA buyruqlar va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot.

¹ Файзиева М., Сайфуров Д. Виртуал гаълим технологияси ЎМ. – Тошкент. 2016. 27-бет.

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlataladigan muhit. U tomoshabinga o'zicha u yoki bu ilovani tanlash imkonini beruvchi videofilmni eslatadi.

Multimedia tizimlarining jadallik bilan rivojlanishiga shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlarini kengayganligi va texnik, dasturiy vositalarining rivojlanishi sabab bo'ldi. Oxirgi yillarda kompyuterning tezligi va xotira qurilmalarining sig'irni keskin oshdi, grafik imkoniyatlari kengayib, tashqi xotira qurilmalarining texnik ko'rsatgichlari yahshilandi. Multimedia texnologiyalarining rivojlanishiga videotexnika yo'na!ishi, lazer disklar, shuningdek, yozish texnikasining hamda tovush va tasvirni hosil qilish texnologiyalarining rivojlanishi katta hissa qo'shdi. Axborotlarni xotirada ihcham (zich) joylash va saqlash maqsadida tez va samarali o'zgartirish usullarini yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o'quv materiallarini tinglovchiga to'liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia hozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo'lib, u quyidagi an'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar, hamda original axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatish shenasining utkazish qobiliyatini, tezkor va video-audeo xotira hajmini, katta sig'imli tashqi xotirani, kompyuter kirish chiqish kanallari bo'yicha almashuv tezligini taxminan ikki baravarga oshirish talab etiladi.;

"Inson-kompyuter-inson" interfaol muloqotning yangi daraja-sining ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Multimediali o'quv materiallarini ishlab chiqishda hozirgi Respublika ilmiy metodik markazida va uni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari boshlab yuborilgan. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan va har ta'lim yo'nalishi bo'yicha ish olib borilmoqda.

Multimedianing texnik – dasturiy vositalari

Multimedia vositalari – bu apparat va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Tasvirlarni yaratuvchi va ular bilan ishlavchi vositalar raqamli fotoapparat skanerlar¹.

Ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish

Jahon miqyosida nazar soladigan bo‘lsak, kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni amalda anchadan buyon qo‘llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, rolklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multfilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus saytlarda fanlarga mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to‘la yoritib bera olmasligi ta’lim soxasiga yanada ko‘proq e’tibor berish lozimligini e’tirof etadi. Mavzuni yaxshi o‘zlashtirilishiga turtki bo‘ladi Multimedia texnologiyalarining afzalliklari va alohida hususiyatlarini sanab o‘tamiz:

- turli hil ko‘rinishdagi katta hajmdagi axborotlarni bitta diskda saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalatish imkoni mavjud;
- sifati saqlangan holda ekranda tasvirlarni qismlarga ajratish yoki ularni eng qiziq hamda kerakli qismlarini kattalatish imkoni mavjud;
- grafiklar, tasvir va rasmlarni qiyosiy tahlii qilish, ularning ko‘rsatgichlarini hisoblash, ilmiy yoki o‘rganish maqsadida dasturiy vositalar yordamida ishlav berish imkoniyati;
- tasvir yoki tasvirni yoritish maqsadida foydalanilgan matn hamda boshqa ko‘rsatilayotgan axborotdan kalit so‘zlarni yoki tasvirni kerakli qismini ma‘lumot olish hamda tushuntirishga kerakli axborotni ajratib olish imkoniyatlari mavjud;

¹ **Qarang:** Bent B.Andresen and Katja van den Brink. *Multimedia in Education*.UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013.ISBN 978-5-7777-0556-3).

- statik yoki dinamik tasvirga monand uzlusiz musiqa hamda boshqa audio ta'minotini olib borish;
- «stop-kadr» (kadrni to'htatish) ish tartibidan foydalanib videoyozuv lavhasidan foydalanish imkoniyati;
- global Internet tarmog'iga hamda ularish uning resurslaridan va foydalanuvchilaridan foydalanish maqsadida imkoniyatga ega;
- grafik va tovush redaktorlari, kartografik axborot va matnlarga ishlov bera oladigan shaxsiy amaliy dasturlar bilan ishlash mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan afzallik va xususiyatlardan tashqari yana ko'pgina imkoniyatlari mavjud. Jumladan, tasvirni yaxlit yoki bir qismini avtomatik ravishda ko'rish, tanlangan joyini saqlab qolish va belgilab qo'yishlardir¹.

Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari,
- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignalalar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiadi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun inarkaziy prosessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashushi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi;
- “inson-kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yahshilashga imkon beradi;

¹ Bent B.Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education. UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013. ISBN 978-5-7777-0556.

– multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning usuli hozirgi kunda ta’lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tadbiq qilinmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumli va yaqtadan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtini tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo‘srimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarni o‘rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati borligi;
- ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

Multimedia ilovalari quyidagilarga bo‘linadi:

Taqdimot/prezentatsiyalar (ing. presentation) – audio-vizual vositalardan foydalanib ko‘rgazmali shaklda ma’lumot taqdim etish shakli. Taqdimot yagona manbaga umumlashgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va tovushni o‘zida mujassam etadi. Odatda, taqdimot ma’lumotni qulay qabul qilish uchun syujet, ssenari va strukturaga ega bo‘ladi.

Animatsion roliklar. Animatsiya – multimediali texnologiya; tasvirning harakatlanayotganligini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi. Tasvir harakatini tasvirlash effekti sekundiga 16ta kadrдан ortiq videokadrlarning almashinishida hosil bo‘ladi.

O‘yinlar. O‘yin dam olish, ko‘ngil ochish ehtiyojlarini qondirish, organizindagi zo‘riqishni yo‘qotish hamda ma’lum malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan multimedia ilovalaridandir.

Videoilovalar – harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqish texnologiyasi va namoyishi. Video tasvirlarni o'qish qurilmalari – videofilmlarni boshqaruvchi dasturlar.

Multimedia-galereyalar. Galereyalar – tovush jo'rligidagi harakatlanuvchi suratlar to'plami.

Audioilovalar. Tovushli fayllarni o'quvchi qurilmalar – raqamli tovushlar bilan ishlovchi dasturlar. Raqamli tovush – bu elektrik signal amplitudasining diskret sonlar bilan ifodalanishi.

Web uchun ilovalar – bu alohida veb-sahifalar, uning tarkibiy qismlari (menyu, navigatsiya v.b.), ma'lumot uzatish uchun ilovalar, ko'p kanallli ilovalar, chatlar va boshqalar.

Multimedia vositalari apparat vositalari va dasturiy vositalar kompleksi bo'lib, insonga tabiiy bo'lgan turli-tuman muhitlar, ya'ni: tovush, video, grafika, matn, animatsiya kabilardan foydalangan tarzda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradigan vositalardir.

Multimedia vositalari. Adabiyot o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-video muloqot o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va bilim olishga bo'lgan xavasini oshiradi.

Multimedia vositalariga audiokolonka, mikrofon, videoproektor, Web kamera, TV tuner, SD-ROM va boshqalar kiradi.

Multimedia vositalari o'quvchiga yakka tartibda shug'llanish imkonini beradi. O'quvchi o'qituvchining bevosita ishtirokisiz ham materialni mustaqil uzlashtirishi mumkin bo'ladi.

Multimedia vositalari bilan ishlash. Video va audio multimedia vositalarini kompyuterda juda ko'p dasturlar orqali ishlataladi. Video, audio bilan ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan, Windows Media Plaer, Winamp va boshqalar kiradi.

Windows Media Plaer dasturini ishlatishni ko'rib o'tamiz. Windows o'rnatilgan barcha kompyuterlarda Windows Media Plaer dasturi Windows bilan birqalikda o'rnatilgan bo'ladi. Windows Media Plaer dasturini ishga tushirish uchun Windowsning Pusk tugmasi bosiladi. Keyin bosh menyudagi Programma menyusidan Standartnoe qismiga kiriladi. Va Windows Media Plaer ishlataladi. Ilgari qo'yilgan narsani ochish paytida "o'ng tugma"

(bekor) degan xabar paydo bo'lishi mumkin. Bu kompyuterning noto'g'ri qo'shilganidan yoki saqlab qo'yilgan narsa noto'g'ri saqlanganligidan darak beradi..

Video ikkilik. Ta'lif jarayonida video, audio lavhalarni namoyish qilishda keng foydalariladi. Ekrani katta televezorlarni katta ekran sifatida videoko'z orqadi materialni namoyish qilishda foydalanish mumkin.

Raqamli fotoapparat – seminardagi yoki dars jarayonidagi olingan rasmlarni kompyuterda qayta ishslash orqali slayd, videoproektor, kodoskop yordamida namoyish qilish mumkin.

Taqdimot ishlari dasturlari

Makintosh va Windows muhitlarida ishlatiluvchi taqdimot dasturlari paketidan anchadan buyon mavjud dasturlar guruhini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu guruhga Lotus firmasining Freelange Granhics, Softvare Publishing firmasining Hanvard Graphics, Microsoft kompaniyasining Power Point dasturlari kiradi. Bu dasturlarni ishlab chiquvchilar har xil yangi rusumda ishlatiladigan vositalarni ko'paytirib imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Makintosh va Windows muhitlaridagi yangi turdag'i taqdimot dasturlari paketi multimedia vositalarini yanada to'liq ishlatishga mo'ljallangan. Bu dasturlar video va tovushli fayllarni qulay uzatish (import qilish), diagramalarda animatsiya vositalaridan keng fodalanan imkonini beradi.

Yangi turdag'i taqdimot dasturlari qatoriga Makromedia firmasining Action hamda Gold Disk firmasining Astound dasturlari paketi kiradi.

Power Point dasturi MS OFFICE dasturlari tarkibiga kiradi. Undan foydalanish oson va qulay. Dasturni o'rgatuvchi o'quv dasturi, tayyor taqdimot namunalari, matn bilan ishslash vositalari, boshlovchilar uchun foydali yordam tizimi mavjud.

Power Point dasturi ichki multimedia vositalari bo'limasada, bu vositalarni OLE – 2 texnologiyasi yordamida kengaytirish va to'ldirish mumkin.

Astound dasturi yangi taqdimot dasturlari ichida eng yaxshilaridandir. U ishlatilishi soddaligi bilan ajralib turadi. Tovushli kliplar, harakatli tasvirlar va multimedianeing boshqa elementlaridan bir vaqtning o'zida baravar (sinxron) ishlatishga imkon beradi.

Taqdimot dasturlari ichidan OS/2 va Makintosh muhitida ishlovchi ixchamlashtirish, birlashtirish va dizayn vositalariga ega Abobe Persuasion dasturini Windows muhitida ishlovchi kuchli rasm chizish vositalari qulay boshqaruvgaga ega Novell Presentations dasturini, hamda slayd -ko'rgazmalar uchun Lifeboat Publishers firmasining Demo-it dasturini, taqdimotlar imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'lallangan Macromedia firmasining Director dasturlarini alohida e'tiborga olish kerak bo'ladi.

15.2. Ispring dasturi va uning imkoniyatlari

Multimediali elektron o'quv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega bo'lgan Ispring dasturi haqida to'xtalib o'tamiz.

Ispring Free dasturi. PPT, PPTX, PPS, PPSX formatdagi fayllarni Flash (SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik dasturi hisoblanadi.

Dastur orqali foydalanuvchilar Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni Power Point taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin.

Xususan:

- Yaratiladigan elektron o'quv kontentlarni SCORM va TinCan ga o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning menegment system) bilan integratsiyalashtirish mumkin degani.
- Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining xajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud.
- Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining himoyalanishini ta'minlaydi.

Xalq o'g'zaki ijodi bo'yicha xalq bahshilari tomonidan kuylangan dostonlarning audio-video materillaridan, hududiy folklor jamoalarining xalq qo'shiqlari ijrolari tushirilgan video lavhalardan hamda o'zbek xalqiga xos rasm-iusumlar haqida ma'lumot beruvchi videofilmlardan foydalanish mumkin. Mavzu bo'yicha yaratilayotgan TAQDIMOTga ovozli lavhalarni, videoroliklarni joylashtirish orqali o'quvchiga bir dars mobaynida xalq og'zaki ijodining turli qirralarini va ko'rinishlarini jonli tarzda ochib berish mumkin. Avvalo, mavzu yuzasidan nazariy ma'lumot bayon qilinadi. Keyin esa multimediali audio-video ma'lumotlar namoyish etiladi.

Folklor – og‘zaki ijed. Xalq poetik ijodi yozuv paydo bo‘lmasdan ko‘p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og‘zaki an’ana bilan bog‘liqidir. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og‘zaki yaratilishi va og‘zaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, ayrim tarixiy faktlarning to‘liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o‘zgarishi mumkin. Folkloarning og‘zakilik xususiyati uning keng tarqalishiga, xalq orasida keng ommalashuviga sabab bo‘ladi.

Folklor xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan jamoa ijodi mahsulidir. Ma’lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari xalq tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Keyinchalik esa talantli kishilar tomonidan yaratilgan. Ular o‘z ijodida qabila va urug‘ odatlari, dunyoqarashi, e’tiqodi, tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari haqida hikoya qiladilar. Xalq kuychisi (baxshi, ertakchi, qo‘sinqchi) xalq jamoasi tomonidan yaratilgan asarlarni mexanik tarzda boshidan oxirigacha so‘zma-so‘z yod aytmaydi, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lib, o‘zidan nimadir qo‘sadi, boyitib boradi. Shuning uchun ham u kuylayotgan asarini hamisha «xalqnik» deb tan oladi. Demak, folklor asarlarida xalq jamoasi ijodi tushunchasi, hech mahal individual ijod rolini inkor etmaydi.

Folklor – sinkretik xususiyatga ega bo‘lib, xilma-xil san’at turlariga xos elementlarni o‘ziga mujassamlashtirgan. Uning ba’zi namunalari so‘z va kuy uyg‘unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do‘mbira jo‘rligida kuylash an’anviy bo‘lsa, qo‘sinq dutor va childirma jo‘rligida kuylanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5 – 8 – 9-sinf darsliklarida xalq o‘g‘zaki ijodi xos mavzular o‘rin olgan. Akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarining adabiyot darsliklarida ham xalq o‘g‘zaki ijodi bo‘limlari kiritilgan.

Bizga ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari “Xalq og‘zaki ijodi” dan boshlanadi¹. Shunga ko‘ra, doston haqidagi nazariy ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tsak.

¹ S.Axmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Sharq. I-II qism. 2015. -176 b.

Doston-xalq og‘zaki ijodining eng yirik janti bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asardir. Qahramonlarning sarguzashtlari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko‘lamda tasvirlovchi yirik hajmli she’riy asar DOSTON deyiladi.

Odatda, dostonlarning birinchi ijodkori unutilib, ular nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi.

Dostonlar mavzu jihatdan rang-barang, mazmunan xilma-xil bo‘lganligi bois ularning quyidagi turlari mavjud: qahramonlik dostonlari, ishqiy-sarguzasht dostonlar, tarixiy dostonlar.

Xalq og‘zaki ijodidagi “Rustamxon”, “Algomish” qahramonlik dostoni bo‘lsa, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshan”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” kabilar ishqiy-sarguzasht dostonlardir.


Xalq dostonlari baxshilar tomonidan ijro etiladi.

Adabiyotga doir maxsus saytlarda dostonlarning xalq baxshilari tomonidan kuylangan audio-video lavhalari mavjud. Har bir o‘qituvchi dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi mumkin.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o‘zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqealarni bayon etiladigan janrlar bor. Biz-o‘zbeklarda bu janr doston deb ataladi. Doston so‘zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma’nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylab kelungan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. Ularning quyidagicha turlari bor:

1. Qahramonlik
2. Ishqiy-romantik
3. Jangnoma
4. Kitobiy
5. Tarixiy

I. **Topshiriq.** Interfaol usul orqali **“To‘rtta rasm bitta so‘z”** o‘yini o‘quvchilarga slayd orqali ko‘rsatiladi. O‘zbek dostonchiligiga oid ma’lumotlar asosida o‘quvchi to‘rtta rasmni bir so‘z bilan ifodalashi kerak.



Bu rasmlar bizga “Alpomish” dostonini eslatadi. “Alpomish” dostonida Ot – boychipor, Alpomishning kurashga tushishi, kamondan o‘q otishi, ko‘pkari kabi milliy xarakterlari ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, unumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf darsligida xalq og‘zaki ijodi haqida nazariy ma’lumot, topishmoq, maqol, hadis, masai, ertak, ertak –doston, she’r va sayohatnomalar haqida nazariy ma’lumot berilgan. Janrlar haqidagi bu nazariy ma’lumotlarni ko‘rgazmali va ko‘rsatmali multimedialardan foydalanish adabiyot o‘qituvchisidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishni talab qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Multimedianing texnik – dasturiy vositalarini aytib bering.
2. Tasvirlarni yaratuvchi va ular bilan ishlovchi vositalarni sanab bering.
3. Ovoz yozish va ovez tahrirlash vositalarini sanab bering.
4. Video yozish va video tahrirlash vositalarini ishlash prinsipini aytib bering.
5. Multimedia vositalari haqida ma’lumot.
6. Multimedia vositalari bilan ishlash.

Asosiy tushunchalar:

Taqdimot (Prezentatsiya, Presentation) – diagramma, jadval, matn va boshqa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni maxsus dasturlardan

foydalangan holda display, videoproektor kabilarda namoyish qilish uchun tayyorlash.

Multimedia (мультимедиа, multimedia) – (multimedia – ko‘p muhitlilik) – bu kompyuter texnologiyasiningturli hil fizik ko‘rinishiga ega bo‘lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli hil tashuvchilarda mavjud bo‘lgan (magnit va optik disklar, audio- va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog‘liq sohasidir.

Multimedia proektori (мультимедийный проектор, protector of multimedia) – kompyuterdan, videokameradan, DVD disklarni tasvirlovchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranda yoritib berishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalari (средства мультимедии, means of multimedia) – tasvirlar, videofilmlar, animatsiyali grafik obrazlar, matn, nutqli va ovozli tasvirli matnlarni aks etiruvchi vositalar sistemasi.

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, tutli ma’lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo‘lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir.

Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi.

Video ikkilik – ta’lim jarayonida video, audio lavhalarni namoyish qilishda keng foydalaniлади.

Raqamli fotoapparat – seminaridagi yoki dars jarayonidagi olingan rasmlarni kompyuterda qayta ishlash orqali slayd, videoprocktor, kodoskop yordamida namoyish qilish.

Folklor – xalq ijodi – xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan jamoa ijodi maxsulidir.

Doston – xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: 2011.
2. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and digital technologies(Big issues and critical questions). Cambridje University Press. 2015.
3. Bent B.Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education.UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013.ISBN 978-5-7777-0556-3.
4. Sanjaya Mishra, Ramesh C. Sharma. Interactive multimedia in education and training. ISBN 1-59140-393-6. Published in the United States of America by Idea Group Publishing. 2005.

16- MODUL: MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI ORGANISHDA ELEKTRON JADVALLAR VA GIPERMATN BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

WEB – DIZAYN (LOYIHA) WORLD WIDE WEB (WWW)

– kompyuter tarmoqlaridan kerakli ma'lumotni ko'rishni *gipermurojaat* deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish usuli. WWW- World Wide Web nomi Tim Berusers – Lee (Gern laboratoriysi) tomonidan kiritilgan. U boshqacha nomda butun dunyo “o'tgimchaklari” deb ham ataladi. Buning sababi, WWWda turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga yetib borish va uni ko'rish imkoniyati borligidir. WWWda nuqtalar rolini kompyuter o'ynaydi. Yo'llar sifatida telefon yo'llari ishlataladi. Web sahifalar, odatda, HTML hujjat, HTML (Hyper Text Markup Language – girematnni belgilash tili) tilida yozilgan hujjat sifatida tayyerlanadi.

Bu holda yozilgan hujjatlarni tabiiy ko'rinishda keng ommaga tushunari bo'lgan kompyuter ekranida tasvirlash uchun maxsus dasturlar ishlataladi. Bunday dasturlar Browser (ko'rvuchi, sharhlovchi)lar deb ataladi. Xususan, Windows tarkibida mavjud dasturlar sharhlovchi nomi bilan yuritiladi.

WWW (qisqacha – Web) sistemasida ma'lumotlar *gipermatnli* hujjatlars shaklida olinadi. Gipermatn boshqa matnli hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga tez o'tish imkonini beradi. Matnlar bilan bir qatorda WWW hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarni, umuman multimedia ma'lumotlarini ham beruvchi hujjatlar *gipermedia* hujjatlari deyiladi.

Web –Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularning soni soat sayin ko'payib bormoqda. Webning eng asosiy xususiyatlaridan biri unda turli matn, video, grafik ob'ektlarda *gipermurojaatning* mavjudligidir. Matnlarda *kalit so'zlar* deb ataluvchi so'zlar orqali dunyoning ixtiyoriy burchagida Internet doirasida joylashgan ma'lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma'lumotlarni topish *gipermurojaat* deb ataladi. Ajratilgan so'z va iboralar – gipermatn aloqalari, qisqacha *giperaloqalar* deb yuritiladi. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlarga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin. Shunday qilib, Web – gipermatnli sistema bo'lib, unda ma'lumotlar ixtiyoriy tartibda joylashadi. Uning na boshi na oxiri bor. Bunday ma'lumotlar faqat giperaloqalar bilan

bog‘langan xolos. Hozirda giperaloqalar faqat matndagi ajratilgan so‘zlar bilangina emas, xatto tasvirlar, grafiklar, ularning qismlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Gipermatn (hypertext) – hujjatlarni yoki ma’lumotlar bazalarini tashkillashtirish usuli. Bunda hujjatlarning yoki axborotlarning tegishli qismlari (parchalari) bir-biri bilan ishoralar (links, hyperlinks) vositasida o‘zaro bog‘lanadi va foydalanuvchiga fikrlash yo‘li bilan ushbu ishoralar bo‘yicha tegishli hujjatlar yoki axborotga o‘tish imkonini beradi. Ishoralar matn, grafik, audio yoki video formatda havola etiladi. Xuddi shu nazariy jihatlarni Navoiy hayoti va ijodi misolida ko‘rib chiqamiz. Mavzuga doir gipermatnlarni yig‘amiz, Excel dasturida shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq xronologik jadvallar tuzamiz.

Gipermurojaat -Navoiyning hayoti va faoliyati Kalit so‘zlar

1. Navoiy biografiyasini
2. Shoир zamondoshlari
3. Navoiyning bolaligi
4. Navoiy Samarqandda
5. Navoiy asarlari
6. Navoiyning siyosiy-ijtimoiy faoliyati

Mana shu ajratilgan oltita kalit so‘zlar orqali Navoiy hayoti va ijodiga oid internetda joylashgan ma’lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma’lumotlarni topish **gipermurojaat** qilish mumkin. Ajratilgan so‘z va iboralar – gipermatn aloqlari, qisqacha **giperaloqalardir**.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Internetdan gipermurojaat orqali Navoiy hayoti va faoliyati oid ma’lumotlarni to‘plash va o‘rganish.

O‘quv faoliyatining natijasi: Talabalar bir paytning o‘zida Internet ma’lumotlari orqali giperaloqalar natijasida Navoiy asarlari uning biografiyasini, shoир zamondoshlari asarlariidagi ma’lumotlarni, Navoiyning bolalik va o‘sminiik yillari haqida, Navoiyning Samarqanddagи faoliyati haqida, Navoiy asarlarining yaratilishi haqidagi fikrlarini yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan holda o‘zlashtiradilar. Navoiyning siyosiy-ijtimoiy faoliyati, obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari haqida batafsil ma’lumot oladilar.

Navoiy asarlari uning biografiyasini tiklashda muhim manba sifatida

Alisher Navoiy biografiyasini tiklashda zamondoshlari xotiralari, tarixchilar, tazkiranevislar bilan birga shoirning o‘z asarlari ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada shoirning ilmiy-nasriy asarlarining o‘rnini alohida e’tirof etish mumkin. Jumladan, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘z asarlarini qisqa-qisqa tasnif etadi. “Majolis un-nafois”da o‘zining adapiyot olamiga kirib kelishi, shoirlar bilan muloqoti va ayrim she’rlarining yozilish tarixi va boshqa masalalar xususida so‘zlaydi. “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Holoti Sayyid Hasan Ardashe” asarlarida Navoiy o‘z yaqinlari, ular bilan birga kechgan voqealar va albatta, o‘zi haqida so‘zlaydi. “Munshaot”dagi maktublar yana, Navoiy faoliyati, u muloqot qilgan kishilar, davr hamda shoirning shaxsiy muammolar haqida ham ma’lumot beradi. Navoiyning “Xamsa”si yoki devonlari debochasida ham biografik asosga ega ma’lumotlar anchagini.

Shoir zamondoshlari asarlaridagi ma’lumotlarning qimmati

Navoiy zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar, turli manbalardagi ma’lumotlardir. Bular sirasiga Navoiy nomi ilk bor zikr etilgan asar – Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa’dain va Majmai bahrain" ("Ikki saodatlari yulduzning chiqishi va ikki dengizning quyilishi" 1470); Muhammad Xovandshoh (Mirxon)ning "Ravzatus-safo", ("Safolik bog‘i")²; G‘iyosuddin bin Humomiddin (Xondamir) ning "Xulosatul- axbor" ("Voqealar xulosasi"), "Habibus-siyar" ("Suyukli xislatlar"), "Makorimul-axloq" ("Go‘zal xulqlar"); Amir Davlatshoh binni Alovuddavlo Baxtishoh al-G‘oziy Samarqandiyning "Tazkirotush- shuaro" ("SHoirlar tazkirası"); Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang" dostonlari, "Bahoriston", "Nafohatul-uns"; Jomiyning mulozimi va shogirdlaridan Abdulvoqe Nizomiyning "Maqomoti Mavlaviy Jomiy" ("Mavlaviy Jomiy turmushi")³ va Abdulhafur Joriyning "Takmila va "Nafohatul-uns" ga qo‘shimcha", hijriy 912 yil (1506 – 1507); Mu’iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning Ravzotul-jinnot fi avsofi Madinai Hirot" ("Hirot shahri ta’rifida jannat bog‘i" (1492); Husayn Boyqaroning "Risola", "Majolisul - ushshoq" ("Oshiqlar majlisi"); Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"; Zayniddin Mahmud Vosifiyning "Badee‘ul-vaqoe" asarlarini hamda Navoiy hayoti va

faoliyati xususida qimmatli ma'lumotlar, ma'rifatlar berilgan boshqa bir qator mualliflarning kitoblarini kiritish mumkin. Shular orqali, biz Navoiy hayoti va faoliyatini uning hayotga, insonga, vatanga va uning ona-tabiatga bo'lgan, shuningdek, so'z san'atiga, badiiy ijodga bo'lgan qaynoq muhabbatini, umuman, shaklu shamoilini to'la tasavvur etamiz.

Navoiyning bolalik va o'smirlilik yillari, Navoiy Samarqandda

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin kichkina va bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin amaldorlardan edi. Alisher go'dakligidan temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. 1447- yili, ya'ni Shohruh Mirzo vafotidan keyin vaziyat nihoyatda keskinlashib ketadi. Natijada ko'plab hirotliliklar tinch o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ladilar. Alisherlar xonadoni ham Iroqqa ko'chib, Taft shahrida yashay boshlaydi. U yerda yosh Alisher mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Oradan 2-3 yil o'tib, Navoiy Hirotda o'qishini davom ettiradi. Davrining mashhur musiqa ustasi Xoja Yusuf Burxondan musiqa ilmini o'rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqa sohalar bilan jiddiy shug'ullana boshladi. 12 – 13 yoshlaridayoq o'zi ham yaxshi she'rlar yozardi... Navoiy taxminan 18 – 19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Abusaid zamonida shoir "Hirotdin Samarqandga ixroj (surgun) qildi" (Bobur. "Boburnoma"). Samarqandda shoir ilm tahsiliga kirishdi. Samarqand madrasalariga qatnay boshlagan Navoiy ilm-fan, san'at va madaniyat ahli bilan yaqinlashdi va bilim saviyasi, is'tedodu qobiliyat, xulqu odobi bilan tez orada Samarqand ahlining e'tiborini qozondi. Favoiy taxallusi bilan she'rlar bitgan Samarqand hokimi, ma'rifatparvar Ahmad Xojibek, Samarqand Akobirlaridan Fazlulloh Abullays va boshqalar Navoiyga homiylik qila boshladilar. Fayzulloh Abulays Navoiyga mudarislik qiladi va uni o'ziga farg'and deb hisoblaydi. Samarqand markaziy Osiyorning yirik madaniy shaharlaridan edi. Shoir bu yerda o'z bilimini boyitdi, ko'plab iste'dodli shoir va olimlar bilan muloqotda bo'ldi.

1469-yili Husayn Boyqaro taxtga o'tirgach, uning taklifi bilan Hirotga qaytdi.

Navoiyning obodonchilik sohalaridagi ishlari

Navoiyning obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari haqida "Vaqfiya" asari bat afsil ma'lumot beradi. Navoiy Hirotning shuhratini dunyoga yoygan binolardan biri "Ixlosiya" madrasasini qurdirdi. Shu madrasa janubida "Xalosiya" nomli katta xonaqoh barpo etdi. Madrasaning g'arbida "Shifoysi" nomli bino qurilib, u yerda mashhur tabiblarni to'pladi. Masjidi jome' yonida "Dorul-buffoz" ("Qorilar uyi") gumbazi qad rostladi. Bularidan tashqari, Navoiy Hirotning ichida "Nizomiya", Marvda "Xusraviya" nomli madrasalar qurdirgan. Hirot va boshqa shaharlarda 10dan ortiq xonaqoh, 20dan ortiq masjid qurilgan. Navoiyning qurilish ishlari butun Xuroson va uning shaharlarida olib boriladi. Navoiyning ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga qurilgan binolarning soni ba'zi manbalarda uch yuzdan ortiq, deb ko'rsatiladi.

Navoiy asarlarining yaratilishi haqida umumiylar ma'lumot

Alisher Navoiy, eng avvalo, ulug' lirik shoir. U bolaligidan umrining oxirigacha lirik she'rlar bitdi, o'zidan boy lirik meros qoldirdi.

Alisher Navoiy adabiy merosi o'z ichiga lirik, epik va ilmiy nasriy asarlarni oladi. 1465 yili Navoiy muxlislari uning she'rlarini jamlab, devon tuzadilar. U fanda "Ilk devon" nomini olgan. 1470-1476-yillar orasida shoir "Badoe' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") devonini tuzdi. "Badoyiul-bidoya" 842 she'r dan tashkil topgan. Unda 585 g'azal, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarkibband, 46 fard mavjud. 1476 – 1483-yillar oralig'ida shoir faqat g'azallardan tartiblangan ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar")ni tuzdi. Navoiy 1491 – 1498-yillar mobaynida maxsus to'rt devondan tashkil topgan lirik kulliyot - "Xazoyinul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasи") ni tartibladi.

Navoiy buyuk epik shoir-dostonnavis ham. Lirikada katta ijodiy tajriba to'plagan shoir qisqa muddat ichida – 1483 – 1485 -yillari 51 misradan ortiq besh dostonni yaratdi. Ular "Xamsa" tarkibidagi besh doston: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai Sayyor" va "Saddi Iskandariy"dir. 1501 yili "Lison ut-tayr" dostoni yozildi shoirning o'ndar ortiq ilmiy-nasriy asarlari mavjud.

Navoiyning o'ndan ortiq nasriy va ilmiy-nasriy asarlari katta shuhrat topdi. Ular: Navoiyning memuar-biografik xarakterdagi asarlari – "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon

Muhammad”, “Xamsat ul-mutahayyirin”; ilmiy-filologik xarakterdagи asarlar – “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Mufradot”, “Muhogamat ul-lug‘atayn”; tarixiy va diniy-falsafiy mavzuda bitilgan asarlar – “Tarixi muluki Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va bukamo”, “Vaqfiya” epistolyar xarakterdagи “Munshaot” asarlaridir.

Elektron jadvallar asosan Excel dasturida ishlab chiqiladi. Bu dasturda gipermatn, giperinurojaatlarni o‘rnatish mumkin. Excel dasturida statestik, xronologik va bazaviy ma‘lumotlarni yaratish imkoniyati katta. Bu dasturda odatda, moliyaviy hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar sohada ham Excel dasturining imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, Navoiy hayoti va ijodiga oid giperinatnli gipermurojaatlar orqali shoirning butun bir ijodi bilan tanishish imkoniyati bor. Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuda quyidagi xronologik jadvallardan foydalanish mumkin.

XRONOLOGIK JADVAL

1441-yil 9-fevral	Alisher Hirot shahrida tug‘ildi
1447-yil	Alisher oilasining Xurosandan Iroqqa ko‘chishi
1457-yil	Abulqosim Boburning Mashhadda vafoti. Navoiy Mashhadda qoldi
1464-yil	Alisher Hirotga qaytdi
1465-yil	Navoiy Samarqandda
1469-yil	Husayn Boyqaro taxga o‘tirdi. Navoiyni muhrdorlik lavozimiga tayinladi
1472-yil	Navoiy vazirlikka tayinlandi
1487-yil	Navoiy Astrobotga hokim etib tayinlandi
1488-yil	Navoiyning Hirotga qaytishi
1501-yil	3-yanvar Navoiyning vafoti

NAVOIY DOSTONLARI BO'YICHA XRONOLOGIK JADVAL

1483-1485	"Xamsa" (beshlik) 51230 misra, besh dostonidan iborat.	
1483	1."Hayrutul abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi")	Falsafiy-ta'limiylar
1484	2."Farhod va Shirin" 3."Layli va Majnun" 4. "Sab'ai sayyor" ("Etti sayyora")	Ishqiy-qahramonlik Ishqiy-romantik Ishqiy sarguzasht
1485	5. "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori")	Qahramonlik dostoni
1498 – 1499	"Lison ut-tayr" ("Qush tili")	Falsafiy doston

Boshqotirma jadvali tuziladi. Aruz vaznidagi she'riy misralar nomini toping.

M

a	s	n	a	v	i	y
u	s	a	l	l	a	s
u	r	a	b	b	a	
u	x	a	m	m	a	s
u	s	a	d	d	a	s
u	s	a	b	b	a	
u	s	a	m	m	a	

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Gipermatn hujjatlar yoki ma'lumotlar bazalarini tashkillashtirish usuli.
2. Gipermurojaat nima?
3. Gipermatnli hujjatlarning adabiyot o'qitishdagi ahamiyati.
4. Gipermedia hujjatlarining imkoniyatlari.
5. Web - Internet tarmog'ning xususiyatlari.
6. Adabiyot darslarida xronologik jadval tuzish ko'nikmasini shakllantirish.
7. Gipermatn va undan adabiyot darslarida foydalanish yo'llari.
8. Elektron jadval tuzish tartibi.

9. Statestik, xronologik, bazaviy ma'lumotlarni berishda xronologik jadvallarning afzalliliklari.

10. Navoiy ijodini o'rganishda gipermatnlardan foydalanish.

11. Navoiy ijodini o'rganishda xronologik jadvallarning ahamiyati.

Asosiy tushunchalar:

Web – internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, uning

eng asosiy xususiyatlaridan biri turli matn, video, grafik ob'ektlarda gipermurojaatning mavjudligidir.

WEB – DIZAYN (loyiha) WORLD WIDE WEB (WWW) – kompyuter tarmoqlaridan kerakli ma'lumotni ko'rishni gipermurojaat deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish usuli.

Gipermatn (hypertext) – hujjatlarni yoki ma'lumotlar bazalarini tasliklashtirish usuli. Gipermatn boshqa mainli hujjatlarga yo'il ko'rsatuvchi matndir. Bu boshqa matnlarga tez o'tish imkonini beradi.

Gipermehdia – matnlar bilan bir qatorda WWW hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarni, umuman multimedia ma'lumotlarini ham beruvchi hujjatdir.

Gipermurojaat – internet doirasida joylashgan ma'lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma'lumotlarni topish.

Giperaloqalar – ajratilgan so'z va iboralar – gipermatn aloqalar. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlarga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin.

Xronologik jadval – Excel dasturida statistik, tavsifiy ma'lumotlarning tartibli bayoni.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – Toshkent. Ma'naviyat. 2008.

2. Umumiy e'rtta ta'lim maktablari, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari adabiyot darsliklari.

3. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, V. Rahmonov. – T: O'zMU nashriyoti. 2002.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
7. N. Komilov. Xizr chashmasi. – T., 2005.
8. N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1- kitob. –T. 1976.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Fan. 5 tomlig. 2-tom. 1972.

17- MODUL: JADIDCHILIK VA YANGI DAVR ADABIYOTIGA OID MA'LUMOTLARNI INTERAKTIV SINF DOSKASI YORDAMIDA O'RGANISH

Interaktiv doskalar

Star Board interaktiv doska¹ – bu kompyuterdagи tasvirlarmi proyektor orqali namoyish etadigan sensorli ekrandir. Maxsus dasturiy ta'minot matn, rasm, video va audio ma'lumotlar va obyektlar, hamda Internet-resurslar bilan ishlash va ular ustiga yozuv va izohlar tushirish imkonini beradi.

Interaktiv doska nafaqat taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotlarni, balki barcha turdagи ma'lumotlarni berish bilan birga odatiy matn yozish (konspekt qilish)ni bartaraf etib, vaqtдан unumli foydalanish imkoniyatini beradi. Tinglovchilar dars yakunida dars jarayonida keltirilgan barcha ma'lumotlar va yozuvlarni fayl ko'rinishida yozib olish va undan keyinchalik ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Interaktiv doskalar ma'lumot olish samaradorligini oshiradi.

Interaktiv doskani keng tatbiq etish borasida hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan biri o'qituvchilarni bu qurilma bilan samarali ishlashga o'rgatishdir. O'quv materiallarining elektron variantlarini tayyorlash uchun o'qituvchilardan axborot fazolarini loyihalash tajribasiga ega bo'lish va axborotlarni samarali strukturalarini yaratishda interfeyslardan foydalana bilish tajribasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Nizomiy nomidagi TDPU mutaxassislari tomonidan "Ta'lim jarayonida starboard interaktiv doskadan foydalanish" bo'yicha uslubiy qo'llanmada StarBoard interaktiv doskani ishga tushirish, sozlash va undan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

I.N.Tillaboyevning «Interaktiv elektron doska(IED)ning vazifasi va imkoniyatlari» maqolasida matematikani o'qitish jarayonida interaktiv doskalardan foydalanishning imkoniyatlari haqida bayon qilingan².


¹ Таълим жараёнда starboard интерактив доскадан фойдаланиш. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ 2010.

² Qarang: <http://library.ziyonet.uz/ru/book/16018>

Interaktiv elektron doska oddiy doskalardan farq qilib, unda bajarilgan har bir ish shu zahoti kompyuter ekranida paydo bo'ldi. Doskada yozilgan axborotni fayl ko'rinishida kompyuter xotirasida saqlash, zarurat bo'lsa printer yordamida bosmaga chiqarish mumkin. Matnlarni va grafik tasvirlarni rangli marker (qalam)lar bilan bezash mumkin.

Interaktiv elektron doskaning eng asosiy afzalliklaridan biri unda animatsiyadan foydalanish imkoniyati mavjudligidir. Unda tayyor rasmlarni ko'rish, mashg'ulotni videotasvir ko'rinishda yozib borish yoki video tasvirlarni namoyish etish mumkin. Agar TRACERRecorder.exe dasturidan foydalanilsa, doskada bajarilgan har bir harakat, butun dars jarayoni tasvirga olinadi.

6.1.-rasm.



U-BOARD® Wireless- Ultra tovush texnologiyasiga asoslangan simsiz ulanadigan interaktiv doska tizimi. Bunday doskalardan ancha qimmatligi tufayli foydalanish cheklangan edi. Janubiy Koreyaning PENANDFREE Co.Ltd kompaniyasi mahsuloti hisoblangan elektronika sohasidagi so'nggi – U-BOARD interaktiv doskasi narx jihatidan ham katta yangilik bo'ldi. («Shams» Ilmiy markazi MChJ ushbu kompaniyaning O'zbekistondagi rasmiy yagona distribyutori hisoblanadi).

U-BOARDdan foydalanish juda qulay. U-BOARD maxsus doska talab etmagan holda har qanday oq, tekis, silliq yuzada (har qanday doska, devor) ishlaydi. Kompyuterga ulangan Proyektordan tushgan yuzaga U-BOARD stansiyasi magnitli skotch bilan qoplangan (komplekt ichida yetkazib beriladi) ushlagich bilan mahkamlanadi. Ish sohasi kalibrovkalanadi. Ish sohasi diagonali 3 metrgacha¹.

O'qtish jarayonida interaktiv elektron doska yordamida interaktiv holda dars-mashg'ulotlarni o'tkazish yoki muhokama etilayotilayotgan masala yuzasidan turli fikrlarni vizual ravishda barchaga namoyish etish samarali bo'ladi.

Elektron interfaol doska va uning turлari



Elektron interfaol doska

Elektron interfaol doska (Interactive whiteboard) bu -- ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, kompyuter va proektordan iborat majmua tarkibida ishlaydi. Kompyuterning ishchi stolidagi tasvirlar proektor yordamida interfaol doska yuzasiga tushiriladi.

Bunda doska yuzasiga tushirilgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin, ya'ni kompyuterning grafik interfeysi sensorli boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish va h.k. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo'shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo'yish yoki tashqi axborot tashuvchi vositalarga ko'chirib olish mumkin. Elektron interfaol doska (EJD) maxsus elektron qalam (stilus, marker) orqali, shuningdek, qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin (bu interfaol doskanining qaysi texnologiyalardan foydalanim ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi). Bunda interfaol doska va kompyuter o'rtaсиda ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi, maxsus qalam (stilus, marker) yoki qo'i barmoqlari esa sichqoncha kabi ishlaydi.

¹ <http://www.delight2000.com/about/publication/kak-vybrat-interaktivnyu-dosku/>



EID darslarni yanada qiziqarli va ko'rgazmali tarzda o'tishga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur doska yordamida o'qituvchi interfaol ta'lim resurslarni namoyish etishi, mustaqil ravishda dars ishlanmalarini tayyorlashi va o'quvchilarni doska bilan ishlashga faol jalb etish orqali darslarni yanada mazmunli va qiziqarli tashkil etishi mumkin. Interfaol

doska yordamida bajarilayotgan barcha amallar tegishli fayllarda xotiraga olinishi va o'tilayotgan darsga tayyor elektron material sifatida o'quvchilarga tarqatib berilishi mumkin. Interfaol doskalarning dasturiy ta'minoti o'quvchilarni dars jarayoniga yanada faolroq jalb etadigan va yangi mavzu bo'yicha bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradigan noyob usulubiy materiallarni yaratish imoniyatini beradi.

Elektron interfaol doska turlari

EIDlar proektorning o'rnatilishiga qarab to'g'ri proeksiyalı va teskari proeksiyalı doskalarga ajratiladi. To'g'ri proeksiyalı EIDda proektor doskaning oldi tarafida bo'ladi, teskari poeksiyalı EIDlarda esa - doskaning orqa tarafida bo'ladi.

Aksariyat EIDlar - to'g'ri proeksiyalı doskalardir. Dars jarayonida proektor nurlari o'qituvchi va o'quvchilarga xalaqit bermasliklari uchun, bunday EIDlar bilan ishlashda, maxsus mustahkamlovchi vositalar yordamida bevosita doska oldiga (tepasiga) o'rnatiladigan ultraqisqafokusli proektorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ulanish usuliga qarab EIDlar simli (faol) va simsiz (passiv) interfaol doskalarga ajratiladi. Faol interfaol doskalar kompyuter va ozuqa manbalariga simlar orqali ulanadi. Passiv interfaol doskalarda esa hech qanday simlar bo'lmaydi va ularni ozuqa manbalariga, kompyuterga va poroektorga ulash talab etilmaydi.

Ishlash printsipiga ko'ra EIDlar "yumshoq" va "qattiq" elektron doskalarga ajratiladi:

“Yumshoq” EIDlarda maxsus stilus yoki qo‘l barmoqlari yordamida ishlash mumkin;

“Qattiq” EIDlar esa faqatgina elektron stiluslar yordamida ishlaydi.

Ishlab chiqarish (tayyorlanish) texnolgiyalariga ko‘ra EIDlar quyidagi turlarga ajratiladi: sensorli, ultratovushli, infraqizil, elektromagnitli, mikronuqtali.

Sensorli interfaol doskalar

Sensorli interfaol doskalarda rezistiv matritsa – ya’ni interfaol doskaning plastik yuzasiga montaj qilingan, juda ham ingichka simlardan to‘qilgan va qatlamlari orasida havo bo‘shilig‘i mavjud bo‘lgan ikki qatlamli sim to‘r ishlataladi. Doska yuzasiga tushirilgan bosim oqibatida birinchi qatlam to‘r simlari ikkinchi qatlam to‘r simlari bilan to‘qnashadi. Sensorli texnologiyaga asoslangan interfaol doskalar, kompyuter sichqonchasining tugmasini bosish orqali ta’sir ko‘rsatilgani kabi qo‘l barmoqlari (yoki har qanday boshqa predmet) bilan doska yuzasiga tegish orqali ta’sir ko‘rsatish amallariga javoban tegishli munosabat bildiradi.

Ushbu texnologiya maxsus elektron markerlardan foylanishni talab qilmaydi, ish jarayonida hech qanday nurlanishlardan foydalanimaydi va tashqi to‘siqlarga chidamlı. Mazkur texnologiyaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi – doska yuzasida barmoq yoki marker bilan tez harakat qilinganda rezistiv matritsaning reaksiyasi biroz kechikadi, shuningdek, doska yuzasiga osonlik bilan zarar yetkazilishi mumkin.

Infracizil va ultratovushli interfaol doskalar

Mazkur interfaol elektron doskalarda marker (stilus) xolatini aniqlash uchun infraqizil yoki ultratovushli datchiklardan foydalanimadidi. Ayrim xolatlarda bunday datchiklar o‘rniga marker (stilus)ning joriy holatini yuqori darajada aniqlay oladigan infraqizil lazerlardan ham foydalanimadidi. Infracizil elektron interfaol doskalarda signallarni qabul qilish va uzatish vazifasini bajaruvchi infraqizil uskunalardan foydalanimadidi, bunda interfaol doska yuzasida gorizontal va vertikal chiziqlardan iborat ko‘zga ko‘rinmas to‘r paydo bo‘ladi. Interfaol doska yuzasiga elektron marker tekkazilganda infraqizil nur yo‘li berkitiladi va datchikga signal yetib

bormaydi. Shunday qilib, marker bilan elektron doska yuzasiga ta'sir ko'rsatilgan nuqta koordinatalari aniqlanadi va keyingi ishlov berish uchun kompyuterga uzatiladi. Infracizil elektron doska yuzasi qattiq antivandal qatlam bilan qoplangan bo'lib, unda marker bilan ham, qo'l barmoqlari bilan ham ishlash mumkin.

Elektromagnitli interfaol doskalar

Elektromagnitli interfaol doskalarda elektromagnit to'lqinlarining izolyatsion materiallari orasidan o'tish xususiyatiga asoslangan texnologiyadan foydalanilgan. Elektromagnit to'lqinlarini uzatish vositasi sifatida "elektron stilus" yoki "elektron marker" deb ataluvchi maxsus elektron qalamdan foydalaniladi.

Ushbu elektron qalam bilan interfaol doska ustiga chizilganda, qalam uchi tekkan joyda elektromagnit to'lqinlari yuzaga keladi. Yuzaga kelgan elektronmagnit to'lqinlari doskaning X-Y koordinata simlari orqali qabul qilinadi. Qabul qilingan axborotlar kompyuterga uzatilib tahlil qilinadi va elektron marker ta'sir etgan nuqtalarning koordinatalari hisoblanadi, axborotlarga ishlovlar berilib tegishli amallarning ijrosi ta'minlanadi.

Elektromagnitli interfaol doska ham infraqizil elektron doska yuzasi kabi qattiq anivandal qoplama ega, lekin bunday doskada qo'l barmoqlari bilan ishlash imkoniyati mavjud emas.

Mikronuqtali interfaol doskalar

Bunday interfaol doska yuzasiga maxsus tarzda, mikronuqtalardan tarkib topgan, ko'zga ko'rimmas koordinatali to'r tushirilgan. Aynan mazkur mikronuqtalarning o'zaro joylashishi elektron stilusga o'rnatilgan infraqizil datchik tomonidan noyob koordinata sifatida qabul qilinadi.

Mikronuqtali texnologiya asosida ishlab chiqilgan bunday elektron interfaol doskalar kompyuterga yoki tarmoqqa ulanishni talab etmaydi. Barcha ma'lumotlar interfaol doska tarkibiga kiruvchi elektron stilusga joylashtirilgan Bluetooth - o'zatgich yordamida kompyuterga uzatiladi va ularga tegishli ishlov beriladi.


Interfaol doskaning qattiq mustahkam yuzasi va unda elektronika uskunalarining mavjud ernasligi ushbu doskani haqiqatdan ham juda chidamli (antivandal) qiladi.

Sensorli, elektromagnitli, ultratovushli va infraqizil texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol daskalar kompyuterga va ozuqa manbalariga elektr simlari orqali ulanadi.

Elektromagnitli va mikronuqtali texnologiyalar asosida yaratilgan elektron interfaol doskalarda faqat maxsus stiluslar bilan ishlash mumkin.

Sensorli, ultratovushli va infraqizil texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol doskalarda esa maxsus stilus bilan bir qatorda boshqa predmetlar, masalan qo'l barmoqlari bilan ham ishlash imkoniyatlari mavjud.

Interfaol qurilmalar



Interfaol qurilmalar shunday uskunaki, ular yordamida xohlagan doskani yoki boshqa tekis yuzani interfaol proeksiyon ekranga aylantirish mumkin. Buning uchun mazkur qurilmani doska chetiga mustahkamlab kompyuter va proektorni ishga tushirish zarur bo'ldi.

Interfaol displeylar



Interfaol LCD-displeylar o'zida suyuq kristalli panel va axborotlarni kiritish qurilmasini mujassam etgan bo'lib, butun jarayonni maksimal tezkor beshqarish uchun yaratilgan. Bunda sichqonchani ulamasdan, qo'l barmoqlari yordamida kursorni beshqarish va fayllar yoki operatsion tizim bilan hohlagan amallarni bajarish mumkin.

Ularning ishlash prinsipi optik-sensorli texnologiyaga asoslangan. Interfaol LCD-displey burchaklarida joylashgan infraqizil datchiklar va maxsus kameralar ekran yuzasiga keltirilayotgan barmoq yoki boshqa predmetning ta'sir etish nuqtasi koordinatalarini aniqlaydi va unga mos ravishda cursor harakatini muvofiqlashtiradi.

Interfaol displeylarning turli modellari bir vaqtning o'zida 2 tadan 10 tagacha bo'lgan ta'sir nuqtalarini aniqlashligi va qabul qilingan axborotlarga tegishli ravishda ishlov berishligi mumkin.

Buning hisobiga foydalanuvchi nafaqat kursorni boshqarish, balki, bir vaqtning o‘zida bir necha barmoqlarini ishga solib ob’ekt ustida ayrim amallarni ham bajarish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Masalan, barmoqlarni ekran ustida bir-biriga yaqinlashtirib tasvirning o‘lchamini kichraytirish, yoki aksincha – kattalashtirish va boshqa turli amallarni bajarish mumkin.

3

Displaylar uchun interfaol qoplamlalar



Interfaol qoplamlalar plazmali va suyuqkristalli displaylarning ko‘rkam tashqi ko‘rinishi va tasvirlarining a’lo darajadagi sifatlarini saqlagan holda ularni katta sensorli ekranlarga aylantiradi. Bunday qoplamlardan foydalanish sohasi juda ham keng: korporativ majlislar zali, o‘quv auditorialari, savdo markazlari, transport terminallari, ko‘rgazma zallari va h.k.

Interfaol qoplama datchiklari hohlagan predmet bilan, ya’ni qalam, stilus yoki qo‘l barmoqlari bilan ekranga ta’sir etilgan (tekkazilgan) holatlarni sezadi va aniqlaydi. Tegishli kalibrovka amalga oshirilgach, keyinchalik, boshqa soziash ishlari va servis xizmat ko‘rsatish talab etilmaydi¹.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Elektron interfaol doska va uning turlarini ayting.
2. Elektron interfaol doskaning imkoniyatlari nimalardan iborat?
3. Sensorli interfaol dosalarning ta’limdagi o‘rni qanday?
4. Infragizil va ultratovushli interfaol doskalardan foydalanish texnologiyasi.
5. Elektromagnitli interfaol doskalar.
6. Mikronuqtali interfaol doskalar.

¹ **Qarang:** Bu maqola saytda chop etilgan Eduportal.Uz (<http://eduportal.uz>). Ushbu maqola URL i: <http://eduportal.uz/uzb/article1533.html> olindi.

Asosiy tushunchalar:

Elektron interfaol doska (interactive whiteboard) bu – ta’lim berishning zamonaviy vositasi bo‘lib, kompyuter va proektordan iborat majmua tarkibida ishlaydi.

EIDlar – to‘g‘ri proektsiyali doskalardir – dars jarayonida proektor nuriari o‘qituvchi va o‘quvchilarga xalaqit bermasliklari uchun, bunday EIDlar bilan ishlashda, maxsus mustahkamlovchi vositalar yordamida bevosita doska oldiga (tepasiga) o‘rnataladigan ultraqisqafokusli proektorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Sensorli interfaol doskalar – rezistiv matritsa – ya’ni interfaol doskaning plastik yuzasiga montaj qilingan, juda ham ingichka simlardan to‘qilgan va qatlamlari orasida havo bo‘shlig‘i mavjud bo‘lgan ikki qatlamli sim to‘t ishlatiladigan doska.

Infracizil elektron interfaol doskalar – signallarni qabul qilish va uzatish vazifasini bajaruvchi infraqizil uskunalardan iborat.

Elektromagnitli interfaol doskalar – elektromagnit to‘lqinlarining izolyatsion materiallar orasidan o‘tish xususiyatiga asoslangan texnologiya. **Mikronuqtalari interfaol doskalar** - interfaol doska yuzasida maxsus tarzda, mikronuqtalardan tarkib topgan, ko‘zga ko‘rinmas koordinatali to‘r tushirilgan doska.

Interfaol qurilmalar shunday uskunaki, ular yordamida hohlagan doskani yoki boshqa tekis yuzani interfaol proektsion ekranga aylantirish mumkin.

Interfaol LCD-displeylar o‘zida suyuq kristalli panel va axborotlarni kiritish qurilmasini mujassam etgan bo‘lib, butun jarayonni maksimal tezkor boshqarish uchun yaratilgan.

Interaktiv o‘quv kurslari – o‘zaro muloqot asosiga qurilgan vositalardan foydalanib tuzilgan kurslar.

”Jadid” – so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, ”yangi” degan ma’noni bildiradi.

Jadid adabiyoti – XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida paydo bo‘lgan yangi yo‘nalish. Jadid adabiyotining bosh g‘oyasi millatni ma’rifat orqali ozodlikka chaqirish bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limdi zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T. Fan. 2007. – 159 b.
2. Eduportal.Uz(<http://eduportal.uz>)//URL //
<http://eduportal.uz/uzb/article1533.html>
3. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari. Toshkent. O'zbekiston. 2008.532 b.

18-MODUL: ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIGA BAG‘ISHLANGAN VIDEOKONFERENSIYA

Elektron konferensiyalarning uch turi mavjud. Bular:

1. Videokonferensiya
2. Telekonferensiya
3. Audeokonferensiya

Videokonferensiya. Ta’lim tizimini isloh qilishdagi asosiy vazifalardan biri Kadrlar tayorlash milliy dasturida ham ta’kidlanganidek, ta’lim tizimini zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilgan; ta’lim tizirmining barcha darajalarini to‘liq miqiyosida kompyuterlashtirish; ta’lim maskanlarida lokal hisoblash tarmoqlarini tashkil qilish va global tarmoqqa ulash va hokazo. 1998-yilda ishga tushirilgan Trans-Osiyo-Yevropa optik tolali magistrali yordamida, bizning mamlakat ham oxirgi vaqlarda yuzaga kelgan axborot vaakumidan chiqishga erishdi. Bu optik tolali magistral jahon axborot tizimiga bog’lanish imkonini yaratdi. Bu Respublikamizning shu jumladan, Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan hisoblanadi. Ta’lim tizimini isloh qilishda, rivojlangan mamlakatlarning yirik univesitetlari bilan aloqani mustahkamlash kerak bo‘ladi. O‘quv jarayonini boshqarish va tashkil etishda ularning ish tajribalarini o‘rganish va bu yo‘nalishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish zarur. Bizning respublikamizda dunyoning yetakchi universitetlari professor-o‘qituvchilarining ma’ruzalarini eshitishni hohlovchi iste’dodli yoshlar juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunda ularga bu imkoniyatni yaratib berish, yetakchi universitet va ilmiy markazlarga o‘qitishga, tajriba oshirishga yuborish moliyaviy jihatdan juda katta muammo hisoblanadi. Bunda masofadan o‘qitish tizimi muammoni hal qilishda katta yordam beradi va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi. Shunga ko‘ra, Respublikamizda masofaviy o‘qitishni videokonferensiya ko‘rinishda va boshqa metodlar yordamida o‘tkazishning kelajagi porloq. 1999 – 2003 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti va Navoiy davlat konchilik institutida Yevropa ittifoqining TEMPUS-Tacis dasturi doirasida “O‘zbekistonda masofaviy o‘qitish” xalqaro ta’lim loyihasi muvaffaqiyatlari bajarildi. Ushbu loyihada Yevropa ittifoqidan Gamburg-Xarburg texnika

universiteti (Germaniya), Tventi univesiteti (Gollandiya) va Alborg univesitetlari (Daniya) ishtirok etishdi. O'zbekiston va Yevropa ittifoqi davlatlari universitetlari hamkorligidagi masofaviy o'qitish loyihasi quyidagi maqsad va vazifalarni bajarishni o'z oldilariga qo'ygan edi:

- Yevropa ittifoqi davlatlari universitetlarining yirik olimlari va mutaxassislari oliy ta'lif muammolari haqidagi ma'ruzalarini tashkil qilish;
- Yevropa ittifoqi universitetlari yirik olimlari va mutaxassislari ishtirokida ilmiy va texnik muaommolar haqidagi videokonferetsiyalarni tashkil qilish;
- Seminar darslarini o'tkazish;
- Yig'ilishlar va konferensiyalar o'tkazish;
- Yangi texnologiyalar va texnik vositalarning taqdimotini va namoyishini o'tkazish;
- Yevropa ittifoqi davlatlari va Respublika OO'Yu ilmiy-tadqiqot muammolariga bag'ishlangan hisobotlar va montoringlar o'tkazish;
- Innovatsion texnik muammolarni hal qilishda birgalikda ishslash;

Bu loyiha doirasida quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha yuqori malakali kadrlarni taylorlash ham ko'zda tutilgan:

- Telematika (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)
- O'Ichov texnikasi
- Kimyo texnologiyalari (gaz va neft mahsulotlarini qayta ishslash)

Bu loyihani ishga tushirish oliy ta'lifni isloh qilishga ko'maklashishiga yo'naltirilgan va bu quyidagi muhim ilmiy-amaliy vazifalarni yechishga imkoniyat yaratib berdi:

- Ochiq ta'lif kontsepsiyasini qo'llash va ta'lif jarayoni uchun zarnonaviy texnologiyalarni sinash va ularni rivojlantirish;
- O'quv jarayoniga innovatsiya texnologiyalarini qo'llash;
- Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalilanilgan holda masofaviy o'qitish tizimini takomilashtirish,

Masofadan videokonferensiya tizimini qo'llash yordamida interaktiv o'quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya'ni interfaol usulda ma'ruzalarni o'qish, seminarlar tashkil etish, savollarga javoblar va hokazo.

Interfaot forma – masofadan videokonferensiya o'qitish tizimi, masofadan turib Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan farq qiladi, xuddi radiodan va televideniyadan ma'ruza o'qish kabi. Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo'llashda o'qituvchi doskaga yozadi va bu videokonferentsaloqa ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi. Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari inumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan proffessor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Darslarni masofaviy o'qitishning videokonferensiya tizimidan foydalanish alohida talablar asosida tashkil etiladi. Birinchidan, o'quvchilar uchun ham o'qituvchi uchun ham alohidagi talablar qo'yiladi. Efir vaqtini tejash maqsadida, o'qituvchi avvaldan o'tadigan mavzularini taqdimot materiallar ko'rinishida tayyorlab olishi talab etiladi. Masofaviy o'qitishning videokonferensiya tizimida o'qituvchi o'zini xuddi sahnadagi aktyor kabi his etishi va tinglovchilar ham oldindan darsni o'zlashtirish jarayoniga tayyor turishlari talab etiladi. Tinglovchilarga ma'ruza bilan oldindan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, masofadan o'qitishning videokonferensiya tizimi o'rnatilgan auditoriya maxsus jihozlangan bo'lishi kerak: qorong'ulashgan xona, oval formadagi tinglovchilar stoli va terminal kamera qurilmasi to'liq xonani va elektron doskani ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Masofadan o'qitishning videokonferensiya tizimidan foydalanish ishtirokchilar uchun axborot almashishda qulaylik yaratadi va ortiqcha xarajatlarni qisqartiradi.

Videokonferensiya – bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar almashadi.

Videokonferensiya tarixi 1964-yil AT&T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Videophone (real vaqtda ovoz va tasvirni almashish) qurilmasidan boshlanadi.

Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

a) videokonferensiyanı amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari,

b) videokonferensiyanı o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

Videokonferensiya nima uchun kerak?- degan savolga quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin. Insonlar kundalik hayotida olayotgan ma'lumotlarni 80-85%ni ko'rish orqali oladi. Shuningdek, boshqaruv ishlari, meditsina, masofaviy ta'lim va boshqa jabhalarda videokonferensiyanı ahamiyati juda muhim. Minglab kilometr masofadagi shaxslarni real vaqtida muloqotini oshirish ham vaqt, ham iqtisodiy tejamkorlikka olib keladi.

Videokonferensiyanı tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak? Videokonferensiyanı amalga oshirishda ISDN, V.35, E1/T1 aloqa kanallaridan va IP tarmoqdan foydalaniлади. ISDN aloqa kanali 256 – 512 kbit/s, IP tarmoq 512 – 1024 kbit/s tezlikka ega bo'lishi tavsiya etiladi. 200 – 300 kbit/s tezlikda tasvir tiniqligi va almashish o'rtacha holatda bo'ladi. Tasvir va ovozni almashish uchun maxsus videokodeklardan feydalaniladi. Bu qurilmalardan tashqari videokonferensiyanı tashkil etishda quyidagi qurilmalar lozim bo'ladi:

1. **Ko'ptugunli videoserverlar** (MCU, Multipoint Control Unit). Videoserverlar bir vaqtini o'zida bir necha tugunlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lab, tasvir va ovozlarni tez uzatishda qo'llaniladi. Videoserverlar asosan ikki holatda ishlaydi: a) ovoz aktivligi bo'yicha - bunda barcha ishtirokchilar bir vaqtida faqat gapirovotgan tomon bilan muloqotda bo'la oladi; b) ekran mayda bo'laklarga bo'lingan holda barcha ishtirokchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladi.

2. **Maxsus videokameralar.** Bu qurilmalar tasvirni uzatish vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda Canon, Genius, Axis, Sony kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan kameralar sisati va imkoniyati jihatidan alohida ajralib turadi. Asosan kameralar vertikal bo'ylab 30 dan 90 gradusgacha, gorizontal bo'ylab deyarli 360 gradus ko'rish chegarasiga ega. RS-232 razyomi orqali ularni kompyuterga ulash bilan birqalikda, kameralar tarmog'ini ham hosil qilish mumkin.

3. Kolonkalar va mikrofonlar. Kolonkalar ovozni eshitish uchun mo'ljallanib, stereo kolonkalardan foydalaniлади. Kolonkalar quvvati xona kengligiga qarab tanlanadi. Mikrofonlar sifatida yuqori sifatli yakka va tarmoqqa ulangan mikrofonlardan foydalaniлади. Tarmoqqa ulangan mikrofonlar ketma-ketligi umumiy va alohida boshqaruvgaga ega.

4. Modemlar. Modemlar ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish vositasi sifatida foydalaniлади. Rad, Linksys, UsRobotics kompaniyalaring IDSL modemlaridan keng foydalaniлади. Modemlar just ho'latda maxsus ajratilgan tarmoq orqali aloqani ta'minlaydi.

5. Multimediali proektorlar va monitorlar. Bu qurilmalar tasvirni kattalashgan holatda ko'rish imkonini beradi. Bir vaqtда multimediali proektor va monitorlarga oddiy kompyuter monitorini ularshimiz mumkin. Asosan 27 yoki 29 dyuymli monitorlardan foydalaniлади.

Videokonferensiya tizimini texnik qurilmalar va dasturiy vosita bilan ta'minlovchi VCON, Polycom, RADVision, Avaya kompaniyalari mahsulotlaridan foydalaniлади.

Videokonferensiya respublikamizda tashkil etilganmi?

Toshkent davlat peagogika universiteti VCON, Sanon, RADVision kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan videokonferensiya qurilmalari va UZNET provayderi aloqa kanalidan foydalangan holda, respublikamizning bir qancha OTMlari bilan videokonferensiya aloqasini amalga oshirmoqda. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari, Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, Guliston Davlat universiteti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti, Navoiy davlat konchilik instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti kabi OTMlarni misol keltirishimiz mumkin.

Elektron konferensiylar. Telekonferensaloqa. Masofaviy ta'limda elektron konferensiylar o'rni haqida to'xtalib o'tamiz. Elektron konferensiylar (ularni kompyuterli konferensiya deb ham ataladi) bu kompyuter monitorida bir-biridan turlicha uzoqlikda bo'lgan «konferensiya» qatnashchilari tomonidan uzatilgan xabar yoki ma'lumotlarning matmini (eng kamida) olish imkonini beradi, bunda ish joyining qurilmalar bilan jihozlanishi elektron pochta kabi bo'ladi. Videotelefonlar videokonferensaloqadan o'lchamning chegaralanganligi va vizual axborotni namoyish etish sifati va

kompyuter ilovalarini real vaqtda ishlatish imkoniy yo‘qligi bilan farq qiladi. Bu sinf yangi axborot texnologiyalarining didaktik xossalari tasvir, ovoz, grafikani real vaqtda uzatish imkonini va talabalarga o‘quv maqsadlari uchun ko‘rsatish imkonini o‘z ichiga oladi. Bu xossalari o‘qitishning an’anaviy shaklida tuzilgan ma’ruza, seminar va nazorat tadbirlarini o‘quv jarayonida to‘la holicha qo’llash imkonini beradi.

Telekonferensiya. Telekonferensiya (teleconferencing) – ikki va undan ortiq guruh qatnashchilarining o‘zaro muloqotini tashkil etish uchun elektron aloqa kanallaridan foydalanish jarayonidir. *Telekonferensiya o‘zida audiokonferensiya* (audioconferencing), *videokonferensiya* (videoconferencing) va *kompyuter konferensiyalari* (computerconferencing) kabi texnologiyalarni mujassamlashtiradi.

Kompyuter texnologiyalarining o‘quv jarayonida asosli qo’llashning yana bir muhim jihatasi, real jarayonlar va eksperimentlarning kompyuter modelini yaratish bilan aloqadorligidir. Kompyuter yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash, model va natijalarning namoyishi, ko‘p hollarda, qimmat turadigan eksperimental qurilmalarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rnini bosadi, ayrim hollarda (atom va kvant fizika, yarim o‘tkazgichlar, kimyo, biologiya, tibbiyot va boshqa fanlardagi jarayonlarni modellashtirish) jarayonni namoyish eushning yagona usuli sanaladi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti bo‘yicha ma’lumotlar umumta’lim maktablarining 9-sinf darsligida o‘rin olgan. Bu mavzu keng qamrovli bo‘lib, unda istiqlol davri adabiyoti nasri, she’riyati va dramaturgiysi qamrab olingan. Aynan mana shu mavzu bo‘yicha videokonferensiya tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Videokonferensiyanı tashkil etish uchun bizga qurilmalar ISDN, V.35, E1/T1 aloqa kanallariga va IP tarmoqqa ularish talab qilinadi. ISDN aloqa kanali 256 – 512 kbit/s, IP tarmoq 512 – 1024 kbit/s tezlikka ega bo‘lishi tavsiya etiladi. 200 – 300 kbit/s tezlikda tasvir tiniqligi va almashish o‘rtacha holatda bo‘ladi. Tasvir va ovozni almashish uchun maxsus videokodeklardan foydaliladi. Videokodeklar PCI plata sifatida kompyuterga o‘rnataladi. Shuningdek, masofadan o‘qitishning videokonferensiya tizimi o‘rnatalgan auditoriya maxsus jihozlangan bo‘lishi kerak: qorong‘ulashgan xona, oval formadagi tinglovchilar stoli va terminal

kamera qurilmasi to'liq xonani va elektron doskani ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo'llashda o'qituvchi doskaga mavzuni yozadi – “**Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti**” va bu videokonferensaloqa ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi. Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan proffessor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

O'qituvchi ma'ruzasi tinglanadi:

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ong va tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Bugungi badiiy ijod bilan shug'illanayotgan kishilar shaxs sifatida ham, ijodkor sifatida ham tamomila o'ziga xos xilma-xil kishilardir. Isatiqloldan keyingi davrda haqiqiy adabiyot o'z ko'ngliga qarshi bormaydigan, vijdoni buyurganini yozadigan ijodkorlar tomonidan yaratilmoqda. Bu davr o'zbek yozuvchilarining ijodini xalq dardining ifodasi deyish mumkin. Shuning uchun ham istiqlol davri adabiyoti millat manfaatini aks ettiruvchi adabiyotdir¹.

Shu tariqa o'qituvchining mavzu bo'yicha ma'ruzasi maxsus qurilmalar orqali boshqa auditoriyalarga uzatiladi.

Xuddi shu mavzu bo'yicha videokonferensiyanı boshqacha usulda tashkil etish mumkin. Bunda uchta ta'lim muassasasi hamkorlikda videokonferensiya loyihasi ishlab chiqiladi. Birinchi ta'lim muassasasi istiqlol davri o'zbek she'riyati boyicha loyihamda ishtirok etadi. Ikkinci ta'lim muassasasi istiqlol davri nasri bo'yicha ma'lumotlarni jamlaydi. Uchinchi ta'lim muassasasi esa mustaqillik davri dramaturgiyasiga e'tabor qaratadi. Uchta ta'lim muassasasi hamkorligida mavzu boyicha to'plangan axborotlar bir vaqtning o'zida uchta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun samarali bo'ladi.

¹ Qarang: Yo'ldoshev Qozoqboy. Adabiyot. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. --T.: Yangi yo'l poligraf servis. 2014. 183-197 betlar.

Birinchi ta'lim muassasasi:

Ko‘p asrlik o‘zbek she’riyati hozirda ham davr ruhini, zamondoshlarga xos tuyg‘ularni aks ettirishda yetakchilik qilmoqda. U hamon milliy adabiyotimizning yetakchi turi hisoblanadi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro‘z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Rauf Subxon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Tursun Ali, O‘ktamoy, Xosiyat Rustainova singari shoirlarning she’rlarida olam hodisalari va odamning ko‘ngil holatlarini shoirona ko‘z bilan ko‘rish yangi bosqichga ko‘tarildi.

R. Parfining “Adashgan ruh”, “Qora devor”, “Munojot”, Sh. Rahmonning “Turkiylar”, “Iqror”, A. Suyunning “Istig‘for”, “Oq va qora”, A. Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at”, A. Saidning “Tush”, “Yo‘l”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Oyloq kecha” kabi she’riy asarlari mustaqillik davri o‘zbek nazmining yetuk namunalaridan hisoblanadi. Bu she’rlar shakily izlanishlar qilishga, ijodiy tajribalar o‘tkazishga moyilligi, Chiqish va Botish poeziyasining eng ilg‘or yuqularidan samarali foydalilanligi bilan ajralib turadi. Masalan: Zebo Mirzoning bir she’rida:

Urimni o‘tkinchi saboga berdim,
Eng so‘nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni xudoga berdim...
Sabo olib bordi, gadoga berdi
Gado yig‘ib bordi gadoga berdi.
Xudo meni senga - xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?

Shu o‘rinda, o‘qituvchi she’rni tahlil yuzasidan o‘quvchilarga murojaat qiladi. O‘quvchilarning tahlillari tinglanadi.

Ikkinci ta'lim muassasasi:

Istiqlol davri nasri ham bugungi adabiy jarayonning salmoqli turidir. Hozirgi adabiy jarayonda Sh. Xolmirzayev, O‘. Hoshimov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tohir Malik. Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘s, Asad Dilmurod, Normurod Norqobilov, Xurshid Do‘stmuhhammad, Ahmad A‘zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Luqmon Bo‘rixon, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘sinda yaratgan asarlari milliy nash taraqqiyotini ta‘minlamoqda.

N. Eshonqul – milliy istiqlol davri o'zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingen shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan tasviridan tashqari, ohangning o'zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu taxlit ko'p qatlamlı, zalvorli, hikoya maromining o'zi bilan badiiy kayfiyat hosil qila oladigan nasr namunasi milliy aqabiyyotimizda yo'q edi. N. Eshonqul nasmizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir.

Shu o'rinda, o'qituvchi istiqlol davri o'zbek nasrinining o'ziga xos yutuqlarini o'qivchilar bilan birgalikda tahlil qiladilar.

Mustaqillik davri dramaturgiysi. O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar bugungi dramaturgiya taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", Ilhom Hasanning "Bir kam dunyo", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi.

Xuillas, mustaqillik davri adabiyoti sog'lom tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Hozir yaratilayotgan turli janrlardagi asarlarda zamondoshlar ruhiyatini tasvirlashning eng ta'sirchan usullarini kashf etishga jiddiy e'tibor berilayapti.

Videokonferensiya yakunida uch ta'lim muassasasi o'qituvchi va ialabalari o'zaro axborot almashish bilan bir qatorda istiqlol davri o'zbek adabiyotining o'ziga xosliklari, yutuqlari, muammolarini tahlil qiladilar. O'zaro baxs-munozaralar orqali aniq ilmiy-nazariy xulosalarga keladilar. Aynan shu jarayonning o'zi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Videokonferensiya nima?
2. Videokonferensiyani tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak?
3. Videokonferensiya respublikamizda tashkil etilganmi?
4. Elektron konferensiya nima?
5. Telekonferensaloqa qanday amalga oshiriladi?
6. Mustaqillik davri she'riyatini o'rganishda qanday

videokonferensiya darslarini tashkil etish mumkin?

7. Videokonferensiya darsi loyihasini tuzing?

Asosiy tushunchalar:

Videokonferentsaloqa (Видеоконференцсвязь, Video conferencing) - real vaqtida ma'lum masofadagi ikki guruh orasida audio- va video ma'lumotlarni almashishni ta'minlash imkoniyatini beruvchi elektraloqa va kompyuter tarmoqlari xizmati.

Videokonferensiya (Видеоконференция, Video conference)- Videokonferentsaloqa yordamida tashkil qilinadigan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi interaktiv faoliyat.

Videokonferensiya – bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtida ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi.

Videokonferensiyanı tashkil etivchi qurilmalar - ISDN, V.35, E1/T1 aloqa kanallaridan va IP tarmoqdan foydalaniladi. ISDN aloqa kanali 256-512 kbit/s, IP tarmoq 512-1024 kbit/s tezlikka ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Ko'ptugunli videoserverlar (MCU, Multipoint Control Unit) – bir vaqtin o'zida bir necha tugunlarni o'zaro bir biri bilan bog'lab, tasvir va ovozlarni tez uzatishda qo'llaniladi.

Maxsus videokameralar -bu qurilmalar tasvirni uzatish vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda Canon, Genius, Axis, Sony kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan kameralar sifati va imkoniyati jihatidan alohida ajralib turadi.

Kolonkalar va mikrofonlar -kolonkalar ovozni eshitish uchun mo'ljallanib, stereo kolonkalardir. Kolonkalar quvvati xona kengligiga qarab tanlanadi. Mikrofonlar yuqori sifatlari yakka va tarmoqqa ulangan mikrofonlardir.

Modemlar - ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish vositasi.

Multimediali proektorlar va monitorlar - bu qurilmalar tasvirni kattalashgan holatda ko'rish imkonini beradi.

Elektron konferensiylar (ularni kompyuterli konferensiya deb ham ataladi) bu kompyuter monitorida bir-biridan turlicha uzoqlikda bo'lgan «konferensiya» qatnashchilari tomonidan uzatilgan xabar yoki ma'lumotlarning matinini (eng kamida) olish imkonini beradi, bunda ish joyining qurilmalar bilan jihozlanishi elektron pochta kabi bo'ladi.

Telekonferensiya - (teleconferencing) – ikki va undan ortiq guruh qatnashchilarining o`zaro muloqotini tashkil etish uchun elektron aloqa kanallaridan foydalanish jarayonidir.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. // Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent. “Sharq”. 1997. 20-29 betlar.
2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. //Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent. “Sharq”. 1997. 31-61 betlar.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi farmoni.

19- MODUL: O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI O'QITUVCHISINING SHAXSIY VA KASBIY AXBOROT MAYDONI

PEDAGOGNING PORTFOLIOSI HAQIDA TUSHUNCHА

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish ijodiy fikrlovchi, ta'larning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo'llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda pedagoglarga nisbatan o'zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o'quv, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzlusiz oshirib borishda o'zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, pedagog kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog'liq.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ma'lumotlar bazasi va talabalar bilan o'quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunday vazifalar pedagog kadrlarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni taqozo etadi.

"Portfolio" tushunchasi XV – XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan.

Portfolio (ingl. – portfel, zarur ishlar va hujjatlar uchun papka. frans. – bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq. **ital.** – hujjatlar solingan papka) – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plamidan iborat.

Pedagogning portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- pedagogning ma'lum bir vaqt oraliq'ida erishgan kasbiy yutuqlari va faoliyat natijalarini qayd etish *usuli*;
- faoliyati davomida kasbiy sohadagi erishilgan yutuqlarini namoyish etuvchi *majmua*;
- pedagogning dars berayotgan fani bo'yicha o'quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi *vosita*;

Pedagogning portfoliosi ta'lif muassasalari rahbariyati uchun o'qituvchilarining ish faoliyati unumdarligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomeni o'qituvchilarni o'z-o'zini kuzatish va o'z ustida ishlashi uchun muhim vosita hisoblanadi. Portfolio joriy etilishi bilan pedagogik faoliyatni baholashning va o'z-o'ziga baho berishning ko'p funksiyali vositasи shakllanadi. Bunda portfolio qator pedagogik masalalarni yechishda yordam beradi:

- ta'lif berishda yuqori motivatsiyani rivojlantirish;
- talabalarning mustaqil ta'limi va o'z ustida ishlashga intilishni oshirish;
- uzluksiz rivojlanishni rag'batlantiruvchi omilni joriy etish;
- bilimlarning samarali o'zlashtirilishiga intilish;
- pedagogik faoliyat natijalarini tashxis qilish.

Bundan tashqari portfolio o'qituvchiga o'z yutuqlarini yanada kengroq va xilma-xil taqdim etish imkonini beradi¹.

«The Teaching Portfolio» kitobi muallifi Peter Zeldin fikriga ko'ra o'qituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Portfolio – o'qituvchining kasbiy faoliyatida turli pedagogik masalalarni hal eta olish malakalarini ko'rsatuvchi, shuningdek, o'qituvchining professionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallarni qamrab oladi².

Portfolio quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- portfolio sayti (sayt ko'rinishidagi portfolio);
- veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- elektron taqdimot;
- natijalar papkasi.

¹ Qarang: <http://www.uchportal.ru/>

² Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 35 p.

Elektron portfolio ko'rgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlar va afzalliliklarga ega:

- zamonaviyligi;
- tezkorligi (kerakli o'zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- funksionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkas-mutaxassislarga, qiziquvchilarga o'z tajribasini namoyish etish imkoniyati) hamda o'z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o'zida doimiy ravishda to'ldirib borish mumkin bo'lган raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- effektivligi (o'qituvchini o'z-o'zini baholashi, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish);

Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet izimining o'quv jarayoniga keng joriy etish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo'lga qo'yish orqali samara berishi mumkin. Shuning uchun portfolioni tarmoqda *saytportfolio* sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Portfolioning bir qancha turlari mavjud bo'lib, **birinchi turi** – o'qituvchining erishgan natijalarini portfoliosidir. U uch qismdan iborat bo'lishi mumkin: 1. Hujjatlar, 2. Bajarilgan ishlar, 3. Bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar.

Hujjatlar qismiga o'qishdag'i va ish jarayonidagi shaxsiy yutuqlari kiradi (yorliq, diplom, sertifikat, guvohnomalar). Bu o'qituvchining erishgan natijalariga baho berish imkoniyatini beradi.

Ishlar qismi – bu o'qituvchining ijodiy, tadqiqot va loyiha ishlarining to'plami, uning o'quv va ijodiy faoliyatining yo'nalishlari ifodalanadi.

Bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar qismi – bu o'qituvchining turli faoliyatga bo'lган munosabatining yozma tahlili (test xulosalari, retsenziyalar, rezyume va boshqalar) yig'ib boriladi.

Portfolioning **ikkinci turi** – refleksiv portfolio, u o'qituvchining kasbiy rivojlanish dinamikasini o'zida jamlaydi. Unda o'qituvchining o'z ishiga bergen bahosi va o'quv ishlarining

natijalari, jatayoni va maqsadlari tahlillari o'rin oladi. O'z ish faoliyatiga baho berish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kuzatish kundaliklarini olib borish samarali vosita hisoblanadi.

Portfolioning **uchinchi turi** – muammolar portfoliosidir. Unda ma'lum bir muammoni yechish maqsadida to'plangan ma'lumotlar, muammoni yechish jarayoni va natijalari yig'ib boriladi. Portfolioning bu turi o'qituvchining tahlil – sintez – baho berish darajasida anglatadi. Bunday portfolioda ma'lumotlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yig'ib borish tavsiya etiladi:

- muammoni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati;
- kichik mavzular, muammo doirasi, tadqiqot rejasi;
- muhokamadagi nuqtai nazarlar;
- sitatalar, aforizmlar;

Portfolioning **to'rtinchi turi** – mavzuviy - biron katta mavzuni o'rganish jarayonida yaratiladi. Bunday portfolioda asosan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan olingan ma'lumotlar, qo'shimcha manbalar, mavzuga oid muammoli vaziyatlar yaratish uchun to'plangan ma'lumotlar o'rin oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, portfolio o'qituvchining shaxsiy yutuqlarini to'plash va baholash vositasi bo'lish bilan birlgilikda, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini monitoringi uchun maxsus tashkil etilgan tizimiyl dalillar to'plami, o'zini-o'zi bilish vositasi, nisbiy o'sishni aniqlash (o'ziga nisbatan o'sish). fikrlash darajasining o'zgarishini o'lchash, o'quv jarayoni bo'yicha hisoboti hamdir.

Shaxsiy kompyuter afzalliklari:

- atrof-muhit sharoitlariga nisbatan maxsus talablar qo'yilmagan tarzda muxtor ishlatalishi;
- ishining o'ta ishonchliligi (5 ming soatdan ortiq ishlashi);
- arxitekturaning o'zgaruvchanligi, ya'ni fan, ta'limot, boshqaruva maishiy turmush sohalarida turlicha qo'llanilishga moslasha oladigan o'zgaruvchanligi;

PEDAGOGNING ELEKTRON PORTFOLIOSI TIZIMI (<http://portfolio.bimm.uz/>)

Pedagogning elektron portfoliosi uning kasbiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq resurslar, talabaiarning fan bo'yicha ma'lumotlarni olishlari, nazorat

topshiriqlari hamda talabalar bilimini o'zlashtirish monitoringi natijalarini qayd etish imkoniyatini beruvchi tizim sifatida shakllantirildi.

Rasm 1. Elektron portfolioning bosh sahifasi ko'rinishi



Mazkur jarayonda pedagoglarning elektron portfolio yaratishdagi faoliyatini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: birinchidan, pedagoglar portfoliosi dasturiy platformasi yaratiladi va uning imkoniyatlari bilan barcha pedagoglar tanishtiriladi;

– ikkinchidan, pedagoglar o'zlariga tegishli kasbiy ma'lumotlar va ta'lim resurslarni shakllantirib dasturiy platformaga joylashtirishiari tashkillashtiriladi;


– uchinchidan, elektron portfolioning axborot xavfsizligini ta'minlagan holda uning doimiy, uzlksiz faoliyatini yo'liga qo'yish, resurslarini muntazam yangilanib borishini ta'minlash, foydalanuvchilar uchun maxsus kirishlarni tashkillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi portalı tarkibida "Pedagog portfoliosi" dasturiy platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi¹

¹ Qarang: <http://portfolio.bimm.uz/>

Mazkur platformaning vazifasi oliy ta'limga muassasalarini pedagoglarining yagona markazlashgan portfoliosini joriy etish, ular uchun kasbiy faoliyat natijalari va tegishli fanlari bo'yicha ta'limga resurslarini yaratish imkoniyatini yaratish va pedagogik faoliyatning kompleks monitoringini tashkil etishdan iborat. Portfolio uch qismdan tashkil topgan:

Birinchi qismda pedagogning malaka oshirish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlar joy olgan. Bu ma'lumotlar pedagog tomonidan kiritilmaydi. Oliy ta'limga tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarida tinglovchi sifatida ro'yxatdan o'tgan pedagoglarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida ma'lumotlar tizimga avtomatik tarzda yig'ilib boriladi. Bu ma'lumotlarga tinglovchi anketasi, uning kunlik davomati, kirish va chiqish testi natijalari, malakani himoya qilish ishi mavzusi va bali, qoldirilgan dars soatlari, olingan diplom, sertifikat yoki ma'lumotnomaga nomeri va hokazolar kiradi (*2-rasm*). **Pedagogning malaka oshirganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.**



2-rasm

Portfolioning ikkinchi qism pedagogning kasbiy faoliyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, bu qismdagi ma'lumotlar berilgan login va parol asosida uning shaxsiy kabinetida tegishli bo'limlarga shaxsan pedagog tomonidan davriy to'ldirilib boriladi (*3-rasm*). **Kasbiy faoliyat natijalarini kiritib borish sahifasi.**

PORTFOLIO



Rasm 3.

Bu ma'lumotlar asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarga bo'lingan. Asosiy ma'lumotlar pedagogning kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

O'quv va o'quv – metodik faoliyati:

- – o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishdagi ishtiroki; dars beradigan fanlari ro'yxati; fanlarning namunaviy dasturlarini yaratishdagi ishtiroki;
- – o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi faoliyati;
- – nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining mavjudligi.

Ilmiy – tadqiqot faoliyati:

- – ilmiy daraja va unvonining mavjudligi; monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi;
- – Respublika va xalqaro miqiyosdagi ilmiy konferensiyalardagi tezislari mavjudligi;
- – mablag' bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ishtiroki; patentlar, ixtiolar va ratsionalizatorlik takliflarining mavjudligi;

Tashkiliy - metodik faoliyati:

- – umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va Xalqaro olimpiada, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda

g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarinig mavjudligi; ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi.

○ Qo'shimcha ma'lumotlar portfoliodagi sahifaning personallashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagilardan tashkil topgan:

- – portfolio sahifasidagi parolni o'zgartirish;
- – portfolio sahifasidagi rasmni o'zgartirish;
- – portfolio sahifasidagi ahketa ma'lumotlarini o'zgartirish.

Portfolioning uchinchi qismida pedagoglar o'zlarining fanlari bo'yicha sillabus va boshqa o'quv materiallarini kiritib boradilar (4-rasm). *Pedagogning ta'lim resurslari sahifasi ko'rinishi*



Rasm 4.

Bu materiallardan faqatgina ruxsat etilgan talabalarga foydalana oladilar. Buning uchun talabalar ham albatta tizimga ro'yxatdan o'tgan bo'iishlari talab etiladi. Shuningdek, talaba va pedagog o'rtasida virtual muloqotni yaratish maqsadida "chat" (yozishmalar) tizimi ham joriy qilingan (5-rasm). "**Chat (yozishmalar)**" oynasi ko'rinishi.

PORTFOLIO



Rasm 5.

ELEKTRON PORTFOLIO BILAN ISHLASH VA UNI SHAKLLANTIRISH

Professor-o'qituvchilar o'zlarining elektron portfoliolariga (ularga berilgan maxsus login) kirganida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

1. “**Pedagog**” menyusining “**Sozlovlar**” qismiga o'tadilar. “**Sozlovlar**” qismi olti punktdan iborat bo'lib, unda o'qituvchilar quyidagi amallarni bajaradilar:

a. “**Parolni o'zgartirish**” – elektron portfolio tizimidagi shaxsiy parolni o'zgartirish. Buning uchun “**Joriy parol**” maydoniga joriy parolni, “**Yangi parol**” va “**Parolni takrorlang**” maydoniariga o'rnatilmoqchi bo'lgan yangi parolni ikki marta kiritiladi hamda tasdiq kodini kiritib “**Parolni saqlash**” tugmasi bosiladi;

b. “**Rasmni o'zgartirish**” – portfolioda aks etadigan rasm blankasining o'miga o'zining rasmini o'rnatish. Bunda ikki usul mavjud:

1. “**Rasmni yuklash**” qismini tanlanadi va hajmi 512 Kb dan oshmaydigan “.jpg” formatdagi rasmini ma'lumot tashuvchi (kompyuter xotirasи, CD yoki DVD disk, flesh xotira) dan tanlab, “**saqlash**” tugmasini bosiladi;

2. Agar kompyuter yoki noutbukda veb-kamera mavjud bo'lsa "Veb kameradan rasm tushirish" qismini tanlab, "**Capture**" so'ng "**Upload**" tegmalarini bosib rasm o'zlartiriladi.

c. "**Shaxsiy ma'lumotlarni tahrirlash**" – portfoliodagi anketa (anketa, kasbiy va qo'shimcha) ma'lumotlarini tahrirlash. Bunda har bir maydonni diqqat bilar tanishib, xato yoki o'zgargan ma'lumotlar mavjud bo'lsa uni tahrirlab tasdiq kodi kiritiladi va "**Saqlash**" tugmasi bosiladi;

"Sozlovlar" menyusining keyingi uch qismi professor-o'qituvchining kasbiy faoliyati natijalari asosida to'ldiriladi.

d. "**O'quv va o'quv-metodik faoliyat**" – bu bo'lim to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:

1. "Petentlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari";

2. "Model va dasturlar yaratishdagi ishtiroki";

3. "Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishga doir o'quv-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi ishtiroki";

4. "Nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalar".

e. "**Ilmiy tadqiot faoliyat**" – bu bo'lim uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:

1. "Monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi";

2. "Rеспублика илмий конференциялардаги тезислар";

3. "Mablag' bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishidagi ishtirok".

f. "**Tashkiliy-metodik faoliyat**" – bu bo'lim ikkita tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:

1. "Urumumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va xalqaro olimpiada, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalar";

2. "Ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi".

Professor-o'qituvchida yuqoridaq faoliyat natijalaridan qaysilari mavjud bo'lsa o'sha qismni tanlaydi va shu faoliyat natijasi haqidagi ma'lumotlarni kiritish formasi hosil bo'ladi. Unda faoliyat turlaridan kelib chiqib bir-biridan biroz farq qiluvchi ma'lumotlarni (Manba nomlanishi, nashr yili, hammualliflar soni) va tasdiqlovchi hujjat

nusxasini kiritish maydonlari mavjud bo‘ladi. Ma’lumotlar va hujjat nusxasini kiritib “Saqlash” tugmasini bosish orqali kasbiy faoliyat natijasi haqidagi ma’lumotlar to‘ldirib boriladi.

2. “Pedagog” menyusining “Fanlarim” qismida professor-o‘qituvchilar o‘zлari dars berayotgan fanlari haqidagi ma’lumotlar, fan sillabusi va turli elektron mabalarni kiritishlari mumkin Buning uchun dastlab “Fan qo’shish” tugmasini bosish orqali yangi fan haqidagi ma’lumotlarni kiritish formasiga o‘tiladi. Ushbu formada “OTM”, “Kafedra”, “Yo‘nalish”, “Fan o‘qitiladigan til”, “Fanning nomlanishi” va “Fanning sillabusi”ni kiritilib “Saqlash” tugmasi bosiladi.

Fan haqidagi ma’lumotlar kiritilgandan so‘ng, fanlar ro‘xatidan yangi kiritilgan fanni tanlanadi. Bunda ikkita “Sillabus” va “Manbalar” nomli qismlardar iborat oyna ochiladi. Bu oynaning “Manbalar” qismiga o‘tib “Manba qo’shish” tugmasi bosiladi va fanga elektron formatdagi manbalar (fanning o‘quv va ishchi dasturlari, nazorat savollari, taqdimotlar, ma’ruza matnlari va h.) kiritiladi.

“Pedagog” menyusining “Yozishmalar” qismida professor-o‘qituvchilar o‘zлarining talabalari tomonidan berilgan savollarga javob berishlari yoki fikr almashishlari mumkin.

Shunday qilib, taklif etilayotgan elektron portfolio pedagoglarning kasbiy faoliyatlari monitoringini olib borish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagoglar va talabalarning virtual muloqotini tashkillashtirish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagoglarda ahamiyatli kasbiy natijalarni namoyish etish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi hamda portfolioda to‘plangan ma’lumotlar pedagogning kasbiy guvohnomasi sifatida shakllanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Portfolio so‘zining ma’nosini nima?
2. Portfolio atamasidan dastlab qayerda va qaysi sohalarda qo‘llanilgan?
3. Portfolioning qanday turlari mavjud?

4. www.portfolio.bimm.uz portfolio tizimi qanday qismlardan tashkil topgan?
5. Portfolioga qanday ma'lumotlar joylashtiriladi?
6. Pedagog portfoliosini o'rganib chiqing?
7. O'z shaxsiy portfoliongizni yaratishga harakat qiling?

Asosiy tushunchalar:

Portfolio (ingl. – portfel, zarur ishlar va hujjatlar uchun papka. frans. – bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq. ital. – hujjatlar solingen papka) – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plamidan iborat.

Portfolioning taqdimot shakli – ma'lumotlarni ko'rgazmali tarzda namoyish etishni arnalga oshiradi.

Sayt-portfolio shakli – ko'proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi.

Pedagogning elektron portfoliosi - uning kasbiy ko'sratkichlari bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq resurslar, talabalarning fan bo'yicha ma'lumotlarni olishlari, nazorat topshiriqlari hamda talabalar bilimini o'zlashtirish monitoringi natijalarini qayd etish imkoniyatini beruvchi tizim.

Shaxsiy kompyuter – atrof-muhit sharoitlariga nisbatan maxsus talablar qo'yilmagan tarzda muxtor ishlatalidigan kompyuter.

Klaviatura – (nem. *klaviatur*, lat. *clavis* – kalit), muayyan tartibda joylashtirilgan klavishlar to'plami bo'lib, kompyuter ichiga sonli, matnli axborotni va boshqarish axborotini kiritish uchun mo'ljallangan.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish – ijodiy fikrlovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayoni mustaqil loyihalash usullarini qo'llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirish.

Adabiyotlar:

1. Aldjanova. O‘quv portfoliosi – bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompitentlikni shakllantirish vositasi sifatida. Pedagogik ta’lim jurnalı. 2012- yil. 4-son. 46-bet.
2. S.Musayeva. Portfolioning maqsad va mohiyati .|| Pedagogik ta’lim jurnalı. 2013 yil. 1-son. 20-bet.
3. www.portfolio.bimm.uz– elektron portfolio tizimi.
4. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 35 p.

“O’ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARI” FANI BO‘YICHA GLOSSARIY

Animatsiya (Анимация, Animation) – Bir necha tasvir yoki kadriarni ko’rsatish orqali yaratiladigan harakat taqlidi.

Axborot texnologiyalari (информационные технологии, information technology) – axborotni o’zgartirish, qayta ishslash usul va vositalari yig‘indisidan iborat.

Elektron darslik (электронный учебник, e-manual) – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o’qitish metodlaridan foydalanishga mo’ljallangan o’qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin.

Elektron darsliklarning nazorat qiluvchi qismi (контролирующая часть электронного учебника, controlling part of e-manual) – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Elektron darslikning mashq qildiruvchi qismi (упряжняющая часть электронного учебника, chapter of e-manual that makes exercises) – xatolarni ko’rsatib beruvchi va to‘g‘ri xulosaga olib keluvchi qismi.

Elektron darslikning o‘rgatuvchi qismi (обучающая часть электронного учебника, educational part of e-manual) – gipertekstga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.

Elektron ensiklopediya – elektron o‘quv qo’llanmaning ombor ko‘rinishidir. Tuzilish sathida entsiklopediya atamasi ma’lumot, elektron o‘quv qo’llanmada markazlashtirilishi tushunchasini beradi.

Elektron kitob (электронная книга, e-book) – gipertekstli yoki gipermedia sistema, serverda yoki kompakt-diskda joylashgan bo‘ladi.

Elektron kutubxona (электронная библиотека, E-library) – elektron kitoblar yig‘ilgan server.

Elektron matn (электронный текст, Electronic text) – Axborot tizimining xotirasiga yozilgan matn (hujjatlar, kitoblar, oynomalar, ma’lumotnomalar va h.k.). Elektron matnlari tizimlarda joylashgani sababli, o‘quvchilar (foydalanuvchilar) oldida yangi

imkoniyatlar ochiladi. Matnning ixtiyoriy tahlilini bajarish, kerak bo‘lgan qatorlar, xatboshi, bo‘lim va h.k.larni topish mumkin.

Elektron nashr – bu grafik, matn, raqamli, musiqali, video, foto va boshqa axborotlarni va yana foydalanuvchilar uchun bosma hujjatlar yig‘indisi. Elektron nashrdan elektron tashuvchilar – magnitli (magnit tasma, magnit disk), optik (CD-ROM, DVD, CD-R) va yana kompyuter tarmoqlarida foydanish mumkin.

Elektron o‘quv nashr – ilmiy malakaviy bilimlar maydonida tizimlashtirilgan materiallarda tashkil topgan bo‘lib, bu maydonda o‘quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o’stirib borish ta’minlanadi.

Elektron pochta (электронная почта, electronic mail) – kompyuter va tarmoq yordamida ma’lumotlarni uzatish vositasi.; tarmoqning eng omrnaviy xizmat turi bo‘lib, foydalanuvchilar o‘rtasida elektron xabarlar almashish imkoniyatini beradi.

Elektron pochta manzili (адрес электронной почты, electronic mail address) – elektron pochtaning har bir abonentiga ega bo‘lgan shaxsiy manzil. Tizimdagagi foydalanuvchi nomi, @ belgisi va pochta serveri ishga tushirilgan kompyuter nomidan tarkib topgan ketma-ketlik bilan belgilanadi.

Elektron pochta qutisi (ящик электронной почты, electronic mail box) – Internet tarmog‘i bo‘ylab xabarlar jo‘natish va qabul qilish uchun noyob tartib raqamidan (elektron pochta manzili) dan foydalanadigan dasturiy-texnika vositalari majmuasi.

Elektron test – Tashqaridan qaraganda u oddiy elektron o‘quv qo‘llanmaga o‘xshaydi. Asosiy qiyinchilikni savollarni yig‘ish va shakllantirish, savollarga javoblarni moslashtirish tashkil etadi

Gipermatn – bu matn elektron shaklda va belgilangan tizimlar aloqasining ko‘rinishi. U daraxt ko‘rinishida bo‘ladi.

Global tarmoq (глобальная сеть, global set) – turli qit’alardagi, mamlakatlardagi kompyuterlar birlashib, bog‘langan tarmoq.

Informatika (информатика, informatics) – ilmiy yo‘nalish, u EHM yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, qayta uzatish qonunlari va metodlari o‘rganiladi.

Informatsion jarayonlar (информационные процессы, information processes) – ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, qayta uzatish, izlash jarayonlari.

Informatsion texnologiya (информационная технология, information technology) – predmet sohasida ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, qayta uzatishning metodlari va vositalarini o'rjanuvchi ilmiy va injener bilimlar sistemasi.

Interaktiv dastur (интерактивная программа, interactive program) – foydalanuvchi bilan dialog rejimida ishlovchi kompyuter dastur.

Internet tarmog'ining asosiy xizmatlari (основные услуги интернета, main servises of the Internet) – WWW, HTTP, FTP, Chat, Elektron pochta.

Internet tarmog'ining ta'lif xizmatlari (образовательные услуги интернета, educational servises of the Internet) – elektron pochta, izlash tizimlari, elektron konferensiyalar, elektron entsiklopediyalar, masofaviy o'qitish tizimi.

Login (логин, login) – Foydalanuvchining lompyuter yoki tarmoqdan erkin foydalanish jarayoni.

Ma'lumolar bazasi (база данных, database) – aniq qoidalar bo'yicha tashkil qilingan ma'lutotlarning yagona sistemasi, ular ma'lumotlarni tavsiflash, saqlash va qayta ishslash prinsiplarini nazarda tutadi.

Ma'lumotlar (данные, data) – Rasmiylashtirilgan, ya'ni uzatish, izohlash va qayta ishslash uchun mos shaklda taqdim etilgan axborot.

Ma'lumotlar autentifikatsiyasi (автентификация данных, data authentication) – ma'lumotlar butunligini tekshirish uchun foydalaniladigan jarayon.

Ma'lumotlar banki (банк данных, databank) – Ma'lumotlar majmysi. Bu ma'lumotlar berilgan mavzuga tegishli bo'lib foydalanuvchilar bilan o'zaro ta'sir qila olishini ta'minlaydigan tarzda tashkil qilingan.

Ma'lumotlar bazasi serveri (сервер базы данных, Database server) – ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi server.

Ma'lumotlarni izlash (поиск данных, searching for data) – ma'lumotlarni aniq bir belgilar bo'yicha izlash.

Ma'lumotlarni yig'ish (сбор данных, Data capture) – ma'lumotlarni yig'ib ularni Kompyuterga kiritish jarayoni. Ma'lumotlarni yig'ish avtomatik tarzda yoki qo'l mehnati bilan amalga oshiriladi.

Metodik materiallarni tayyorlashda qo‘laniladigan dasturlar – amaliy va veb dasturlar. Metodik materiallarni tayyorlash dasturi – Blaknot, WordPad, Word, Latex.

Modem (модем, modem) – modulyatsiya, demodulyatsiya so‘zlaridan olingan bo‘lib, uzluksiz signallarni raqamli ma’lumotlarni uzluksiz signallarga almashtirib beradigan qurilma.

Moderator (Модератор, Moderator) – Forum, teleanjuman va chatlarda qoidalarga rioya qilishni nazorat qiluvchi yetakchi.

Moderator (модератор, Moderator) – elektron konferensiyalarni hamda tarqatmalar ro‘yxatini boshqaruvchi inson.

Multimedia galereyalari (мультидийная галерея, gallery of multimedia) – tovush jo‘rligidagi harakatlanuvchi suratlар to‘plami

Multimedia (мультидия, multimedia) – ovoz va video yozish imkoniyatini beruvchi kompyuter sistemalar.

Multimedia proektori (мультидийный проектор, protector of multimedia) – kompyuterdan, videokameradan, DVD diskлarni tasvirlochchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranda yoritib berishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalari (средства мультимедии, means of multimedia) – tasvirlar, videofilmlar, animatsiyali grafik obrazlar, matn, nutqli va ovozli tasvirlar matnlarni aks etiruvchi vositalar sistemasi.

O‘quv adabiyotining elektron shakli – o‘quv adabiyotlari materiallarini ma’lum bir kompyuter muharririda yoki uning arxivi shaklida axborotning elektron eltvuchilari (disketa, SD-disk, Flash Disk va boshq.) da taqdim etilishidir.

Offlayn (Off-line) – tarmoqqa ulanmagan (avtonom) holatda ishlash tartibi.

Ommaviy onlayn ochiq kurslar taqdim etayotgan internet ta’lim tizimlari – Coursera, EdX, Khan academy

Operatsion sistema (операционная система, operation system) – bosh boshqaruv dasturi.

Pedagogik dasturiy vositalar (педагогические программные средства, pedagogical programming means) – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki

to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan metodik talablar (требования, предъявляемые к педагогическо программным средствам, *methodical requirements that insisted on pedagogical programming means*) – pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqish dasturlari – Microsoft Front-Page (HTMLyper Text Markup Language), AlliareHomeSite (HTML), Microsoft PowerPoint, MicrosoftWord

Ssilka (ссылка, Link) – gipersilka.

Ta’limning informatsion texnologiyasi (информационная технология обучения, *Information technology of education*) – pedagogik texnologyaning maxsus turi bo‘lib, bunda maxsus dasturiy va texnik vositalardan (video, audio va videovositalar, kompyuterlar, telekommunikatsion tarmoqlardan) foydalaniлади.

Taqdimot (презентация, *presentation*) – diagramma, jadval, matn va boshqa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni maxsus dasturlardan foydalangan holda display, videoproektor kabilarda namoyish qilish uchun tayyorlash.

Videoilovalar (видеоприложения, *video exhibits*) – harakatlanuvchi tasvirlar ishlab chiqarish texnologiyasi va namoyishi.

**“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIMIDA ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
KURSI BO‘YICHA TEST SAVOLARI
TESTLAR**

1. “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish

B) Talabalarga pedagogik amaliy dasturlar haqida ma’lumot berish

C) Til va adabiyot ta’limi uchun elektron adabiyotlar yaratish

D) talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirish

2. “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fanning vazifasi nimalardan iborat?

A) Talabalarga o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o‘zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumot berish.

B) Chet el tajribasi haqida ma’lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

C) Axborot texnologiyalari dunyosida ilmiy va ta’limiy tadqiqot ishlaringin islohotlari haqida tasavvur hosil qilash

D) Bilimdon pedagog mutaxassis sifatida mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilishni o‘rgatishdan iborat.

3. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar – bu...

A) O‘zbekiston Respublikasii Konstitutsiyasida keltirilgan barcha qonunlar, Prezident farmonlari.

B) Barcha qonun hujjatlari

C) Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytildi

D) Xalqaro shartnomalar va davlat ish qog'ozlari

4. Ta'limdi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi qanday natijalarga olib keladi?

A) fan sohalarini axborotlashtirishga

B) fanning bir yoqlama rivojlanishiga

C) o'quv jarayonining faollashishiga

D) o'quv faoliyatini intellektuallashtirishga

5. To'g'ri javobni aniqlang. Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchi asosiy qurilmani aniqlang.

A) televizor

B) videomagnitofon

C) kinoproektor

D) kompyuter

6. Foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog'i tuguni bu ...?

A) Sayt

B) Elektron pochta

C) Portal

D) Internet

7. Elektron pedagogikaning joriy qilinishining asosiy sababi nimada?

A) Zamonaviy texnologiyalarning kundan-kunga rivojlanib borayotganida

B) Har bir fanning ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari bilan bir qatorda axborot texnologiyalarining tatbiq qilinishi muhim ahamiyatga ega ekanligida

C) O'quvchilar qiziqishlarining elektron texnologiyalarga qaratilganligida

D) O'qitish metodlarining yangilanib borayotganligida

8. Pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbayi nimada?

A) Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

B) Ommaviy axborot telekommunikatsiya vositalari

C) Pedagogik bilimlarning rivojlanganligida

D) Elektron kommunikatsiya vositalarining mavjudligida

9. Axborot-ta'lim muhit bu...

A) Pedagogik tizim, uning ta'minoti, ya'ni moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy, boshqaruv va marketing tizimi.

B) Barcha ta'lim tizimlarining zamonaviylashtirilishi

C) Pedagogik tizimda axborotning ustunligi

D) Ta'limning yuqori darajada rivojlangan ko'rinishi

10. Nazariy jihatdan butun axborot-ta'lim muhitining negizi nimadan iborat?

A) Pedagogik tizimdan

B) Axborot texnologiyalaridan

C) Kommunikatsiya vositalaridan

D) Pedagogik texnologiyalardan

11. Axborot-ta'lim muhit deb ataluvchi yangi tuzilmadagi pedagogik jarayonlarni tadqiq etuvchi pedagogika fanining yangi yo'naliishi qanday nom bian yuritiladi?

A) Axborot texnologiyalari

B) Elektron pedagogika

C) Ta'lim texnologiyalari

D) Elektron ta'lim

12. Elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan pedagogik talablarni ko'rsating.

A) Amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi

B) Foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi

C) Ta'lim beruvchiga darsni mustaqil o'rganishga sharoit yaratishi

D) O'rganiladigan o'quv materiali sistemali, mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi

13. Elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan didaktik talablar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalar, test o'tkaziladigan manbalar bo'lishi

B) Do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

- C) ilmiylik, tushunarлilik, qat'iy va tizimli bayon etilishi
- D) Izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish

14. Elektron ta'lif resurslariga qo'yiladigan psixologik talablar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) O'quvchilarning xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish

B) Ilmiylik, tushunarлilik, qat'iy va tizimli bayon etilishi

C) Tartiblilik va ifodalilik, bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi

D) Pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish

15. O'qituvchida axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyatining shakllanishi va rivojlantirilishini taqozo qiluvchi sabablar?

A) O'quv muassasalarining yuqori darajadagi telekommunikatsion vositalar, internet texnologiyasi, rivojlangan axborot tizimiga ega bo'lishi

B) Elektron o'quv materiallar, elektron darsliklar yaratish va ularni yetkazish imkoniyatining kengayishi

C) Elektron darsliklar yaratish, islohotlarning hayotga tatbiq etilishi

D) Darsda noan'anaviy metodlardan foydalanish

16. Audio matnlarni yaratish uchun o'qituvchi kompyuter dasturlarining qaysilari bilan tanish bo'lishi kerak?

A) Windows Media Player

B) Vinamp

C) Camtasia Studio

D) Adobe Captivate

17. Qaysi dastur ovozni yozish, fayllarni asosiy ovoz formatlariga o'tkazishni amalg'a oshiradi?

A) Macromedia Flash

B) 3D Studio Max

C) Macromedia Dreamweaver

D) Sound Forge

18. Turli grafiklarni va chizmalarni yaratish, tahrirlash uchun samarali dasturlar qanday ataladi? To'g'ri javobni bo'sh o'ringa kiriting.

To'g'ri javob:

19. Multimediali dars uchun ssenariy yozish qoidalari buzilgan holatni aniqlang.

- A) Times New Roman shriftida, 14 hajm kattalikda,
- B) 1,5 intervalda yoziladi. Abzas – xatboshi 1,25.
- C) Qog'oz hajmi A4 (210 x 297 mm), tepadan, pastdan 2 sm.
- D) Chapdan 3 sm., o'ngdan 1 sm. doirasida yoziladi.

20. Elektron jadvallar imkoniyatlari xato keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) Jadvalga matn, raqam va formula kabi ma'lumotlar kiritadi
- B) Raqamlar ustida hisob-kitoblar bajaradi
- C) Diagrammalar yaratish imkonini beradi
- D) Matn kiritib, tasvirlar yaratadi

21. PowerPoint dasturi yaratuvchisini aniqlang.

- A) Bob Gaskins
- B) Dennis Austin
- C) Richard Brodie
- D) Richard Gaskins

22. Qaysi yilda PowerPoint 1.0 mahsuloti oq-qora rangda foydalanila boshlangan?

- A) 1984-yildan
- B) 1987-yildan
- C) 1990-yildan
- D) 1983-yildan

23. CALL va unga muqobil loyihalarda ikkita muhim narsaga e'tibor qaratiladi:

- A) Interaktiv o'qitish
- B) O'qitishni individuallashtirish
- C) O'qitishni jamoaviy tashkil etish
- D) O'qish jarayonini tezlashtiradi

24. Ta'limda axborot texnologiyasidan foydalanishda boshqaruvchi rolini kim yoki nima bajaradi?

- A) O'quvchi
- B) O'qituvchi
- C) Kompyuter
- D) Taqdimot dasturlari

25. Edmodo onlayn o'qitish tizimining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

- A) Ta'limni rivojlantirishdan iborat

- B) Teskari aloqani ta'minlashdan iborat
- C) Kompyuter bilan o'quvchi yaqinligini ta'minlashdan
- D) Chet tillarini o'rghanishni yengillashtirish

26. O'qituvchi, maktab o'quvchilari va ota-onalarning oddiy va xavfsiz muloqot, hamkorlik vositasi sifatida tanilayotgan onlayn o'qitish tizimi...

(Edmodo veb-plataforma, Edmodo)

Power Point prezentsatsion qanday dasturlar qatoriga kiradi.

- A) Grafikli
- B) Matnli
- C) Videoli
- D) Ovozli

27. PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita- bu... To'g'ri javobni bo'sh o'ringa kirititing.

To'g'ri javob:

28. Elektron axborot ta'lini resurslarining eng asosiy qismi- bu...

- A) Kitob
- B) Savol-javob
- C) Katalog
- D) Glossariy

29. "Til ta'limida audiovizual vositalar" metodik qo'llanmasining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) X.Muhiddinova
- B) P.Bikova
- C) Tuxtamirzaev
- D) Bob Gaskins

30. Elektron shaklga o'tkazilgan resurslar hajmidan kelib chiqqan holda qancha Mb dan oshmasligi maqsadga muvofiq?

- A) 60 Mb
- B) 62 Mb
- C) 63 Mb
- D) 64 Mb

31. Kimning fikricha, kompyuterli o'qitishda har bir ta'lim oluvchi ma'lum bir vaqtida "virtual talaba" sharoitida bo'ladi?

- A) L. Legren
- B) S.Sudzuki

C) I.G. Zaxarova

D) Bob Gaskins

32. “Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror qachon qabul qilingan?

A) 2007-yil

B) 2005-yil

C) 2006-yil

D) 2002-yil

33. Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish markazi qanday nomlanadi? To‘g‘ri javobni bo‘sh o‘ringa kirititing.

To‘g‘ri javob:

34. “Har kimga ilmiy-texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi muddasida qayd etilgan?

A) 40

B) 43

C) 41

D) 42

35. “Kompyuterli mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarining asabi bузулишига ва ko‘rish qobiliyatining pasayishiga оlib keladi”. Ushbu filr kimga tegishli?

A) Sudzuki

B) L.Legren

C) I.G.Zaxarova

D) Bob Gaskins

36. Quyidagi adabiyotlarni muallifi bilan muvofiqlashtiring.

1) Yusupova Sh., G‘oziyeva O.; 2) Abduqodirov A., Xayitov A.;
3)Toxliyev B., Shamsiyeva M.

a) "Ona tilini o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi";

b) "Axborot texnologiyalariga oid atamalarning izohli lug‘ati";

c) "O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi"

To‘g‘ri javob:

37. Virtual borliq (Virtulnaya realnost) atamasini qaysi olim fanga kiritgan?

- A) N. A. Nasov
- B) V. V. Alekseev
- C) E. V. Matrosov
- D) Jaron Lanier

38. Test dasturlarining asoziy vazifasi nimadan iborat?

- A) Mavzu doirasida test topshiriqlarini berish
- B) Foydalanuvchining bilimini tekshirish, baholash
- C) Fikrlash doirasini kengaytirish, nazariy bilimlarni oshirish
- D) Foydalanuvchining bilimini tekshirish

39. Obyekt, jarayon yoki hədisə holati haqida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun foydalanadigan, ma'lumotlarni yig'ish majmuasining nomi?

- A) Axborot texnologiyasi
- B) Axborot kommunikatsiya
- C) Telekommunikatsiya
- D) Masofali ta'lim

40. "Texnologiya" so'zi qaysi tildan olingan?

- A) Grek
- B) Lotin
- C) Ingliz
- D) Rus

41. Foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog'i tuguni bu...

- A) Portal
- B) Tarmoq
- C) Axborot
- D) Sayt

42. Quyidagi fikr kimga tegishli? "Kompyuterli o'qitish bir tomonidan ta'lim oluvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomonidan esa bilimni mustahkam egallashni ta'minlay olmaydi."

- A) Sudzuki
- B) L. Legren
- C) T. Ziyodova

D) Bob Gaskins

43. Loyihalash texnologiyasini jahon pedagogikasiga kim olib kirgan?

A) J. Dyu

B) Levi Xabbard

C) Dovies Higgins

D) Bob Gaskins

44. 2003-yilda qanday qarorlar qabul qilingan?

A) Elektron raqamli imzo to‘g‘risida

B) Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida

C) Axborotlashtirish to‘g‘risida

D) Ta‘lim jarayonini axborotlashtirish haqida

45. Ziyonet ta‘lim tarmog‘i nechanchi yilda ishga tushirilgan?

A) 2005

B) 2006

C) 2001

D) 2003

46. Animatsiya nima?

A) Ekranda obyektlarning ko‘rinishini forinasi va o‘lchamlari hamda joylashishini multiplikatsion ko‘rinishda o‘zgarishi.

B) Kompyuterdan, videokameradan, DVD diskлarni tasvirlovchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranda yoritib berish.

C) Kompyuterdagи tasvirlarni proektor orqali namoyish etadigan sensorli ekran.

D) Sensor analogli-rezistiv texnologiya, Elektrmagnit texnologiya, Lazer texnologiyasi, Ultratovush/infraqizil texnologiya

47. Interaktiv doska - bu ...

A) Kompyuterdagи tasvirlarni proektor orqali namoyish etadigan sensorli ekrandir.

B) Kompyuterdan, videokameradan, DVD diskлarni tasvirlovchi qurilmalardan olgan axborotni katta ekranda yoritib berishga xizmat qiladi.

C) Ekranda obyektlarning ko‘rinishini forinasi va o‘lchamlari hamda joylashishini multiplikatsion ko‘rinishda o‘zgarishi

D) Sensor analogli-rezistiv texnologiya, Elektromagnit texnologiya, Lazer texnologiyasi, Ultratovush/infraqizil texnologiya

48. Multimedia-bu?

A) Informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio-video matn grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishi

B) Informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio-video matn grafika va animatsiya effektlari asosidagi o'quv materiallari

C) Audiovizuallik

D) Video

49. Slayd yaratish uchun foydalilaniladigan dastur qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. MS Power Point.

B. MS Word.

C. MS Excel.

D. MS Access.

50. Portfolio so'zining ma'nosini izohlang?

A. ingl. – portfel, zarur ishlar va hujjatlar uchun papka

B. frans. – bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq.

C. ital. – hujjatlar solingen papka.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Asosiy adabiyotlar:

1. Узбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Узбекистон, 1992. – 34 б.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 20 – 29 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor, ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T. O‘zbekiston. 2009.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017- yil 16 -yanvar.
6. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2013-yil 2-avgustdagи 278- sonii buyrug‘iga 1-ilova. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyotining yangi avlodini yaratish konsepsiysi. 4-5 b.
7. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamонавий ахборот тарногийлари. Fan dasturi (bakalavr yo‘nalishi uchun). – Toshkent, 2016.

II. Kirill yozuvidagi adabiyotlar

1. “Использование современных информационных технологий на уроках русского языка” <http://www.prodlenka.org>
2. Абдуқодиров А., Хайитов А. Ахборот тарногийлари оид атамаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: ТДПУ, 2002. – 27 б.
3. Агзамова Н.А. Замонавий дарсларнинг яратилиш тарихи // Мактаб ба хаёт. – Т.. 2008 – №2. – Б. 29-30.
4. Адилова С. Узбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (Олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): пср фан номз. ...дис. – Toshkent, 2004. – 160 б.

5. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Прикладная философия открытого образования: педагогический аспект. — М.: РИЦ «Алфа» МГОПУ им. М.А.Шолохова, 2002.
6. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. — Тошкент: Фан, 2007. — 144-б.
7. Бордовская Н.В., Реан, А.А. Педагогика. Учебник для вузов. - СПб: Издательство «Питер», 2000.
8. Быкова О.П. Учебные модули для работы с видеоматериалом. // Русский язык за рубежом, 2009, №2, С. 34.
9. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўкув услубий қўлланма. Инновацион таълим технологияси церияси. — Тошкент: “Иктисодиёт”, 2012.
10. Гребнева Е.В. Использование современных информационных технологий для реализации требований ФГОС НОО на современном уроке и во внеурочной деятельности.
11. Жўраев Р., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўкув фанларини интеграциялаш. — Тошкент: Шарқ, 2005
12. Закирова Ф. Методические аспекты создания и использования web-сайта преподавателя // “Педагогик таълим”. - Тошкент, 2010.- №2.- С. 79-86.
13. Зокирова Ф. ва б. Электрон ўкув мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. — Тошкент: ОЎМТВ, 2010. – 55 б.
14. Иудошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. -- Тошкент: “Ўқитувчи”, 2004.
15. Ишмухамедов Р., Абдуходиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиилар. — Тошкент, 2008
16. Ларин А.А. О концепции построения тестирующих программ.
17. Марчук Ю.Н. Применение ЭВМ в учебной лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексики. — М.: 1978.- 161-168 с.
18. Нёрсиков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. -М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана, 2002. -336 с.

19. Нуруллин Р.А. Виртуальность как условие существования реальности. Вестник СамГУ. 2005 №4 (38)
20. Особенности внедрения мультимедийных технологий в образовательный процесс Цхинвальского многопрофильного колледжа Козаева Гульнара Ролландовна, аспирант Северо-Осетинский государственный университет имени К. Л. Хетагурова (г. Владикавказ) Параастаева Дзерасса Графовна, методист Цхинвальский многопрофильный колледж (Республика Южная Осетия) «Молодой учёный». № 6 (86). Март, 2015 г. (625)
21. Разработка электронных учебных курсов в PowerPoint с помощью iSpring Suite. <http://www.iSpring.ru/>
22. Создание базовой презентации в PowerPoint 2007 [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://office.microsoft.com/ru-ru/powerpoint-help/HA010194282.aspx>
23. Стародубцева Е.А.Использование Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку (на материале английского языка) // Труды МЭЛИ: электронный журнал. —2009 —№ 9 [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>
24. Таълим жараёнда starboard интерактив доскадан фойдаланиш. –Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ 2010.
25. Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>
26. Юлдашева Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар саводхонлигини ўтиришнинг илмий – методик асослари (таълим қоракалпок тилида олиб бориладиган академик лицейлар мисолида). Пед. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2008. – 23 б.
27. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиши / ноанъянавий усуллар ва компьютердан фойдаланиши: пед фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1998. -25 б.
28. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўтиришнинг илмий-методик асослари

(академик лицейлар мисолида): пед. фан докт. ...дис. – Тошкент, 2005. – 277 б.

29. Ўзбек тилининг изохли луғати. I жилд. – М.: Русский язык, 1981. – В. 380.

30. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Т.: O'qituvchi, 2002. 29-б.

III. Lotin yozuvidagi adabiyotlar

1. “Ta’lim va tarbiya jarayonlarining qonunchilik normalari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Tuzuvchilar: y.f.n., dots. V.Topildiev, y.f.d., prof. Sh.Fayziev, O.Narzullaev. – Toshkent, 2015.

2. “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanidan o‘quv-uslubiy kompleks. – Toshkent, 2012-2013. 81.

3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Т.: Fan, 2009.

4. Adilova Sh., Yuidasheva Sh. Til ta’limida integrativ yondashuv. // O‘zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o‘qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. – B. 88-90.

5. Aripov M., Begalov B. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2009.

6. A. Okal A. Global Simulation. The University of Arizona. – Tucson, CERCLL 2012. – 87 p.

7. Bekjanova M. O‘zbek tilini o‘qitishda elektron axborot-ta’lim vositalarining o‘rni. //O‘zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o‘qitish texnologiyalari (respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. 33-37 b.

8. D. L. Fried-Booth "Project Work" (OUP, 1986)

9. Do‘stimurodova O. Matn tuzish topshiriqlari ona tili ta’limining texnologik etalonini sifatida. //Xalq ta’limi, 2005. 3сон, 73.

10. Jo‘rayev R., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash – Toshkent: Sharq, 2005

11. Jim Burke. The English Teacher’s Companion. – Heinemann; 4th edition. 2012. – 392 p.

12. Karimboyeva Sh. Yordamchi so‘z turkumlarini o‘rgatish usullari. Bitiruv malakaviy ishi, Nukus, 2016.

13. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
14. Microsoft Word // Википедия. [Электронный ресурс]. — Режим доступа:
15. Muxitdinova X.Til ta’limiga videomateriallar qanday uyg‘unlashadi? // Til va adabiyot ta’limi. – 2015. 8-son. – 15-16-b.
16. Najmiddinova M. Ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati // Talim texnologiyalari.- Toshkent: 2006. -№ 1. – B. 18-21.
17. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 224 b.
18. Ona tili: Ummumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov. – T.: Tasvir, 2013. – 128 b.
19. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.
20. Qambarova S. Adabiyot fanini o‘qitishda virtual laboratoriya tashkil etish masalalari // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Respublika ilmiy -nazariy anjuman materiallari). –Toshkent, ToshDO‘TAU, 2016. –B.147-152.
21. Rasulov O.Y. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlarni elektron darsliklar vositasida o‘qitish. Ziyonet. uz
22. To‘xliyev B., Inog‘omova R., Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – T.: 2008. – 10 b.
23. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
24. Usmonova Z. Adabiyot o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. // Til va adabiyot ta’limi. -2005. 3-son. – B.20-22.
25. Yuldasheva Sh., Zaripov O., Bekjanova M., Smaylova D., Gulmanova Q., Yangiboeva G., Urazboeva D. 5-sinf uchun “Ona tili” fanidan elektron o‘quv-metodik majmua. – Nukus, 2016. Guvohnoma: DGU 04136.
26. Yuldashev U., Boqiyev R., Zokirova F. Informatika va axborot texnologiyalari. Elektron o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004.

27. Vendors of Learning Management and E-learning Products, By Don McIntosh, Ph.D.(2013). For Trimeritus eLearning Solutions, Inc. <http://www.trimeritus.com>, Updated Nov. 20, 2013
28. Ziyedova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 113-114- b.
29. O'rayeva D. O'zbek tilshunosligida undoshlar tansifini matematik usulda o'rghanish. // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2013. - № 1. - B.14-15.
30. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.-B. 38.
31. G'ulomov S., Alimov R. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
32. Mavliyanov A., Abdalova S., Allamberanova M. O'qitish usullari va texnologiyalari: yuksak sifat va samaradorlik omili. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2014. 22-bet.
33. Sobirov A.Sh. Adabiyot mashg'ulotlarida mahalliy adabiy va madaniy materiallardan foydalanish: Ped.f.n. ... diss.av-ti. – T., 1995. – 23 b.
34. Xamroliyev K.U. Adabiyot o'qitish jarayonida adabiy o'lakashunoslik materiallardan foydalanish. Nomzodlik dis... avtoreferati. – T., 1993. – 22 b.
35. Usmonov J. Adabiyot muzeyi va dars. -- T.: O'qituvchi, 1987. – 88 b.
36. Xalilov F. Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rghanishda tasviriy san'at asarlaridan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi, 1998, 2-son. 28-34-betlar.
37. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, V. Rahmonov. – T: O'zMU nashriyoti. 2002.
38. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.

IV. Internet materiallari

1. <http://cyberleninka.ru/article/n/aktualnaya-metodika-interaktivnogo-o-bucheniya-russkomu-yazyku>
2. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/16018>
3. <http://lingust.ru>
4. <http://multimedia.uz>

5. <http://nsportal.ru>
6. <http://onlinetestpad.com/ru/tests/russian/interactive-dictations>
7. http://ru.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Word
8. <http://www.delight2000.com>
9. http://www.detkiuch.ru/lead/fajly/uろки_russkogo_jazyka
10. <http://www.gramota.ru/class/coach/idiction/>
11. <http://www.ispringsolutions.com>
12. <http://www.multimedia.uz>
13. <http://WWW.ziyonet.uz>
14. <https://cdmodo-guide>
15. <https://intolimp.org> va <https://videouroki.net>
16. <https://moodle.org>
17. <https://www.google.com>
18. www.Yestudy.uz
19. www.ziyonet.uz
20. YouTube.com

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-Modul. Ta’limda axborot texnologiyalarining o’rni	8
2-Modul. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo’yiladigan talablar.....	19
3-Modul. O’zbek tili va adabiyoti ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	36
4-Modul. Jahon miqyosida til ta’limida qo’llanadigan ta’limiy resurslar.....	55
5-Modul. Taqdimot texnologiyasi va uni o’zbek tili darslarida qo’llash metodikasi	71
6-Modul. O’zbek tili multimedia darsliklari	82
7-Modul. O’zbek tili va adabiyoti ta’limida internetdan foydalanish	93
8-Modul. Til va adabiyot ta’limida virtual imkoniyatlardan foydalanish	103
9-Modul. O’zbek tilini masofadan o’qitish masalalari	116
10-Modul. Kompyuter vositasida nazorat ishlarini tashkil qilish metodikasi.....	128
11-Modul. Til ta’limida integrativ yondashuvni ta’minlashda aktning o’rni	138
12-Modul. Adabiyot nazariyasiga oid mavzularni o’tishda slaydlardan foydalanish	150
13-Modul. Shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini o’rganishda maxsus saytlarning imkoniyatlari	159
14- Modul. Adabiyot ta’limida virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish usullari	171
15-Modul. Folklorga oid dars mashg’ulotlarida audio-vizual multimedia vositalarini yaratish usullari	183
16-Modul. Mumtoz adabiyot namunalarini o’rganishda elektron jadvallar va gipermatn bilan ishiash ko’nikmasini shakllantirish.....	196

17-Modul. Jadidchilik va yangi davr adabiyotiga oid ma'lumotlarni interaktiv sinf doskasi yordamida o'rganish.....	205
18-Modul. Istiqlol davri adabiyotiga bag'ishlangan videokonferensiya.....	215
19-Modul. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni.....	226
“O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” kursi bo'yicha glossariy.....	239
“O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” kursi bo'yicha test savollari.....	244
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	254

Qaydlar uchun

**S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva,
Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
TA’LIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI**

“Excellent Polygraphy” nashriyoti

Muharrir: A.Abdujalilov

Musahhih: N.Ablayev

Sahifalovchi: V.Sanoyev


Dizayner: D.O‘rinova



2020-yil 25-oktabrda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Times New Roman» garniturasi.
Bosma tabog‘i 16,5. Adadi 100 dona. Buyurtma № 8/06.

«Excellent Polygraphy» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100190, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani,
Jangox ko‘chasi 12 uy,13 xonadon.

978-9943-993-62-4



9 789943 993624